**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

SamISI o‘quv uslubiy
kengashida muhokama etilgan
O‘UK raisi __________ A.Bektemirov
Bayonnoma № 1.05.08.2013

# “PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA”

FANIDAN

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Samarqand – 2013**

**O.J.Suyunov.** “Pedagogika. Psixologiya” fanidan o‘quv-uslubiy majmua.− Samarqand, SamISI − 2013. - ___ bet

**Tuzuvchi:** “Kasb-hunar ta’limi” kafedrasi dotsenti, p.f.n. **Suyunov O.J.**

**Taqrizchi:** p.f.n., dotsent **S. O‘tanazarov** (SamDU)

Mazkur majmuada “Pedagogika. Psixologiya” fanidan o‘quv dasturi, ishchi o‘quv dasturi, ta’lim texnologiyasi, amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlar, nazorat turlari uchun tayyorlangan variantlar, test savollari, fandan umumiy nazorat savollari va izohli lug‘atlar hamda reyting tizimi asosida talabalar bilimini baholash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar jamlangan.

O‘quv-uslubiy majmuni tayyorlashda kat.o‘qit. D.Norboevaning ma’ruza matnlaridan, TDIU dotsenti M.Xakimovaning “…ta’lim texnologiyasi”dan foydalanildi.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari uchun tavsiya etiladi. SHuningdek, mazkur majmuadan ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar hamda “Pedagogika.Psixologiya” faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari uchun tavsiya etiladi. SHuningdek, mazkur majmuadan ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar hamda “Ta’lim texnologiyalari” faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

O‘quv – uslubiy majmuada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta’limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutahassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ 1533-sonli qarori 2-ilovasi 7-bandida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar hamda oliy va o‘rta mahsus ta’lim vazirligining 2011 yil 15 oktyabrdagi №87-01/1-166 modemogrammasida belgilab berilgan o‘quv-uslubiy majmualar namunaviy tarkibi va Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti metodikasi asosida ishlab chiqilgan.

O‘quv-uslubiy majmua Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ilmiy Kengashida muhokama etilgan va o‘quv jarayoniga tatbiq etish hamda nashr uchun tavsiya etilgan. Bayonnoma № 1 05.08.2013 yil

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA MUNDARIJASI


| | | |
|---|---|---|
| 1 | O‘quv dasturi | |
| 2 | Ishchi dasturi | |
| 3 | Ta’lim texnologiyasi | |
| 4 | Test savollari | |
| 5 | Nazorat uchun savollar (JN, ON, YAN) | |
| 6 | Umumiy savollar | |
| 7 | Tarqatma materiallar | |
| 8 | Glossariy | |
| 9 | Referat mavzulari | |
| 10 | Adabiyotlar ro‘yxati | |
| 11 | Xorijiy manbalar | |
| 12 | Mualliflar haqida ma’lumot | |
| 13 | Foydali maslahatlar | |
| 14 | Normativ hujjatlar | |
| 15 | Baholash mezonlari | |

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

# PEDAGOGIKA fanidan namunaviy DASTUR

(bakalavr yo‘nalishlari uchun)

Toshkent – 2011

Mazkur namunaviy dastur Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3-son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma’qullangan.

Ushbu dastur “Pedagogika” fanidan bakalavrning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar asosida tayyorlangan.

Tajribaviy dasturni kelgusida to‘ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruratini hisobga olib, fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so‘raymiz:

**Toshkent shahar, 2-CHimboy ko‘chasi 96-uy, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “Ma’naviy-axloqiy tarbiya” boshqarmasi, tel: 246-10-58, 246-10-54.**

Fanning o‘quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Avazov SH. - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (OO‘MTV) YUzlikaeva E.R. - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (TDPU) Toxtaxodjaeva M. - pedagogika fanlari doktori, professor (TDPU)

**Taqrizchilar:**

Seytxalilov E.A. - pedagogika fanlari doktori, professor (OO‘MKHTRM)
HasanboevJ. - pedagogika fanlari doktori, professor (TDPU)

Fannning o‘quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan (2011 yil 25 avgustdagi 1-son bayonnoma).

## Kirish

Mazkur dastur bo‘lg‘usi kasbiy faoliyati pedagogik madaniyat va layoqatni taqozo qiladigan talabalar uchun ishlab chiqilgan. Pedagogik bilimlar talabalarda o‘quv va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash hamda amalga oshirish omili sifatida insonning shaxsiy xususiyatlari haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirishga, o‘qish, aqliy mehnat madaniyati va mustaqil o‘qib bilim orttirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi hamda inson va jamiyatning pedagogik tabiatini bilishga tayangan holda samarali qarorlar qabul qilishga imkon tug‘diradi.

Ushbu dastur pedagogikaning ob’ekti, predmeti, vazifalari va metodlari; pedagogikaning asosiy kategoriyalari: ma’rifat, ta’lim (o‘qitish, o‘qish, o‘zlashtirish), tarbiya, shaxs kamoloti va madaniyati, pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, pedagogik texnologiya; ma’rifat - umuminsoniy qadriyat, ijtimoiy-madaniy hodisa va pedagogik jarayon sifatida; O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi; uzluksiz ta’limning maqsadi, mazmuni va tuzilishi; ta’lim va mustaqil o‘qib bilim orttirishning birligi; pedagogik jarayon; ta’limning ma’rifiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchi vazifalari; pedagogik jarayondagi tarbiya; o‘quv faoliyatni tashkil etishning umumiy shakllari: dars, ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, bahs-munozara, konferensiya, sinov, imtihon, fakultativ mashg‘ulot, maslahat; pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish metodlari, usullari va vositalari; oila - pedagogik hamkorlik hamda shaxs tarbiyasi va kamolotining ijtimoiy-madaniy muhiti sub’ekti sifatida; ma’rifiy tizimlarni boshqarish kabi masalalarni qamrab oladi.

## O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

**Fanni o‘qitishdan maqsad** - talabalarning umumiy va pedagogik madaniyatini oshirish, inson faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishlik omili sifatida pedagogik o‘ziga xos xususiyatlar haqidagi tasavvurlarni yaxlit shakllantirish, mustaqil fikrlash va shaxsiy hatti-harakatlari oqibatlarini oldindan sezish, mustaqil o‘qish va o‘z imkoniyatlarini aynan baholash, maqsadga erishish va hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishning maqbul yo‘llarini mustaqil topish bo‘yicha pedagogik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – pedagogika fani taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari bilan tanishish; ma’rifiy (ta’lim, tarbiya, shaxs kamoloti va madaniyatini tavsiflovchi) tushunchalar majmuini o‘zlashtirish; o‘qishga va kasbga oid muammoli vaziyatlarni tahlil qilish; zamonaviy ta’lim jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish, uning borishi va natijalarini tashxis qilishning nazariy asoslarini o‘zlashtirish; ta’lim oluvchilar, ishlab chiqarish xodimlari bilan tarbiyaviy ishlar metodlarini egallash; o‘quv mashg‘ulotlarining asosiy turlarini o‘tkazish va ularga tayyorgarlik ko‘rish ko‘nikmalarini shakllantirish; kasbiy tafakkur, texnik ijodiyotni rivojlantirish metodlari bilan tanishish.

## Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“Pedagogika” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- pedagogikaning ob’ekti, predmeti va metodlari, uning fanlar tizimida tutgan o‘rni va asosiy tarmoqlari; shaxsni shakllantirishda, insonning xulq-atvori, muloqoti va faoliyatida ta’lim va tarbiyaning tutgan o‘rni haqida **tasavvurga ega bo‘lishi**;

- pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalarini; ta’lim va tarbiyada irsiyat va ijtimoiy muhitning o‘zaro munosabatini, milliy va madaniy-tarixiy omillarning tutgan o‘rni va ahamiyatini; pedagogik faoliyatning asosiy qonuniyatlari, prinsiplari, shakllari, vositalari va metodlarini; ma’rifiy jarayonlarda va ijtimoiy muhitda ta’lim, tarbiya va shaxs kamolotining ob’ektiv aloqalarini **bilishi;**

-pedagogika fanining asosiy tushuncha va terminlarini; psixologik-pedagogik tahlil qilish va loyihalash usullarini; ma’rifat (ta’lim, tarbiya, shaxs kamoloti va madaniyati), ma’rifiy jarayonlar va ularning mohiyati haqidagi bilimlar tizimini; zamonaviy ta’lim texnologiyalarini; o‘qish va bilishga oid faoliyatni tashkil qilish yo‘llarini; ta’lim va tarbiya sifatini nazorat qilish shakllari va metodlarini **egallashi**;

-kasbiy o‘zaro aloqadorlik va hamkorlikdagi faoliyat samaradorligini oshirish uchun psixologik-pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari va shakllarini qo‘llash; pedagogik prinsiplarni hisobga olib, turli shakldagi o‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish; pedagogik vazifalarni aniqlash va echish, o‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarni tahlil qilish bo‘yicha oddiy malakalarni egallash; yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni o‘tkazish; egallangan bilimlarni jamoada ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun qo‘llash va ulardan o‘z amaliy faoliyatini tahlil qilishda foydalanish **ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi** kerak.

## Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Pedagogika» fani bakalavriat yo‘nalishlarining o‘quv rejalaridagi fanlar tizimida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. U inson va jamiyatni o‘rganadigan barcha fanlar, xususan, biologiya, ekologiya kabi tabiiy fanlar hamda falsafa, tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, huquqshunoslik kabi bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilib, mazkur fanlardan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etaladi.

Ushbu o‘quv fani bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda biogenetik qonunlar, psixologik nazariyalar, falsafiy qarashlar, tarixiy jarayonlar va zamonaviy ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar e’tiborga olinishi lozim.

## Fanning ta’limdagi va ishlab chiqarishdagi o‘rni

“Pedagogika” bakalavriat o‘quv rejalarining “Gumanitar va ijtimoiy- iqtisodiy fanlar” blokidagi integrativ o‘quv fani bo‘lib, inson va jamiyatning ilmiy-amaliy muammolarini ma’rifiy-metodik echishda fanlararo va alohida fanlar kesimida o‘z amaliy tavsiyalari, uslubiy vositalari bilan ishtirok etadi.

Mazkur o‘quv fani bakalavrlarda bo‘lg‘usi mehnat jamoalaridagi ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘ladigan xizmatga oid munosabatlarni metodik jihatdan to‘g‘ri o‘rnatish, jamoa a’zolarining birgalikdagi amaliy faoliyatini maqbul tashkil etish, ta’lim, tarbiya va mustaqil o‘qib bilim orttirish borasidagi ilg‘or tajribalardan ijodiy foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. SHuningdek, korxonalar, tashkilotlar va

muassasalarning rahbarlari jamoadagi psixologik muhitni, o‘z xodimlarining xulq-atvorini va ularga pedagogik ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini hisobga olmasdan boshqaruvning tashkiliy masalalarini muvaffaqiyatli echa olmaydi. Pedagogikaning nazariy va amaliy masalalarini o‘zlashtirish nafaqat rahbarlar nufuzini oshiradi, balki mehnat jamoalaridagi amaliy vazifalarni samarali hal etishga imkon beradi. Demak, “Pedagogika” o‘quv fanini o‘rganish bo‘lg‘usi bakalavrlarni nafaqat ishlab chiqarishdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashni, balki ularni shaxs sifatida har tomonlama kamol toptirishni, shuningdek oilasi, mehnat jamoasi va jamiyatdagi burchi va vazifalarini samarali ado etishni ta’minlaydi.

**Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

“Pedagogika” o‘quv fanini o‘rganish va uning mazmunini o‘zlashtirish uchun ta’limning ilg‘or va samarali usullarini qo‘llash, yangi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Fanning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirishda ta’limning zamonaviy texnik vositalari, darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma va elektron materiallardan keng foydalaniladi. Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarining mavzulari va mazmuniga muvofiq bo‘lgan pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi.

## Asosiy qism

### Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

### Pedagogikani o‘rganish zaruriyati

Inson bilimlarining ko‘pqirraligi va turlari. Insoniyat jamiyati tarixida bilishning taraqqiy etishi. Bilimlar - umumiy ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi sifatida.

Olam va dunyoqarash. Dunyoqarashning tarkibiy qismlari, shakllari va turlari va ijtimoiy-tarixiy tiplari. Dunyoning turlicha manzaralari.

Inson hayotiy faoliyatida bilim va diniy e’tiqodning o‘zaro munosabati. Turli falsafiy konsepsiyalarda bilim va diniy e’tiqod o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muammosi.

Ob’ektiv va sub’ektiv borliqni ilmiy bilish. Bilimlarning empirik va nazariy darajalari.

Ijtimoiy-gumanitar bilimlarning manbalari va ular bilan ishlash usullari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy bilishning xususiyatlari. Insonni o‘rganishda tabiiy-ilmiy va gumanitar yondashuvlarning o‘zaro munosabati muammolari.

Pedagogik layoqat – mutaxassisni shaxsiy va kasbiy yuksaltirish sharti ekanligi. Pedagogika (ma’rifat) - kasbiy etuklikka etaklash omili sifatida. Insonning kasbiy kamoloti muammolariga akmeologik yondashuv.Mutaxassisning pedagogik fazilatlari.

### Ma’rifiy qadriyatlar va maqsadlar

Inson hayotining mohiyati va ma’rifiy qadriyatlar. Insoniylik mohiyati. Jamiyatning tayanch qadriyatlari va ma’rifiy (ta’limiy, tarbiyaviy va madaniy) qadriyatlar haqidagi tasavvurlar. O‘zbek pedagogikasida ma’rifiy qadriyatlar.

Ma’rifat – shaxs va jamiyat taraqqiyotining umumiy shakli. Ma’rifat va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi. Ma’rifiy tizim va uning asosiy tarkibiy qismlari (ta’lim, tarbiya, shaxs kamoloti). Zamonaviy ma’rifatning rivojlanish yo‘nalishlari.

Ma’rifat – ta’lim, tarbiya va shaxs kamolotining birligi sifatida.

Ta’lim, tarbiya va shaxs kamoloti jarayonlarining o‘zaro munosabati. “Ma’rifat” tushunchasining manbalari. Ma’rifat (ta’lim, tarbiya, shaxs kamoloti) jarayon va natija sifatida.

**Ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi**

Ma’rifiy (pedagogik) fikrlar va ularning tarixiyligi haqida tushuncha. Jahon ma’rifiy fikrlarining tarixiy-pedagogik tahlili (Qadimgi YUnoniston, Rim, G‘arbiy Evropa, YA. A. Komenskiy, I. G.Pestalotssi, K.D.Ushinskiy).

O‘zbekiston hududida eng qadimgi davrdan XIV asrgacha ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti (xalq og‘zaki ijodi, qadimgi yozma yodgorliklar, zardushtiylik, islom dini, hadis ilmi, SHarq uyg‘onish davri va ma’rifiy qarashlari: Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, YUsuf xos Hojib).

XIV-XVI asrlarda maktab va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti (Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy).

XVII-XX asr boshlarida maktab va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti (Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklaridagi ma’rifiy fikrlar va muassasalar, Turkistonda rus-tuzem maktablari va jadidchilik harakati: Maxmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, Saidaxmad Siddiqiy, Abduqodir SHakuriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat).

O‘zbekistonda 1917-1990 yillarda (ikkinchi jahon urushiga bo‘lgan va urushdan keyingi davrda) maorif va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya (AQSH, YAponiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Germaniya).

**Zamonaviy ta’lim-tarbiya va uning mohiyati**

Pedagogikaning ob’ekti, predmeti va tuzilishi. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari. Pedagogikaning metodlari. Pedagogikaning tarmoqlari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.

Pedagogik tizimlarning (texnologiyalarning) ilmiy-metodologik asoslari. Pedagogik tizimlar tushunchasi, uning manbalari va asosiy tarkibiy qismlari. Turli xil pedagogik tizim va texnologiyalarning falsafiy asoslanishi. Pedagogik texnologiyalarning turlari va ularni tasniflash asoslari. SHaxsga yo‘naltirilgan asosiy texnologiyalar va ularning tavsifi.

Asosiy ta’limiy konsepsiyalar va yondashuvlar. Ta’lim nazariyalari va ularning turlari. Aqliy hatti-harakatlar va tushunchalarni bosqichma- bosqich shakllantirish nazariyasi. Muammoli ta’lim nazariyasi. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. Dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasi. Matnga asoslangan ta’lim nazariyasi. Bilishning bixevioristik nazariyasi. O‘zlashtirishning geshtalt nazariyasi. Ta’limning suggestopedik konsepsiyasi. Neyrolingvistik dasturlash asosidagi ta’lim nazariyasi.

Falsafiy antropologiya pedagogik tadqiqotlarning metodologik asosi sifatida. Falsafiy antropologiyaning mohiyati va uning ma’rifat uchun ahamiyati. Pedagogik antropologiya va uning asosiy qoidalari.

## Pedagogik texnologiyalar

“Pedagogik texnologiya”, “metodika”, “metodlar”, “shakllar” va “vositalar” tushunchalari. Pedagogik texnologiyalarning mezonlari.

Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi. “Pedagogik texnologiya”ning mohiyati va unga qo‘yilgan talablar. Metodika va texnologiya. Ta’lim metodlari va ularning tasnifi. Ta’lim usullari va vositalari. Ta’lim shakllari. Pedagogik muloqotning asosiy shakllari. Ta’lim tizimlari.

Pedagogik texnologiyalarni turlarga ajratish muammolari. Pedagogik texnologiya tushunchasi. Zamonaviy texnologik modellar bilan shartlangan ta’lim tuzilishining metodologik prinsiplari.

Muammoli va muloqotli texnologiyalar. Muammoli ta’lim texnologiyalarining mohiyati. Muammoli ta’limning psixologik-pedagogik maqsadlari va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari. Muammoli ta’limning asosiy shakllari. Muloqotli ta’lim texnologiyalarining mohiyati.

Modellashtirish va o‘yinli texnologiyalar. Texnik va texnologik vaziyatlarni tahlil qilish va modellashtirish. O‘yinli texnologiyalarning mohiyati. Pedagogik texnologiyalarda qo‘llaniladigan o‘yinlarning turli- tumanligi.

## Pedagogik muloqot

Muloqot - pedagogik hamkorlik vositasi sifatida. Muloqotning mohiyati va tuzilishi. Muloqot vositalari va turlari.

SHaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi muloqotining o‘ziga xos tabiati. Pedagogik o‘zaro munosabatlar mohiyati.

Pedagogik muloqot uslubi va uning tuzilishi. Pedagogik muloqot uslublarining tasnifi va xususiyatlari.

Pedagogik nizolar, ularni bartaraf etish usullari. Pedagogik jarayondagi nizolarning mohiyati va ularning kechish davrlari. Pedagogik jarayondagi nizolarning turlari va ularni bartaraf etish yo‘llari

Zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar. Pedagogik faoliyat funksiyalari va ularga muvofiq pedagog shaxsiga qo‘yilgan talablar. Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi. Pedagog fazilatlarining ijtimoiy va kasbiy shartlanganligi. Pedagogik faoliyatdagi ijodiyot va innovatsiya.

## O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari

Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari. O‘quv-tarbiyaviy vaziyat tushunchasi. O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarning turlari va ularni tashkil qilish shakllari. O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarning vujudga kelish va namoyon bo‘lish shakllari. Muvaffaqiyat vaziyatlarini modellashtirish. O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlar tahlilining mazmuni.

Oila pedagogik o‘zaro munosabatlar hamda shaxs tarbiyasi va kamolotining sub’ekti sifatida. Oila - shaxs tarbiyasi va kamolotining ijtimoiy-madaniy muhiti. Oilaviy hayot sohasi tarbiya muhiti sifatida. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.

O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishning psixologik- pedagogik asoslari. Pedagogikada o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirish muammolari. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalashiga imkon beradigan omillar. O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari.

## O‘quv faoliyatni tashkil qilish shakllari

Ta’lim mazmuni (didaktika) haqida tushuncha. Ta’lim jarayoni: o‘qitish va o‘qish. Ma’rifiy jarayonlar sub’ektlarining muloqot shakli sifatida ta’lim jarayonining mohiyati. Ta’lim shakllari, ularning xususiyatlari, belgilari va funksiyalari. O‘qish ko‘nikmasi.

Matnlar bilan ishlash asoslari. Matnning tuzilishi va uning tahlili. Ta’lim oluvchilar yozma ishlarining turlari. O‘quvchilar faolligiga aqliy yuklamalarning ta’siri.Kompyuterdan foydalanib, aqliy mehnatni tashkil etish xususiyatlari.

## Pedagogik nazorat va ta’lim sifatini baholash

Ta’lim sifati tushunchasi. Sifat tushunchasining turlicha talqini. Ta’lim sifatini turlicha tushunish. Ta’lim sifati ma’rifiy (ta’limiy, tarbiyaviy) faoliyatni baholash va nazorat qilish muammosi sifatida.

Ta’lim mazmunini o‘zlashtirish va ma’rifiy (ta’limiy, tarbiyaviy) jarayonlar natijalarini baholashni pedagogik nazorat qilish xususiyatlari. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish ta’lim sifatini baholashning asosiy unsuri sifatida. Pedagogik nazorat va o‘quvchilar o‘zlashtirishini baholash xususiyatlari.

O‘quv bahosi va belgidagi farqlar. Baho, belgi va ball o‘rtasidagi farqlar. Baholash, uning funksiyalari va turlari. Noxolis pedagogik baholash sabablari.

Ta’lim sifatini nazorat qilishning mazmuni, shakllari, metodlari va turlari (joriy, oraliq, yakuniy). O‘zlashtirishni nazorat qilish prinsiplari. O‘zlashtirishni tekshirish bosqichlari. Pedagogik jarayonda bilimlarni nazorat qilish funksiyalari va shakllari. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish metodlari.

Nazorat tadbirlarini o‘tkazish muammolari va uning psixologik- pedagogik xususiyatlari. Taqdirlash va jazolash rag‘batlantirish metodi sifatida. Pedagogik baholash rag‘batlantirish omili sifatida. Pedagogik baholash samaradorligi.

O‘quvchilar o‘zlashtirishi va bilim sifatini baholashning reyting tizimi. Bilimlarni baholashdagi reyting tizimining xususiyatlari. Bilimlarni baholashdagi reyting tizimining asosiy prinsiplari.

Pedagogik testlar. Bilimlarni test usulida baholashning afzalliklari va kamchiliklari. Test sinovlarini o‘tkazish bilimlarni nazorat qilish shakllaridan biri sifatida. Bilimlarni test usulida nazorat qilish turlari.

## Ma’rifiy tizimlarni boshqarish

Ma’rifiy tizimlarini boshqarish haqida tushuncha.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim tizimi taraqqiyotining tarixiy tahlili.

O‘zbekiston Respublikasining“Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlarida ta’lim tizimini boshqarish masalalari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari. Ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari.

Ta’lim muassasalarini boshqarish masalalari. Ta’lim turlari bo‘yicha ta’lim muassasalarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ta’lim muassasalari attestatsiyasi va akkreditatsiyasi.

O‘zbekistonda ta’lim taraqqiyoti muammolari va istiqbollari.

**Seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

"Pedagogika" o‘quv fanidan seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish uchun professor-o‘qituvchilar tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalarlar ishlab chiqiladi. Seminar mashg‘ulotlarida talabalar ma’ruza mashg‘ulotlari jarayonida o‘zlashtirgan nazariy bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. SHuningdek seminar mashg‘ulotlarida mantlar bilan ishlash asosida talabalar bilimlarini mustahkamlash, talabalarning qiziqishlariga ko‘ra ayrim mavzular bo‘yicha ilmiy maqolalar va tezislar chop etish, o‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish, o‘quv faoliyatni tashkil qilish, pedagogik nazorat va ta’lim sifatini baholashga oid masalalar echish, ayrim mavzular bo‘yicha ko‘rsatmali vositalar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Seminar mashg‘ulotlari kichik guruhlarda ishlash, mustaqil fikrni bayon etish va guruhlar taqdimoti shaklida o‘tkazilsa yuqori samara beradi.

Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha tavsiya etiladigan taxminiy mavzular va ularning mazmuni:

**1. Pedagogika nima uchun o‘rganiladi?**

Bilimlar, ular ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi ekanligi.
Dunyoqarash, uning tarkibiy qismlari, shakllari va turlari. Bilim va diniy e’tiqod.Ijtimoiy-gumanitar bilimlar. Insonni o‘rganishda tabiiy-ilmiy va gumanitar yondashuvlarning o‘zaro munosabati. Pedagogik qobiliyat va layoqat. Pedagogika (ma’rifat) va mutaxassisning kasbiy etuklikligi. Kasbiy kamolot va mutaxassisning pedagogik fazilatlari.

**2. Ma’rifiy qadriyatlar va maqsadlar**

Insoniylik mohiyati va qadriyatlar. O‘zbek pedagogikasidagi ma’rifiy (ta’limiy, tarbiyaviy va madaniy) qadriyatlar. Ma’rifat. Ma’rifat va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi. Ma’rifiy tizim va uning asosiy tarkibiy qismlari: ta’lim, tarbiya, shaxs kamoloti va madaniyati. Ta’lim, tarbiya, shaxs kamoloti va madaniyatining o‘zaro birligi va o‘zaro munosabati. Ma’rifat jarayon va natija sifatida.

**3. Ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti va tarixiyligi**

Ma’rifiy (pedagogik) fikrlar, ularning tarixiyligi. Jahonda ma’rifiy fikrlarning tarixiy-pedagogik tahlili.O‘zbekiston hududida eng qadimgi davrdan XIV asrgacha ma’rifiy fikrlar taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari. XIV-XX asr boshlarida maktab va ma’rifiy fikrlar taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekistonda 1917-1990 yillarda maorif va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya (AQSH, YAponiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Germaniya).

**4. Zamonaviy ta’lim-tarbiya va uning mohiyati**

Pedagogika fani, uning asosiy kategoriyalari va tushunchalari. Pedagogikaning metodlari, tarmoqlari va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi. Pedagogik tizimlar (texnologiyalar) va ularning asosiy tarkibiy qismlari, turlari va tasniflanishi. SHaxsga yo‘naltirilgan asosiy texnologiyalar va ularning tavsifi.Ta’lim nazariyalari va ularning turlari. Falsafiy antropologiya pedagogik tadqiqotlarning metodologik asosi ekanligi.Pedagogik antropologiya.

**5. Pedagogik texnologiyalar**

Pedagogik texnologiyalar, ularning mezonlari va tuzilishi. Pedagogik texnologiyalarning turlari va ularga qo‘yilgan talablar. Texnologik modellar bilan shartlangan ta’lim tuzilishining metodologik prinsiplari. Muammoli va muloqotli texnologiyalar mohiyati, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari. Modellashtirish va o‘yinli texnologiyalar mohiyati, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari.

**6. Pedagogik muloqot**

Pedagogik hamkorlik va muloqot. Muloqotning tuzilishi, vositalari va turlari. SHaxsga yo‘naltirilgan ta’limda muloqotning o‘ziga xos tabiati. Pedagogik muloqot uslublari, ularning tuzilishi, tasnifi va xususiyatlari. Pedagogik jarayondagi nizolar, ularning turlari va bartaraf etish yo‘llari. Zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar. Pedagogik mahorat, ijodiyot va innovatsiya. Pedagog fazilatlarining ijtimoiy va kasbiy shartlanganligi.

**7. O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish**

Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari. O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarning vujudga kelishi, namoyon bo‘lishi va ularning tahlili. O‘quv- tarbiyaviy vaziyatlarning turlari va ularni tashkil qilish shakllari. O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarni modellashtirish. Oila shaxs tarbiyasi va kamolotining muhiti va sub’ekti sifatida. Oiladagi pedagogik o‘zaro munosabatlar. O‘z-o‘zini tarbiyalash va kamol toptirish, bu boradigi muammolar. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi va kamol toptirishiga imkon beradigan omillar va metodlar.

**8. O‘quv faoliyatni tashkil qilish shakllari**

Ta’lim mazmuni (didaktika)haqida tushuncha. Ta’lim jarayoni: o‘qitish va o‘qish. O‘qitish va o‘qish jarayonlarining mohiyati. Ta’limning tashkiliy shakllari. Ta’lim shakllarining xususiyatlari, belgilari va funksiyalari. O‘qish ko‘nikmasi. Matnlar bilan ishlash. Matnlarning tuzilishi va uning tahlili. Ta’lim oluvchilarning yozma ishlari va ularning turlari. Ta’limda o‘quvchilar faolligiga aqliy yuklamalarning ta’siri. Kompyuterlar va aqliy mehnat.

**9. Pedagogik nazorat va ta’lim sifatini baholash**

Ta’lim sifati tushunchasi va turlicha talqini. Ta’lim mazmunining o‘zlashtirilishi va ma’rifiy (ta’limiy, tarbiyaviy) jarayonlar natijalarini baholash. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish - ta’lim sifatini baholashning asosiy unsuri. Baholash, uning funksiyalari va turlari. Ta’lim sifatini nazorat qilishning mazmuni, shakllari, metodlari va turlari (joriy, oraliq, yakuniy). O‘zlashtirishni nazorat qilish prinsiplari va metodlari. Taqdirlash va jazolash - rag‘batlantirish metodi sifatida. Pedagogik test usuli, uning yutuqlari va kamchiliklari.

**10. Ma’rifiy jarayonlarni boshqarish**

Boshqaruv va uning mohiyati. Ma’rifiy jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xosligi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini boshqarish. O‘zbekiston Respublikasisining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlarida ta’lim tizimini boshqarish masalalari.Ta’lim tizimini boshqarish organlarining vakolatlari.Ta’lim turlariga muvofiq ta’lim muassasalarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ta’lim muassasalari attestatsiyasi va akkreditatsiyasi. O‘zbekistonda ta’limning rivojlanish istiqbollari.

**Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta’limning turli xil shakllari mavjud bo‘lib, asosiy e’tibor talabalarning berilgan mavzularni (amaliy masalalar, topshiriqlar va h.k.) mustaqil ravishda, ya’ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o‘qib o‘rganishi, izlanishi va tegishli yo‘nalish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda “Pedagogika” o‘quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi holatlarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi:

-darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarning barcha mavzularini chuqur o‘rganish;

-o‘rganilgan mavzular mazmunini maxsus pedagogik adabiyotlar bilan ishlash orqali to‘ldirish;

-talabalarning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularni chuqur o‘rganish;

-talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi va kamol toptirishiga imkon beradigan omillar va metodlardan faol foydalanish;

-nazariy va seminar mashg‘ulotlar jarayonida talabalarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, ularda tahlil qilish, mustaqil ishlashg va mashqlar bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish;

-pedagogik adabiyotlarni didaktik va tarbiyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, pedagogik jarayonni turli jihatdan kuzatib borish.

«Pedagogika» o‘quv fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat va ma’ruzalar tayyorlash, fundamental asarlarni konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etish tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari mavzularini to‘ldirishga harakat qilinishi lozim.

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning namunaviy mavzulari:**

1. Bilimlar - ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi.
2. Dunyoqarash va uning mohiyati.
3. Bilim va diniy e’tiqodning o‘zaro munosabati.
4. Pedagogik layoqat.
5. Akmeologiya va uning mohiyati.
6. Mutaxassisning pedagogik fazilatlari.
7. Qadriyatlar va ma’rifiy qadriyatlar.
8. O‘zbek pedagogikasida ma’rifiy qadriyatlar.
9. Ma’rifat va uning mohiyati.
10. Ma’rifat va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi.
11. Jahonda ma’rifiy fikrlar taraqqiyotining tarixiy-pedagogik tahlili.
12. O‘zbekiston hududida eng qadimgi davrdan XIV asrgacha ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti.
13. XIV-XVI asrlarda maktab va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti.
14. XVII-XX asr boshlarida maktab va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti.
15. O‘zbekistonda 1917-1990 yillarda maorif va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti.
16. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya (ayrim mamlakatlar misolida).
17. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.
18. Pedagogikaning metodlari.

19. Pedagogikaning tarmoqlari.
20. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.
21. Pedagogik tizimlar.
22. SHaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va ularning tavsifi.
23. Ta’lim nazariyalari va ularning turlari.
24. Aqliy hatti-harakatlar va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllanti- rish nazariyasi.
25. Muammoli ta’lim nazariyasi.
26. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi.
27. Dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasi.
28. Matnga asoslangan ta’lim nazariyasi.
29. Bilishning bixevioristik nazariyasi.
30. O‘zlashtirishning geshtalt nazariyasi.
31. Ta’limning suggestopedik konsepsiyasi.
32. Neyrolingvistik dasturlash asosidagi ta’lim nazariyasi.
33. Pedagogik antropologiya va uning asosiy qoidalari.
34. Pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati.
35. Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi.
36. Metodika va texnologiya.
37. Ta’lim metodlari va ularning tasnifi.
38. Ta’lim vositalari.
39. Ta’lim shakllari.
40. Muammoli ta’lim texnologiyalari.
41. Muloqotli ta’lim texnologiyalari.
42. Modellashtirish texnologiyalari.
43. O‘yinli texnologiyalar.
44. Pedagogik muloqot.
45. Pedagogik nizolar, ularni bartaraf etish usullari.
46. Zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar.
47. Pedagogik faoliyat funksiyalari va pedagog shaxsiga qo‘yilgan talablar.
48. Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi.
49. Pedagog fazilatlarining ijtimoiy va kasbiy shartlanganligi.
50. Pedagogik faoliyatdagi ijodiyot va innovatsiya.
51. O‘quv-tarbiyaviy vaziyat tushunchasi.
52. Oila-pedagogik o‘zaro munosabatlar, shaxs tarbiyasi va kamolotining sub’ekti.
53. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.
54. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirish.
55. Ta’lim jarayoni: o‘qitish va o‘qish.
56. Matnlar bilan ishlash usullari.
57. Ta’lim sifati.
58. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish - ta’lim sifatini baholashning asosiy unsuri.
59. Pedagogik nazorat va o‘quvchilar o‘zlashtirishini baholash xususiyatlari.
60. Baholash, uning funksiyalari va turlari.
61. Ta’lim sifatini nazorat qilishning mazmuni, shakllari, metodlari va turlari.
62. O‘zlashtirishni nazorat qilish prinsiplari va metodlari.
63. Mukofotlash va jazolash - rag‘batlantirish metodi sifatida.

64. Test usuli, uning yutuqlari va kamchiliklari.
65. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini boshqarish.
66. O‘zbekiston Respublikasisining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari ta’lim tizimini boshqarish haqida.
67. Ta’lim tizimini boshqarish organlarining vakolatlari.
68. Ta’lim muassasasini boshqarish.
69. Ta’lim muassasalari attestatsiyasi va akkreditatsiyasi.
70. O‘zbekistonda ta’limning rivojlanish istiqbollari.

## Dasturning informatsion-uslubiy ta’minoti

“Pedagogika” o‘quv fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish nazarda tutilgan:

-ma’ruza mashg‘ulotlarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

-seminar mashg‘ulotlarida og‘zaki so‘rovlar, test so‘rovlari, kichik guruhlar shaklida ishlash, kollokviumlar o‘tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini (aqliy hujum, o‘yinlar, debatlar va h.k.) qo‘llash nazarda tutiladi.

## Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

### I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-18 tomlar. // T.: “O‘zbekiston”, 1996 – 2010 yillar.
2. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch .-T.: Ma’naviyat, -2008.
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. - T. O‘zbekiston. 2010.
4. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”. – Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2010 yil 28 yanvar.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza. 2010 yil 12 noyabr – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni / Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: “SHarq” nashriyot-matbaa konserni, 1998.
3.O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonuni / Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: “SHarq” nashriyot-matbaa konserni, 1998.
4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi «Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali

mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1533-son qarori.

**III. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:**

1. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O’qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta’lim sohasi bakalavriat yo’nalishi uchun darslik // Prof.M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida; O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010..

2. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma // A.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, «O‘qituvchi», 1996.

3. Ziyomuhammedov B. Ma’rifat asoslari. – Toshkent, «CHinor ENK», 1998

4. Mavlonova R va boshq. Pedagogika. – Toshkent, «O‘qituvchi», 2001.

5. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar - Toshkent, «Fan», -1998

6. Общауа pedagogika. Pod red. V.A.Slastenina. V 2 ch. – Moskva «Vlados», 2003

**VI. Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1.O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. 1 jild // Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil - T.: «O‘qituvchi», 1995.; 2 jild // Tuzuvchi-mualliflar: S.Ochil, K.Hoshimov. – T.: «O‘qituvchi», 1999.

2. J.Xasanboev, X.To‘rakulov, M.Xaydarov, O.Xasanboeva, N.Usmonov. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. -T.: “Fan va texnologiya”, 2009.

3. Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan: O‘zbekistonning 20 yillik mustaqil taraqqiyot yilida qo‘lga kiritgan yutuq va natijalari, mamlakatimizning salohiyati va ahamiyatini aholining keng qatlamlariga etkazish, joylarda tashkiliy-amaliy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan ilmiy- ommabop risola/ O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zR mahalla jamg‘armasi; mas’ul ijodiy guruh A.SH.Bekmurodov va boshq. – T.: O‘qituvchi, NMIU, 2011.

**V. Elektron ta’lim resurslari:**

1. www. ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.psychology.uz
5. www.nutq.intal.uz
6. www.psychology.net.ru

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

# PSIXOLOGIYA fanidan namunaviy DASTUR

(bakalavr  yo‘nalishi uchun)

**Toshkent – 2011**

Mazkur namunaviy dastur Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3-son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma’qullangan.

Ushbu dastur “Psixologiya” fanidan bakalavrning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar asosida tayyorlangan.

Tajribaviy dasturni kelgusida to‘ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruratini hisobga olib, fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so‘raymiz:

**Toshkent shahar, 2-CHimboy ko‘chasi 96-uy, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “Ma’naviy-axloqiy tarbiya” boshqarmasi, tel: 246-10-58, 246-10-54.**

Fanning o‘quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Nishanova Z.T. – psixologiya fanlari doktori, professor (TDPU) “Umumiy
Odilova N.G. – psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi (TDPU)

**Taqrizchilar:**

Safaev N.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (TDPU) To‘ychieva
S.M. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (TVXTXMOQTI)

Fanning o‘quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan (2011 yil 25 avgustdagi 1-son bayonnoma).

## Kirish

Ushbu dastur “Psixologiya” fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari, fanning tarmoqlari, fanning boshqa fanlar bilan aloqasi, fanning tamoyillari va metodlari, vazifalari, shaxs haqida tushuncha, faoliyatning psixologik tahlili, muloqot, psixik jarayonlar, shaxsning individual- psixologik xususiyatlari, rahbar, boshqaruv va mehnat psixologiyasi haqidagi masalalarni qamrab oladi.

## O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

**Fanni o‘qitishdan maqsad** - talabalarda umumiy psixologik bilimlarni egallashga, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va muloqoti, psixik taraqqiyot qonuniyatlari, shaxsni etnopsixologik metodlar yordamida o‘rganish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

**Fanning vazifasi** – talabalarga voqelik va jamiyatdagi voqea-hodisalarning, jamiyat hayotida umumiy psixologik hodisalar, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, shaxsning kamoloti va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emotsional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o‘rgatishdan iborat.

## Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“Psixologiya” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- umumiy psixologik tushunchalarni, voqelik va jamiyatdagi voqea-hodisalarni, shaxsning o‘zida kechadigan ijtimoiy-psixologik jarayonlarni, shaxsni psixologik tadqiq qilish usullarini bilishi**;**
- talaba voqelikni psixologik mushohada etish, narsa-hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o‘rganish, ilmiy tafakkur va psixologik tasavvurning uyg‘unligini ta’minlash, mustaqil va zamonaviy fikrlash, kundalik faoliyatda umumiy psixologik bilimlarni va qoidalarni qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- talaba voqea-hodisalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq qilish, shaxs motivatsiyasi, emotsional va irodaviy sifatlari, individual psixologik xususiyatlari, shaxs va jamiyat orasidagi munosabatning psixologik qonuniyatlarini aniqlash malakalariga ega bo‘lishi kerak.

## Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Psixologiya» fani o‘quv rejasida rejalashtirilgan falsafa, pedagogika va tabiiy fanlar bilan aloqada o‘rganilib, bu fanlardan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi.

## Fanning ta’limdagi va ishlab chiqarishdagi o‘rni

“Psixologiya” gumanitar-ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokidagi fan bo‘lib, ko‘plab tarmoqlararo muammolarni ilmiy o‘rganish hamda ta’lim- tarbiya, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati, ruhiy salomatlik va ko‘pgina boshqa sohalarda uchraydigan dolzarb muammolarni hal etishda o‘z amaliy tavsiyalari, uslubiy vositalari bilan ishtirok etadi.

## Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Psixologiya” fanini talabalar chuqur o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma’ruza va seminar darslariga muvofiq pedagogik texnologiyalar keng qo‘llaniladi.

## Asosiy qism
## Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

“Psixologiya” fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari. Fanning predmeti va vazifalari. Psixik hodisalar, psixik rivojlanishning qonuniyat va mexanizmlari. SHaxs va voqelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami orasidagi munosabat, voqelikni anglash, olamning psixologik tahlili, psixik hodisalarning kechishi, psixologiyaning tarixiy va nazariy ahamiyati, jamiyatda olib borilayotgan ishlar natijasidagi yutuqlari.

## Psixologiya fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari

“Psixologiya” tabiiy va ijtimoiy ilmiy fan sifatida. Psixika tirik mavjudotning ob’ektiv borliqni aks ettirish shakllaridan biri ekanligi to‘g‘risida umumiy tushuncha. Psixik aks ettirish - ob’ektiv olamning sub’ektiv obrazi ekanligi. Psixikaning aks ettirish va boshqaruvchanlik vazifalari. Psixikaning taraqqiyot bosqichlari. Miya va psixika. Psixika va ong. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib etmagan harakatlar) holatlari.

“Psixologiya” fani haqidagitasavvurlar taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Psixologiya va falsafa. Psixologiya fanining nazariy hamda amaliy vazifalari.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va uning tamoyillari. “Psixologiya” fanining tarmoqlari, ishlab chiqarish, ta’lim tizimi, tibbiyot, oila, umuman hayotdagi ahamiyati.

“Psixologiya” fanining vazifalari, tadqiqot metodlari va ularning ishlab chiqarish, ta’lim tizimi, tibbiyot, oilada qo‘llanishi.

## SHaxs va uning faoliyati

SHaxs haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. SHaxsning tuzilishi. Frustratsiya va shaxsning kelajak rejalari. Konformizm. Dunyoqarash va e'tiqod. SHaxs taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar. SHaxsni eksperimental tadqiq qilish metodlari. SHaxs shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari.

SHaxs faoliyati va uning yo'nalishi. SHaxsning rejalari va muhim mo'ljallari. Faoliyatning tuzilishi. Tashqi (amaliy) va ichki (aqliy) harakatlar. Faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi haqida tushuncha. Ish-harakatlarni bajarish jarayonlari. Aqliy jarayonlar. Faoliyatni egallashda faollik va ishchanlik. Ko'nikma va malakalar, ularning klassifikatsiyasi. Ularning shakllanish qonuniyatlari. Intellektual ko'nikmalar. Faoliyatning asosiy turlari. Etakchi faoliyat haqida tushuncha. SHaxsni idrok qilishda, uni tushunishda psixologik bilimlarning ahamiyati.

## Muloqot

Muloqot to'g'risida umumiy tushuncha. Muloqotning ko'p rejali xarakteri. Muloqot axborot almashish tariqasida. Muloqot shaxslararo ta'sir sifatida. Muloqot kishilarning o'zaro bir-birini tushunishi tariqasida. Turli tipdagi muloqot va inson tafakkuri. Muloqotdagi qaytarma aloqa. Muloqot treningi. Pedagogik muloqot. Muloqot va til. Insonlarning bir-birini tushunish mexanizmlari: refleksiya, stereotipizatsiya, identifikatsiya, empatiya. Muloqot turlari.

Nutq to'g'risidagi tushuncha. Nutq turlari va uning vazifalari. Nutqning vujudga kelishi va uni idrok qilish. Nutqning o'sishi. Inson hayotida nutqning ahamiyati. Insonga verbal va noverbal, paralingvistik ta'sir ko'rsatish.

## Boshqaruv psixologiyasi

Boshqaruv psixologiyasi haqida tushuncha. Boshqaruv tizimida sub'ekt va ob'ekt. Boshqaruv psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Boshqaruv uslublari haqida tushuncha. Rahbarlik odobi. Rahbarlarning tinglash odobi. Rahbarlarning o'z qo'l ostidagi xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish shakllari. Rahbarning muomala madaniyati. Rahbarda milliy dunyoqarash va ijtimoiy burch hissining shakllanib borishi.

## Rahbar qobiliyatining psixologik komponentlari

Rahbar shaxsida professional qobiliyatlarni shakllantirish. Rahbar xodimlar mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning psixologik muammolari. Rahbar psixologiyasining emotsional-irodaviy komponentlari. Mehnat intizomi va uni mustahkamlashning huquqiy-psixologik vositalari. Rahbarlarning huquqiy me'yorlarni buzganlik uchun javobgarlik mas'uliyati. Rahbarlikning uch ildizi. Jamoadagi psixologik iqlim. Psixologik iqlimning rahbarga bog'liqligi.

## Mehnat psixologiyasi

SHaxs va kasb. Talabalarning kasbiy yo‘nalganligi. Kasbiy muhim xislatlar va ularning dinamikasi. Individual tipologik xislatlar. Sensor va perseptiv xislatlar. Psixomotor va mnemik xislatlar. Tafakkur xislatlari. Irodaviy xislatlar. Ish joyi va unga qo‘yiladigan psixologik talablar. Mehnat unumdorligiga ta’sir etuvchi psixologik omillar. Insonning mehnatdagi holati. CHarchash holati, emotsional zo‘riqish. Kasbiy faoliyat motivlari.

## Seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarda guruhlarda ishlash, mustaqil fikrni bayon etish, guruh taqdimotini amalga oshirishni o‘rganadilar.

Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha tavsiya etiladigan taxminiy mavzulari va ularning mazmuni:

1. **Psixologiya predmeti**

Psixologiya predmetining ta’rifi. Psixologiya tarixining asosiy bosqichlari. Psixika tushunchasining tahlili. Miya va psixika muammosi.

Psixika va ong. Psixologiyaning asosiy vazifalari. Psixologiyaning tarmoqlari. Psixologiyaning metodlari.

2. **SHaxs va uning faoliyati**

Psixologiya fanida shaxs tushunchasi. Odamda biologik va ijtimoiy omillar. SHaxsning tuzilishi. SHaxs faoliyati va uning yo‘nalishi. Faoliyatning tuzilishi va turlari. Ko‘nikma va malakalarning shakllanishi. Etakchi faoliyat haqida tushuncha.

3. **Muloqot**

Muloqot haqida tushuncha. Muloqot turlari, funksiyalari va tuzilishi. Miya, muloqot, nutq faoliyati. Muloqot va shaxslararo bilimlar. Muloqot shaxsning shakllanishi omili sifatida. O‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish.

4. **SHaxsning bilish jarayonlari**

Diqqatning fiziologik mexanizmlari, turlari, asosiy xususiyatlari. Sezgilarning tasnifi, sezgi jarayonidagi qonuniyatlar. Idrokning turlari, individual xususiyatlari. Sezgi va idrokning inson hayotidagi ahamiyati va bir-biridan farqi.

Xotira nazariyalari, jarayonlari va turlari. Xayol turlari. Tafakkur operatsiyalari. Tafakkurning mantiqiy shakllari.Tafakkur turlari va individual xususiyatlari.

5. **SHaxsning individual xususiyatlari**

Temperament haqida tushuncha. Temperament tiplari va ularning tavsifi. Psixologiyada xarakter muammosi. Xarakterning tuzilishi. Xarakterga turlicha yondashuv. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat turlari.

6. **Boshqaruv psixologiyasi**

Boshqaruv psixologiyasi haqida tushuncha. Boshqaruv uslublari haqida tushuncha. Rahbarlik odobi. Rahbarlarning oʻz qoʻl ostidagi xodimlarga psixologik taʼsir koʻrsatish shakllari. Rahbarlik ishini tashkil etish mahorati. Rahbarlarning oʻzaro munosabatlarida yuz beradigan psixologik toʻsiqlar. Rahbarning muomala madaniyati.

7. **Mehnat psixologiyasi**

SHaxs va kasb. Kasbiy muhim xislatlar va ularning dinamikasi. Individual tipologik xislatlar. Sensor va perseptiv xislatlar. Psixomotor va mnemik xislatlar. Tafakkur xislatlari. Irodaviy xislatlar. Ish joyi va unga qoʻyiladigan psixologik talablar. Mehnat unumdorligiga taʼsir etuvchi psixologik omillar.

Seminar mashgʻulotlarni tashkil etish boʻyicha kafedra professor-oʻqituvchilari tomonidan uslubiy koʻrsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy maʼruza mavzulari boʻyicha olgan bilim va koʻnikmalarini seminar mashgʻulotlari orqali yanada boyitadilar.
Talabalar auditoriya mashg‘ulotlarida professor-o‘qituvchilarning ma’ruzasini tinglaydilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan masalalarni echadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o‘rganish maqsadida qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar echadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo‘shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, keraqli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo‘llarini aniqlash, internet tarmoqdaridan foydalanib ma’lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. SHuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Fan bo‘yicha mustaqil ish xajmi barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzular ko‘rinishida shakllantirilgan.

## Pedagogika.Psixologiya fani bo‘yicha talabalari mustaqil ta’limining xajmi va mazmuni

5230100-iqtisodiyot, 5230200-menejment(turizm), 5230400-marketing(turizm), 5610100-xizmatlar sohasi(faoliyat turlari va yo‘nalishlari bo‘yicha) 5610200-mexmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish, 5610300-turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) yo‘nalishlari uchun

| № | Mavzuning nomi | Berilgan topshiriqlar | Bajarilish muddati | Xajmi (soat) | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Ik, Mn, Mr | Mxt, Tft, Xs |
| 1. | Pedagogikani o‘rganish zaruriyati | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 1-xafta | 4 | 4 |
| 2. | Ma’rifiy kadriyatlar va maqsadlar. Ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 2-3-xafta | 4 | 6 |
| 3. | Zamonaviy ta’lim-tarbiya va uning mohiyati | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 4-5 xafta | 6 | 6 |
| 4. | Pedagogik texnologiyalar | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 6-7-xafta | 6 | 6 |
| 5. | Pedagogik muloqot | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 8-9-xafta | 4 | 4 |
| 6. | O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyixalashtirish asoslari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 10-xafta | 4 | 4 |
| 7. | O‘quv faoliyatni tashkil qilish shakllari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 11-xafta | 4 | 4 |
| 8. | Pedagogik nazorat va ta’lim sifatini baholash | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 12-xafta | 6 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 9. | Ma’rifiy tizimlarni boshqarish | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 13-xafta | 6 | 6 |
| 10. | Psixologiya fanining predmeti, vazifalari va tadkikot metodlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 14-xafta | 4 | 4 |
| 11. | SHaxs va uning faoliyati. Muloqot | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 15-xafta | 6 | 6 |
| 12. | Boshqaruv psixologiyasi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 16-xafta | 4 | 4 |
| 13. | Raxbar kobiliyatining psixologik komponentlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 17-xafta | 4 | 4 |
| 14. | Mexnat psixologiyasi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 18-xafta | 4 | 4 |
| | **Jami** | | | **66** | **68** |

5230600-moliya, 5230700-bank ishi va 5230900-buxgalteriya xisobi va audit(tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlari uchun

| **№** | **Mavzuning nomi** | **Berilgan topshiriqlar** | **Bajarilish muddati** | **Xajmi (soat)** |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Pedagogikani o‘rganish zaruriyati | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 2-xafta | 2 |
| 2. | Ma’rifiy kadriyatlar va maqsadlar | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 3-xafta | 2 |
| 3. | Ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 4-xafta | 4 |
| 4. | Zamonaviy ta’lim-tarbiya va uning mohiyati | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 5-xafta | 4 |
| 5. | Pedagogik texnologiyalar | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 6-xafta | 4 |
| 6. | Pedagogik muloqot | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 7-xafta | 2 |
| 7. | O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyixalashtirish asoslari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 8-xafta | 2 |
| 8. | O‘quv faoliyatni tashkil qilish shakllari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 9-xafta | 4 |
| 9. | Pedagogik nazorat va ta’lim sifatini baholash | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual | 10-xafta | 4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | | |
| 10. | Ma’rifiy tizimlarni boshqarish | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 11-xafta | 4 |
| 11. | Psixologiya fanining predmeti, vazifalari va tadkikot metodlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 12-xafta | 2 |
| 12. | SHaxs va uning faoliyati | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 13-xafta | 4 |
| 13. | Muloqot | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 14-xafta | 2 |
| 14. | Boshqaruv psixologiyasi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 15-xafta | 4 |
| 15. | Raxbar kobiliyatining psixologik komponentlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 16-xafta | 2 |
| 16. | Mexnat psixologiyasi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, kollokvium, | 17-xafta | 2 |
| | **Jami** | | | **48** |

## Dasturning informatsion uslubiy ta’minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan:

- «Pedagogika. Psixologiya fanining mohiyati, bozor iqtisodiyoti sharoitida ahamiyati va vazifalari mavzusi bo‘yicha maxsus tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha mavzular zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o‘tkaziladi;

## Pedagogika. Psixologiya fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

«Pedagogika. Psixologiya» fanidan talabalar bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- joriy nazorat (JN) - talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollekvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;
- oraliq nazorat (ON) - semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- yakuniy nazorat (YAN) - semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. YAkuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «YOzma ish» shaklida o‘tkaziladi.

ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o‘tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Pedagogika.Psixologiya» fanidan talabalar bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Joriy baholash – 35 ball;
Oraliq baholash –35 ball;
YAkuniy baholash – 30 ball
Jami – 100 ball

| Ball | Baho | Talabalarning bilim darajasi |
|---|---|---|
| 86-100 | A’lo | Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 71-85 | YAxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 55-70 | Qoniqarli | Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 0-54 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik. |

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Bu erda:

V-semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda);

O`-fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy JN va oraliq ON turlari bo‘yicha 55 ball va undan yuqori balni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.
- Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.
- ON va YAN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. YAN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.
- JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.
- Talabaning semestrda JN va ON turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

**Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.**

**Talabalarning ON dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

| | Ko‘rsatkichlar | ON ballari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | maks | 1-ON | 2-ON |
| 1 | Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma’ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to‘liqligi. | 15 | 0-7 | 0-8 |
| 2 | Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi va o‘zlashtirish. | 10 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | Og‘zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo‘yicha | 10 | 0-5 | 0-5 |
| Jami ON ballari | | 35 | 0-17 | 0-18 |

**Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

| | Ko‘rsatkichlar | JN ballari |
|---|---|---|

| | | maks | 1-JN | 2-JN |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Darslarga qatnashganlik va oʻzlashtirishi darajasi. Amaliy mashgʻulotlardagi faolligi, amaliy mashgʻulot daftarlarining yuritilishi va holati | 15 | 0-7 | 0-8 |
| 2 | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining oʻz vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular boʻyicha uy vazifalarini bajarilish va oʻzlashtirishi darajasi. | 10 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | Ezma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar | 10 | 0-5 | 0-5 |
| Jami JN ballari | | 35 | 0-18 | 0-17 |

## YAkuniy nazoratda «YOzma ish»larni baholash mezoni

YAkuniy nazorat «YOzma ish» shaklida amalga oshirilganda, sinov koʻp variantli usulda oʻtkaziladi. Har bir variant 3 tagacha nazariy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan boʻyicha tayanch soʻz va iboralar asosida tuzilgan boʻlib, fanning barcha mavzularini oʻz ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar boʻyicha oʻzlashtirish koʻrsatkichi 0-10 ball oraligʻida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball toʻplashi mumkin.

YOzma sinov boʻyicha umumiy oʻzlashtirish koʻrsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qoʻyilgan oʻzlashtirish ballari qoʻshiladi va yigʻindi talabaning yakuniy nazorat boʻyicha oʻzlashtirish bali hisoblanadi.

## Tasviya etilgan adabiyotlar roʻyxati
## Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik // Prof.M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010..
2. Pedagogika. Oʻquv kullanma // A.Munavvarovning umumiy taxriri ostida. - Toshkent, «Oʻqituvchi», 1996.
3. Ziyomuxammedov B. Ma’rifat asoslari. - Toshkent, «CHinor ENK»,
4. 1998.
5. Mavlonova R va boshk. Pedagogika. - Toshkent, «Ukituvchi», 2001.
6. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashgʻulotlar - Toshkent, «Fan», -2001.
7. Obщaya pedagogika. Pod red. V.A.Slastenina. V 2 ch. - Moskva, «Vlados», 2003.
8. Davletshin M.G., Tuychieva S.M. Umumiy psixologiya T.: TDPU, 2002.- 202b.
9. Karimova V.M. Psixologiya. T.: SHark, 2000. -256b.
10. Ivanov P.I., Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya" T.: Uzbekistan faylasuflari milliy jamiyati, 2008. -480b.

11. Boymurodov N. Raxbar psixologiyasi. -T.: YAngi asr avlodi. 2007. -327 b.
12. Jalilova S.X., Gaydarov F.I. Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. -T.: TDPU. 2010.-127 b.
Kushimcha adabiyotlar:
1. Uzbek pedagogikasi antologiyasi. 1 jild // Tuzuvchi-mualliflar: K.X,oshimov, S.Ochil - T.: «Ukituvchi», 1995.; 2 jild // Tuzuvchi-mualliflar: S.Ochil, K.X,oshimov. - T.: «Ukituvchi», 1999.
2. J.Xasanboev, X.Turakulov, M.Xaydarov, O.Xasanboeva, N.Usmonov. Pedagogika fanidan izoxli lug‘at. -T.: "Fan va texnologiya", 2009.
3. Abramova M. Prakticheskaya psixologiya M.: Мысl. 2003. -480s.
4. Maqlakov A.G. Obщaya psixologiya. - SPb.: Piter, 2003. -582s.
5. Maxsudova M.A. Mulokot psixologiyasi. -T. YAngi asr avlodi, 2006. - 204b.
6. Nemov R.S. Psixologiya. M.: Vlados, 2003. 1-t. -240s.
7. Psixologiya. Pod red. E.I.Rogova. - M.: Vlados, 2005. -584s.
8. Rubinshteyn S.L. Osnovы obщeу psixologii. - SPb.: Piter, 2007. -848s
9. Goziev 3.F. Umumiy psixologiya. -T.: Uzbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010. -488b.
10. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. -T.: TDPU, 2010. -400b.
Elektron ta’lim resurslari:
~~***1.1.1.1.1.1.1.***~~ www. ziyonet.uz
~~***1.1.1.1.1.1.2.***~~ www.tdpu.uz
~~***1.1.1.1.1.1.3.***~~ www.pedagog.uz
~~***1.1.1.1.1.1.4.***~~ www.psychplQgy.uz
~~***1.1.1.1.1.1.5.***~~ www.nutq.intal.uz
~~***1.1.1.1.1.1.6.***~~ www.psychology.net.ru

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**“KASB-HUNAR TA’LIMI” KAFEDRASI**

# «PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA»
## FANIDAN MA`RUZA VA AMALIY MASHG’ULOTLARINI O’QITISHNING TA`LIM TEXNOLOGIYALARI

## Samarqand-2013

### MA’RUZA DARSLARINING TEXNOLOGIK LOYIHALARI
### Texnologik pasport

### 1-mavzu: PEDAGOGIKANI O‘RGANISH ZARURIYATI

| | |
|---|---|
| **Ma’ruzaga ajratilgan vaqt** – 2 soat | **Talabalar soni** – 50-60 nafar |
| **O‘quv darsining shakli va turi** | Ma’ruza (Kirish ma’ruzasi) |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Pedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va uni o‘rganish muammolari<br>2. Pedagogika fanining tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan munosabati<br>3. Pedagogikaning tadqiqot metodlari va uning asosiy kategoriyalari<br>4. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan pedagogik talablar. Pedagogik faoliyat, mahorat va qobiliyat |
| **O‘quv darsi-ning tarkibiy tuzilmasi** | 1. Tashkiliy masalalarni hal qilish, ma’ruza mavzusi va uning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish.<br>2. “Raqamlar” metodi asosida guruhlarga ma’ruza matnini tarqatish.<br>3. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash.<br>4. Ma’ruza mohiyatini “Taqdimot” metodi asosida yoritib berish.<br>5. “Savol-javob” metodi yordamida talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.<br>6. “Menga so‘z bering” metodi yordamida talabalarning kadrlar tayyorlash milliy modelining ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini anglash darajasini o‘rganish.<br>8. Darsni yakunlash. |
| **O‘quv darsi ning maqsadi** | Gumanitar bilimlar doirasida psixologik bilimlarning o‘rnini tahlil qilish, inson hayotida pedagogik bilimlarning ahamiyatini tushuntirish. Pedagogika fani, uning tarixiy taraqqiyoti, boshqa soxadagi ilmiy bilimlar bilan aloqasi haqida talabalarda tasavvurni shakllantirish. Talabalar dunyoqarashini kengaytirish, fanga qiziqishini rivojlantirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>• Pedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va uni o‘rganish muammolari haqida tushuncha berish<br>• Pedagogika fanining tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan munosabati mohiyatini ochib berish<br>• Pedagogikaning tadqiqot metodlari va uning asosiy kategoriyalar o‘rnini ko‘rsatish<br>• O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan pedagogik talablar. Pedagogik faoliyat, mahorat va qobiliyat haqida ma’lumot berish | **O‘quv faoliyati natijalari:**<br>1. Pedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va uni o‘rganish muammolari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishadi<br>2. Pedagogika fanining tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan munosabati haqida bilim, ko‘nikmalar hosil qilishadi<br>3. Pedagogikaning tadqiqot metodlari va uning asosiy kategoriyalarini bilishadi<br>4. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan pedagogik talablar. Pedagogik faoliyat, mahorat va qobiliyat haqida nazariy ma’lumotlar hosil qilishadi<br>5. Talabalarning BKM darajasini aniqlovchi nazorat savollari va test topshiriqlari bo‘yicha javob qaytarish orqali mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan bilimlarini baholaydilar |

| | |
|---|---|
| **Ta'lim metodlari** | Ma'ruza, "Aqliy hujum", "Raqamlar", "Taqdimot" va "Menga so'z bering" metodlari |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Ma'ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Mavzuga oid manbalar, plakatlar, ma'ruza matni, taqdimot |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | Joriy nazorat, savol-javob |

## Texnologik karta

### Mavzu: PEDAGOGIKANI O'RGANISH ZARURIYATI

| Ish bosqich-lari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. O'quv darsiga kirish – tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)** | 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.<br>2. "Raqamlar" metodi bo'yicha ishlash yuzasidan tushuncha beradi. va kichik guruhlarni shakllantiradi.<br>3. Modullar yordamida o'quv darsining tuzilishli-mantiqiy sxemasini taqdim etadi.<br>4. Vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlik, faollikka undaydi.<br>5. Kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.<br>6. Kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.<br>8. Darsni yakunlaydi | 1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar.<br>2. "Raqamlar" kichik guruhlarda ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.<br>3. Taqdim etiladigan sxema, plakat va taqdimot bilan tanishadilar.<br>4. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar.<br>5. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan muloqot asosida mavzuga oid bilimlarini mustahkamlaydilar.<br>6. Mavzu yuzasidan tushuncha va bilimlarga ega bo'ladilar |
| **2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)** | 1. Talabalarni mavzu rejasi bilan tanishtiradi.<br>2. Plakatlar mohiyatini yoritadi.<br>3. "Raqamlar" metodi bo'yicha mavzuga oid materialni guruhlarga tarqatadi.<br>4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi.<br>5. Taqdimot asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etadi.<br>6. O'quv materialining har bir bo'limi va umumiy mazmuni bo'yicha xulosa qiladi | 1. Mavzu rejasi bilan tanishadilar.<br>2. Guruhlarga berilgan material mazmunini o'rganadilar.<br>3. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar mazmuni va taqdimot bilan tanishadilar.<br>4. Taqdim etilayotgan mavzu, uning bo'limlari, asosiy tushunchalarga oid savollar bilan murojaat qiladilar.<br>5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi |
| **3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash** | 1. Guruhlardan kichik mavzular mohiyatini o'rganishni so'raydi.<br>2. Guruhlarga kichik mavzular mazmuni yoritish uchun imkon beradi.<br>3. Guruhlarning jamoa tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishlari uchun sharoit | 1. Guruh tarkibida kichik mavzuni mohiyatini o'rganadilar.<br>2. Kichik mavzular mohiyatini yoritadilar.<br>3. Berilgan savollarga javob qaytaradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| **bosqichi (10 daqiqa)** | yaratadi.<br>4. Dars yuzasidan talabalarning fikrlarini o‘rganadi.<br>5. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq berib, uning baholanishiga oid mezonlari e’lon qiladi | 4. Dars yuzasidan fikrlarini bayon qiladilar.<br>5. O‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar |

**Darsda qo‘llaniladigan interfaol metod va texnologiyalar mohiyati***

**1. “Raqamlar” metodi** yordamida bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli (20, 30, 40 va h.z.) talaba (o‘quvchi)larni muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Ushbu metod asosida tashkil etilayotgan darsda har birida 4, 5 yoki 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 4, 5 hamda 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, o‘qituvchi guruhlarni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi guruhlardan bittadan vakil bo‘ladi. YAngi shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) echimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur echimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

**2. “Taqdimot” metodi** o‘rganiladigan mavzu mohiyatini kompyuter xizmatidan foydalanilgan holda slaydlar majmuasi yordamida ochib berilishini ta’minlaydi. Metodni qo‘llashda mavzuning asosiy g‘oyalari, tayanch tushnchalari, muhim xususiyatlari kichik matn, jadval, tasvir, sxema, rasm va diagrammalar asosida yoritiladi. Ushbu metod talaba (o‘quvchi)larda mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

**3. «Aqliy hujum» metodi**, nomining o‘zi aytib turibdi. Qo‘yilgan savol, muammo, masalani butun guruh bilan birgalikda faol muhokama qilinadi. Bu usulda ma’lum muammo bo‘yicha har bir o‘quvchini o‘z fikr-mulohazalari tinglanadi. Ular asosida ma’lum bir echim tanlanadi. Uslub bo‘yicha dars o‘tishni mantiqiy izchillikda quyidagi sxema orqali ko‘rsatish mumkin:

- Muammo, muhokoma qilinadigan masalalar yoki munozorali savol qo‘yish;
- Muhokomaga o‘quvchilarni jalb etish;
- Bildirilgan fikr, g‘oyalarni to‘plash;
- G‘oya, fikrlarni saralash, guruhlarga ajratish;
- Ularni tahlil qilish;
- Eng maqbul, samarali echimni tanlash.

**4. “Menga so‘z bering” metodi** talabalarda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala yoki tadqiq etilayotgan muammo bo‘yicha shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirish, fikrlarini dalillar bilan isbotlash, ularni himoya qilish, mantiqiy xulosalarni ilgari surish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metod o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlikni qaror topshirishga yordam beradi. Dars jarayonida ushbu metodni qo‘llashda talabalar darsning tashkiliy jihatlari, samaradorligi xususida o‘z fikrlarini bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

## Ma’ruzada talabalarga beriladigan topshiriq:

*Бир турдаги интерфаол метод ва технологияларнинг моҳияти улар гарчи бир неча маърузада қўлланилган бўлса ҳам фақат биргина ўринда очиб берилади.

Бугунги кунда педагогика фанини ўрганишнинг ижтимоий-педагогик

зарурриятини шахсий мулоҳазаларингиз асосида ёритинг

## Texnologik pasport

## 2-mavzu: MA'RIFIY QADRIYATLAR VA MAQSADLAR. MA'RIFIY FIKRLAR TARAQQIYOTI VA ULARNING TARIXIYLIGI

| | |
|---|---|
| **Ma'ruzaga ajratilgan vaqt** – 2 soat | **Talabalar soni** – 50-60 nafar |
| **O'quv darsining shakli va turi** | Ma'ruza (Ko'rgazmali ma'ruza) |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. O'zbek pedagogikasida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar<br>2. SHarq mutafakkirlarining pedagogika nazariyasiga qo'shgan xissalari<br>3. Jadidchilik harakati namoyondalarining pedagogik qarashlari<br>4. CHet el mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya xususida bildirgan fikr-mulohazalari |
| **O'quv darsi-ning tarkibiy tuzilmasi** | 1. "Savol-javob" metodi yordamida talabalar tomonidan avvalgi mavzuning o'rganilish darajasini aniqlash<br>2. Tashkiliy masalalarni hal qilish, ma'ruza mavzusi va uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumotlar berish.<br>3. "Raqamlar" metodi asosida guruhlarga ma'ruza matnini tarqatish.<br>4. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash.<br>5. Ma'ruza mohiyatini "Taqdimot" metodi asosida yoritib berish.<br>6. "Klaster" metodi yordamida talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.<br>7. Darsni yakunlash. |
| **O'quv darsi-ning maqsadi** | Pedagogika fani, uning tarixiy taraqqiyoti, boshqa soxadagi ilmiy bilimlar bilan aloqasi haqida talabalarda tasavvurni shakllantirish. SHarq mutafakkirlari, jadidchilik harakati namoyondalari va chet el mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya xususiga oid bildirgan fikr-mulohazalarini o'rganish. Talabalar dunyoqarashini kengaytirish, fanga qiziqishini rivojlantirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>• O'zbek pedagogikasida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar haqida tushuncha berish<br>• SHarq mutafakkirlarining pedagogika nazariyasiga qo'shgan xissalari haqida mka'lumot berish<br>• Jadidchilik harakati namoyondalarining pedagogik qarashlarini o'rganish<br>• CHet el mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya xususida bildirgan fikr-mulohazalari haqida ma'lumot berish | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1. O'zbek pedagogikasida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar haqida nazariy ma'lumotlarni aytib bera oladilar;<br>2. SHarq mutafakkirlarining pedagogika nazariyasiga qo'shgan xissalari to'g'risidagi bilimlardan xabardor bo'ladilar;<br>3. Jadidchilik harakati namoyondalarining pedagogik qarashlarini o'rganadilar;<br>4. CHet el mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya xususida bildirgan fikr-mulohazalari xususida nazariy ma'lumotlar hosil qiladilar |
| **Ta'lim metodlari** | Ma'ruza, tushuntirish, savol-javob, namoyish etish, "Raqamlar", "Taqdimot", "Klaster" metodlari |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Ma'ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-Taqdimot |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | Joriy nazorat, savol-javob |

**Texnologik karta**

**2-mavzu: MA'RIFIY QADRIYATLAR VA MAQSADLAR. MA'RIFIY FIKRLAR TARAQQIYOTI VA ULARNING TARIXIYLIGI**

| Ish bosqich lari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. O'quv darsi ga kirish – tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)** | 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.<br>2. Kichik guruhlarni shakllantiradi.<br>3. O'quv darsining tuzilishli-mantiqiy sxemasini taqdim etadi.<br>4. Vaqti-vaqti bilan talabalarni hamkorlikka, faollikka undaydi.<br>5. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi.<br>6. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.<br>7. Darsni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.<br>8. Darsni yakunlaydi | 1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar, mavzu va uning mazmunini yorituvchi g'oyalarni yozib oladilar.<br>2. Kichik guruhlarda ishlaydilar.<br>3. Taqdim etiladigan sxema, plakat va taqdimot bilan tanishadilar.<br>4. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar.<br>5. O'qituvchi, tengdoshlari bilan bahsga kirishib, mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar.<br>6. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar |
| **2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)** | 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi.<br>2. Plakatlar mohiyatini yoritadi.<br>3. Mavzuga doir o'quv materialini kichik guruhlarga tarqatadi.<br>4. Taqdimot asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etadi, tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi.<br>5. Guruhlarga topshiriqlar beradi.<br>6. O'quv materialining bo'limlari va umumiy mazmuni bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi. | 1. Mavzu rejasi va asosiy tushunchalar bilan tanishadilar..<br>2. Plakatlar mohiyatini o'rganadilar.<br>3. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, taqdimot bilan tanishadilar.<br>4. Mavzuga oid tayanch tushunchalarning mazmunini o'rganadilar.<br>5. Zarur o'rinlarda savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar.<br>6. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi. |

| | | |
|---|---|---|
| **3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)** | 1. Guruhlardan berilgan topshiriqlarni bajarishlarini so‘raydi.<br>2. Guruhlar tomonidan ishlangan klaster mazmunini jamoa bilan hamkorlikda tahlil qiladi.<br>3. Berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o‘zlashtirilmagan qismini qayta tushuntiradi.<br>4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi | 1. Guruh tarkibida topshiriqning echimini izlaydilar.<br>2. Guruhning topshiriq borasidagi fikri bilan jamoani tanishtiradilar.<br>3. Boshqa guruhlarning echimlari bilan tanishadilar, ularga o‘z fikrlarini bildiradilar.<br>4. O‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlaydilar.<br>5. O‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar |

## Darsda qo‘llaniladigan interfaol metod va texnologiyalar mohiyati

**“Savol-javob” metodi** mavzuning talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi mohiyati yoritilgan mavzu yuzasidan savollar tayyorlaydi va ularni talabalarning e’tiborlariga havola etadi. Talabalar berilgan savollarga javob qaytarish orqali mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini namoyish etadilar. Metodni qo‘llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga doir bo‘lishiga bog‘liq.

**“Klaster” (“klaster” – g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) metodi** puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan darslar jarayonida foydalanish mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi: 1. Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, uni qog‘ozga yozing. Fikringizning sifati haqida o‘ylab o‘tirmay, shunchaki yozib boring. 2. YOzuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang. 3. Belgilangan vaqt nihoyasiga etmagunicha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biror bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguniga qadar davom ettiring. 4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlikni ko‘rsating.

Metod yordamida talabalar topshiriq yuzasidan fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydilar:

**Ma’ruzada talabalarga beriladigan topshiriq:**

| |
|---|
| Маърифий фикрлар тараққиёти ва уларнинг тарихийлиги моҳиятини кластерлар ёрдамида  очиб беринг |

**Texnologik pasport**

**3-mavzu: ZAMONAVIY TA’LIM–TARBIYANING MOHIYATI, TAMOYILLARI, MAZMUNI VA METODLARI**

| | |
|---|---|
| **Ma’ruzaga ajratilgan vaqt** – 2 soat | **Talabalar soni** – 50-60 nafar |
| **O‘quv darsining shakli va turi** | Ma’ruza (Anjuman ma’ruza) |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Didaktika haqida tushuncha<br>2. Ta’lim-arbiya nazariyasi va mazmuni<br>3. Ta’lim-tarbiya tamoyillari va ularga tavsif<br>4. Ta’lim-tarbiya metodlari va ularning mazmuni<br>5. O‘zbekistonda ta’limni isloh qilish tamoyillari va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy yo‘nalishlari |
| **O‘quv darsining tarkibiy tuzilmasi** | 1. “Savol-javob” metodi yordamida talabalar tomonidan avvalgi mavzuning o‘rganilish darajasini aniqlash.<br>2. Tashkiliy masalalarni hal qilish, ma’ruza mavzusi va uning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish.<br>3. “Raqamlar” metodi asosida guruhlarga ma’ruza matnini tarqatish.<br>4. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash.<br>5. Ma’ruza mohiyatini “Taqdimot” metodi asosida yoritib berish.<br>6. “Muloqot treningi” metodi yordamida talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.<br>7. Darsni yakunlash. |
| **O‘quv darsning maqsadi** | Didaktika haqida tushuncha, ta’lim-tarbiya nazariyasi, mazmuni, tamoyillari, metodlari, ularning mazmuniga oid nazariy ma’lumotlarni o‘rganish. Talabalar dunyoqarashini kengaytirish, fanga qiziqishini rivojlantirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>• Didaktika haqida tushuncha berish<br>• Ta’lim-arbiya nazariyasi va mazmuni haqida mka’lumot berish<br>• Ta’lim-tarbiya tamoyillarini o‘rganish;<br>• Ta’lim-tarbiya metodlari va ularning mazmuni haqida ma’lumot berish;<br>• O‘zbekistonda ta’limni isloh qilish tamoyillari va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy yo‘nalishlarini bilish | **O‘quv faoliyati natijalari:**<br>1. Didaktika haqida tushunchaga ega bo‘lishadi;<br>2. Ta’lim-tarbiya nazariyasi va mazmuni haqida nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lishadi;<br>3. Ta’lim-tarbiya tamoyillarini bilishadi;<br>4. Ta’lim-tarbiya metodlari va ularning mazmuni haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishadi;<br>5. O‘zbekistonda ta’limni isloh qilish tamoyillari va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy yo‘nalishlarini bilishadi |
| **Ta’lim metodlari** | Ma’ruza, “Savol-javob”, “Raqamlar”, “Bumerang”, “Taqdimot” va “Muloqot treningi” metodlari |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Ma’ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma’ruza matni, slayd-taqdimot |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | Joriy nazorat, savol-javob |

## Texnologik karta

## 3-mavzu: ZAMONAVIY TA’LIM–TARBIYANING MOHIYATI, TAMOYILLARI, MAZMUNI VA METODLARI

| Ish bosqich | Faoliyat mazmuni |
|---|---|

| lari va vaqti | O'qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| **1-bosqich. O'quv darsi ga kirish – tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)** | 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.<br>2. Kichik guruhlarni shakllantiradi.<br>3. O'quv darsining tuzilishli-mantiqiy sxemasini taqdim etadi.<br>4. Vaqti-vaqti bilan talabalarni hamkorlikka, faollikka undaydi.<br>5. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi.<br>6. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.<br>7. Darsni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.<br>8. Darsni yakunlaydi | 1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar, mavzu va uning mazmunini yorituvchi g'oyalarni yozib oladilar.<br>2. Kichik guruhlarda ishlaydilar.<br>3. Taqdim etiladigan sxema, plakat va taqdimot bilan tanishadilar.<br>4. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar.<br>5. O'qituvchi, tengdoshlari bilan bahsga kirishib, mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar.<br>6. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar |
| **2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)** | 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosoiy tushunchalari bilan tanishtiradi.<br>2. Plakatlar mohiyatini yoritadi.<br>3. Mavzuga doir o'quv materialini kichik guruhlarga tarqatadi.<br>4. Taqdimot asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etadi, tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi.<br>5. Guruhlarga topshiriqlar beradi.<br>6. O'quv materialining bo'limlari va umumiy mazmuni bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi. | 1. Mavzu rejasi va asosiy tushunchalar bilan tanishadilar..<br>2. Plakatlar mohiyatini o'rganadilar.<br>3. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, taqdimot bilan tanishadilar.<br>4. Mavzuga oid tayanch tushunchalarning mazmunini o'rganadilar.<br>5. Zarur o'rinlarda savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar.<br>6. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi. |
| **3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)** | 1. Guruhlardan berilgan topshiriqlarni bajarishlarini so'raydi.<br>2. Guruhlar tomonidan ishlangan klaster mazmunini jamoa bilan hamkorlikda tahlil qiladi.<br>3. Berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntiradi.<br>4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi | 1. Guruh tarkibida topshiriqning echimini izlaydilar.<br>2. Guruhning topshiriq borasidagi fikri bilan jamoani tanishtiradilar.<br>3. Boshqa guruhlarning echimlari bilan tanishadilar, ularga o'z fikrlarini bildiradilar.<br>4. O'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlaydilar.<br>5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar |

**Darsda qo'llaniladigan interfaol metod va texnologiyalar mohiyati**

**Muloqot treningi** talabalarda dars jarayonida mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon etish, bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Unga ko'ra darsda talabalar kichik guruhlarga birikkan holda o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar. Talabalar mavzu yuzasidan material, dalil, fikrlarini tasdiqlovchi ko'rgazmali vositalar, imkoni bo'lsa, videofilm, maqola, ihtibos va boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhning bir a'zosi echimni jamoa e'tiboriga havola qiladi. So'ngra raqib jamoaning topshiriq yuzasidan fikri tinglanadi. Keyingi

bosqichda guruhlar bir-birlariga savol beradilar. O‘qituvchi har ikki tomonning savol va javoblari tinglagach, bildirilgan fikrlarni umumlashtiradi, shaxsiy fikrini bayon qiladi va talabalarning savollariga javob beradi.

**Ma’ruzada talabalarga beriladigan topshiriq:**

| |
|---|
| Замонавий таълим–тарбиянинг моҳияти, тамойиллари, мазмуни ва методларини ёритадиган кўрсатмали қуроллар тайёрланг |

**Texnologik pasport**

**4-mavzu: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

| | | |
|---|---|---|
| **Ma’ruzaga ajratilgan vaqt – 2 soat** | | **Talabalar soni –** 50-60 nafar |
| **O‘quv darsining shakli va turi** | | Ma’ruza (Anjuman ma’ruza) |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning dolzarbligi<br>2. Pedagogik texnologiya predmeti<br>3. Texnologiya va tizim tushunchalari<br>4. Pedagogik texnologiya nazariyasininig shakllanish bosqichlari | |

| | |
|---|---|
| 5.<br>6.<br>7. | Faol o‘qitish metodlarini tanlash. An’anaviy va noan’anaviy metodlar<br>“Aqliy hujum” metodi<br>“Davra suhbati” metodi |
| **O‘quv darsi-ning tarkibiy tuzilmasi** | 1. “Savol-javob” metodi yordamida talabalar tomonidan avvalgi mavzuning o‘rganilish darajasini aniqlash.<br>2. Tashkiliy masalalarni hal qilish, ma’ruza mavzusi va uning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish.<br>3. “Raqamlar” metodi asosida guruhlarga ma’ruza matnini tarqatish.<br>4. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash.<br>5. Ma’ruza mohiyatini “Taqdimot” metodi asosida yoritib berish.<br>6. “FSMU” texnologiyasi yordamida talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.<br>7. Darsni yakunlash. |
| **O‘quv darsi-ning maqsadi** | Talabalarga ta’lim metodlari va vositalarining mohiyati, turlari va ularni tanlash to‘g‘risidagi bilimlarni berish asosida ta’limni tashkil etish jarayonida ulardan foydalanishga oid ko‘nikmalarni shaklantirish |

| **Pedagogik vazifalar:** | **O‘quv faoliyati natijalari:** |
|---|---|
| • Pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning dolzarbligi haqida tushuncha berish<br>• Pedagogik texnologiya predmeti haqida mka’lumot berish<br>• Texnologiya va tizim tushunchalarini o‘rganish<br>• Pedagogik texnologiya nazariyasininig shakllanish bosqichlari haqida ma’lumot berish<br>• Faol o‘qitish metodlarini tanlash. An’anaviy va noan’anaviy metodlarini bilish | 1. Didaktika haqida tushunchaga ega bo‘lish;<br>2. Ta’lim-tarbiya nazariyasi va mazmuni haqida nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lish;<br>3. Ta’lim-tarbiya tamoyillarini bilish;<br>4. Ta’lim-tarbiya metodlari va ularning mazmuni haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish;<br>5. O‘zbekistonda ta’limni isloh qilish tamoyillari va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy yo‘nalishlarini bilish |
| **Ta’lim metodlari** | Ma’ruza, tushuntirish, savol-javob, “Taqdimot”, “Raqamlar”, “FSMU” texnologiyasi |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Ma’ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma’ruza matni, slayd-taqdimot |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | Joriy nazorat, savol-javob |

## Texnologik karta

## 4-mavzu: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

| **Ish bosqich lari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O‘qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. O‘quv darsi ga kirish – tashkiliy-** | 1. Mavzu, mavzuni o‘zlashtirishdan ko‘zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.<br>2. Kichik guruhlarni shakllantiradi.<br>3. O‘quv darsining tuzilishli-mantiqiy sxemasini taqdim etadi.<br>4. Vaqti-vaqti bilan talabalarni | 1. O‘qituvchi nutqni tinglaydilar, mavzu va uning mazmunini yorituvchi g‘oyalarni yozib oladilar.<br>2. Kichik guruhlarda ishlaydilar.<br>3. Taqdim etiladigan sxema, plakat va taqdimot bilan tanishadilar.<br>4. Zarur o‘rinlarda savollar bilan |

| | | |
|---|---|---|
| **tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)** | hamkorlikka, faollikka undaydi.<br>5. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi.<br>6. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.<br>7. Darsni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.<br>8. Darsni yakunlaydi | murojaat qiladilar.<br>5. O'qituvchi, tengdoshlari bilan bahsga kirishib, mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar.<br>6. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar |
| **2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)** | 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosoiy tushunchalari bilan tanishtiradi.<br>2. Plakatlar mohiyatini yoritadi.<br>3. Mavzuga doir o'quv materialini kichik guruhlarga tarqatadi.<br>4. Taqdimot asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etadi, tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi.<br>5. "FSMU" texnologiyasini qo'llashga oid topshiriqni guruhlarga beradi.<br>6. O'quv materialining bo'limlari va umumiy mazmuni bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi. | 1. Mavzu rejasi va asosiy tushunchalar bilan tanishadilar..<br>2. Plakatlar mohiyatini o'rganadilar.<br>3. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, taqdimot bilan tanishadilar.<br>4. Mavzuga oid tayanch tushunchalarning mazmunini o'rganadilar.<br>5. Zarur o'rinlarda savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar.<br>6. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi. |
| **3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)** | 1. Guruhlardan berilgan topshiriqlarni bajarishlarini so'raydi.<br>2. Guruhlar tomonidan ishlangan klaster mazmunini jamoa bilan hamkorlikda tahlil qiladi.<br>3. Berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntiradi.<br>4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi | 1. Guruh tarkibida topshiriqning echimini izlaydilar.<br>2. Guruhning topshiriq borasidagi fikri bilan jamoani tanishtiradilar.<br>3. Boshqa guruhlarning echimlari bilan tanishadilar, ularga o'z fikrlarini bildiradilar.<br>4. O'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlaydilar.<br>5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar |

## Darsda qo'llaniladigan interfaol metod va texnologiyalar mohiyati

**«Kichik guruhlarda ishlash» usuli**

Bunda ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida kichik guruhlarga ajratiladi va o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni boshqarishga alohida e'tibor beriladi. Usul qo'llanilganda ishtirokchilar kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish, boshlovchi rolida bo'lish, bir-biridan o'rganish, turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. Vaqt tejaladi, chunki, ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholaydi.

**“FSMU” texnologiyasi** talabalarda oʻrganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Darslarda ushbu metodni qoʻllash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) oʻqituvchi texnologiyaning mohiyatini yoritadi va talabalarni texnologiyadan foydalanish shartlari bilan tanishtiradi; 2) har bir talabaga “FSMU” texnologiyasining sxemasi tushirilgan qogʻozlarni taqdim etadi; 3) oʻqituvchi talabalarga ushbu sxema asosida mavzu mohiyatini yoritishga oid topshiriqni beradi; 4) talabalar kichik guruhlarda topshiriqni bajaradilar; 5) guruhlar oʻz echimlarini jamoaga maʼlum qiladi; 6) jamoa guruhlarning echimlarini muhokama qiladi; 7) oʻqituvchi talabalarning dars samaradorligi borasidagi fikrlarini tinglaydi va darsga yakun yasaydi.

Talabalar quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

| № | Tushunchalar | (F) | (S) | (M) | (U) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Ta’lim metodlari | | | | |
| 2. | Ta’lim vositalari | | | | |
| 3. | Ta’limni tashxis qilish | | | | |

Izoh: shartli belgilar quyidagi mazmunni anglatadi:
(F) – ***fikringizni*** bayon eting;
(S) – fikringizni asoslovchi biron ***sabab*** koʻrsating;
(M) – koʻrsatilgan sababning asosli ekanligini isbotlovchi ***misol*** keltiring;
(U) – fikringizni ***umumlashtiring***

**Ma’ruzada talabalarga beriladigan topshiriq:**

Фаол ўқитиш методлари мазмунини “ФСМУ” методи ёрдамида очиб беринг

**Texnologik pasport**

**5-mavzu. PEDAGOGIK MULOQOT**

| | |
|---|---|
| **Ma’ruzaga ajratilgan vaqt** – 2 soat | **Talabalar soni** – 50-60 nafar |
| **Oʻquv darsining shakli va turi** | Ma’ruza (Binarli ma’ruza) |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Muloqot – pedagogik tarbiya vositasi sifatida<br>2. Muloqot yohud muomala madaniyati haqida tushuncha<br>3. Tarbiyalanuvchilarda shaxslararo insonparvar-axloqiy muloqotni tarbiyalash<br>4. Oʻqituvchi-pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik muomala madaniyati<br>5. Pedagogik muomala testi<br>6. Pedagogik muloqot – boʻlajak yuksak malakali mutaxassis shaxsini |

| | |
|---|---|
| | shakllantirish sharti sifatida |
| **O'quv darsining tarkibiy tuzilmasi** | 1. "Aqliy hujum" metodi yordamida talabalar tomonidan avvalgi mavzuning o'rganilish darajasini aniqlash.<br>2. Tashkiliy masalalarni hal qilish, ma'ruza mavzusi va uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumotlar berish.<br>3. "Raqamlar" metodi asosida guruhlarga ma'ruza matnini tarqatish.<br>4. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash.<br>5. Ma'ruza mohiyatini "Taqdimot" metodi asosida yoritib berish.<br>6. "Galereyani aylanish" metodi yordamida talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.<br>7. Darsni yakunlash. |
| **O'quv darsining maqsadi** | Talabalarda muloqot – pedagogik tarbiya vositasi ekanligi, muomala madaniyati, pedagogik muomala testi kabilar haqida nazariy ma'lumotlarni hosil qilish. Talabalar dunyoqarashini kengaytirish, fanga qiziqishini rivojlantirish |

| | |
|---|---|
- **ta’limning milliy yo‘naltirilganligi** - ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotining o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

- **ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi,** bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- **iqtidorli yoshlarni aniqlash,** ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.
- **Uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:**
- ta'lim tizimining kadrlar saloùiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, pedagog, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufo'zini oshirish;
- milliy mustaqillik tamoyillarini va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustivorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;
- ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;
- tub erli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;
- ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

## 4-Mavzu: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

**Reja:**

1. **Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning dolzarbligi**
2. **Pedagogik texnologiya predmeti**
3. **Texnologiya va tizim tushunchalari**
4. **Pedagogik texnologiya nazariyasininig shakllanish bosqichlari**
5. **Faol o'qitish metodlarini tanlash. An'anaviy va noan'anaviy metodlar**
6. **"Aqliy hujum" metodi**
7. **"Davra suhbati" metodi**

### 1. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning dolzarbligi

Mamlakatimiz prezidenti I. Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yuz beradigan o'zgarishlar ro'y-rost oldindan ko'rsatib berildi. Jumladan:

Ijtimoiy-iqtisodiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi;

Insonnn hayotda o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;

Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;

Jamiyatimizning potensial kuchlarini ruyobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;

Fuqarolik jamiyati qurishni ta'minlaydi.

YUqorida keltirilgan fikrlarni amalga oshirishni ta'minlash mAqsadida hukumatimiz tomonidan qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p kara takrorlanadi.

2. P**edagogik texnologiyaning predmeti -** pedagogik tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, pedagogik modelini tanlashdan, to ularni amalga oshirishgacha, ularning muqobillik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topadi.

Pedagogika fani va amaliyotida, «pedagogik texnologiya», «pedagogik texnologiyasi», «o'qitish texnologiyasi» kabi atamalardan keng foydalanilmoqda.

## 1. Texnologiyasi va tizim tushunchalari

Dastlab **«texnologiya»** tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan – **«texnos»** (**techne)-** mahorat, san’at va **«logos»** (**logos)** – fan, pedagogikot so‘zlaridan tashkil topgan. Bu ifoda zamonaviy texnologiya jarayonini to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi.

## 2. «Pedagogik texnologiya» nazariyasininig shakllanish bosqichlari

| N | Bosqichlar | Yillar | Pedagogik texnologiya |
|---|---|---|---|
| 1. | I- bosqich | XX asrning 30 yillari | TT Pedagogik texnika-o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisidir. |
| 2. | II- bosqich | XX asrning 50 yillari | TT PTQpedagogik jarayonida texnik vositalarni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig‘imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, o‘quvchi faoliyatini individuallashtirish |
| 3. | III- bosqich | XX asrning 60-80 yillari | TT Pt TV dasturiy pedagogik. Dasturiy pedagogik-tarbiya maqsadlarini aniqlanishi, pedagogik jarayonini umumiy loyihalash, o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashxislash, pedagogik maqsadining natijalanganligini o‘rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish |
| 4. | IV-bosqich | Mustaqillik yillari | Pedagogikni texnologiyalashtirishning asosini, pedagogik jarayonini, uning samaradorligini oshirish va pedagogik oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o‘quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to‘liq boshqarish g‘oyasi tashkil etadi |

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiyaga berilgan boshqa ta’riflar ham keltiriladi, bizningcha, eng maqbuli YUNESKO ta’rifidir.

**«Pedagogik texnologiya – o‘z oldiga pedagogik shakllarini muqobillashtirish vazifasini qo‘yuvchi, texnik hamda shaxs resurslari va ularning o‘zaro faoliyatini hisobga olib, pedagogik berish va tahsil olish jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir».**

«**Pedagogik texnologiyasi»** – pedagogik modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir»

**Pedagogik texnologiyaning an’anaviy ta’limdan afzalligi**, u pedagogik jarayonini bir butunlikda ko‘rib, pedagogik maqsadi, kutiladigan natijalari, uning mazmuni, pedagogik metodlari, shakllari va vositalari, hamda tahsil oluvchi va pedagogik beruvchilarning faoliyatlarini tizimga keltirib, pedagogik bosqichlarini loyihalab, pedagogik jarayonini nazorat qilish va pedagogik natijalarini baholash kabi elementlarini o‘zaro uzviy bog‘lab tizimga keltirib turib uning loyihasini tuzishidadir.

## 3. Faol o‘qitish metodlarini tanlash

Jamiyatimizning har bir fuqarosi XXI asr bo‘sag‘asida turar ekanmiz, ortda qolgan yillar qadrini baholashga va kelajak hayotining turli jabhalarini belgilab olishga urinishi tabiydir. Jumladan, o‘rta maxsus, kasb-hunar pedagogiki sohasida faoliyat ko‘rsatayotganlar ham bundan mustasno emas.

Bugungi kunda **pedagogik** texnologiyalarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

-  **An’anaviy**
-  **Noan’anaviy**

**An’anaviy pedagogik texnologiya–** muayyan muddatga mo‘ljallangan, pedagogik jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, o‘qitishning an’anaviy shakli, metodi va pedagogik vositalarining majmuidan foydalanib pedagogik-tarbiya mAqsadiga erishishdir.

**Noan’anaviy pedagogik texnologiya**-muayyan muddatga mo‘ljallangan, pedagogik jarayoni markazida o‘quvchi shaxsi bo‘lib, o‘qitishning zamonaviy shakli, faol o‘qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini pedagogik-tarbiya ishidan ko‘zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltirishdir.

**Noan’anaviy** pedagogik texnologiyasini o‘z navbatida uchga bo‘linadi***:***

- **Hamkorlikda o‘rganish**
- **Modellashtirish**
- **Tadqiqot( Loyiha)**

**Hamkorlikda o‘rganish -** *o*‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo‘yicha reproduktiv faoliyatini ta’minlovchi, mahorat va malakani ketma-ketlik bo‘yicha o‘quvchining bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o‘qitish va bilim olishdir. U o‘quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga pedagogik olishini ko‘zda tutadigan metodlardan iborat. Bularga kitob bilan ishlash, o‘quv suhbati, davra suhbati, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi metodlarni kiritish mumkin**.**

**Modellashtirish**–real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko‘rinishini sinfxonada yaratish va ularda o‘quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga pedagogik olishini ko‘zda tutadi. Uning asosiy maqsadi o‘quvchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta’minlash orqali pedagogik jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan.

**Tadqiqot–** o‘quvchilar tomonidan muammoni tushunish va echish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar yig‘indisidan iboratdir. Tadqiqotning maqsadi dars jarayonida o‘quvchilarda savol qo‘yish va ularga javob izlashida qiziqishini uyg‘otishga qaratilgandir. Unda o‘qitish o‘quvchilarni amaliy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini ta’minlaydi. Bularga muammoli vaziyat, loyihalash metodi, mustaqil izlanish, yo‘naltiruvchi matn kabi metodlar kiradi

## 4. «AQLIY HUJUM» metodi

**Aqliy hujum** -g‘oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni echishda o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga o‘quvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. O‘quvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga o‘quvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

## 5. «DAVRA SUHBATI» metodi

**Davra suhbati-** o‘quvchilar o‘rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

«Davra suhbati» metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o‘quvchining bir-biri bilan «ko‘z aloqasi»ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va o‘quvchilardan ushbu mavzu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir o‘quvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar.

So‘zlayotgan o‘quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

## 5-mavzu: PEDAGOGIK MULOQOT

**REJA:**

1. **Muloqot – pedagogik tarbiya vositasi sifatida**
2. **Muloqot yohud muomala madaniyati haqida tushuncha**
3. **Tarbiyalanuvchilarda shaxslararo insonparvar-axloqiy muloqotni tarbiyalash**
4. **O‘qituvchi-pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik muomala madaniyati**
5. **Pedagogik muomala testi**
6. **Pedagogik muloqot – bo‘lajak yuksak malakali mutaxassis shaxsini shakllantirish sharti sifatida**

**1. Muloqot – pedagogik tarbiya vositasi sifatida.** Muloqot (arabcha so‘z bo‘lib- “uchrashish, ko‘rishish; qabul qilish ma’nosini anglatadi”) insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va fikr almashuv shaklining bir turi[1].

SHunday ekan, inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta’lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me’yorlar, g‘oya va mafkura omillari ta’sirida yashab ijtimoiylashadi va barkamol shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Tarixiy tajriba va amaliy faoliyat shundan dalolat beradiki, insonni jamiyatdan va shaxslararo bo‘ladigan o‘zaro muloqotidan ajratib qo‘yish uning shaxs sifatida shakllanishiga imkon beradigan ijtimoiy sifat, xususiyat hamda fazilatlardan mahrum bo‘lishiga olib keladi. CHunki muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy-ma’naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini aks ettiradi. “Hech kimga sir emaski, deb yozgan edi polyak psixologi E.Meliburd,- shaxslararo munosabat biz uchun nafas olayotgan havodek zarurdir”.

**2. Muloqot yohud muomala madaniyati haqida tushuncha. Muomala madaniyati.** Kundalik faoliyatimizda kishilar bilan bo‘lgan muloqot, suhbat hamda muzokaralarda haqiqatni anglatadiga yagona tushuncha bu mantiqiylik deb hisoblanib, barcha xatti-harakatlarimizni mantiqiylik va mantiqsizlik degan tushuncha bilan baholashga o‘rganib qolgan edik.

SHu o‘rinda ibratli bir rivoyatni eslash o‘rinli: «Iskandardan so‘rabdilar: «Ozgina sarmoya va oz sonli askar bilan bunday ko‘p mamlakatni qanday hislat bilan qo‘lga kiritding?» Iskandar: «Lutf va yumshoq muomala bilan dushmanlarni qo‘lga kiritim. Ahd-paymon yo‘li bilan do‘stlarni yo‘lga soldim, shu jihatdan ko‘p mamlakatni egalladim», deb javob berdi.

**3. Tarbiyalanuvchilarda shaxslararo insonparvar-axloqiy muloqotni tarbiyalash**

Muloqot –- bu bir vaqtda boshqa insonlar bilan harakatlar, fikrlar, sezgilar, hayajonlar almashish hamda insonning o‘z qalbiga, xotiralariga, vijdoniga, orzulariga murojaat etishidir[1].

Muloqot – ijtimoiy-faol, individual-ijodiy, amaliy-predmetli faoliyatdir. Muloqotda asosiysi- birdamlik, do‘stonalik, bag‘rikenglik, fidokorlik hisoblanadi.

Muloqot – bu «SHaxsning eng yaxshi tomonlarini aniqlash va ochib berishga yordam beruvchi ijodkorlik shaklidir. U boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan axloq, odatlarning oddiy qoidalariga amal qilishga asoslanishini»[2] esda saqlash zarur. Muloqotning nazariy asoslarini L.S.Vыgotskiy, V.N.Leontev, M.G.Davletshin, E.G‘oziev, SH.K.Mardonovlar o‘rganganlar, ushbu tushunchaning faoliyatdagi mantiqiy-metodologik izohlarini ishlab chiqqanlar.

---

11 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том, Москва, «Рус тили» нашриёти, 1981, 636-бет.

11 Словарь по этики. Под. Ред И.С.Кона. – Москва; «Политика», 1983, с228.

22 Ўша жойда, 228-бет.

**4. O‘qituvchi-pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik muomala madaniyati**

Hozirgi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodning aql-idrokini o‘stirish, ilmu ma’rifat ziyosidan bahramand qilish uchun o‘qituvchi-pedagogning bilim saviyasi, kasbiy mahorati va muomala madaniyat yuksak bo‘lishi hayotiy ehtiyojdir.

**5. Pedagogik muomala testi**

Pedagogik muomala – o‘quvchi-talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa o‘rnatilishi va hamkorlik rivojlanishidan iborat jarayon bo‘lib, bu jarayon ularning o‘zaro hamkorlik qilishga nisbatan ehtiyojlari asosida vujudga keluvchi quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi faoliyatdir:

-o‘zaro tushunish va anglash;

-o‘zaro bir-birini idrok qilish;

-o‘zaro axborot almashish;

-o‘zaro harakat qilishning yagona uslubini ishlab chiqish.

Muomalaviy boshqaruv – xodimlar ustidan rahbarlik qilish maqsadida amalga oshiriladigan muomala jarayonidir.

**6. Pedagogik muloqot – bo‘lajak yuksak malakali mutaxassis shaxsini shakllantirish sharti sifatida**

Ma’lumki “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da oliy ta’lim tizimida bilimdon, milliy va umumbashariy qadriyatlarni egallagan, yuksak madaniyatli, yuqori intellekt egasi bo‘lgan etuk mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Albatta, bu o‘rinda bo‘lajak mutaxassislarda mukammal kasbiy tayyorgarlik, ijodkorlik, siyosiy va iqtisodiy bilimdonlik, hayotiy faollik kabi sifatlar bilan bir qatorda muloqot qobiliyatini ham shakllantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. SHuningdek, YUrtboshimizning nutqlari va fundamental asarlarida ham ana shunday keng tafakkurli, ongli, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, hayotda o‘z o‘rnini yo‘qotmaydigan barkamol shaxslar etishib chiqishi bir necha marta qayd etilgan.

## 6-mavzu: O‘QUV-TARBIYAVIY VAZIYATLARNI LOYIHALASHTIRISH ASOSLARI

**Reja:**

6. **O‘quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalash**
7. **Loyihalash jarayonining ob’ekti va muammolari**
8. **Ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish**
9. **Oiladagi tarbiyaviy majburiyatlar va vazifalar**
10. **Tarbiya – o‘quv-tarbiyaviy jarayon sifatida**

**1. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalash.**

Ta’lim jarayoni bo‘yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: ta’lim loyihasini tayyorlash va loyihani amalga oshirish.

1. Ta’lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o‘qituvchi yoki ekspert a’zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo‘lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida pedagog va talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Ta’lim loyihasi ma’lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma’lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta’lim mazmuni o‘rganiladi, u yoki bu mavzuni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad, ta’limning didaktik maqsadi, pedagog va talabalar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo‘yicha o‘tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o‘zlashtirish usuli oldindan belgilab qo‘yiladi. Bu ishlarning barchasi ongda ta’lim modelini yaratishga olib keladi.

2. Ta’lim loyihasini amalga oshirish. Ta’lim loyihasi bevosita ta’lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e’tibor qaratiladi:

- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha maqsad, vazifalar bilan talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e’lon qilish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish, o‘zlashtirish me’yorlarini aytib berish;
- talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag‘batlantirish, ular diqqatini bo‘lim yoki mavzu

mazmuniga tortish, uni qanday o‘rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg‘otish, o‘qish-o‘rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg‘otish, emotsiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o‘quv holatlariga tatbiq etish yo‘llari orqali mavzu bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash, to‘plangan ma’lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga oid o‘zgarish, qo‘shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha to‘plangan bilimlarga ishlov berish.

2. **Loyihalash jarayonining ob’ekti va muammolari. Loyihalash** hozirgi kunda pedagogik jarayonning muhim tomonlaridan bo‘lib, malakali ishlab chiqilgan pedagogik jarayon texnologiyasi va boshqa ob’ektlar o‘qituvchi tomonidan ta’lim oluvchilarni shaxs sifatida shakllantirishda salbiy ta’sir etuvchi faktorni yo‘qotib, shu bilan birga har bir ta’lim oluvchiga pedagogik tizim tomonidan qabul qilingan individual sharoitlar yaratadi.

Pedagogik loyihalashning umumiy algoritmi quyidagilardan iborat:

Loyihalash ob’ektining tahlili.

Loyihalash shakllarini tanlash.

Loyihalashtirishni nazariy ta’minlash.

Loyihalashtirishni metodik ta’minlash.

Vaqt bilan ta’minlash. (ma’lum vaqt va hajmda ishlash).

Loyihalashni moddiy va texnik ta’minlash.

Loyihalashni huquqiy ta’minlash. (pedagogik tizim va jarayonda)

Kompyuter orasidagi aloqani yo‘lga qo‘yish.

Hujjatlarni rasmiylashtirish.

Loyihaga mutaxassislarning bahosi.

Loyihalarni tasdiqlash va foydalanishga berish.

Loyihani tasdiqlashda birinchi o‘rinda tayyorlangan loyiha kafedra himoyasiga beriladi, so‘ngra tegishli markazlarga yuboriladi. Bu markazlar loyihaning yutug‘i, maqsadi, o‘quv materiallarining mazmuni, metodlari va shakllariga o‘z bahosini chiqaradi.

**3. Ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish**

Ta’lim oluvchilarning asosiy o‘quv faoliyati bilimlarni o‘zlashtirish bo‘lib, quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: o‘quv materiallarini qabul qilish, fikrlash, egallab qolish va qo‘llash. Bu komponentlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘quv jarayonida ketma-ket qo‘llanilib butun bir o‘quv jarayonini tashkil etadi.

Ta’lim oluvchining o‘quv materialini qabul qilishi.

O‘quv materialini qabul qilish o‘quv jarayonining eng muhim qismidir. O‘quv materialini yaxshi qabul qilinishi o‘quv ishlab chiqarish faoliyatida mustahkam fundament rolini o‘ynaydi.

O‘quv materialini samarali o‘zlashtirishning ichki sharoitlari.

O‘quv materialini samarali o‘zlashtirish uchun eng avvalo ta’lim oluvchining ichki ehtiyoji bo‘lishi kerak. Ichki o‘zlashtirish javob bergandan imtihongacha esda saqlanib javob berib bo‘lganidan keyin esdan chiqadi. O‘zlashtirishning muvaffaqiyati ta’lim oluvchining faoliyatiga ham bog‘liq bo‘ladi. CHunki ta’lim oluvchi berilayotgan materiallarga qiziqsa va o‘z ustida ishlasa o‘zlashtirishning eng yuqori cho‘qqisiga erishishi mumkin.

O‘zlashtirishning ichki faktlaridan yana biri berilayotgan materialni ta’lim oluvchi tomonidan tushunishdir. CHunki ta’lim oluvchi mavzuni tushunmasa, qancha o‘z ustida ishlamasin, oldingi mavzular bilan bog‘liq bo‘lmasa, mavzuning o‘zlashtirilishi sodir bo‘lmaydi va juda sayoz bo‘ladi.

**4. Oiladagi tarbiyaviy majburiyatlar va vazifalar.**

Oila jamiyatning bir bo‘lagi. SHunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo‘lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila tor maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoadir. SHu sababli oilalar birlashib jamiyatni tashkil etadi.

Jamiyatdagi o‘zgarishlar oilaga ta’sirini ko‘rsatganidek, oiladagi o‘zgarishlar ham jamiyatga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Buni biz 1998 yil mamlakatimizda “Oila yili” deb e’lon qilinishi misolida ko‘rishimiz mumkin. SHu munosabat bilan hukumatimiz ishlab chiqqan tadbirlar oilani ijtimoiy muhofaza qilish, oilada yoshlar tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish, oilaning huquqiy tamoyillarini kengaytirish va boshqa oilani mustahkamlash bilan bog‘liq masalalarga qaratildi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: ”Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Oila ahil va

totuv bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi - milliy farovonlik asosidir”.

## 7-mavzu: O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI VA VOSITALARI

**Reja:**

**1. O‘qitishning umumiy va muayyan shakllari.**

**2. Ta’lim vositalari va ularning turlari.**

**3. Tarbiya vositalari va ularni amalga oshirish shakllari**

### 1. O‘qitishning umumiy va muayyan shakllari

Ta’limni tashkil etish shakllari ma’lum ijtimoiy to‘zumning manfaatlariga mos holda shakllangan. XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi YA.A. Komenskiy (1592 - 1670) tarixda birinchi bo‘lib maktab ta’limida sinf – dars tizimini yaratdi.

YA. A. Komenskiyning ta’limni tashkil qilish haqidagi karashli bir kator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo‘lsa ham garb mamlakatlariga juda tez tarkaldi va ta’limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e’tirof etildi.

Sinf – dars tizimi shark mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tadbik bo‘lmadi. Ularda oktyabr tuntarishiga kadar o‘rta asr maktablariga xos ta’lim tizimi davom etib keldi.

Bir o‘qish xonasida 6 yoshdan 15 - 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar guruhi bilan bir vaqtda mashg‘ulot olib borilardi. SHuningdek, bir o‘qish xonasidagi (20 - 30) O‘quvchining bilim darajasi ham turlicha bo‘lar edi. [3]

O‘zbek maktabi oktyabr tuntarishidan keyin sinf – dars tizimiga utdi.

Sinf – yoshi va bilimi jixatdan bir xil bo‘lgan ma’lum miqdoridagi O‘quvchilar guruhidir.

**Dars – ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli sifatida.** Dars deb bevosita O‘qituvchining rahbarligida muayyan O‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg‘ulotiga aytiladi.

Dars – o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

### 2. Ta’lim vositalari va ularning turlari.

**Ta’lim vositalari –** ta’lim-tarbiya jarayoni sifati samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ta’lim vositalari bilan qay darajada ta’minldanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim jarayonini amalga oshirishda yordam beruvchi vositalarga ta’lim vositalari deyiladi. Ta’lim vositalari uchga bo‘linadi: aniq, texnik va chop etilgan o‘quv materiallari.

Aniq ta’lim vositalarga o‘qitishda qo‘llaniladigan barcha aniq vositalar, xususan: mashina, taraktor, jihoz, dastgoh, tayyor mahsulotlar va hakozalar kiradi. Texnik vositalarga proektor, kino apparat, o‘quv televideniyasi, vediomagnitafon, kompyuter vediofilmlar, multimedia va boshqalar kiradi. Bundan tashqarii sinf doskasi, doska-stend, doska-bloknot, kodoskoplar ham texnik vositalarga kiradi. CHop etilgan o‘quv materiallariga barcha chop etilgan o‘quv va ko‘rgazmali materiallar kiradi. Jumladan, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, tarqatmali materiallar, ishchi varaqalari, nazorat (test) varaqalari, ma’ruza matnlari, jadvallar, yo‘l-yo‘riq xaritalari, topshiriq kartochlari va boshqalar.

***1. O‘qituvchi uchun vositalar:*** o‘quv predmetini o‘qitish metodikasi bo‘yicha qo‘llanmalar, shaxsiy metodika, murakkab masalalar bo‘yicha metodik tavsiyalar, o‘qituvchilar tomonadan tayyorlangan metodik ishlanmalar, mantiiqiy struktura va boshqalar.

***2. O‘quvchi uchun vosita:*** darslik, o‘quv qo‘llanma yoki o‘qituvchining ma’ruza matnlari, jadvallar, yo‘l-yo‘riq xaritalari, topshiriq kartochkalari va boshqalar.

---

3 Подласый И. П. “Педагогика”. Москва. “Владос» ,2005, 77-срт.

***3. Dars o‘tish uchun vosita:*** plakatlar, diagrammalar, modellar, maketlar, etalonlar, namoyish qilish jihozlari, laboratoriya Amaliy ishlarini o‘tkazish uchun jihozlar, diafilm va boshqalar.

**3. Tarbiya vositalari va ularni amalga oshirish shakllari**

O‘qituvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya vositalaridan foydalaniladi. Masalan, sinf majlisi, yig‘ilishlar, ertalabki ommaviy yig‘in (lineyka), kluv ishlari, turli tadbirlar va boshqalar.

**Tarbiya vositalari** biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo‘l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko‘rsatmali qo‘llanmalar, kitoblar, radio, televidenie). Bundan tashqari o‘quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari – shanbaliklar, kutubxona faoliyati, uchrashuvlar, kinofilmlar, san’at asarlari, o‘qituvchining jonli so‘zi, bolalar o‘yini, sport, badiiy havaskorlik to‘garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo‘lishi mumkin.

**Tarbiya shakl (turi) lari –** tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatishidir.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl (tur) lari, metodi va vositalaridan mohirona foydalanishga bog‘liq. SHu o‘rinda tarbiyachilar ta’sir etishning o‘quvchi shaxsiyatiga mos turini tanlab olishlari, uning shaxsini ijobiy tomonga o‘zgartirishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratishlari lozim. Tarbiya shakllari har bir o‘quvchiga, har qaysi o‘quvchilar jamoasiga alohida munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi.

O‘quvchi yoshlarni tarbiyalashda milliy an’analar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Bular o‘z navbatida, yangicha tarbiyaning o‘zgacha muvofiq uslub va shakllarini taqozo etadi. **Tarbiya shakllarini** o‘rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish, ko‘nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin: o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, axloqiy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy, estetik, jismoniy kabi usullari mavjud.

## 8-mavzu: PEDAGOGIK NAZORAT VA TA’LIM SIFATI NAZORATI

**REJA:**

1. **Ta’lim sifati va uni baholash mazmuni va mohiyati**
2. **Ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi omillar**
3. **Mezonga va me’yorga asoslangan baholash**

Ta’lim muassasalarida ta’limning sifat nazoratini olib borishdan oldin o‘quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda har bir rahbar quyidagi vazifalarning mazmun va mohiyatini mukammal bilishi va ularning bajarilishining sifat ko‘rsatkichlarini tahlilini olib boradi.

- **Ta’limning maqsadlari;**
- **Ta’limning mazmuni;**
- **Ta’limning o‘quv vositalari;**
- **Ta’lim metodlari;**
- **Ta’limda baholash.**

O‘quv jarayonining tashkiliy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim muassasalarida ta’lim mazmuni va sifati nazoratini olib borish uchun birinchi navbatda hr bir rahbar va pedagog xodimlar qanday ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- **Ta’limda boshqaruv mexanizmini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish;**
- **Ta’limda sifat nazoratini tashkil etish;**
- **Ta’limda sifat tushunchasi;**
- **Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar**
- **Sifatni baholash mezonlari;**

- **Ta’limda sifat nazoratini olib boruvchilar;**
- **Nazorat monitoringgi va uning kiritilishi;**
- **Natijalarni baholash va qo‘shimcha tadbirlar belgilash.**

**Sifat** – qo‘yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning nazorati va baholash bo‘yicha olingan natijalarning monitoringi.

**1. Baholash shakllari.** Baholash, uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o‘tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash
2. Me’yorga asoslangan baholash.

**2.Baholash turlari.** Baholash, o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra, uch turga ajratiladi:

- Boshlang‘ich baholash;
- Joriy, ya’ni shakllantiruvchi baholash;
- YAkuniy, ya’ni umumlashtiruvchi baholash.

Boshlang‘ich baholash ta’lim jarayoni boshida ta’lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta’lim jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

**1. Baholash tamoyillari.** Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo‘lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta’lim oluvchilarning o‘qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta’sir qiladi.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi:

- O‘quv maqsadlariga asoslanganlik.
- Haqiqiylik.
- Haqqoniylik.
- Ishonchlilik.
- Qulaylik.

**1. Baholash tizimlari.** Ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materiali o‘zlashtirilganligini, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lganligini tekshirish va baholash o‘qitish jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o‘qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o‘quv jarayonining turli bosqichlarida ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Oxirgi paytlarda Respublikamiz ta’lim muassasalarida quyidagi ikkita baholash tizimi qo‘llanilib kelinmoqda:

1. Baholashning besh ballik tizimi.
2. Baholashning reyting tizimi.

**2. Baholashning besh ballik tizimi.** Baholashning besh ballik tizimida baholashga quyidagi didaktik talablar qo‘yiladi:

**3. Baholashning reyting tizimi.**

Ushbu baholashning reyting tizimi oliy ta’limning 3-bosqichida o‘qitilayotgan “Pedagogika. Psixologiya” fani misolida ko‘rib chiqilgan.

Baholash metodlari. Nazariy bilimlar va aqliy layoqatni baholashda baholashning umumiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda metodlardan foydalaniladi.

**<u>Baholash metodlari</u> nazariy bilimlarni o‘zlashtirganlik, ya’ni o‘quv maqsadlariga erishganlik darajasini ma’lum vositalar, mezonlar va me’yorlar asosida aniqlashni hamda o‘lchashni ta’minlovchi bosqichlar tizimidan iborat.**

Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlari va aqliy layoqatini baholashda O/ZAKI va YOZMA baholash topshiriq shakllaridan foydalaniladi.

Og‘zaki shakldan ko‘proq og‘zaki savol-javoblarni qisqa vaqt ichida o‘tkazish uchun foydalaniladi. Ushbu jihatiga ko‘ra, bu baholash topshiriq shaklidan oraliq nazoratni amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

БАШОЛАШ ТОПШИРИ+
АКЛЛАРИ

О / З А К И

Ё З М А

Og‘zaki topshiriq shaklining turlari:

- Ochiq
- YOpiq

## 9-mavzu: MA’RIFIY TIZIMLARNI BOSHQARISH

**REJA.**

1. **Ta’lim tizimini boshqarish**
2. **Ta’lim muassasi faoliyatida rahbarlarning vazifalari.**
3. **O‘zini-o‘zi boshqarishning nazariy asoslari.**
4. **O‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlari.**
5. **O‘zbekiston Respublikasida oliy va O‘rta maxsus ta’limini boshqarish tizimi.**
6. **Oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarish tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.**

### 1. Ta’lim tizimini boshqarish

Ta’limni tizimini boshqarish pedagogika fanining muhim tarmog‘i bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim tizimi organlari va ularning vazifalari, ish faoliyatining mazmuni va metodlarini belgilab beradi, shuningdek, ta’lim muassasalariga rahbarlik qilish tizimini asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini boshqarishga umumiy rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi olib boradi.

Respublikada ta’lim tizimini boshqarishda bir qator davlat organlari -tegishli vazirliklar -chunonchi, xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, shuningdek, markazlar, xususan, Respublika ta’lim markazi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markaz, viloyat, shahar va tuman xalq ta’limi bo‘limlari ham ishtirok etadilar.

Ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlarining huquqlariga doirasiga quyidagilar kiradi.

1. Ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini ruyobga chiqarish;
2. Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;
3. DTS, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo‘lgan talablarining bajarilishini ta’minlash;
4. O‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish;
5. O‘quv va o‘quv uslubiy adabiyotlarini yaratish va nashr etishni tashkil qilish;
6. Ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiklash;
7. Davlat oliy ta’lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;
8. Pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

**2. Ta’lim muassasi faoliyatida rahbarlarning vazifalari**. Ta’lim tizimini boshqarish sohasida ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish ishlarini tashkil etishga ham alohida e’tibor beradilar. Ta’lim muassasasi uning rahbari (direktori yoki rektor) tomonidan boshqariladi.

Ta’lim muassasasi direktori talabalarni ma’naviy barkamol, jismonan soglom bo‘lishlari, fan asoslarini puxta o‘zlashtirishlari uchun, umuman, ta’lim muassasalarining butun faoliyatini

uchun javobgar shaxs sanaladi. Tashkilotchi, oliy ma'lumotli kamida uch yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan eng yaxshi pedagog tuman xalq ta'limi bo'limi tavsiyasiga binoan viloyat xalq ta'limi (Toshkent shaxrida-shahar xalq ta'limi) bo'limi tomonidan direktor etib tayinlanadi, bir o'quv muassasasidan ikkinchi o'quv muassasasiga kuchiriladi. Viloyat xalq ta'limi bo'limi bu haqida O'zbekiston Respublikasi XTVga ma'lum kiladi.

**Ta'lim muassasalarida ish yuritish hujjatlari** quyidagi tartibda joylashtiriladi:

- rahbar organlarning ko'rsatmalari;
- tashkiliy masalalarga oid hujjatlar;
- o'quv masalalarga oid hujjatlar;
- tarbiyaviy masalalarga oid hujjatlar;
- kadrlarga oid hujjatlar;
- jamoatchilik bilan olib boriladigan hamkorlik, ta'lim muassasasining, ommaviy ishlariga oid hujjatlar;
- moliya, xujalik ishlariga moddiy ta'minot va ta'mirlash ishlariga oid hujjatlar;
- ta'lim muassasasidan yuborilgan va unga kelgan hujjatlar kayd etiladigan daftar va boshqalar.

### 2. O'zini-o'zi boshqarishning nazariy asoslari

O'zini-o'zi boshqarish darajasi hayotning turli bosqichlarida turli odamlarga bir xil bo'lavermaydi. O'zini-o'zi nazorat darajasi, shaxsiy boshqarishi u yashayotgan va mehnat kilayotgan muxitga bog'lik. Bundan tashkari uning shaxsiy sifatlari, zakovati, gayrati, fe'li, ruxiy va jismoniy, kolaversa nasl-nasabiga bog'lik. Nizoli va tang holatlar yuzaga kelganda ayrim odamlar o'zini-o'zi boshqara olmaydi, ba'zilari esa oddiy xollarda o'zini yo'qotib kuyadi. Inson o'zining fikrlari, xulqiga doimo tanqidiy yondashishi, hayot talablari va o'z imkoniyatlarini hisobga olishi kerak.

Talaba shaxsi ta'lim jarayoni davomida ham, ta'limdan tashkari vaqtda ham shakllanib boradi. Talabaning shaxs sifatida kamol topishida pedagogning, ota-ona, kuni-kushni va mahallaning ta'siri nixoyatda katta, ammo har bir talaba, talaba o'z ustida tinmay ishlashi, o'zini-o'zi bilim darajasini, madaniyatini, tarbiyasini, ma'naviyat va ma'rifatini yuksaltirish ustida ish olib borishi zarur.

### 3. O'zini-o'zi nazorat qilish metodlari

O'zini-o'zi nazorat qilish metodlari talabalar o'quv faoliyatining muhim elementlaridan biridir. SHunday bo'lsa-da, kupchilik talabalarning o'quv malakalari sistemasi orasida aynan o'zini-o'zi nazorat qilish metodi juda bushligidan kupgina tadqiqot ham dalolat beradi. SHu tufayli talabalarda o'zini-o'zi nazorat qilish mahoratini shakllantirishni yaxshilashga yo'naltirilgan maxsus ishlarni amalga oshirish lozim bo'lib koladi.

### 4.O'zbekiston Respublikasida oliy va o'rta maxsus ta'limini boshqarish tizimi

O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'limi beradigan maorif muassasalari davlat byudjeti hisobidan ta'minlab turiladi. Ularning kundalik faoliyatini tegishli vazirliklar va idoralar boshqarib boradi.

258 ta o'rta maxsus ta'limi o'quv yurtlari tarmoq prinpipi bo'yicha 22 ta vazirlik va idoraga karashli bo'lib, bu xol yagona o'quv - metodik rahbarlikni va ta'minotni tashkil etishni kiyinlashtiradi. Ham iqtisodiy vazifalarni, ham ijtimoiy vazifalarni xal etish uchun o'rta maxsus ta'limi o'quv yurtlarini kengaytirishi rejalashtirish ham kiyin.

Respublikadagi 58 ta oliy o'quv yurti 12 ta vazirlik va idoraga karashli bo'lib, ularning asosiylari Oliy o'quv yurti vazirligi (32 ta oliy o'quv yurti), Xalq ta'limi vazirligi (6 ta oliy o'quv yurti), Sog'likni saqlash vaziligi (7 ta oliy o'quv yurti), Qishlok va suv xo'jaligi vazirligi (4 ta oliy o'quv yurti) va Madaniyat vazirligi (3 'ta oliy o'quv yurti) dir. Oliy o'quv yurtlarining maxsus o'quv yurtlari kabi turli vazirliklar va idoralarga bo'ysunishi yagona o'quv-metodik rahbarlik va ta'minotni tashkil etishga tuskinlik kilmokda.

**5. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari**

Oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarish tizimining sifat jihatidan yangi darajasi an’analarini, boy tarixiy va ma’naviy merosni hisobga olgan holda sanoat va intellektual rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanishi lozim. Ta’limni boshqarish tizimi shakli va mazmuni jihatidan davlat-jamoatchilik tusida bo‘lishi kerak.

Hunar ta’limini boshqarish tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

- oliy va o‘rta hunar ta’limi va o‘quv yurtlarini boshqarish tizimiga davlat - jamoat tusini berish;
- oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarish tizimini mahalliy lashti-rish;
- oliy va o‘rta hunar ta’limi o‘quv yurtlarini boshqarishning tashki tashkilotlar: mahalliy hokimiyat organlari, tadbirkorlar doiralari (mutaxassislarga buyurtma beruvchilar), jamoat tashkilotlari va jamgarmalar vakillari o‘z ichiga oladigan ma’muriy kengashlar tarzidagi oliy boshqaruv organlarini barpo etish;
- o‘quv-metodik, moliyaviy va tashkiliy masalalarni xal etishda oliy o‘quv yurtlari muxtoriyatini kengaytirish;
- ta’lim, ilm-fan ishlab chiqarishni birlashtirish asosida yirik o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari (birlashmalari) ni boshqarishning samarali shakllarini barpo etish;

Kutiladigan natijalar:

- oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarishning puxta va samarali davlat-jamoat tizimini barpo etish;'
- tashkiliy, moddiy va moliyaviy masalalarni xal etishga mahalliy hokimiyat hamda tadbirkordar doiralarini jalb etish;
- oliy o‘quv yurtlariga muxtoriyat berish.

## 10-mavzu: PSIXOLOGIYANING PREDMETI, VAZIFALARI VA TADQIQOT METODLARI

**Reja:**

**1. Psixologiya fan sifatida**
**2. Psixologiyaning predmeti va maqsadi**
**3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni va tarmoqlari**
**4. Psixologiya fanining tadqiqot metodlari**

### 1. Psixologiya fan sifatida

**Psixologiyaning fan sifatida** dunyoga kelishi va rivojlanishi ko‘plab olimlarning ilmiy adabiyot va darsliklarida bayon etilgan. Fransiyalik olim J.Godfruaning “CHto takoe psixologiya” nomli 2-jilddan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat markazda bo‘lgan ekanligi, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17-asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19-asrlarda Kondilyak, Lokk, YUm yondoshuvlari asoslab berilgan. Psixologiyaning Fan sifatida rivojlanishida nemis psixologi va fiziologi Vilgelm Vundt (1832-1920)ning xizmati, uning tomonidan maxsus tajribaviy sinov laboratoriyalarining tashkil etilishi va mohiyati ochib berilgandir. Demak, psixologiya 1879-yilda Leypsig Universitetida

nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundt tomonidan birinchi psixologik laboratoriya tashkil etilib, unda ilmiy asosda turli tajribalar o‘tkazish boshlangandan keyin mustaqil fan sifatida tan olingan.

**2. Psixologiyaning predmeti va maqsadi**

«Psixologiya» so‘zi ikkita grek so‘zlaridan - *«psyche»* - jon, ruh va «*logos*»- ta’limot, ilm so‘zlaridan iborat bo‘lib, an’anaviy ma’noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmeti har birimizning tashqi olamni va o‘z-o‘zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo‘yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, **psixikadir**, deb ta’rif berishadi. Psixika - bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi. Lekin bu qisqa ta’riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto‘g‘ri bo‘ladi. CHunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma - xilki, biz ba’zan o‘z-o‘zimizni ham tushunmay qolamiz.

**Psixologiya fanining maqsadi** insonni o‘zini-o‘zi anglashi va atrof-muhit bilan o‘z mutanosib munosabatlarini o‘rnatish va uni kamol toptiruvchi omillarni aniqlash.

**3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni**

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo‘nalishdagi muammolarni ma’lum ma’noda o‘rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bo‘lar birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo‘lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o‘ziga xos va etakchidir.

***Falsafa***
***Sotsiologiya***
***Pedagogika***
**Kibernetika**
**Texnika fanlari**
**Iqtisodiyot**
**Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.k**

**4. Psixologiya fanining tadqiqot metodlari**

1) Kuzatuv
a) uzluksiz;
b) o‘zini-o‘zi kuzatish
2) Tajriba usuli
a) laboratoriyada tajriba o‘tkazish;
b) tabiiy sharoitda tajriba o‘tkazish
v) kesma
3) So‘rovnoma
1) Suhbat
2) Tarjimaixol
3) Intervyu
4) Sotsiometriya
5) Test
6) Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash

## 11-mavzu: SHAXS VA UNING FAOLIYATI

### REJA:

1. **SHaxs to‘g‘risida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik**

2. **SHaxs va uning faolligi**

3. **Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar**

4. **Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi**

5. **Mativlarning turlari va anglangan darajasi**

**1. SHaxs to‘g‘risida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik**

O‘z mehnati tufayli inson psixikasi takomillashib xayvonlar psixikasidan tobora o‘zqlashmoqda, va bunga sabab bo‘layotgan omillar bu uning jamiyatda bo‘lishligi, odamldar bilan birgalikdagi faoliyati, ular bilan turli munosabatlarga kirishishi, uning dunyoqarashini shakllanishidir va shu bilan birga u jamiyatning faol a’zosi shaxs bo‘lib shakllanishidir.

Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta’sir o‘tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan muntazam tarzdagi ijtimoiy fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

“SHaxs” va “individ” tushunchalarining bir-biriga o‘xshashligini barcha etakchi psixologlar B.G.Ananev, A.N.Leontev, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn va boshqalar inkor etishadi.

Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan hislatlar va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. **Individuallik** – kishining o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir.

**SHaxsning tuzilishi.** Birinchi navbatda, shaxsning individualligini ko‘rsatadigan va faqat ehtirosda, ichki qiyofada, qobiliyatlarda va hokazolarda ancha keng ifodalanadigan fazilatlari va umumiy tuzilishinigina emas, balki shaxsning rivojlanish darajasi har xil bo‘lgan guruhlarda, ana shu guruh uchun etakchi hisoblangan faoliyat orqali ifodalanadigan individlararo munosabatlarda o‘zini namoyon etishini ham qo‘shish shart.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘zini-o‘zi anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning ***faolligidir.*** Faollik (lotincha «actus» - harakat, «activus» - faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu - o‘sha oddiy qo‘limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog‘liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavxum fikrlashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

***A. Tashqi faollik*** - bu tashqaridan va o‘z ichki istak-xohishlarimiz ta’sirida bevosita ko‘rish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo‘ladigan faollik.

***B. Ichki faollik*** - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o‘zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya’ni aslida ko‘rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘z ichiga oladi.

**3. Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar**

Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma’lum narsaga - predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, maruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo‘lib, u avvalo o‘sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o‘zgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasini boyitayotgan bo‘ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan *nimalarga* yunaltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. ***Tashqi faoliyat*** shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat bo‘lsa, ***ichki faoliyat*** - birinchi navbatda aqliy faoliyat bo‘lib, u sof psixologik

jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki - aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi.

Aqliy harakatlar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- ***perseptiv*** **–** ya’ni, bo‘lar shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to‘g‘risida yaxlit obraz shakllanadi;
- ***mnemik faoliyat,*** narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab kolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog‘liq murakkab faoliyat turi;
- ***fikrlash faoliyati*** - aql, faxm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni echishga qaratilgan faoliyat;
- ***imajitiv*** - («image» -obraz so‘zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o‘tish ro‘y bergan bo‘lsa, bunday jarayonni psixologiyada **interiorizatsiya** deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishi **eksteriorizatsiya** deb yuritiladi.

Hayotda ko‘nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni engillashtiradi. O‘qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta’minlaydi.

Faoliyatni klassifikatsiya qilish va turlarga bo‘lishning yana bir keng tarqalgan usuli - bu barcha insonlarga xos bo‘lgan asosiy faollik turlari bo‘yicha tabaqalashdir. Bu - muloqot, o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyatlaridir.

**Muloqot** - shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo‘lish, odamlarga o‘xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. SHaxs o‘z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

**O‘yin** - shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma’naviy ne’matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o‘zlashtiriladi. Bola toki o‘ynamaguncha, kattalar hatti-harakatlarining ma’no va mohiyatini anglab etolmaydi.

**O‘qish** faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o‘ynaydi va ma’no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko‘nikmalar o‘zlashtiriladi.

**Mehnat** qilish ham eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo‘lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma’naviy ne’matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdir.

### 4. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi

YUqorida biz tanishib chiqqan faoliyat turlari o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. SHaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o‘zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, kuzatilmaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq - atvorini tushuntirish uchun psixologiyada *«motiv»* va *«motivatsiya»* tushunchalari ishlatiladi.

***«Motivatsiya»*** tushunchasi «motiv» tushunchasidan kengroq ma’no va mazmunga ega. **Motivatsiya** - inson xulq-atvori, uning bog‘lanishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo‘lganda ishlatiladi, ya’ni: «nega?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «qanday manfaat yo‘lida?» degan savollarga javob qidirish - motivatsiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

**5. Motivlarning turlari va anglanganlik darajasi**

***Motivlarning turlari.*** Motivlar quyidagi turkumlarga ajratiladi: shaxsning ijtimoiy ehtiyojlariga mos motivlar; umumiylikka ega boʻlgan motivlar; faoliyatga mos motivlar; paydo boʻlish xususiyati, muddatiga koʻra motivlar; aks etish darajasi nuqtai-nazaridan ierarxik vujudga kelgan motivlar.

Psixologik maʼlumotlarga koʻra har qanday faoliyat muayyan motivlar taʼsirida vujudga keladi va etarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. SHuning uchun taʼlim jarayonida oʻzlashtirish, egallash va oʻrganishni amalga oshirishni taʼminlash uchun oʻquvchilarda oʻquv motivlari mavjud boʻlishi lozim.

## 12- mavzu: MULOQOT

**REJA:**

1. **Muloqot toʻgʻrisida tushuncha**
2. **Muloqotning kommunikativ sohasi**
3. **Muloqotning perseptiv tomoni**
4. **Pedagogik muloqot masalalari**
5. **Muloqot olib borishning darajalari**
6. **Muloqot turlari**

**1. Muloqot toʻgʻrisida tushuncha**

Insonda koʻpgina ehtiyojlar mavjud boʻlib, ulardan moddiy ehtiyojlar (ovqatlanish, eyoishgʻichioʻ, va boshqalar) maʼnaviy ehtiyojlar ichida eng muhim muloqot ehtiyojidir. Boshqa kishiga qarab, uning bilan munosabatda va muloqotda boʻlib, u oʻzini, oʻzligini baholay oladi.

Odam koʻzguga qarab, oʻz aksini koʻradi, lekin shaxs sifatida oʻzini baholash uchun inson oʻzini boshqa kishiga solishtirib koʻrishi kerak. SHuningdek, oʻzining qanday ekanligin, oʻz obrazini aniqlashi uchun oʻzi haqidagi boshqa kishining fikrini bilishi kerak.

Koʻpincha inson boshqa kishi bilan muloqotga kirishshadi-ki, asosiy maqsadi u kishini oʻrganish emas, balki u kishishing oʻzi haqidagi fikrini bilishdir.

Demak, odam oʻzining aksini koʻrishi uchun iloji boricha koʻp odam bilan munosabatda boʻlishi kerak.

Demak, inson oʻzidagi baʼzi bir sifatlarni tekshirishi uchun va tasdiqlashi uchun, shu sifatlarni boshqa odamlarda (chuqurroq munosabatda, kengroq munosabatda boʻlishi kerak) ham ahtaradi.

Agar shaxs, baʼzan oʻzidagi sifatlarni boshqa kishilarda topmasa, yoki uni tushunmasa (tushunmasalar) bu kishida oʻziga ishonchsizlik, oʻzidan qoniqmaslik kelib chiqadi, bu esa oʻz navbatida kishida oʻzidan norozilik, qoʻrquv keltirib chiqarishi mumkin.

SHaxslararo munosabatlarda 2-ta tendensiya anʼana bor:

Birinchisi: Munosabatlarni chuqurroq va kengroq qilishga intilish, bu har bir insonga xos ehtiyojdir.

Ikkinchisi: Oʻzaro munosabatlarda, bu munosabatlarni kengaytirish va chuqurlashtirishning oqibatlaridan qoʻrqish hissi. Masalan, men oʻzimni aqilli, hozirjavob va oʻta bilimli deb hisoblayman va baʼzi bir kishilarda (ayniqsa qaramagʻqarshi jinslarga, yoki rahbarlarga) shu sifatlari bilan taʼsurot qoldirmoqchiman. Ammo muloqot davomida oʻsha kishilar meni tushunmasliklaridan, oʻzimning ularda shunday taasurot qoldira olmasligimdan qoʻrqaman. Va shu munosabatlardan oʻzimni saqlayman. Inson uchun eng muhim narsa muloqotdagi sherigining (partnerining) oʻzi bilan hamfikrligidir.

SHuning uchun ham doʻstlik, hamkorlik munosabatlarida mayda gaplar, arzimagan muammolar yuzasidan sheriklik bilan tortishmasdan, rozi boʻlgan ham yaxshi. Faqat prinsipial masalalarda sherikning fikriga qarshi chiqish, uni rad etish mumkin.

Muloqotning tarkibi (komponenti) Muloqotning tarkibilini 3-ga boʻlamiz

Muloqotning kommunikativ tomoni

Muloqotning interaktiv tomoni

Muloqotning perseptiv tomoni

**2. Muloqotning kommunikativ sohasi.**

Muloqotning kommunikativ sohasi – bu kishilar (individlar)aro axborotlar almashishidir.

Kishilar oʻzaro munosabatlarda nutq yordamida, mimika va pantomimika, harakatlar vositasida bir-birlariga taʼsir etadilar. Va shu vositalar yordamida oʻzaro munosabatlar kedib chiqadi.

Muloqot tushuchasi keng boʻlib shaxs yoki shaxslararo har qanday aloqalar, munosabatlar muloqotga kiradi. Munosabat tushunchasi – torroq maʼnosida ishlatilib shaxslararo munosabatning turlarini, xilini va boshqalari kiradi.

Muloqotning kommunikatsiya vositasida kirshilar axborotlar bilan almashadilar. Bu munosabatlar, muloqotlar 2 xil tarzda kechadi: *verbal* va *noverbal.*

**3. Muloqotning interaktiv sohasi:**

SHeriklarning (hamkorlarning) o‘zaro munosabatlarda: hamkorlik, konkurensiya (raqobat), kooperatsiya, do‘stlik va boshqa xilda muloqotga kirishiladi.

Raqobat (konkurensiya) tipida (turidagi) muloqotda sheriklar bitta maqsad va vazifa uchun munosabatga kirishayotgan bo‘lsalar ham, o‘zaro raqiblardek munosabatda bo‘ladi. Masalan: sinfdagi a’lochilar o‘rtasida, sexdagi faollar orasida raqobat bo‘lsa yaxshi, lekin raqobat sog‘lom yaxshi niyat bilan bo‘lsa, u sinfda a’lochilarni ko‘paytiradi, ularning yana yangi pog‘onaga ko‘tarilishlariga sababchi bo‘ladi. Lekin raqobatlik (konkurensiya) kuchayib ketsa guruhning hamkorligiga putur etadi.

Musobaqa ham raqobatning bir turi bo‘lib, u ko‘pincha sog‘lom asosda, rasmiy nazorat ostida bo‘lgani uchun ziddiyatga olib kelmaydi.

**4. Muloqotning perseptiv tomoni:**

Bir shaxs ikkinchi shaxsni hissiy idrok etishi.

Atteroketsiya – ob’ektlarning tashqi, ichki yoqimtoyligi bir shaxsning ikkinchi shaxsni yoqtirishi.

Tashqi go‘zallik shaxsda turg‘unlik hosil etadi.

Bolalar orasida o‘tkazilgan tekshirish shuni ko‘rsatadiki, ularning orasidagi chiroyli (tashqi ko‘rinishli) bolalar ko‘proq tanlov oladilar.

Tashqi ko‘rinish o‘zaro aloqa o‘rnatishda katta rol o‘ynaydi.

**5. Pedagogik muloqot masalalari**

Yigitlarda qizlarning rasminim ko‘rsatib, qizlarga esa yigitlarning rasmini ko‘rsatib o‘ziga yoqqanini tanlash taklif etildi. Lekin yigitlarga shu rasmlarning ichida bir qiz sizni ko‘rgan ekan unga yoqibsiz deyishganda, ular rasmlarning ichidagi eng chiroyli qizlarni tanlaganlar. Ba’zi bir yigitlarga esa shu rasmlarning ichida sizni qizlar ko‘rgan ekan, lekin yoqmabsiz deganda (yolg‘ondan) ular uncha chiroyldi bo‘lmagan qizlarni tanlaganlar.

Demak, bu shuni ko‘rsatadi yigitlarga berilgan negativ ustanovka natijasida o‘zlarining sifatlarini, imkoniyatlarini kam baholaganlari uchun ham xunukroq qizlarni tanlaganlar.

Bu erda atributsiya jarayoni ham katta rol uynaydi.

**6. Muloqot olib borishning darajalari**

Muloqot olib borishning uchta darajasi mavjud: makro-, mezo- va mikro- darajalari.

*Makrodaraja* (katta) – konun va qoidalarni saqlagan holda boshqa odamlar bilan muloqot olib borishlik.

*Mezodaraja* (o‘rta, oraliq) – muayyan mavzuda gaplashish (masalan, askiya, xajviya, va boshqa.)

*Makrodaraja* (kichik) – muloqotning sodda turlari, savol-javobli shakllari, mazmunli nigox, qo‘lqisish va x.k.

**6. Muloqot turlari:**

shaxslararo (odam-odam);

shaxs va guruharo (gurux-gurux, masalan xokkey o‘yini);

ommaviy kommunikatsiyalar (radio, televidenie, nashriyot).

## 13-mavzu: BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI

## REJA:

1. **Boshqaruv muloqoti.**
2. **Munozaralar jarayoni psixologiyasi.**
3. **Nizoli holatlar.**
4. **Nizolarni hal etish.**

### 1. Boshqaruv muloqoti

Boshqaruv muammosi XX asrning oxiri va XXI asr boshlaridagi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu holat inson omilining barcha ijtimoiy jarayonlardagi oshgan roli bilan izohlanadi. Bundan tashqari, insonlarning o‘zida ham ilk yoshlikdan liderlikka ishtiyoq, xizmat lavozimlarida muvaffaqiyatga intilishga moyillik kabi shaxsiy sifatlar ham namoyon bo‘la boshladi. Bunday ijtimoiy psixologik hodisalar eng avvalo boshqaruv sohasini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish, mehnat maxsuldorligi va insoniy munosabatlarni yaxshilash kabi masalalarda ushbu omilning ta’sirchan rolini oshirishni kun tartibiga dolzarb qilib qo‘ydi.

**KUCHLI RAHBARNING KUCHLI SIFATLARI:**

**Realistik tafakkur** - muammolar, voqea-hodisalarni real makon va vaqt chegaralarida aniq tasavvur qilish va echimlarini belgilay olish;
Bir vaqtning o‘zida bir qancha muammolar mohiyatini anglay bilish tajribani yangi muammolar echimiga qarata bilish;
Jamoani boshqarish, ishni aniq va to‘g‘ri tashkil qilish qobiliyati, har qanday ishga shaxsan kirisha bilish va uning bajarilishini nazorat qilish;
YUqoridagi uchta holatda o‘ta jonsaraklik va qat’iyatni namoyon qilish.

**RAHBARLIKKA LOYIQLIK MEZONLARI ASOSIDA LIDERLIKNING VAZIFALARI:**

lider - ma’mur;
lider - rejalashtiruvchi;
lider - siyosatchi;
lider - baholovchi ekspert;
lider - jamoning vakolatli vakili;
lider - rag‘batlantirish va jazolash tashabbuskori;
lider - hukm chiqaruvchi va yarashtiruvchi;
lider - namuna “Ota”;
lider - jamoaning ramzi - referent;
lider - individual mas’ullikni cheklovchi;
lider - dunyoqarashlar shakllantiruvchi;
lider - “Balogardon”.

**RAHBARGA ZARUR BO‘LGAN TO‘RTTA “T”**

ТАЛАНТ

**“Т”**

ТЕМПЕРА-МЕНТ

ТОҚАТ

**ТИНИМСИЗ ИЗЛАНУВЧАНЛИК**

Ayrim psixologik manbalarda kuchli rahbar shaxsiga oid sifatlarni umumlashtirib, unga to‘rtta “T” zarurligi haqida ham yozishadi. Bular -

Temperament
Toqatlilik (terpenie)
Talant
Tinimsiz mehnat (trudolyubie).

2. Munozaralar jarayoni psixologiyasi

Qarorlar qabul qilish rahbar faoliyatining uzviy qismidir. Bu narsa bevosita muloqot jarayonida, aniqrog‘i, munozaralar jarayonida ro‘y beradi. Munozaralar olib borish orqali gruppaviy qarorlar qabul qilish kollegial ishlash uslubining asosidir.

Munozaralar olib borish yoki muzokaralar orqali qarorlar qabul qilish odatda ikki usulda - interaktiv yoki nominal guruhlar sharoitida amalga oshiriladi. Birinchisida guruhning barcha a’zolari rahbar bilan birgalikda masalaning mohiyatini tahlil va muhokama qilish orqali bir qarorga keladilar. Ikkinchi holatda esa muammo yoki masala topshiriq sifatida xar bir mas’ul shaxsga beriladi va ular alohida takliflar umumlashtirish uchun rahbarga topshiradilar.

Guruh sharoitida - munozaralar vositasida qarorlar qabul qilish turli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Aniqlashlaricha, gruppaviy qarorlar qabul qilish jarayonida deyarli ikki barobar ko‘p fikr va g‘oyalar o‘rtaga tashlanadi. Bundan tashqari, boshliq rahbarligida ko‘pchilik fikr almashgan sharoitda konformizm effekti yoki etakchi fikr tomonidan tayziq ko‘rsatish holatlari ham bo‘lishi mumkin. Bunda guyoki, ilgari surilgan g‘oyalar yoki tashabbuslarning nomiga ilgari surilganligi, yolg‘onligiga o‘xshash oqibat kuzatiladi. Ba’zan tashabbuslar va fikrlarga imkoniyatlar berilgani uchunmi, haddan ziyod o‘ziga ishonch, optimizmni keltirib chiqaradi va h-zo.

**3. Nizoli holatlar**

O‘z vaqtida Banopart Napoleon shunday yozgan ekan: “qilich bilan har narsa qilish mumkin, faqat uning ustiga o‘tirib bo‘lmaydi”. Bu fikrida u ko‘pincha insonlar o‘rtasida bo‘lib turadigan nizolarni, ziddiyatlarni nazarda tutgan ekan. CHunki totalitar yoki diktatorlik boshqaruvi sharoitida ziddiyatlarning bo‘lishi tabiiy bo‘lib, uning yagona echimi - uzil-kesil uni hal qilish choralarini izlash bo‘lgan. Lekin demokratik munosabatlar sharoitidagi rahbar hamda uning qo‘l ostidagilar o‘rtasida yoki xodimlar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar yoki ziddiyatlarning tabiati va mohiyati biroz boshqacha bo‘ladi.

Avvalo shuni e’tirof etish lozimki, insoniy munosabatlarning har qanday tizimida ham fikrlarning rang-barang bo‘lishi va ular o‘rtasida farq bo‘lishi muqarrar xoldir. Lekin ana shunday fikrlardagi farqni salbiy holat deb hisoblab bo‘lmaydi.

**4. Nizolarni hal qilish**

Har bir nizo alohida hodisa sifatida tahlil qilinadi, lekin ularning barchasiga xos bo‘lgan ayrim qonuniyatlar borki, ularga avvalo uning bosqichlari yoki fazalari kiradi :

**Nizo oldi bosqich** - konfrontatsiya
**Nizoning o‘zi**: kompromiss yoki janjal
**Nizodan chiqish:** muloqot yoki dissonans.

## 14– mavzu. RAHBAR PSIXOLOGIYASI. MENEJER SHAXSI TIPOLOGIYASI.

**Reja:**

1. **Rahbar shaxsiga qo‘yiladigan talablar.**
2. **Menejer shaxsi tipologiyasi.**

3. **Rahbar shaxsida ishga nisbatan shakllanadigan motivlar.**

4. **Boshqaruvchilik faoliyatining diagnostik xususiyatlari.**

5. **Boshqaruv faoliyatida vaqtdan unumli foydalanish shartlari.**

## 1. Rahbar shaxsiga qo‘yiladigan talablar

“Menejment” deb nomlanuvchi fanning asoslari XIX asrda Angliyada shakllangan. “Menagerie” so‘zi inglizcha bo‘lib, "boshqaruv” degan ma’noni anglatadi. Insonlar psixologiyasiga aloqador boshqa fanlardan farqli o‘laroq, rahbarning taraqqiyotidagi yorqin bir xususiyat shuki, u tobora psixologiyalashib borgan. Uning asoschisi amerikalik muxandis F. Teylor hisoblanadi. 30 - yillarda kelib bu yo‘nalishning o‘zgacha bir taraqqiyot bosqichi boshlanib, uning psixologiyaga yaqinlashuvi ro‘y berdi, bu yo‘nalishga aloqador bo‘lgan ishlarni xattoki "insoniy munosabatlar maktabi" ham deb atay boshladilar. Bunga sabab - taniqli sotsiolog va psixolog E. Mio ishlari bo‘lib, u ishchi yoki xodim mehnatining samaradorligi va xulqining muvofiqligiga ko‘proq moddiy ta’sirlardan ko‘ra, sotsial - ijtimoiy yoki psixologik omillar ta’sir ko‘rsatadi, deb uqtirgan edi. U bu bilan jamoa yoki tashkilotlardagi norasmiy munosabatlarning o‘rnini nazarda tutgan edi.

**Menejer oldiga qo‘yiladigan talablar** majmuasi xilma-xil bo‘lib, ular nafaqat psixologik, balki ko‘proq iqtisodiy pragmatik xarakterga egadir. Menejer oldiga qo‘yiladigan talablardan ushbularning bo‘lishi shaxsda menejerlikning yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi:

- qarashlarning keng qamrovli bo‘lishi yoki global yondashuvni amalga oshira olish;
- maqsadni aniq ko‘ra olish;
- ko‘lamni aniq tasavvur etish;
- jur’atli, qat’iyatli va mard bo‘lish;
- tirishqoqlik bilan ishlash va uzluksiz o‘qish;
- o‘zgalar fikrini tinglashga tayyor turish;
- xolislik, beg‘arazlik, to‘g‘rilik;
- o‘z imkoniyatlarini to‘liq ishga sola olish;
- jamoani shakllantira olish;
- shaxsiy tarovati va sog‘lom bo‘lishi.

## 2. Menejer shaxsi tipologiyasi

Tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxs o‘z faoliyatida menejer bo‘ladimi, rahbar bo‘ladimi undan faollik, tavakkalchilikka moyillik, mustaqil bo‘lish kabi bir qator fazilatlar talab qilinadi. R.L.Krichevskiy ma’lumotlariga ko‘ra menejer shaxsining turli tipologiyasi mavjud. YA’ni an’anaviy boshqaruvchi, erkin tadbirkor (tashkiliy chetlashlarga amal qilmaydigan) va korporativ tadbirkor (tashkiliy jihatlarda o‘z imkoniyati namoyon etadigan). Bu tipologiyadan kelib chiqib R.Xizrich esa bunday menejerlarning motivlari, tavakkallik darajalari, xato va omadsizliklarga munosabatlari, boshqa odamlarga munosabatlari namoyon bo‘lishiga ko‘ra tasniflarini ishlab chiqqan.

**Turli toifadagi menejerlarning asosiy motivlari*:***

1. An’anaviy menejerlarda: xizmat lavozimlarida ko‘tarilish motivi, hokimiyatga intilish, obro‘li xizmat o‘rni, qo‘l ostida ko‘p xodimlarga ega bo‘lish motivlari.

2. Erkin tadbirkorlarda: mustaqillikka intilish motivi, ijodni namoyon etish imkoniyatini yaratish motivi, pullar ya’ni mablag‘ orttirish motivi.

3. Korporativ tadbirkorlarda: 1 va 2 nchi toifalardagi barcha motivlar.

**Turli toifadagi menejerlarning tavakkalchilik darajasi*:***

1. An'anaviy menejerlar tavakkalchilikka nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar.

2. Erkin tadbirkorlar tavakkalchilikka me'yori bilan bir maromda yondashadilar.

3. Korporativ tadbirkorlar esa tavakkalchilikka me'yori bilan bir maromda yondoshadilar.

**Turli toifadagi menejerlarning xato va omadsizliklarga munosabatlari*:***

1. An'anaviy menejerlar xatolar va omadsizliklardan qochishga harakat qiladilar.

2. Erkin tadbirkorlar xato va omadsizliklarni engib o'tishga harakat qiladilar.

3. Korporativ tadbirkorlar ishni va tavakkallik loyixalarini bajarib bo'lmagunlaricha yashirishga harakat qiladilar.

**Turli toifadagi menejerlarning boshqa odamlarga munosabatlari*:***

1. An'anaviy menejerlar o'rnatilgan tartibga ko'ra xodimlar va boshqalar bilan mavqe hamda darajaga amal qilgan holda ish yuritadilar.

2. Erkin tadbirkorlar ishbilarmonlik uchrashuvlari va munosabatlariga faoliyatning asosi sifatida qaraydilar.

3. Korporativ tadbirkorlar tashkiliy pog'ona (ierarxiya)da ishbilarmonlik uchrashuvlari olib boradilar.

**3. Menejer shaxsida ishga nisbatan shakllanadigan motivlari**

**I**shlab chiqarishga nisbatan odamlarda ijobiy munosabatni shakllantirish motivlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ishda ijodiy yondashuvning borligi orqali uning jozibadorligini ta'minlash. Demak, har bir xodim uchun ishning mazmuni qotib qolgan, monoton xarakterli emas, balki o'zgaruvchan bo'lishi kerakligi, agar samara beradigan elementlar topilsa, uni takomillashtirish imkoniyatining borligi bu narsaning xodim yoki ishchi tomonidan anglanishi kuchli undovchi omildir. Bu holat ayniqsa, yoshlar ishlaydigan va jalb qilinadigan mehnat turlariga aloqador bo'lishi lozim.

2. Ishning maqsadi va oxirgi natijalarni, unga erishish imkoniyatlarini aniq tasavvur qilish. Aks xolda odam nima uchun ishlayotgani, ishidagi sherigining ham qanday manfati bor u shaxsan o'ziga qanday manfaat bo'lishini bilmaydi, oqibatda, ish - qadriyat sifatida uning ongiga singmaydi.

**4. Boshqaruvchilik faoliyatining diagnostik xususiyatlari**

**Z**amonaviy rahbarga qo'yiladigan talablardan biri shuki, u hozirgi zamon psixologiyasining o'zi uchun maqbul barcha uslublaridan foydalangan xolda eng avvalo o'zi to'g'risida, qolaversa, qo'l ostidagilarning shaxsi to'g'risida bilimlar va ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. YA'ni, ma'lum ma'noda rahbar psixodiagnost bo'lishi, o'z faoliyatida psixodiagnostik metodlarni qo'llay olishi kerak. CHunki, o'zgalar psixologiyasini yaxshi bilish - ular ustidan xokimlikning usuli bo'lgani kabi, o'z shaxsiy fazilatlari va kamchiliklarini bilish ham turli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishning yo'llaridandir.

**5. Boshqaruv faoliyatida vaqtdan unumli foydalanish shartlari**

"Ishni yaxshi va qisqa fursatda bajarish, demak, ko'p toliqmay, omilkorlik bilan ishlashdir", deb ta'kidlagan edi amerikalik tadbirkor va olim Djeyms A.Farli. CHunki deyarli barcha rahbarlarga doimo **v a q t** etishmaydi, ularning nazarida agar vaqt etganida, ular "tog'ni talqon qilib tashlagan bo'lardilar".

Darhaqiqat, vaqt eng qimmatli narsa bo'lgani uchun undan samarali foydalanish - yutuqlarning garovidir. Buning uchun rahbar avvalo:

**15-mavzu: TADBIRKORLIK PSIXOLOGIYASI**

**REJA:**

1. Tadbirkorlik - shaxsning o'ziga xos sifatlariga bog'liq qobiliyati ekanligi.
2. Tadbirkor shaxsida kuzatiladigan psixologik xususiyatlar haqida.
3. Pul psixologiyasi.

**1. Tadbirkorlik – shaxsning o‘ziga xos sifatlariga bog‘liq qobiliyat ekanligi**

**T**adbirkorlik - bu odamlarning shaxsiy tashabbuslariga asoslangan faoliyatlari bo‘lib, ular foyda olish va mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida o‘z nomlaridan, tavakkalchilik bilan mablag‘larini sarf qilib ish yuritadilar. Demak, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun avvalo tadbirkorda muayyan mablag‘ yoki tovar boyliklar bo‘lishi va ularni ishning manfaati hamda shaxsiy manfaat yo‘lida sarf qilishga tayyor bo‘lishi kerak. To‘g‘ri, bizning sharoitimizda tadbirkorlik yangi, o‘ziga xos jarayon bo‘lib, unga mos psixologiya mustaqillik yillarida asta-sekin shakllanib kelmoqda. SHuni inobatga olib, davlat, hattoki, kreditlar - qarzlar berib, sharoitlar yaratib tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Ҳozirgi zamon tadbirkorining faoliyatini tahlil qilishdan avval unga xos bo‘lishi lozim bo‘lgan sifatlar xususida to‘xtab o‘tish kerak.

**2. Tadbirkor shaxsida kuzatiladigan psixologik xususiyatlar haqida**

Tadbirkorlikda aqliy salohiyat, intellektual xususiyatlar rivojlangan bo‘lishi lozim. Bu turkum sifatlar yana bir qator sifatlar bilan bog‘liq: bilimdonlik, muammo va to‘siq, qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra olish layoqati, rivojlangan xayol jarayonlari, oldindan ko‘p sabab va oqibatlarni tasavvur qila olish, real fantaziya, tafakkurdagi kreaktivlilik, ya’ni, har narsaga ijodiy yondasha olish qobiliyati, tafakkurning istiqbolga yo‘nalganligi va boshqalar. Bu sifatlarning barchasi eng avvalo tadbirkorning o‘z oldiga real maqsadlar qo‘yishi va o‘z faoliyatini chinakam rejalashtira olishiga imkon beradi.

**3. Pul psixologiyasi**

**T**adbirkor faoliyatidagi asosiy motiv, ya’ni faoliyatning maqsadi *pul topish*, uni jamg‘arish va foyda uchun sarflash bo‘lgani uchun ham bu o‘rinda pul muomalasi psixologiyasi xususida ham to‘xtalib o‘tamiz.

Pul – hamma tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent bo‘lmish maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining eng asosiy vositasi bo‘lib, pul o‘zida bozor iqtisodiyoti munosabatlarini gavdalantiradi va uning maxsuli ham hisoblanadi. Pul o‘z tabiatiga ko‘ra uch xil xususiyatga ega: hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi; boylik timsoli; mehnatni qiymat shaklida o‘lchab beradigan vosita. Pul munosabatlarining amalga oshish evolyusiyasini kuzatsak, dastlab pul qandaydir muhim tovar (qoramol, mo‘yna, teri) shaklida, keyinchalik kumush, oltin, qog‘oz pul, nihoyat 20 asrning 90-yillariga kelib elektron pullar ko‘rinishida bo‘ldi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul besh xil vazifani bajaradi: *qiymat o‘lchovi* – mehnatni gavdalantiradigan tovarlar qiymati miqdori pul orqali o‘lchanadi; *ayirboshlash vositasi* – uning yordamida tovarlar oldi-sotdi qilinadi; *hazina to‘plash va jamg‘arish vositasi* – lekin buning uchun pul qadrining saqlanishi muhim hisoblanadi; *to‘lov vositasi* – nasiyaga sotilgan tovarlar va xizmatlar haqi to‘langanda ko‘rinadi. Pul turli mazmun va miqyosiga ko‘ra toifalarga bo‘linadi: xazina biletlari va banknot-kredit pullari. Pul muomalasini kuzatadigan bo‘lsak, pul metall tangalar va qog‘oz pullar, naqd va naqd bo‘lmagan ko‘rinishlarda bo‘ladi. Naqd pul bankdan muomalaga chiqarilgach, korxona, tashkilotlar kassasiga va aholi qo‘liga o‘tsa, naqd bo‘lmagan pullar muomalaga chek, kredit kartochkssi, veksel, sertifikat, obligatsiya harakati shaklida amalga oshadi. Pul muomalasida aylanish qanchalik tez sodir bo‘lsa, iqtisodiyot shunchalik yaxshi rivojlanadi. Lekin aholi qo‘lida pulning to‘planishi, pul harakatidagi uzilish bo‘lishi xo‘jalik aloqalarida uzilishga olib keladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
instituti

«KASB – HUNAR TA’LIMI» kafedrasi

«PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA»
fanidan

MA’RUZALAR MATNI

**SAMARQAND – 2013**

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish uchun fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy salohiyati, iqtisodiy o‘zgarishlarini to‘g‘ri talqin qilishlari va bu jarayonlarni boshqara olishlari hamda XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob bera olishlari uchun o‘quv maskanlarida sifatli kadrlarni etkazib berish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Mazkur ishchi dasturda pedagogika va psixologiya asoslari bo‘yicha umumiy va xususiy bilimlar berishga oid masalalar qamrab olingan bo‘lib, ularning inson kamolotida tutgan o‘rnini yoritib berishga asosiy e’tibor qaratilgan. Ishchi o‘quv dasturi asosida pedagogika va psixologiya fanlarining asosiy kategoriyalari va uning eng muhim qonuniyatlarini ochib berish ko‘zda tutiladi.

Ushbu fanni o‘qitishda jahon olimlarining ta’lim-tarbiyaga va psixologiya faniga qo‘shgan hissalarini milliy mafkuramiz talablari nuqtai nazaridan o‘rganib, talabalarga etkazish va hayotga tatbiq etish ko‘zda tutilgan.

Dasturda pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha nazariy materiallar bilan bir qatorda seminar mashg‘ulotlari hamda mustaqil ta’lim mavzulari qamrab olingan. Kursning asosiy maqsadi talabalarga boshlang‘ich pedagogik va psixologik bilimlarni berish, ularni ushbu fanlarning umumnazariy asoslari bilan tanishtirish, ta’lim-tarbiyaviy faoliyati xususiyatlari hamda talabalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida psixik hodisalarni to‘g‘ri anglab etish, turli murakkab vaziyatlardan chiqib keta olishiga oid dastlabki ko‘nikma va malakalar bilan kurollantirishdan iboratdir.

Fanning vazifalari:

- pedagogika va psixologiya fanlarining predmeti, maqsadi, vazifalarini aniqlash hamda uning rivojlanish tarixini o‘rganish;
- talabalarni zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimlari, xususan, O‘zbekistonning uzluksiz ta’lim tizimi hamda milliy g‘oya va milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirish masalasi, shuningdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari mazmuni, mohiyati bilan tanishtirish:
- pedagogika va o‘qitish jarayonlari, ta’lim mazmuni va tarbiya nazariyasi hamda ta’lim va tarbiyaning metodlarini o‘rganish;
- pedagogikaning tabiiy ijtimoiy asoslari va pedagogik faoliyat hamda uni tashkil etish jihatlarini aniqlash;

- talabalarni ta’lim-tarbiyaning birligi, pedagog shaxsi va uning ijtimoiy burchi bilan tanishtirish;
- psixologik tushunchalar, kategoriyalar, qonuniyatlar, psixik jarayonlar va ularning toifalanishini o‘rganish;
- psixik jarayonlarning fiziologik asoslari ochib beriladi;
- shaxs va faoliyat hamda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va aniqlash;
- iqtisod yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga zarur bo‘lgan keng va ijodiy tafakkurning psixologik asoslarini tushuntirish va ularni rivojlantirish hamda iqtisodiy fikrlash malakalarini tarkib toptirish;
- talabalarning kelgusi ish faoliyatlarida ishbilarmonlik muloqoti to‘g‘risida tushunchalarga ega qilish va ularda zarur ko‘nikmalarni hosil qildirish.

SHuningdek, psixologiya sohasining vazifasi etib, psixik voqea-hodisalarni o‘rganish va ularni ilmiy jihatdan talqin qilish ham nazarda tutiladi. CHunki, psixik voqea-hodisalar barcha boshqa voqea-hodisalar kabi muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Psixologiya fani o‘z vazifasi sifatida ana shu voqea-hodisalarning namoyon bo‘lishi, talqin qilinishi va rivojlanishi asosida yotgan qonuniyalarni ochib berishda xizmat qiladi.

Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda dars o‘tish ko‘zda tutilgan. Bo‘lardan: muammoli vaziyatlarni echish, ishchi o‘yinlar, masala-mashqlar, bahs-munozara usullari, psixologik o‘yinlar, testlar, rolli o‘yinlar va h.k.

Seminar mashg‘ulotlarida olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliyotga joriy etish kabi masalalar sinovdan o‘tkaziladi. Xususan, har bir dars yakunida talabadan ma’lum ko‘nikma va malakalar hosil qilinishi nazarda tutilgan. Seminar darslari ham yangi pedagogik texnologiya usullarini qo‘llagan holda o‘tkaziladi.

Mustaqil ta’lim shaklida pedagogik va psixologik bilimlar kengaytiriladi va bu fanlarning asoslari chuqurroq bilib olinadi. Buning uchun muayyan mavzular tanlanib, talabalar e’tiboriga taqdim etiladi.

## 1-mavzu: PEDAGOGIKANI O‘RGANISH ZARURIYATI

**Reja:**

**1. Pedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va uni o‘rganish muammolari**

**2. Pedagogika fanining tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan munosabati**

**3. Pedagogikaning tadqiqot metodlari va uning asosiy kategoriyalari**

**4. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan pedagogik talablar. Pedagogik faoliyat, mahorat va qobiliyat**

### 1. Pedagogika fanini predmeti, maqsadi, vazifalari va uni o‘rganish muammolari

Kelajagi buyuk davlatni qurayotgan kishilarning tafakkuri, yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy ne’matlar ishlab chiqarishga astoydil kirishib doimo yonib yashash hissi bilan sug‘orilgan bo‘lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogika o‘quv yurtlarining, o‘quv muassasasi, litsey, gimnaziya, kollej, institut va universitetlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Buyuk alloma A.Avloniy ta’kidlaganlaridek: «Tarbiya biz uchun yo hayot. yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Haqiqatan ham inson hayotini saodatga, sof insoniy faoliyatga erishishida tarbiyaning roli nihoyatda muhim.

YOshlarni tarbiyalashda biz uchun qadrli bo‘lgan milliy urf-odatlarimiz, an’analarimiz, o‘chmas merosimizga mehr-muhabbat ularga sodiqlik ruhini shakllanitira olsak har birimiz uchun ijobiy natija bajarayotgan ishlarimizning mahsuli ekanligi bilinadi.

Buning uchun avvalo milliy g‘urur, milliy ong, milliy g‘oya, ma’naviyat, yuksak madaniyat egasi kabi tushunchalarni yoshlarning ongiga singdirishimiz lozim. CHunki tarixni

bilmasdan, o‘rganmasdan undan ruhiy, ma’naviy ozuqa olmasdan turib, kelajakni, kelajakdagi orzu umidlarga erishib bo‘lmaydi.

Demak, Pedagogika fanining predmeti, o‘qitishning, ta’lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo‘lganligi uchun ham uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Tarbiya jamiyatning vazifasi bo‘lib, u faqat ishlab chiqarish munosabatlari ta’sirida emas, balki turli tarixiy davrlarda ilgari suriladigan u yoki bu tarbiya nazariyasining g‘oyalari ta’sirida aniq shaklga ega bo‘ladi, shuning uchun ham ko‘p jihatdan ma’rifatchi va pedagoglar faoliyatining natijasini ifodalaydi. Agar tarbiya alohida mustaqil vazifa sifatida kishilik jamiyati paydo bo‘lishi bilan birga tarkib topgan bo‘lsa, ta’lim nazariyasi fan sifatida bir muncha keyinroq shakllangan.

Tarbiya jamiyat hayotida sezilarli rol o‘ynaydi. Jamiyatda tarbiya jarayonida to‘plangan tajribani umumlashtirish ehtiyoji tug‘ilib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlash imkonini beradigan maxsus o‘quv yurtlarini ochish zaruriyati paydo bo‘lishi bilan birga, ta’lim nazariyasi ham fan sifatida rivojlana boshladi.

Ibtidoiy jamoa davrida ham ijobiy tarbiya tajribasini ommalashtirishga urinish ko‘rtaklari bo‘lgan. Masalan, kattalar va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan, keyinroq turli odat va marosimlar bilan bog‘liq o‘zini tutishning ba’zi bir ko‘rinishlari shakllana boshlagan.

Qadimiy va O‘rta SHarq adabiyoti namoyondalari orasida nazariy-pedagogik tusga ega qator ilmiy qarashlar mavjud bo‘lgan. Ular orasida Al-Farobiy, Alisher Navoiy va boshqalarning asarlarini misol keltirish mumkin.

Feodalizm davrida tarbiya asosan din ta’sirida bo‘lgan. SHuning uchun ham ta’lim nazariyasining asosiy g‘oyalari diniy ilm orqali ifodalangan.

Tarbiya nazariyasining g‘oyalari ancha oldindan ilgari surilgan bo‘lishiga qaramay pedagogik ilmiy bilim-fan sifatida bir oz keyin shakllangan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi buyuk chex pedagogi YAn-Amos Komenskiy (1592-1670) nomi bilan bog‘liqdir. Komenskiy tomonidan taklif etilgan tamoyillar, ta’lim jarayonining shakl va uslublari «Pedagogika»ning oltin fondiga kirgan. Uning mashhur **«Buyuk didaktika»** asari pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasida birinchi muhim ilmiy asar hisoblanadi.

O‘quv muassasasidagi o‘quv jarayonida ta’lim, tarbiya va ma’lumot o‘zaro bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Har qanday fan o‘rgatilishi mobaynida pedagog tarbiyalanuvchilar dunyoqarashini shakllantiradi, madaniy xulq-atvorini tarbiyalaydi.

«Pedagogika» atamasi qadimiy YUnonistondan kelib chiqqan. Bu erda quldorlar farzandlarini o‘quv muassasasiga kuzatib qo‘yadigan, olib boradigan odamlarni «pedagog» deb atashgan. Keyinchalik bu atamaning ma’nosi birmuncha o‘zgardi. Maxsus tayyorgarlik ko‘rgan va tarbiya bilan shug‘ullangan shaxslar «pedagog» deb atala boshlagan. Ko‘p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat o‘sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o‘rganadi, deb qaralgan. Ammo hayot amaliyoti tarbiyasiga emas, balki kattalar tarbiyasiga ham taalluqli ekanligini ko‘rsatdi. SHuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va o‘qitish, ularga ma’lumot berish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan, deb belgilash odatga aylandi.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot ishlar, pedagogik g‘oyalar, ilmiylikka asoslangan natijalar jamlanmalari, ilmiy ishlanmalar, tajribalar, tavsiyalar asosida bir qator ilmiy pedagogik qo‘llanmalar, darsliklar chop etilgan.

Hozirgi zamon pedagogika fani jahon pedagogikasining etakchi bir qismi bo‘lib, pedagogika fani tarixi bilan mustahkam bog‘liqdir. Pedagogika fanining tarixi esa, pedagogikaning qismlaridan biri, uning maxsus tarmog‘i hisoblanadi.

**«Pedagogika»** atamasi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib «bola etaklamoq», ma’nosini anglatadi. keng ma’noda tarbiya haqidagi fan; o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish; umuman insonni tarbiyalash haqidagi fan degan ma’nolarni bildiradi. Pedagogikaning ob’ekti asosan o‘quvchilar hisoblansa, predmeti esa, o‘quvchilarga berilayotgan ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti hisoblanadi.

Pedagogikaning bosh masalasi tarbiyadir. Tarbiyadagi keng ma’no ta’lim, rivojlanish, ma’lumot bilan bog‘langan holda barkamol insonni voyaga etkazishdir.

**Pedagogika fanining maqsadi:**

o Respublikamizda komil insonni voyaga etkazishning bir butun holatdagi muammolarini xal qilish;

o Ta’lim-tarbiya samaradorligini tinmay oshirish va Dune talablari darajasiga olib chikish masalalariga ijodiy yondashish;

o Umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e’tiborga olib, ta’lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;

o Pedagogika-tarbiyashunoslik qoida, qonunlarni ilg‘or tajribalar asosida boyitib borish va yangi ish shakllarini izlashga tadbirlar belgilash;

o Uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlashtirish muammolarini xal qilish;

o “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni amalga oshirish.

**Pedagogika fanining vazifalari:**

- SHarq va G‘arbda xalq yaratgan xalq og‘zaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma’rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg‘or g‘oyalarini o‘rganib, tahlil kilib, komil insonni tarbiyalash jarayonini o‘rganish;
- Komil insonni tarkib toptirishning qonuniyat, qoida va zaruriy sifatlarini aniklash;
- Pedagogikadagi ta’lim-tarbiya nazariyasini hozirgi darv xususiy metodikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chikish va yangi pedagogik texnologiya qonunlariga amal qilish;
- Ta’lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarini maktab amaliy hayoti bilan bog‘lab, bo‘lajak O‘qituvchilarga urgatish;

Xalq ta’limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o‘rganib bo‘lajak O‘qituvchilarni qanday tayyorlash muammolarini xal qilish.

Pedagogika fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyil, usul va vositalari umuman, har bir inson uchun zarur bo‘lgan tarbiyaviy ta’sirlar yangicha asosga ega bo‘lishi kerak.

Prezidentimiz I.A.Karimov bu borada shunday degan edilar:

“O‘zbekistonning yangilanish va rivojlanish yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi:

- Umumiy qadriyatlarga sodiklik;
- Xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- Insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- Vatanparvarlik.” [4]

Pedagogika tarixi pedagogik ta’limotning tarixi va tarbiyaning rivojlanish masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etuvchi pedagogik g‘oyalarning salbiy pedagogik g‘oyalarga qarshi kurashi tarixini, hukmron tabaqalarning demokratiyaga qarshi siyosatini ochib tashlaydi, ilg‘or pedagogik g‘oyalar, hur fikrlar, ta’lim qonuniyatlarining ayrim olingan tarixiy davrdagi rivojlanish tamoyillarini tahlil qiladi, muhim umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o‘rtaga tashlaydi.

## 2. Pedagogika fanining tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan munosabati

Fan va texnikaning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, turli yo‘nalishlarda bilim hajmining oshib borishi fanning tabaqalanib, turli tarmoqlarga bo‘linishiga sabab bo‘lmoqda.

YAqin o‘tmishda falsafadan ajralib chiqqan pedagogika fanida ham ko‘pgina tarmoqlarga bo‘linish jarayoni, ya’ni tarkibiy tuzilishi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Masalan, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab pedagogikasi, kattalar pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi kabilar shular jumlasidandir. Ayrimlari esa, fan sifatida endi shakllanib kelmoqda.

O‘zining butun tarixi davomida pedagogika falsafa bilan chambarchas bog‘langan va xatto XIX asrgacha uning bir qismi hisoblangan edi. Xullas, **pedagogika fanining metodologik asosini O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun, hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qonun va farmonlar**

---

4 И.А.Каримов. “Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли”. Тошкент. «Ўзбекистон” 65-бет

**hamda falsafa tashkil etadi.** CHunki, **tarbiyaning asosiy maqsadi o‘sib kelayotgan yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdan iborat.**

Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. SHu bois, pedagogika bugungi kunda falsafadan ajaralib chiqib, bir qator fanlar Bilan munosabatda bo‘ladi. Jumladan, u psixologiya fani bilan chambarchas bog‘liq. Keyingi vaqtlarda pedagogika kibernetika bilan bog‘lanmoqda, buni dasturlashtirilgan ta’lim misolida ko‘rish mumkin. SHuningdek, u etnografiya, biologiya, odam anatomiyasi, iqtisodiyot, san’at, madaniyat kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir

Tarixiylik tamoyili har qanday fan rivojlanishining zarur tamoyili hisoblanadi. Zero o‘tmishni hozirgi davr bilan qiyoslash faqat hozirgi hodisalarning asosiy rivojlanish bosqichlarini yaxshi kuzatib borishga yoki o‘tmishning bebaho tajribasi hamda erishilgan yutuqlardan foydalanishga yordam berib qolmay, shu bilan birga, bu sohada xatolarga yo‘l qo‘yishdan saqlaydi va kelajakka yo‘naltirilgan amaliy takliflar, maqsadli izlanishlarni amalga oshirishga ko‘p darajada asos bo‘ladi. Jamiyat hayotini qayta qurish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni shuningdek, hamma mehnatkashlar tabaqalarini tarbiyalashni kuchaytirishni talab etadi. Bunday sharoitda pedagogikaning tadqiqot sohalari doirasi kengayadi. Hozirgi kunda pedagogikani asosiy tarmoklari sifatida quyidagilarni keltirib utamiz.

**YOsh davrlari pedagogikasi** mazkur guruhlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy-tashkiliy ishlarning qonuniyligini tadqiq etadi hamda eng avvalo ularni tarbiyalanuvchilarning o‘quv muassasalari shart-sharoitlarida amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi.

**Katta yoshdagilar pedagogikasida** oliy o‘quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalashning nazariy masalalari va metodikasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmog‘i sifatida oliy o‘quv yurti pedagogikasining shakllanayotganligi, uning aniqlashib borayotganligi ko‘zga tashlanadi.

Milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan harbiy o‘quv yurtlarida yoshlarga ta’lim berish hamda tarbiyalash muammolari bilan h**arbiy pedagogika** sohasi shug‘ullanadi.

Bo‘lardan tashqari **oila pedagogikasi** bugungi kundagi dolzarb vazifalardan birini tashkil etib, oilalarda, oila markazlarida, mahallalarda, jamoat tashkilotlarida, oila-nikoh muassasalarida amalga oshirilayotgan tadbirlarda namoyon bo‘ladi.

Umumiy pedagogikada tarbiyalanuvchilar orasida mafkuraviy targ‘ibot va madaniy ma’rifiy ishlar ham o‘ziga xos tarmoqlariga egadir. Bu mehnatkashlarni tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo‘shadi va belgilangan pedagogik g‘oyalarga suyanadi. Pedagogika fanining hamma tarmoqlari o‘zining turli rivojlanish, taraqqiyot bosqichlariga egadir: ularning ayrimlari aniq shakllanib bo‘lgan va etarli darajada keng ishlab chiqilgan boshqalari o‘zining shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda (masalan, oliy o‘quv yurti muassasasi pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi) ba’zi bir tarmoqlar pedagogikasining ajralib chiqishi endigina boshlanmoqda. Umumta’lim o‘quv yurtlarida emas, balki yordamchi o‘quv yurtlarida shug‘ullanishlari mumkin bo‘lgan shaxslar ya’ni, ko‘rish, eshitish, so‘zlash a’zolarida kamchiliklari bo‘lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tarbiyalash va ta’lim berishning o‘ziga xos tomonlarini tadqiq etuvchi fanlar pedagogika fanining maxsus guruhini tashkil etadi. Pedagogikaning bu maxsus tarmoqlari defektologiya yoki maxsus guruhga birlashtirilgan.

**Defektologiya fanlari** o‘z navbatida alohida mustaqil bo‘lgan tarmoqlarga bo‘linadi:

**Surdopedagogika** - kar va gung tarbiyalanuvchilar ta’lim-tarbiyasi masalalari bilan;

**Tiflopedagogika** - ko‘zi ojiz tarbiyalanuvchilar ta’lim-tarbiyasi bilan;

**Oligofrenopedagogika** - aqli ojizlar ta’lim- tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

Bunday ilmiy ishlar bilan shug‘ullanadigan institutlar Respublikada turli tavsiyalar berish, metodikani ishlab chiqish bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar, tajriba almashinish bilan ham samarali tadbirlarni olib borishadi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida maxsus tashkil etilgan Defektologiya fakultetida munosib mutaxassislar tayyorlanayotganligi fikrimizning dalilidir.

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta’sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o‘ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta’sirini o‘rganadi. SHu bilan birga, pedagogika o‘quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko‘pgina masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o‘quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

«Pedagogika» tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida oʻrganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bogʻliqdir. «Falsafa» fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya'ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. SHu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Boʻlar jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy xodisalar orasidagi oʻzaro aloqalar; dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bogʻliq boʻlgan gneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

**Etika** falsafaning axloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bogʻliqdir. Ularni xal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

**Estetika** (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini oʻrganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni goʻzallikni his qila olish, tushunishga oʻrganish vositalari va yoʻllari belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bogʻliqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiyligini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yoʻnalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini koʻrsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga boʻlgan ob'ektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini oʻrganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini oʻrganadigan boshqa fanlardan farqli oʻlaroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shugʻullanadi.

**Pedagogika psixologiya va fiziologiya** bilan ham bevosita va bilvosita bogʻliqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab tizimining oʻziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, kon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta'limning ba'zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning koʻpgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

**Psixologiya** pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, oʻsib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Keyingi vaqtlarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish haqidagi fan boʻlgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Boʻlarning barchasi pedagogika oʻzining predmeti va tadqiqot sohasiga ega boʻlib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bogʻliqlikda ekanligini koʻrsatadi.

Hozirgi mustaqillik sharoitida oʻsib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni, umuminsoniy ijobiy xislatlarni rivojlantirish Oʻzbekiston hukumatining qarorlarida mustaqil Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, nutqlarida oʻz aksini, tasdigʻini topgan.

Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan oʻz yoʻli, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi keksa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni echish uchun zarur boʻladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

Oʻzbekistonda milliy istiqlol mafkurasi asta-sekin shakllanib borayapti. Pedagogika ilmidagi tushunchalar ta'riflar milliy istiqlol mafkurasiga mos umuminsoniylik ruhida tushuntirilmogʻi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Albatta ta’lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o‘ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. YAna bir tomondan ta’lim nazariyasini, ta’lim-tarbiya mazmunini, shaklini va uslublarining asosiy jihatlari SHarqda ishlab chiqilib, Evropo orqali o‘zgarib, rivojlanib yana SHarqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa, quyida keltiriladigan tushunchalarda xususiy milliylikdan ko‘ra, umuminsoniylik jihatlarining ko‘pligi ko‘zga tashlanib turadi.

**3. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari va uning asosiy pedagogik kategoriyalar**i

Pedagogika fani o‘z mazmunini boyitishda yangilashda mavjud bo‘lgan pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o‘rganadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to‘g‘ri qo‘llansa, ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy tadqiqot metodlarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog pedagogik jarayonda o‘z auditoriyasi tarbiyalanuvchilari xarakter-xususiyatlaridan kelib chikqan, ularni psixologiyasini chuqur o‘rganib bir qator metodlarni qo‘llash mumkin.CHunki pedagogning asosiy maqsadi dars jarayonini tarbiyaviy ta’sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish metodlarni keltirib o‘tish lozim bo‘ladi.

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat usuli (yakka tartibda, guruh bilan )
3. Talabalar ijodini o‘rganish usuli.
4. Test usuli
5. Ma’lumotlarni tahlil qilish usuli.
6.Eksperement-tajriba-sinov usuli.
7. Statistika ma’lumotlarini tahlil qilish usuli.
8. Matematika va kibernetika usuli.

Ta’lim usullarini tanlash bilan bir katorda O‘qituvchi darsdagi talabalarni yosh va individual xarakter xususiyatlarini o‘rganishi hamda tahlil qilishi shart.

**Pedagogik kuzatish**- odatda tabiiy kuzatish orqali o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalardagi o‘zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini belgilash uchun qo‘llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko‘zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob’ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

**Suhbat metodi**- so‘rashning bir turi bo‘lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo‘li shvaqtida og‘zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo‘llaniladi.

Suhbat metodida- maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan,yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo‘llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo‘li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so‘rash nazariyasi va praktikasi intervyu tashkil etishning ko‘p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinash va h.k.

**Pedagogik so‘rash metodi**- tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So‘rash savollarning mantiiqIy o‘ylangan tizimini,ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. SHuningdek, qat’iy formadagi javobni («ha», «yo‘q») ham taqozo etishi mumkin.

**Test sinovlar metodi**- bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig‘ib olish metodidir. Test sinovlarini(anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatda test savollarining ma’lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

**Maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli** – bunda o‘quvchilarning umumiy miqdori, uning o‘sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasiga, sinfdan qolishning oldini olish, Rag‘batlantirish va jazolash choralari turlariga, maktabning moddiy bazasiga e’tibor beriladi.

**Eksperiment-tajriba-sinov usuli**- Ushbu tajriba asosan ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy fara zyoki amaliy ishlarning tatbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

**Statistika ma’lumotlarini tahlil qilish usuli**- xalq ta’limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag‘larning doimiy o‘sib borishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali qurollar, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xo‘jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag‘lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

**Matematika va kibernetika usullari**- o‘qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta’lim va uni mashina orqali boshqarish, o‘qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta’lim berish, maktab hisobotini mashinalar yordamida to‘zish kabi jarayonlardir.

Bu kabi metodlardan foydalanib ta’lim va tarbiya ishlarini olib borish faqatgina pedagog uchun emas, iqtisodiyot jabxalarida faoliyat yuritayotgan boshqaruvchi xodimlar, oilada farzand tarbiyasi bilan shug‘illanuvchi ota-onalar uchun ham, jamoa bilan ishlaydigan ma’suliyatli shaxs uchun ham zaruriy shart bo‘lgan usullardan biridir. Zero, inson tarbiyasidek murakkab jarayonga hech qachon e’tiborsiz bo‘lmaslik zarur.

**Tarbiya** – o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va ma’suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi.Tarbiya bola tuqilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik ta’sirida shakllanib boradigan jarayondir.

Pedagogikada «tarbiya» tushunchasi keng va tor ma’noda qo‘llanishi mumkin.

**Keng ma’noda qo‘llanishi deganda** – katta avlod vakillari o‘zlari to‘plagan hayotiy tajribalarini yosh avlodga qoldirishlarini tushunish mumkin.

**Tor ma’noda qo‘llanishi deganda** – maxsus ta’lim muassasalari orqali shaxsda aniq bilim, dunyoqarash, ichki hissiyotlarini,umuman hayotga tayyorgarligini rivojlantirish tushuniladi. SHu erda savol tuqiladi: qaysi ta’lim muassasasi boshqasiga nisbatan tarbiya taqdiriga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi? Bola tarbiyasini bo‘zilishiga faqat tarbiya muassasalari va pedagoglar ko‘proq sababchimi? Degan savollar insoniyatni doimo qiziqtirib keladi.

**Ta’lim** – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o‘tkaziladigan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o‘stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.Ta’lim jarayoni o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, ikki tamonlama xarakterga egadir.O‘qituvchining faoliyati tufayli ta’lim puxta o‘ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijani beradi. Ta’lim jarayonini mazmunini bilim, ko‘nikma va malaka tashkil qiladi.

**Bilim** – bu o‘quvchilar o‘qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bilimni hayotda ko‘p unum beradigan qilib qo‘llay olish uchun bilim bilan birga ko‘nikma va malaka hosil qilish lozim.

**Ko‘nikma** – mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yiqindisidir.

Iqtidor va ko‘nikma mashq qilish va takrorlash orqali **malakaga** aylanadi.

Bilim asosida ko‘nikma va malaka paydo bo‘ladi. Bilim baxsda kerak bo‘lsa, ko‘nikma mexnatda, dunyoni o‘zlashtirishda zarur.

**Ma’lumot** – ta’lim –tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

**4. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan pedagogik talablar. Pedagogik faoliyat, mahorat va qobiliyat**

Hozirgi zamon o‘qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri – o‘z kasbiga sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi, iymonliligi, bolajonliligi, o‘z fanini mukammal bilishi va sevishi kabi xislatlari orqali boshqa kasb egalaridan ajralib turadi. CHunki, ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o‘qituvchiga va uning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri o‘zi o‘qitayotgan predmetni chuqur bilishi bilan birga, uning o‘qitish metodikasini o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur. O‘qitayotgan predmetning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o‘quvchilarga etkaza olishi o‘quvchilarning shu predmetga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘qituvchining obro‘yini oshiradi.

SHuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarni sevishi, hurmat qilishi, ularning hayoti bilan qiziqishi, butun kuch va bilimini ularning kelajagi hamda ularni vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina haqiqiy o‘qituvchi bo‘la oladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlar asosida tarbiya qila olishi lozim. Uning nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli, tasvir vositalarini, adabiy til uslubi va me’yorini to‘la egallagan bo‘lishi zarur. O‘quvchiga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o‘qituvchilik kasbiga loqayd inson haqiqiy o‘qituvchi bo‘la olmaydi.

O‘qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ega bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun o‘qituvchi tashabbuskorlik va tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo‘lib, har doim tetik, g‘ayratli, o‘z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo‘lmog‘i lozim. Tashabbuskor, tashkilotchi, g‘ayratli va o‘quvchilarni chin qalbdan seva oladigan o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘z orqasidan ergashtira oladi, o‘quvchilar unga ergashadi.

O‘qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun ham o‘qituvchining salomatliligi ham yaxshi bo‘lishi zarur. Uning ovoz paychalari rivojlangan, ko‘rish qobiliyati yaxshi bo‘lishi, uzoq vaqt tikka bo‘lishi, ko‘p yurishi, epchil harakat qila olishi kerak.

SHuningdek, maxsus fan o‘qituvchisiga qo‘yiladigan kasbiy talablar shundan iboratki, u amaliy va ishlab chiqarish mashg‘ulotlariga rahbarlik qiluvchi va boshqaruvchi shaxs hisoblanadi**.**

**Pedagogik faoliyat** – bu yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorlangan mutaxassislarning mehnat faoliyati. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi-murabbiylarning faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Har bir o‘quvchi o‘z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda ularning ana shu o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va o‘rganish nihoyatda muhimdir. Pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchi yoshlarning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O‘qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning kasbiy tavsifnomasida ifodalanadi, ular quyidagicha: o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari; o‘qituvchining ruhiy-jismoniy tayyorgarligi; maxsus pedagogik tayyorgarlikning hajmi va mazmuni; ixtisoslikka oid metodik tayyorgarlik mazmuni.

**Pedagogik mahorat**. O‘qituvchi muvaffaqiyatli ishlashi uchun pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli o‘qituvchilardagina pedagogik mahorat bo‘lishi mumkin.

**Pedagogik qobiliyat.** Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik, mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa, yana iste’dod, layoqat va zehn, ya’ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo‘lishi ham zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo‘lmog‘i lozim:

**1. Bilish qobiliyati –** fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, biologiya va hokazo) bilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanni o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi kashfiyotlarni

hamisha kuzatib boradi, materiallarni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini ham oʻtkazadi.

**2. Tushuntira olish qobiliyati –** oʻquv materialini oʻquvchilarga tushunarli qilib bayot eta olish, oʻquvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uygʻotish qobiliyatidir. Oʻqituvchi zarur hollarda oʻquv materialini oʻzgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib oʻquvchilarga etkaza olishi lozim.

Oʻquvchilarning ruhiy holati, sogʻligi, kayfiyatini hisobga olish zarur. Qobiliyatli pedagog oʻquvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklari va nimani unutib qoʻyganliklarini tasavvur etadi. Qobiliyatli, tajribali oʻqituvchi oʻzini oʻquvchining oʻrniga qoʻya oladi, u kattalarga Aniq va tushunarli boʻlgan narsalarning oʻquvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa boʻlishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. SHuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida oʻylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

**3. Kuzatuvchanlik qobiliyat –** oʻquvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, oʻquvchi shaxsini va uning ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bogʻliq boʻlgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday oʻqituvchi oʻquvchining ruhiyatidagi koʻz ilgʻamas oʻzgarishlarni ham tez fahmlab oladi. Oʻquvchilar bunday oʻqituvchilar haqida: «Qaramayotganga oʻxshaydi-yu, ammo hamma narsani koʻrib turadi!», «Oʻquvchining hafa boʻlganligini yoki dars tayyorlamaganligini uning koʻzidan biladi!»,-deydilar.

**4. Nutq qobiliyati** – nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida oʻz fikr va tuygʻularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati bu oʻqituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

Oʻqituvchining nutqi darsda hamisha oʻquvchilarga qaratilgan boʻladi. Oʻqituvchi YAngi saboqni tushuntirayotgan, oʻquvchining javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan boʻlsa ham uning nutqi hamisha oʻzining ichki kuchi, ishonchi, oʻz gapirayotgan narsasiga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi oʻquvchilar uchun aniq, soda, tushunarli boʻladi.

**5. Tashkilotchilik qobiliyati** – birinchidan oʻquvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal qilishga ruhlantirishni, ikkinchidan, oʻz ishini toʻgʻri uyushtirishni nazarda tutadi.

Oʻz ishini tashkil etish deganda ishni rejalashtira olish, uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali oʻqituvchilarda vaqtni oʻziga xos his etish, ishni vaqtga qarab taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil boʻladi. Dars davomida kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari baʼzan uchrab turadi. Ammo, tajribali oʻqituvchi zarur hollarda darsning rejasini oʻzgartira oladi.

**6. Obroʻ orttira olish qobiliyati** – oʻquvchilarga bevosita emotsional-irodaviy taʼsir etish va shu asosda obroʻ qozona olish demakdir. Obroʻ faqat shu asosdagina emas, balki oʻquvchi fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat oʻqituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yigʻindisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlari (dalilligi, chidamliligi, qatʼiyligi, talabchanligi va hokazolar) ga, shuningdek, oʻquvchilarga taʼlim hamda tarbiya berish masʼuliyatini his etishga, oʻzining haq ekanligiga eshonishga, bu ishonchni oʻquvchilarga etkazib berish kabilarga ham bogʻliq.

Oʻquvchilar qoʻpollik qilmaydigan, qoʻrqitmaydigan, toʻgʻri talab qoʻya oladigan oʻqituvchini juda hurmat qiladilar. Oʻqituvchining boʻshangligi, laqmaligi, savodsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar

**7. Toʻgʻri muomala qilish qobiliyati** – oʻquvchilarga muomalali holda yaqinlasha olish, ular bilan muomala odobiga oid pedagogik nuqtai nazardan juda samarali oʻzaro munosabatlar oʻrnata bilish, oʻqituvchida pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

**8. Kelajakni koʻra bilish** – oʻz harakatlarining oqibatini koʻra bilishi, oʻquvchining kelgusida qanday mutaxassis boʻlishini tasavvur qila olishi, oʻquvchida qanday insoniy fazilatlarni yanada taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik mahoratga, tajribaga hamda tarbiyaning qudratiga bogʻliqdir.

**9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati** – diqqatni ayni bir paytda taqsimlash qobiliyati oʻqituvchilik uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali oʻqituvchi saboqni bayon qilish mazmuni va formasini, oʻz fikrini (yoki oʻquvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni paytda barcha oʻquvchilarni koʻrib turadi, toliqish, eʼtiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatadi. Intizomsizlik hollarini eʼtibordan qochirmaydi, nihoyat oʻz xatti-

harakatlarini ham kuzatib boradi. Tajribasiz o‘qituvchi ko‘pincha saboqni bayon qilishga berilib ketib, o‘quvchilarni e’tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo‘yadi, bordi-yu o‘quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, fikr kalavasini yo‘qotadi.

SHuningdek, ushbu maruzada pedagogika fanining predmeti, hozirgi zamon pedagogikasining maqsad va vazifalari, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, asosiy pedagogik kategoriyalar kabi mavzular yoritilgan va shu bilan birga pedagogika fanining metodlari va ularni qo‘llanilishi haqidagi fikrlar ham keltirib o‘tilgan.

Bizga yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ldiki, pedagogika fani ta’lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o‘zgarishini o‘rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ochib beradi.SHu asnoda ta’lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo‘llarini ko‘rsatib beradi. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga tarbiya, ta’lim, ma’lumot kiradi. Lekin, hozirgi pedagogikani taraqqy etib borishida, asosiy pedagogik kategoriyalar qatoriga rivojlanish va shakllanishni ham kiritsa bo‘ladi

**Tayanch iboralar**

Tarbiya, ta’lim, ma’lumot, pedagogika, yoshlar pedagogikasi, o‘quv muassasasigacha tarbiya pedagogikasi, oila pedagogikasi, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi, kuzatish, suhbat, eksperiment, o‘quv muassasasi hujjatlarini o‘rganish, testlar, pedagogik faoliyat, mahorat, qobiliyat

**Nazorat uchun savollar**

1. Pedagogika fani nimani o‘rganadi?
2. Pedagogika fanining vazifalari nimalardan iborat?
3. SHarq pedagogikasi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
4. Pedagogika fanining tarkibiy tuzilishi haqida tushuncha bering?
5. Tarbiya nima?
6. Ta’lim nima?
7. Ma’lumot nima?
8. Ta’lim va tarbiya jarayonida muhim metodlarni qo‘llashning ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz.
9. Ta’lim va tarbiyaning birligi deganda nimani tushunasiz?
10. Asosiy ilmiy-tadqiqot metodlarini tushuntiring?
11. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini tushuntiring?
12. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan pedagogik talablarni izohlang?
13. Pedagogik faoliyat, mahorat va qobiliyat haqida ma’lumot bering

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi (darslik). –T.: Fan va texnologiya, 2008. –288 b.

2. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. “Pedagogika” Toshkent. TDIU, 2005 yil.

3. Sarsenbaeva R.M., Doniev B.B. Umumiy pedagogika. /O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.

4. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.

5. Podlasыy I. P. Pedagogika. Moskva ,2003.

6. Xo‘jaev N. va boshqalar. “Pedagogika asoslari”. Toshkent.,TDIU 2003.

7. www.bilimdon.uz. – O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining veb sayti.
8. www.tgeu.uz – TDIU veb sayti.
9. www.tatu.uz – TATU veb sayti.
9. www.de.uz – Masofaviy ta’lim tizimiga bag‘ishlangan veb sayt
10. www.inter – pedagogika.ru.
11. www.search.re.uz – O‘zbekistonning axborotlarini izlab topish tizimi.

## 2-mavzu: MA’RIFIY QADRIYATLAR VA MAQSADLAR. MA’RIFIY FIKRLAR TARAQQIYOTI VA ULARNING TARIXIYLIGI

**Reja:**

**1. O‘zbek pedagogikasida ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar**
**2. SHarq mutafakkirlarining pedagogika nazariyasiga qo‘shgan xissalari**
**3. Jadidchilik harakati namoyondalarining pedagogik qarashlari**
**4. CHet el mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya xususida bildirgan fikr-mulohazalari**

### 1. O‘zbek pedagogikasida ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar

O‘zbekiston respublikasi o‘zining mustaqilligiga erishgan kunidan boshlab, jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi jarayonida ma’naviy, ma’rifiy va mafkuraviya o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimov, o‘zining ma’ruzasida “Milliy istiqlol mafkurasi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi; xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi ...”,-deydi[5].

Darhaqiqat, hozirgi davr pedagogikasi, tarbiyashunoslik ilmi, ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini qayta qurish hamda taraqqiy ettirish Milliy istiqlol mafkurasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. SHuningdek, xalqimizning an’ana va udumlari donishmand, mutafakkir bobolarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi

Faylasuf olim, akademik E.YUsupov o‘zining qator asarlarida qadriyatlarning ta’rifi va xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadi. U, qadriyat tushunchasiga falsafiy nuqtai nazardan quyidagicha ta’rif beradi: "Qariyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy kasb etgan moddiy, ma’naviy hodisa, jarayon bo‘lsa ham, uning ahamiyati va mohiyati kishilarning ularga munosabati asosida belgilanadi. Qadriyat degan tushunchaning o‘zi ham qadr-qimmat ma’nosini bildiradi"[6] .

Olim, jamiyat taraqqiyotida insoniyat tomonidan bunyod etilgan, o‘tmish va kelajakda rivojlanish uchun ijobiy ta’sir etadigan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar, fikrlar, g‘oyalarga qadriyat sifatida qaraydi. SHaxsning xislatlari, fazilatlari, dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan, o‘tmishda yaratilgan, kelajakda foydalaniladigan omillar yoshlarning ta’lim-tarbiyasida foydalanish lozim bo‘lgan qadriyatlar deb tushunildi. SHuningdek, barcha qadriyatlar ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular, yosh avlod ongi, dunyoqarashining shakllanishiga, ichki ruhiy dunyosining, aqliy faoliyatining kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pgina qadriyatlar jarayon xususiyatiga ega bo‘lib, ushbu jarayonni amalga oshirilishida bo‘lg‘usi shaxs – bola ishtirok etadi, uning xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi, ba’zi qoidalarini o‘rganib, ongiga singdirib boradi. Bular jumlasiga an’analar, urf-odatlar, o‘gitlar, nasihatlar, bayramlar yo‘nalishidagi qadriyatlarni misol keltirish mumkin.

Ba’zi qadriyatlar esa, namoyon bo‘lishi natijasida turli xil buyumlar, asarlar, jihozlar, qurilmalar moddiy boyliklar ko‘rinishida yaratiladi hamda moddiy borliqning o‘zligiga nisbatan, ushbu tasvir uzoq

5 Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар ва тамойиллар. –Т.: Ўзбекистон, 2001. – 80 б. [– 43-б.]

6 Юсупов Э. Қадриятлар ва уларнинг жамият ҳаётидаги ўрни. /Услубий қўлланма. –Т.: ЎзМУ, 1998. – 30 б.

vaqt saqlanib qoladi. Borliq yaratilishiga sabab bo‘ladigan qadriyatlar shartli ravishda moddiy qadriyatlar deb belgilandi. Ko‘p yillik kuzatishlar va olib borilgan tadqiqot natijasida, o‘quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etadigan tarixiy, madaniy, ma’naviy, moddiy qadriyatlar umumlashtirilib quyidagi tuzilmaga keltirishga harakat qilindi. Jarayon qadriyatlari shartli ravishda ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar deb, namoyon qadriyatlar esa, moddiy borliq ko‘rinishidagi moddiy qadriyatlar deb belgilandi (Jadval).

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qadriyatlar uchta guruhga ajratilgan. YA’ni, ***umuminsoniy*** (mustaqillik, do‘stlik, vatanparvarlik kabi), ***mintaqaviy*** (mehmondo‘stlik, sahovatlilik, bolajonlik kabi) va ***milliy*** (*ma’naviy-ma’rifiy, moddiy*) qadriyatlarga guruhlandi. Kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, o‘quvchi har bir qadriyatlarni o‘rganish jarayonida alohida o‘zi shakllana olmas ekan. Binobarin, har bir qadriyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekan, u holda o‘quvchi ushbu bog‘liqlik jarayonida bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi. Uning shakllangan kichik hunarmand bo‘lib etishishiga imkoniyat yaratiladi. Ushbu imkoniyat ta’lim va tarbiyaning shakli, vositasi va metodlari hamohang holatda olib borilsagina, ijobiy natijalarni beradi.

O‘quvchilar *umuminsoniy* (mustaqillik, do‘stlik kabi), *mintaqaviy* (mehmondo‘stlik, sahovatlilik kabi) hamda *milliy* (ma’naviy-ma’rifiy, moddiy) qadriyatlar orqali ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya olishadi. Ushbu jarayonda, ularning bir-birlariga bo‘lgan hurmati, do‘stligi, hamkorligi kabi insoniy fazilatlari shakllanadi. SHuningdek, ular xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘zlashtirishi hamda ta’lim va tarbiyaning shakli, vositasi, metodlaridan unumli, samarali foydalanishi natijasida shakllangan kichik hunarmand sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu umuminsoniy, mintaqaviy va milliy qadriyatlarning o‘zaro bir-birlari bilan chambarchas aloqadorligi ifodalangan.

Jadvalda qadriyatlar tuzilmasi qulaylashtirilgan holatda ifodalandi. Ma’lumki, umuminsoniy, mintaqaviy, milliy, ma’naviy-ma’rifiy, moddiy kabi qadriyatlarning nomi va atamalari soni yuzdan ortiqdir.

Biz bilamizki, milliy qadriyatlar shartli ravishda ma’naviy va moddiy qadriyatlarga bo‘linadi. Ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarga xalq ijodiy merosi, ya’ni xalq og‘zaki va yozma ijodi (doston, lapar, rivoyat kabi), va an’analar (Qurbon hayiti, Ro‘za hayiti, beshik to‘yi, kabi) hamda musiqa va teatr san’ati (ashula, raqs, qo‘g‘irchoq, dor o‘yini kabi), moddiy qadriyatlarga esa, xalq hunarmandchiligi (pichoqchilik, ko‘nchilik, kosibchilik, mahsido‘zlik kabi), tasviriy va amaliy san’at (loyihalash, grafika, xattotlik kabi) sohalari hamda tarixiy obidalar (qal’a, machit, maqbara kabilar) misol bo‘ladi.

Xalqimizning tarixiy rivojlanish taraqqiyoti xususiyatlarini ifodalaydigan ma’naviy va moddiy qadriyatlar ko‘p yillar davomida yaratilgan. Xalqning hayotiy ahvolini yoritadigan manbalar hamda moddiy borliq ko‘rinishida yaratilgan jihoz, buyumlar shartli ravishda milliy qadriyatlar sifatida guruhlandi. Xalq ijodiy merosi (xalq ijodi) – mehnatkash xalq ommasining badiiy-ijodiy faoliyati bo‘lib, xalq yaratgan, xalq orasida keng tarqalgan va ajdoddan-avlodga o‘tib,

**Jadval**

**Qadriyatlar tuzilmasi**

| Umuminsoniy | Mintaqaviy | Milliy | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Ma’naviy-ma’rifiy | | | Moddiy | | |
| | | Xalq ijodi | An’analar | Musiqa va teatr san’ati | Xalq hunarmand-chiligi | Tasviriy va amaliy san’at | Tarixiy obidalar |
| Mustaqillik | Mehmon-do‘stlik | Doston | Qurbon hayiti | Ashula | Pichoqchilik | Loyihalash | Qal’a |
| Do‘stlik | Sahovatlilik | Rivoyat | Ro‘za hayiti | Raqs | Ko‘nchilik | Grafika | Machit |
| Vatanparvarlik | Bolajonlik | Ertak | Beshik to‘yi | Doirachi | Kosibchilik | Xattotlik | Madrasa |
| Hamkorlik | Hamjihat-lilik | Askiya | Sunnat to‘yi | Karnaychi | Mahsido‘zlik | Haykal-taroshlik | Maqbara |
| Insonpar-varlik | Mehr-muhabbat-lilik | Ruboiy | Hovli to‘yi | Masxaraboz | Anjom-sozlik | CHizma tasvir | Minora |
| Erksevarlik | Qarindosh urug‘chilik | G‘azal | Navro‘z | Dor o‘yini | Temirchilik | Rang tasvir | Ark |
| Ma’naviy kamolot | Kattalarga hurmat | Matal | Xotira | Qo‘g‘irchoq o‘yini | Naqqoshlik | Ganch-korlik | Arxeologik topilma |
| Ijtimoiy kamolot | Kichiklarga izzat | Topishmoq | Hashar | Taqlidchi | **Kulolchilik** | Me’mor-chilik | Rasadxona |

ommaning ijtimoiy mehnat tajribasi jarayonida shakllanib, tobora takomillashtirilib boradigan san'atdir. Xalq ijodida mehnat faoliyati, ijtimoiy-milliy hayoti, turmush tarzi, tabiat to'g'risidagi tushunchalari, madaniyati, e'tiqodi, orzu-istaklari, his-tuyg'ulari hamda tafakkurining boy olami, baxtli va adolatli zamon haqidagi o'ylari o'z ifodasini topadi. Olim M.Imomnazarov fikricha, "... barcha ma'naviy boylikni xalq yaratadi. Ammo, Evropa ilmida mumtoz (klassik) san'at va xalq ijodi (folklor) ni farqlash udum bo'lgan. ... xalq ijodi namunalari odatda turli toifalar did-farosatini charxlashga, ularning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga, ularda nazokat, nafosat tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi, dunyoni uyg'un idrok etishga yordam beradi"[7] .

Dostonlar – SHarq adabiyotiga mansub lirik, epik zamindagi ko'p qismli poetik asarlar bo'lib, xalq hayotining ma'lum tarixiy taraqqiyot davri uchun muhim hisoblangan mavzularga bag'ishlanadi. Uning matni she'riy yoki ertakka o'xshash ko'rinishlarda bo'lib, baxshilar, hofizlar, oqinlar tomonidan qayta ishlanishi va kuylanishi natijasida yildan-yilga sayqallanib boradi.

Dostonlarda voqea-hodisalar, qahramonlar xatti-harakatlari, xulq-atvorlari bo'rttirib ko'rsatiladi, mubolag'a va turli-tuman qilib (metafora va boshqalarda) tasvirlanadi.

O'zbek xalq dostonlaridan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Hasanxon", "Kuntug'mish", "Oshiq G'arib va SHohsanam", "YUnus pari", "Rustamxon" va boshqalar halqning o'lmas qadriyatlariga aylangan hamda jahon madaniyati safidan muhim o'rin egallagan.

Xalq dostonlari Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir, surxondaryolik SHoberdi Boltaev, qoraqalpog'istonlik Jumaboy Bozorov, xorazmlik Abdulla Qurbonnazarov va boshqalar ijodi xalqning yirik dostonchilik maktablari ijodiy mevalari sifatida tanilgan. Dostonchilikning Surxondaryo (Denov, Termiz), Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston, Samarqand, Jizzax ijodiy maktablarining ijro uslublari o'ziga xos maftunkorligi bilan ajralib turadi. Hozirgi davrda xalqning og'zaki ijodi, baxshichilik san'ati ulug'landi va davlat miqyosida "Xalq baxshisi" unvoni ta'sis etildi. Har yili tumanlar, viloyatlar va respublika miqyosida baxshilar o'rtasida ko'rik tanlovlarning o'tkazilishi an'ana tusiga kirib bormoqda.

Har bir xalqning tarixiy o'tmishi, urf-odatlari, mehnat tajribalari, yig'inlari turli an'analar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Fikrimizcha, o'zbek xalqining ko'p asrlardan buyon davom etib kelayotgan umr-boqiy an'analariga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

"Navro'z" – musulmon taqvimida 21 mart kuni nishonlanadigan "YAngi yil bayrami" hisoblanib, u erga ishlov berish va urug' qadashning boshlanishi nishonlanadigan tantana [89].

Beshik to'yi – oilada farzand tug'ilgandan keyin, uni beshikka (belanchakka) yotqizishga bag'ishlangan tantana (an'ana). Asosan, o'zbek xalqi ko'p bolali oilalardan iborat, shuning uchun ham, u bolajon oila hisoblanadi. O'zbek xalqida ushbu an'ana nihoyatda qadrlanadi.

Hashar – turli xil mehnat mavsumlari, uy-joylarni ta'mirlash, muammolarni hal etishda bir-birlariga mehribonlik yordamlarini ayamaslik, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni, do'st-birodarlarning sahovatli (to'lovlarsiz) yordam ko'rsatishi. Hasharlar, asosan O'rta Osiyo xalqlariga mansubdir. SHuningdek, u O'zbekiston xalqiga ham xos an'analardan hisoblanadi.

O'zbek xalqining keng tarqalgan an'analariga xotirlash (marhumlarni eslash, bemorlardan xabar olish), sunnat to'yi, hovli to'yi, ota-onaga hurmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, askarlik burchini ado etish kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. YUqorida keltirilib o'tilgan, ming yillik tarixga ega bo'ltan an'analarimiz qayta tiklanishi, taraqqiy etishi, takomillashtirilishi, yangi zamon ruhiga moslashtirilib, rivojlanishiga hamda tarbiya-tarbiya tizimida batafsil o'rganilishiga O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi mustahkam zamin va sharoit yaratdi.

## 2. SHarq mutafakkirlarining pedagogika nazariyasiga qo'shgan xissalari

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin SHarqda o'z bilim, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiy yirik mutafakkir - «Muallimi soniy» - «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlagan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi asarlarnda ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

---

7 Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар //Масъул муҳаррир: Н.Комилов//. –Т.: Шарқ, 1998. – 240 б. (107-108 бет).

Forobiy o‘z ishlarida ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga etkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishish to‘g‘risida» asarida bilimlarnn o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmlar. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklning osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman jonli tabiat o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Forobiy «Inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi», deb hisoblaydi.

Bunga Forobiy ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. CHunki, maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy- jihatdan kamolga etkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun qoidalarnning to‘g‘ri bo‘lib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l to‘tadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya etadi.

Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchui xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta’lim tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim - degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya - nazariy fazilatlarni ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim.

Abu Nasr Forobiy yana aytadiki: «Ta’lim - degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasida tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishdir, - deydi.

Forobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l - ta’lim tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta’lim so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi deydi. Har ikkalasi birlashsa, etuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish Odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga etkazish maqsadini ko‘zlaydi.

SHarqda «SHayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo‘lgan allomalardan biri o‘rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta’lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashxur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Allomadan keyigi avlodlarga 250 dan ortiq ilmiy asar boy meros bo‘lib qoldi.

Abu Ali ibn Sinoning «Al-qonun», «Donishnoma», «Ash-SHifo», «An-Najot» kabi asarlari shular jumlasidandir.

Ma’lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o‘zinnng ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog‘liq holda ifodalagai, maxsus risolalar talqin etgan. SHuningdek fanlarni tasnif etadi. Bunda u biriichi o‘ringa tibbiyot fanlarnni qo‘yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya’ni nazariy va amaliy guruhlarga bo‘ladi. Nazariy guruh kishilarni o‘zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo‘llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilish kerakligini o‘rgatadi, deydi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o‘rgatuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o‘rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko‘proq yaxshi axloqiy xislatlarii mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi deb ta’kidlaydi.

Inson hissiy va ma’naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe’l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonni shakllantirishda uning atrofini o‘rab olgan tashqi muhit va odamlar alohida muhim rol o‘ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof dunyoni bilishigagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishida ham ta’sir etadi. SHuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo‘lish kerakligini, bola yomon odatlarga o‘rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. CHunki inson avvalo oilada kamolga etadi.

Olimning buyuk xizmatlaridan biri shundaki u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovotini ulug‘laydi, undagi qudratga ishondi, inson tafakkurinnng tantana qilishi kerakligini tinmay targ‘ib qildi.

Ibi Sinoning inson kamolotida ta’lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina, emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalagan, ilm-fan sohasida tarbiyashunos olim sifatida ham tadqiq etish, o‘rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ushbu mavzuda Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari, ahloq-odob haqidagi fikrlari, g‘oyalari, pedagogika sohasidagi, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari. O‘zbek xalq pedagogikasining yirik namoyandalari bo‘lgan buyuk allomalarning asarlari, yangi usul maktablari jadidlar oqimi, ta’lim sohasidagi qo‘shilgan xissalari haqida mulohazalar keltirilgan.

Biz tarixdan bilamizki Amir Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o‘rin egallaydi. CHunki bu davrlarda Samarqand, Hirot shaharlarida madaniyat, ilm-fan rivojlanib bordi. SHunday markazlashgan, buyuk davlatga asos solgan Amir Temur Kurogon ibn amir Tarag‘ay 1336 yilning 9 aprelida o‘sha paytdagi Kesh (SHaxrisabz) ga qarashli Xo‘jailg‘or qishlog‘ida tavallud topdi. Otasi amir Tarag‘ay o‘ziga to‘q, badavlat kishi edi. Onasi Tegina begim buxorolik bo‘lgan.

Sohibqiron (Bu unvon bo‘lg‘usi jahongirga u tug‘ilmasdan turiboq din ahllari tomonidan bashorat tariqasida berilgan. «Sohibqiron» atamasining lug‘oviy ma’nosi «yulduz burjlarining baxtli kelishi (Kuron) da tug‘ilgan farzand demakdir. «Temurnoma» muallifining ta’kidlashicha, «kuron» ya’ni yulduz burjlarining baxtli kelishi har sakkiz yuz yilda bir marta sodir bo‘ladi. Insoniyat tarixida «Avval Iskandar Zulqarnay hazratlari, ikkinchi Muhammad Rasul akrom sallollohu alayxi vassallom saidimiz, uchinchi Amir Temur xonimiz» shu soniyada dunyoga kelganlar). Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Etti yoshga to‘lgach, otasi uni o‘qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog‘idanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavondozlik, ovchilik, kamondan nishonga o‘q uzish kabi mashg‘ulotlarni puxta egalladi.

Amir Temur odob-axloq, iymon, e’tiqod, ta’lim-tarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka, mutafakkirlikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o‘zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o‘gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko‘zdan kechirish kifoya. «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Marfuzaota Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Vakioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomi bilan jahonga mashhur bo‘lgan asarlarida Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma’no o‘gitlarining har biri mazmun va ma’no kengligi, kuchliligi, teranligi, ta’siri, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilgan bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni qadrli xazina odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Bu asarlar Sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish: goh muvaffaqqiyatli, goho quvonchli, goho sertashvish umrining ijodiy mevasidir. Asarlardagi barcha o‘gitlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan durdona-pedagogikadir. Bu pedagogika buyuk Sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g‘olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o‘rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o‘rtasidagi buzilmas do‘stlik, mehr-shafqat, odamiylik va axloq-odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag‘ishlangandir.

Amir Temur barpo etgan (Temur va temuriylar davlati) Movarounnaxr va Xurosonda hukmronlik qilgan A. Temur va uning avlodlari quyidagi tartibda yildan-yilga ilm va ma’rifatni qo‘shganliklarni quyidagi sxema orqali ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, «Amir Temur» nomi yodlashtirildi. Ko‘plab shaharlar va qishloqlardagi shox ko‘chalar, maydonlar, o‘quv muassasalari uni nomi bilan atala boshlandi. Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi va rahnomaligida Toshkent, Samarqand, SHahrisabz kabi shaharlarning markaziy maydonlarida, Amir Temur xiyobonida 1996 yilda «Temuriylar davri» muzeyi barpo etildi, 1996 yilda «Amir Temur» ordeni ta’sis etildi. («Amir Temur» ordeni- O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlaridan biri. Bu orden bilan davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari, me’morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san’atni, harbiy mahoratni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissalari uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari mukofotlanadilar. Ushbu orden bilan davlatlararo hamkorlikni, tinchlikni, hamda xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga alohida hissa qo‘shganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan shaxslar ham mukofatlanishi mumkin. 1996 yil 26 aprelda ta’sis etildi. Orden tilla qoplangan 925 darajali kumush qotishmadan tayyorlanib, 8 qirrali buyurma yulduz ko‘rinishida bo‘lib, Amir Temurning ulug‘vor qiyofasi kumush rangda tasvirlangan. Muallifi- O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov.

1996 yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida hazrat Sohibqironning tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi).

O‘zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma’rifatparvar, faylasuf, musiqashunos davlat arbobi Nizomiddin Alisher Navoiy Hirotda tug‘ilib, shu erda yashab, ijod etgan. U o‘zining «Hamsa», «Mahbub ul-qulub» kabi yirik ta’limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek, «Munojot», «Vakfiya», «Majolisun nafois», «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarlarida hamda Abdurahmon Jomiyning «Arba’iyn» nomli asari tarjimasi «CHixil hadis» («qirq hadis») kabilarda tarbiyaga oid o‘z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etadi.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U «Bilim va donishmandlik insonning bezagidir» deb yozadi. A. Navoiy farzand tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, tarbiyalanuvchini «hayot chirog‘i» deb ta’riflaydi. Farzand oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Uning fikricha, shaxsga kichik yoshligidanoq bilim, ma’lumot va tarbiya berishlikni ko‘rsatib, o‘g‘il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga, muallimga berish lozim deb hisoblaydi.

SHuningdek, Navoiy hayotda o‘z ilmiga amal qilish, o‘rganganlarini hayotga tadbiq etish masalasiga alohida e’tibor beradi. Masalan, u «Mahbub ul-qulub» asarida ilm o‘qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug‘ sochib hosildan baxra olmaganga o‘xshaydi, deydi.

Ilm o‘qib qilmagan amal maqbul,
Dona sochib ko‘tarmadi maxsul.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Bunda u olimu fozillarni yig‘ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e’tibor beradi.

Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz o‘rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni engib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha etkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta’kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hatto ta’lim tizimini belgilab beradi: ya’ni Alisher Navoiy ta’lim tizimini o‘z davrida o‘quv muassasasi, madrasalarda o‘qish, olim, hunarmand, san’atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar, hamda ustoz murabbiylarning o‘zlari ham bilimli va tarbiyali bo‘lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlalarni tanqid qiladi va pedagog ma’lumotli, o‘qitish yo‘llarini biladigan muallim bo‘lishi zarur deydi. Bunday muallimlar shogirdlarni yonida yuzlari yorug‘ bo‘lib, doimo izzatda, hurmatda bo‘ladilar deb ta’kidlaydi.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila
Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.

SHunday qilib biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. CHunki, ta’lim-tarbiya masalalariga a’lohida e’tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini

ko‘rsatib o‘tadi. U ta’limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir.

Mana shunday mutafakkirlarning ijodini o‘rganish uchun birga Mustaqillikka erishganimizdan keyin ancha yo‘llar ochildi. Endilikda uning ijodini aslicha, mohiyatini tushunib o‘rganish imkoniyatlari yuzaga keladi. 1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta’sis etildi. Respublika Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va raxbarligida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i barpo etildi va bu bog‘ o‘rtasida shoirning haykali o‘rnatildi. SHu bilan birga kitobxonlarga shoirning 20 jiltli mukammal asarlar to‘plami nashr etila boshlandi. Har yili A.Navoiy tug‘ilgan kun 9 fevralda ilmiy-an’anaviy konferensiya o‘tkazilib, Alisher Navoiy merosini o‘rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi.

### 3. Jadidchilik harakati namoyondalarining pedagogik qarashlari

O‘zbek millatga xos zamonaviy usullardan foydalanib tarbiya jarayonini tashkil etish, milliy tarbiyani amalga oshirishda o‘z ma’naviy qadriyatlarimizni roli ko‘rsatib o‘tilgan.

Muqimiy Qo‘qonda, shuningdek qo‘shni shaharlarga, qishloqlarga sayohat qilgan paytlarida hayotni sinchiklab kuzatgan, uning yo‘llarini chuqur o‘rgangan. Nohaqlikni ko‘rib iztirobga tushgan va unga qarshi o‘zining butun shoirlik iste’dodining kuchini ishga solgan. U she’riyatning masnaviy shaklidan keng foydalangan. Binobarin masnaviy shakli qadimdan she’riy dostonlarda, do‘stona yozishmalarda qo‘llanib kelingan.

Mehnatkashlar muhitida o‘sib-ulg‘aygan, yuksak axloqiy ideallar ruhida tarbiyalangan, sharq she’riyati mumtozlarining yo‘lini tutgan. Muqimiy yolg‘onchilikka, ikkiyuzlamalikka doimo murosasiz bo‘lgan. O‘z davrining va o‘z muhitining farzandi sifatida ham, qalbida ham e’tiqodli musulmonligicha qolgan.

Muqimiy ijodining ayrim tadqiqotchilariga qo‘shilib, uning ot yoki «Arava» turkumlaridagi she’rlarida qirchang‘i va qaysar hayvonlar timsoli yoki almisoqdan qolgan shaldiroq arava timsoli orqali jonajon o‘lkadagi bilimsizlik va mutaassiblik, nihoyat darajada ijtimoiy-madaniy qoloqlik ifodalangan, deyish mumkin.

Furqat va uning avlodi ichki kurashlar bilan, ishonchsizlik va qo‘rquvni, odatlar ta’sirini bartaraf etish va h.k.lardan keyingina ruslarga tegishlicha munosabatda bo‘la boshladilar. Inson ko‘p yoki ozroq qiyinchilik bilan erishgan va puxta o‘ylagan narsalargina uning ma’naviy qiyofasidagi qimmatli va mustaham xususiyatga aylanishi isbotlab o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak. Xususan ma’naviy dunyosi xalqning fikr va hissiyotini aks ettiradigan katta shoir haqida gap borganida ana shuni unutmaslik yanada muhimdir.

Furqatning yangi Marg‘ilondagi bir necha yillik hayoti uning she’riyatdan majburan uzoqlashgan davri bo‘ldi. CHunki u o‘sha paytda tog‘asining do‘konida xizmat qilgan, ilohiyotdan saboq olgan, shuningdek, uezd mahkamasida mirzalik vazifasini bajargan.

Lekin, ikkinchi tomondani Furqatning yangi Marg‘ilonda yashagan davri uning hayotida benihoya muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Furqat u erda do‘kondorlikni o‘rganib, shu darajada moddiy mablag‘ to‘plaganki, keyinchalik faqat O‘zbekistoining turli shaharlariga bemalol borib kelishdan tashqari, 90-yillarda Turkiston va Kavkaz orqali Turkiya, Bolgariya, Gretsiya, so‘ngra Arabiston va Hindistonga uzoq safar qilgan; u erdan G‘arbiy Xitoy (Sinszyan yoki Xitoy Turkistoniga yo‘l olib, YOrkent shahriga borgan).

SHunday qilib, Furqat o‘zining turmush tarzi, boyligi, muhiti bo‘yicha boshpanasiz qashshoq Muqimiyga nisbatan ancha yuqori ijtimoiy pog‘onada turgan. Lekin shunga qaramay chinakam do‘stlik va dunyoqarashlarinng yaqinligi ularni birlashtirgan. Hayotiy sharoitlar Furqatga avvalo ko‘proq narsalarni ko‘rish va atrofdagi vokealarnn anglash, shu bilan birga ularni shoirning jamiyatdyagi o‘rni va mavqei u yoki bu darajada taqozo etgan nuqtai nazardan kuzatish imkonini yaratdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy har bir muallimni iqtidoriga qarab darslarga tayinlash kerak, deb o‘z davri uchun g‘oyat yangi fikrni bildirgan. YA’ni hozirgidek o‘qituvchilarni matematika, adabiyot, tarix kabi har hil fanlarga ixtisoslashuvidan iborat Turkistondagi maktab va madrasalarga xos bo‘lmagan taklifni o‘rtaga tashlagan. U tobora savodsizlashib borayotgan xalq orasida ziyo nurlarlni tarqatishga harakat qilgan, vatandoshlarini xususan yoshlarni ilmu ma’rifatni egallashga

chaqirgan, ayollarling ilm olish huquqini yoqlagan, odamlarni o‘qish-o‘rganishga qiziqtirishning oddiy usullarini izlagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy «Turkiston viloyatining gazeti», «Taraqqiy», «Xurshid», «Tujjor», «Samarqand» gazetalarida. «SHo‘ro» va «Oyina» jurnallarida bosilgan maqolalarida yangi usul maktablari ochish, ularda bolalarga dunyoviy fanlarni o‘rgatish g‘oyalarini olg‘a surar ekan, tabiat hodisalarini, Erning yumaloqligi, o‘z o‘qi atrofida aylanishi va muallaq turishini oy va kunning tutilishi va hokazolarni ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning xalqni ma’rifatli qilishdek xayrli ishga butun vujudi bilan berilganining dalili sifatida quyidagi dalil g‘oyat qiziqarlidir. U 1919 yilda safarga chiqqanida uni SHahrisabzda Buxoro amirining amaldorlari qamoqqa oladilar va jadidlikda, bolsheviklarning josusi deb aylab qattiq azoblaydilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy amirning buyrug‘i bilan qatl qilinadi. U o‘limi oldidan yozgan vasiyatnomasida shunday degan: Biz o‘z qismatimizni bilamiz, ammo bechora xalqimizga o‘z xayotimizda nima qilishimiz mumkin bo‘lsa shuni qilganimizni his etish bilan fahrlanganganimizdan o‘limni xotirjam kutmoqdamiz.

Mumkin qadar ko‘proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq baxt-saodatini ta’minlash sohasida ishlash bizga eng yaxshi haykal bo‘ladi».

XIX-asrning boshlarida Buxorodagi marifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida va o‘quv muassasalari tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid’atlarini isloh kilish fikri paydo bo‘laboshladi. SHunday islohot tarafdorlarini jadidlar, yani yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar.

XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko‘p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy - madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski o‘quv muassasasi, tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. SHu tarzda jadidchilik harakati yuzaga keldi va bu harakat o‘zbek tuprog‘ining barcha go‘shalariga tarqala boshladi.

Jadidchilik jamiyatni to‘ntarish yo‘li bilan emas, islohotlar yo‘li bilan rivojlantirishni o‘zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U o‘zining bu vazifasini ado etishda, faqat bir sinfga - proletariatgagina tayanmadi. Umuman, jadidchilik insoniyatni sinflarga bo‘lib tashlash tarafdori emas edi.

Jadidlar 1906 yildayoq “Taraqqiy” deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o‘z g‘oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko‘p o‘tmay, «Xurshid», «SHuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko‘rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ‘ib qilindi.

Agar lo‘nda qilib aytsak, jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan edi :

1. Diniy taassuf va fanatizmga qarshi - kurash .

2. Diniy aqidalarga asoslangan o‘rta asr o‘quv muassasalari o‘rniga Ovrupocha dunyoviy ilmlarni ona tilida o‘qitishga moslangan yangi usuldagi o‘quv muassasalarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloh qilish;

3. Jadidchilik g‘oyalarini keng xalq ommasiga etkazish niyatida yangi o‘zbek adabiy tilini ishlab chiqarish, matbuot hurligi uchun, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish;

4. Xotin - qizlarni paranjidan chiqarish va jadid o‘quv muassasalariga qatnashishlarini ta’minlash;

5. Mahalliy boylar va savdogarlarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo‘lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olishga qarshi kurash ;

Asosiy talablari ana shundan iborat bo‘lgan jadidlar uchun ilm va marifat yagona qurol bo‘lib, ular shu qurol yordami bilan o‘lkada ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo‘ldilar.

O‘zlarini ko‘zlagan maqsadlarini amalga oshirish uchun yoshlarni savodli qilish niyatida o‘quv muassasasi, maorif sohalarida juda katta targ‘ibot ishlarini olib bordilar. Tashkil etilgan yangi usul o‘quv muassasasilarida quyidagilarga etibor qaratilgan edi:

1. Guruhda tarbiyalanuvchilar soni o‘ttiztadan oshmasligi;

2. Tarbiyalanuvchilar faqat yoz va qish boshlarida o‘quv muassasasiga qabul qilinishi;
3. Har bir muallimda ko‘pi bilan 3-4 guruh bo‘lishi;
4. 7-9 yoshlardagi tarbiyalanuvchi 7-8 soat uzluksiz o‘qiy olmasligini hisobga olib, faqat 5 soatlik o‘qishni joriy etish;
5. Juma va bayram kunlari dam olinishi;
6. YOzning issiq kunlarida ta’til berilishi;
7. Har bir darsdan so‘ng 10 daqiqali tanaffus berish;
8. Talabalarni har olti oyda imtihon qilish, yil oxirida sinfdan - sinfga o‘tkazish , o‘zlashtirmaganlarni sinfga qoldirish;

SHu bilan birga, yangi usul o‘quv muassasalarida diniy bilan birgalikda xandasa ( matematika), jug‘rofiya (geografiya) tarix, tibbiyot kabi fanlarni o‘qitish va fanlarni o‘qitish uchun darsliklar yaratildi.

Turkistonda shu borada A. Avloniy, M.Behbudiy, A. Fitrat, Munavvar qori Abdurashidov, H.H. Niyoziy kabi o‘nlab ziyolilar juda katta ishlar olib borganlar.

Jamoat va siyosat arbobi shoir va pedagog Abdulla Avloniy Toshkentda, hunarmand oilasida tug‘ildi. Eski musulmon maktabida va madrasada o‘qidi.

Avloniy mehnatkash xalqqa yordamlashishi maqsadida 1908 yilda kambag‘allarning bolalari uchun maktab ochadi va unda ona tilini ta’limning yangi metodlaridan foydalangak holda o‘qitdi. Uning xalq maorifi sohasidagi ishlari uning yozuvchi va shoir rejisyor-sahnalashtiruvchi hamda teatrdagi iste’dodli yoshlarning tarbiyachisi sifatidagi faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Avloniy 1913 yilda o‘z uyida tashkil etgan xalq teatri katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

Avloniy 1917 yilda «Turon» gazetasini chiqara boshlagan, uning sahifalarida xalq maktablari ochish, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash va darslkklar nashr etish masalalariga bag‘ishlangan maqolalar e’lon qilingan. Ayniqsa, o‘zbek qizlarini o‘qitish va tarbiyalash ular uchun maktablar ochish masalalariga alohida e’tibor berilgan. O‘sha yillarda Avloniy «Adabiyot» darsligining 1-17 kitoblarini, «Turkiy guliston yohud axloq», «Maktab gulistoni», «Mardikorlar ashulasi» kabi asarlarini yozgan hamda nashr ettirgan.

Axmadjon Tabibiy Xiva xoni Sayid-Muhammad Rahimxon Soniy maslaxati bilan «Munisol-ushshoq» nomli devoniga shunday deb yozadi: «Bu faqir qo‘lida jam bo‘lgan kitobning soni besh devondir. Alarnnng uchtasi turkin va ikkitasi forsiydir. Birinchisini adolatli shohga hadya etish sababidan «Tuxtafus-Sultol» deb atadim. Ikkinchi dovonga oshiqlar unsiyati sababidan «Munisul-ushshoq» nomi berildi. Uchinchisiga faqat ishq holatlaridan gapirilgan vajidan «Mir’otus-ishq» deb nom qo‘ydim. To‘rtinchi devonga oshiqlar o‘qib hayron bo‘ladilar deb «Hayratda oshiqin» deb nom berildi. Beshinchisi bedillar ishtiyoqi jilvagohi bo‘lgani sababidan «Mazxarul-ishtiyoq» deb ataladi.

Tabibiy she’riyatiiig g‘azal, ruboiy, muhammas va h.k. janrlarida ijod qilgan. Uning qahramonlari to‘g‘ri fikr, pok muhabbati, odob-axloqi bilan ajralib turadi. Tarbiyaning vatanparvarlik tinchlik, do‘stlik, sadoqatlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi prinsiplariga shoir asosiy ahamiyat beradi.

Islom shoir Nazar o‘g‘li. Xalq og‘zaki ijodida shu xalqning hayoti, ruhi orzu-umidlari, insoniy fazilatlari, tarbiyalash uslublari, pedagogik talablari ifodalangan bo‘ladi.

O‘tmishda «dostonchi shoir» deb atalib, nomlari unchalik keng ma’lum bo‘lmagan o‘zbek xalq shoirlari, ustozlari obro‘-e’tibor topib, xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘lmokdalar.

Islom shoir Nazar o‘g‘li o‘zbek xalq shoirlarining yirik vakillaridan biridir. U Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammad Jomrot o‘g‘li Po‘lkan, Abdulla shoir Nurali o‘g‘li kabi xalqimiz yaratgan eng yirik asarlarini bizgacha saqlab, kuylab keldi. Islom shoir zamon mehnatkashlar, xalq, bolalar, kelajak avlod haqida, ularning mehnati, intilishi hamda fazilatlari to‘g‘risida ajoyib qo‘shiqlar, dostonlar, she’rlar yaratdi.

Nodira baxtli ona bo‘lgan - taqdir unga ikki o‘g‘il ato etgan. Uning saroyda - she’riyat va san’at qadrlangan sharoit tarbiyalangan o‘g‘illari ixtiyorsiz ravishda adabiyotga qiziqqan.

SHoiraning katta o‘g‘li Muhammadlixon yoshlik yillardan boshlab she’riyat bilan shug‘ullangan, saroydagi she’rxonlik anjumanlarida qatnashgan.

Kichik o‘g‘li Sultonmahmudxon ma’lumotli davlat arbobi bo‘lib etishgan.

Nodira ezgulik va yovuzlik olamini qarama-qarshi qo‘ygan, xonlar va saroy a’yonlari qiyofasida yozuvlikning ifodasini ko‘rsa, oddiy xalq vakillarida ezgulikning asoslarini ko‘rgan. U hammani inoqlikka, tinch-osoyishtalikka chaqirgan.

1822 yilda Nodiraning (taxminan 30 yoshlarida) hayotida og‘ir musibat yuz berdi. Uning hayot yo‘ldoshi Amiriy (amir Umarxon) ancha yosh chog‘ida ittifoqo vafot etdi. Ana shu musibat Nodiraning shundan keyingi ijodiy faoliyatida aksini topdi. Umarxonning vafotidan so‘ng shoira mamlakatni madaniy jihatdan rivojlantirish borasidagi ishlarga faol aralashgan.

Nodira o‘zining aqlliligi, mulohaza yuritishi, ezgu ishlari bilan sekin-asta o‘sha davrda kam uchraydigan oqila - Nodirai davron sifatida tanilgan va xalqnning hurmat-ehtiromiga sazovor bo‘lgan.

Fozilbekning «Mukammal tarixi Farg‘ona» nomli asarida Mohlaroyim katta qabriston yoniga «CHolpoya» va temirchilik rastasi qatoriga «Mohlaroyim» madrasalarini qurdirgani yozilgan, shuningdek, etimxona va musofirxona barpo etgani, madrasada talabalar bepul o‘qitilgani, ularning kiyimlar bilan ta’minlangani, madrasa tokchalarida kitoblar va qo‘lyozmalar to‘plangani aytilgan.

Mutribning yozishicha, Nodiraning tashabbusi bilan eng mashhur tarixiy asarlarni hamda Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Abduqodir Bedil, Zahriddiy Bobur va ularning zamondoshlaridan qolgan abadiy yodgorliklarni, ya’ni devonlarni ko‘chirish hamda tarjima qilish ishlari amalga oshirilgan. Nodiraniig shaxsan o‘zi xattotlarning ishlashini, kitoblarni aniq, savodli ko‘chirilishi va tarjima qilinishi kuzatib borgan.

### 4. CHet el mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya xususida bildirgan fikr-mulohazalari

Eramiz boshlanishidan oldin O‘rta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo‘lgan joyda O‘rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvch karvon yo‘li bo‘lgan. So‘ngra O‘rta Osiyo orqali Xitoydan O‘rta dengizga tomon «Buyuk ipak yo‘li» ochilgan. Natijada O‘rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markazi bo‘lib, madaniyati ravnaq topgan. Orta Osiyodagi madaniyat «Buyuk Ipak yo‘li» orqali _arb mamlakatlari madaniyatining rivojiga ta’sir ko‘rsata boshlagan. Ayniqsa, Bnonistonning geografik o‘rni va tabiiy sharoitining qulayligi tufayli, undagi madaniyat va ma’rifat boshqa qadimiy mamlakatlarga nisbatan yaxshi rivojlana boshlagan.

YUnoniston uncha katta bo‘lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan iborat mamalakat edi. Uning eng katta davlatlaridan Lakoniya (poytaxti Sparta) va Attika (poytaxti Afina) Ayniqsa madaniyat markazi bo‘lgan. Bu shaharlarning har qaysisida tarbiyaning boshqa mamlakatlardan farqli alohida tizimi vujudga kelgan va bu tarbiya tizimlari shaharlar nomi bilan yuritilib «Sparta» va «Afina» usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo‘lgan.

YUnonistonda madaniyat va maktabning tez rivojlanishi ta’lim-tarbiya nazariyasining paydo bo‘lishiga imkon yaratdi. Pedagogika nazariyasiga faylasuflardan Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokritlar asos soldilar.

Suqrot (er.avv. 469-699) ning fikricha tarbiyadan qutilgan mAqsad, buyumlar tabiyatini o‘rganish bo‘lmay, balki kishining bilim olishdan mAqsadi axloqni kamol toptirish bo‘lmog‘i lozim edi. U yaratgan axloqIy etika maktabi kishi axloqi bir necha fazilatlardan – jasurlik, donolik, mo‘‘tadillik, adolatparvarlik va boshqalardan tashkil topgan.

Aflotun (er.avv. 424-347) Suqrotning shogirdi bo‘lib, ob’ektiv idealizm nazariyasining asoschisi edi. Tarbiya, - deydi Aflotun, davlat tomnidan tashkil etilmog‘i va hukmron guruhlarning, ya’ni faylasuf va jangchilarnng manfaatlarini ko‘zlamog‘i lozim. Aflotun o‘zining ta’lim-tarbiya tizimida Sparta va Afina tizimining ba’zi belgilarini birlashtirishga intildi.

Arastu (er.avv. 384-322) ta’lim-tarbiya nazariyasini yaratish va uni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan alloma olim. U Aflotunning shogirdi bo‘lib, o‘z navbatida, makedoniyalik Iskandar Zulqarnaynning ustozi bo‘lgan. Uning fikricha, olamda uch xil jon bor: o‘simlikdan tarkib topgan jon, u oziqlanishda va urchib ko‘payishda namoyon bo‘ladi; hayvondan tarkib topgan jon, o‘simlik xossalaridan tashqarii sezgilarda va istaklarda namoyon bo‘ladi; aqlning ifodasi bo‘lgan jon o‘simlik va hayvonot xossalaridan tashqarii, tafakkur yoki bilish xislatlariga ham egadir. Arastuning fikricha, jonning manna shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya – jismoniy tarbiya, axloqIy tarbiya va aqLiy tarbiya bo‘lishi kerak. Arastu o‘z pedagogik qarashlaraida iroda va faoliyatni asos qilib olgan holda, aqLiy tarbya sohasida ko‘nikma hosil qilishga katta ahamiyat bergan. Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyatda kamchilik, ortiqchalik va

o‘rtachalik bo‘ladi. Hamma narsada o‘rtachalik foydalidir. Hamma narsada ortiqchalik kamchilik kabi ziyondir.

Demokrit (er.avv. 460-370) tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo‘lib ilgari suradi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o‘xshaydi» deb yozadi u. Demokrit «ta’lim mehnat asosida go‘zal narssalarni hosil qiladi», deb tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta’kidlaydi.

Qadimgi YUnonistondagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o‘ziga xos Ediki, unda bolani jismoniy tomondan chiniqtirish bilan bir qatorda ma’naviy tomondan barkamol bo‘lishiga ham katta e’tibor berilgan. Bolalarni Musiqa, ashula va diniy Raqslar tushishga o‘rgatilib, mashg‘ulotlarning mazmuni jangovar harbiy tusda bo‘lardi.

Qadimgi zamondagi ta’lim-tarbiyani o‘rganar ekanmiz, undan quyidagi xulosalarni chiqarsa bo‘ladi:

Birinchidan, muayyan mamlakat aholisining ta’lim-tarbiya masalalalari xususiy ish bo‘lmay, davlat tasarrufidagi muassasalarning faoliyati bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, ta’lim-tarbiyani bosqichma-bosqich oddiydan murakkab tomon olib borish mAqsadga muvofiq.

Uchinchidan, ta’lim-tarbiya jarayoni davlatning mutasaddi kishilari tomonidan tahlil qilinib, tasdiqlangan dastur va reja asosida amalga oshirilishi lozim.

To‘rtinchidan, ta’lim- tarbiyani, asosan, uchta katta bo‘lmagan o‘quvchilar guruhi orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, qizlar ta’limini o‘g‘il bolalar bilan bir qatorda olib borilgani ma’qul.

Oltinchidan, ta’lim-tarbiyani mehnat jarayoni bilan qo‘shib olib borishlk yaxshi samara beradi.

Ettinchidan, yoshlar tarbiyasida jismoniy Mashqlarga katta e’tibor berilishi kerak.

Sakkizinchidan, jismony va aqLiy tarbiya bilan bir qatorda nafosat tarbiyasini amalga oshirish lozim.

To‘qqizinchidan, ta’lim-tarbiyada doimo me’yor saqlab borilishi zarur, ortiqcha bilim kam bilim berilgandan ham katta ziyon etkazadi.

O‘rta asr G‘arbiy Evropada ta’lim-tarbiya masalalari.

O‘rta asr G‘arbiy Evropa mamlakatlarida ikki guruhga bo‘lingan va etti fanni o‘z ichiga olgan ta’lim dasturi mavjud bo‘lgan. Birinchi guruh uchta fandan iborat bo‘lib, unga lotincha «trivium» nomi berilgan. U grammatika, ritorika va dialektikani o‘z ichiga olgan. Ikkinchi guruh to‘rt fandan iborat bo‘lgani uchun uni lotincha «kvadrum» deyilardi. Unga arifmetika, geometriya, astronomiya va Musiqa kirar edi.

Hamma fanlarnng toji deb, teologiya hisoblanar edi. O‘rta asrlarda beriladigan ta’lim dasturi cherkov maktablari orqali amalga oshirilar edi. O‘rta asrlardagi Evropa Xotin-qizlar, Ayniqsa, mehnatkashlarning qizlari yoppasiga savodsiz edilar.

Evropada birnchi universitetlar XIII asrn6ing ikkinchi yarmida Italiyada (Baloniya shahrida), Anglyada (Oksford shahrida), Fransiyada (Parijda) tashkil qilindi.

Universitetlarning vujudga kelishida o‘sha davrdagi ko‘p evropaliklarning SHarq ma’naviyati va madaniyati bilan tanishuvi katta ta’sir ko‘rsatdi.

Arablar tomonidan VIII asr boshlarida istilo qilingan Ispaniyada tashkil qilingshan arab oliy o‘quv yurtlari Evropa universitetlari uchun ma’lum darajada namuna bo‘ldi va Evropada «O‘yg‘onish» davri yuzaga keldi.

«O‘yg‘onish» davridagi ta’lim-tarbiya. Evropa «O‘yg‘onish» davri er yuziga o‘nlab maorif olimlarini etishtirib berdi. SHularning eng mashhuri, pedagogika nazariyasiga salmoqli hissa qo‘shgnan alloma olim YAn Amos Komenskiy (1592-1670). 1632 yili Komenskiy «Buyuk didaktika» degan katta pedagogik asarni yozgan. Undan tashqarii «Ona maktabi» degan maktabgacha tarbiya qo‘llanmasi va boshqa br qancha kitoblari Dunyo yuzini ko‘rdi. Komenskiy o‘zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiyatga uyg‘un bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchani ilgari suradi. «Buyuk didaktika»da o‘qitish tabiiiylikka bo‘ysunishi kerak deyilgan. Bolaning aqliy va jismoniy o‘sish jarayoni tabiyaatdagi o‘sish jarayoniga o‘xshash bo‘ladi. SHuning uchun o‘qituvchi bolani tarbiyalaganda, bog‘bon daraxtning biologik o‘sish qonuniyatini hisobga olgan kabi, undagi tabiiy bilish hususiyatini hisobga olishi shart. Komenskiy o‘qishga hammaning tortilishini, hamma umum-ta’lim olishi kerakligini uqtiradi. U birinchi bo‘lib, sinf-dars tizimini

ishlab chiqdi. «Buyuk didaktika»da oʻqitishning didaktik prinsiplari berilib, dars jarayonida oʻqituvchi ularga suyanishi kerakligi uqtiriladi. Maktabda oʻquv yili va uni choraklarga boʻlish, ta’tillar berilishini, oʻquv kuninini ona tili maktabida 4 soat, lotin maktabida 6 soat qilib belgilab beradi. Oʻquvchilar bir vaqtda maktabga qabul qilinib, oʻqish kuzda – sentyabrda boshlanishi kerak, deb hisoblaydi.

Iogann Genrix Pestolotssi (1746-1827) 1774 yilda Neygofda «Kambagʻallar muassasasi»ni ochib, etim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqinini shu muassasada oʻzi oʻqita boshlaydi. Pestalotssi hamma odamlar ta’lim olish huquqiga ega boʻlishi lozim, deb maktablar jamiyatini ijtimoiy jihatdan oʻzgartirishning muhim vositalaridan biri boʻlishi kerakligini ta’kidlaydi. Pestalotssning fikricha, mehnat odamni tarbiyalash va oʻstirishning eng muhim vositasi, mehnat odamning jismoniy kuchinigina emas, aoʻlini ham oʻstiradi, unda ahloqni ham tarkib toptiradi. Elementlar ta’lim nazariyasi Pestolotssining pedagogik tizimining oʻzagidir, bu nazariyaga koʻra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin murakkabroq darajaga koʻtarilib borishi lozim. Bolallarda yozuv malakasini hosil qilish uchun Pestolotssi dastlab harf elementlarini, tugʻri va egri chiziqlarni Mashq qilishni tavsiya etgan.

Robert Ouen (1771-1858) oʻzining 1813 yilda nashrdan chiqqan «Jamiyatga yangicha qarash yoki insonda xarakterni tarkib toptirish toʻgʻrisidagi tajriba» degan asosrida odamning xarakteri, uni oʻrab turgan ijtimoiy muhit sharoiti bilan tarkib topadi, deb ta’kidlaydi. Uningcha, odamlarning illatlari va xatti-xarakatlari ular yashab turgan ijtimoiy muhit vaziyatiga bogʻliqdir. Odam, - deydi Ouen, - oʻz xarakterini hech qachon oʻzi yaratgan emas va uni yaratishi mumkin ham emas. Uning fikricha, agar biz muhit sharoitini va tarbiyani oʻzgartirsak, har qanday xarakterni tarkib toptirishimiz mumkin. Robert Ouen bolalarga bir yoshdan boshlab ijtimoiy tarbiya berish gʻoyasini olgʻa surib, uni asoslab berdi va amalda sinab koʻrdi. U jahonda birinchi boʻlib ishchilar bolalari uchun maktabgacha muassasasi barpo etdi. Uning ta’lim muassasida aqliy va jismoniy tarbiya berilib,bolalar jamoa ruhida tarbiyalanar edilar.

Iogann Fridrix Gerbard (1776-1841) oʻzining «Tarbiya muassasalaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika», «Psixologiya darsligi», «Psixologiyani pedagogikaga tadbiq qilish toʻgʻrisidagi xatlar», «Pedagogikaga doir leksiyalar ocherki» degan kitoblarida pedagogika nazariyasiga doir fikrlarni bayon qilib berdi. U pedagogika nazariyasiga tarbiyalovchi ta’lim tushunchasini kiritdi va ta’limsiz tarbiya boʻlmaydi, dedi. Gerbard ta’lim qiziqishlarning xilma-xilligiga asoslanishi lozim deb, qiziqishlarni oltita mustaqil turga boʻladi. U ta’lim bosqichlari nazariyasini ishlab chiqdi, bu nazariya hamma mamlakatlar pedagoglari orasida keng tarqaldi. Gerbard axloqiy tarbiyaning oʻziga xos vositalar tizimini ham ishlab chiqqan.

Evropa va AQSHda klassik oʻrta maktablar koʻp jihatdan Gerbard pedagogikasiga asoslangan Gerbardning bolalarni boshqarish tizimi keng yoyildi. Bu tizim bolalar tashabbusini boʻgʻishga va ularning kattalarning obroʻsiga hech soʻzsiz boʻsundirishga qaratilgan. Bu esa Forobiy, Ibn Sino va YAn Amos Komenskiylarning gʻoyalariga zid edi.

Adolf Disterverg (1790-1866) takomillashib boruvchi ta’lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta’limning 33 qonun va qoidasi tariqasida bayon qilib berdi. Disterverg taklif qilgan koʻrsatmali ta’lim «yaqindan uzoqqa», «oddiydan murakkablikka», «ma’lumlan noma’lumga» oʻtish kerak degan qoidalar bilan bogʻliq ta’limdir. Disterverg oʻqituvch takrorlab turishni maslahat beradi. Distervergning fikricha «yomon oʻqituvchi haqiqatni aytib berib qoʻya qoladi, yaxshi oʻqituvchi esa haqiqatni topishga oʻrgatadi».

Rossiyaga ham XIX asr boshlarida «Oʻygʻonish» davri etib kelib, bir necha koʻringan pedagog olimlar etishib chiqqan. SHulardan biir mashhur rus pedagog olimi Konstantin Dmitrievich Ushinskiydir (1824-1870). Uning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari «Kishi tarbiya predmeti sifatida» degan pedagogik antropologiyadan tajribasi boʻlib, u ikki jilddan iborat boʻlgan. Ushinskiy rus pedagogikasining oʻziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek, tarbiya xalqchil boʻlishi lozim, deb hisobladi, bolalarni mehnat orqali tarbiyalashga katta e’tibor berdi. Ta’limning mazmuni, tamoyillari, shakl va usullarini ishlab chiqishda ham koʻp ishlar qildi. U ta’limning koʻrgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi, oʻqitishning shakli va usullarining rang-barangliligiga erishishni talab etdi.

Lef Nikolaevich Tolstoy (1858-1910). U oʻz zamonasidagi maktablarni, chorizmning maktab ishlaridagi taziyqni qattiq tanqid qildi. Bolalarni oʻqitish va tarbiyalash ishlarini erkin ravishda olib borishga, bolalarning yoshligini izzat-hurmat qilishga chaqirdi. Tolstoy oʻqitishdagi

rasmiyatchilik, takkabburlik va bolalarni bir tomonlama hamda passiv tarbiyalashning ashaddiy dushmani edi. U oʻz davri uchun ilgʻor va oʻziga xos taʼlim-tarbiya tizimi – umuminsoniy xarakterda boʻlgan oʻqitish va tarbiyalash uslubini joriy etdi. Tolstoy savod oʻrgatish uchun grammatikani yaxshilash ustida koʻp ishladi, oʻz zamonasining koʻpgina afzalliklarga ega «Alifbo», «Oʻqish kitobi» va «Arifmetika» darsliklarini tuzdi.

**Tayanch iboralar**

Tarbiya, ta’lim, pedagogika, yoshlar tarbiyasi, mutafakkir, jadidchilar, kelajak avlod, axloq, odob, iymon, an’ana, qadriyat, madrasa, kitob, doston, xalq ogʻzaki ijodiyoti, maktab, madaniyat, ma’rifat

## Nazorat uchun savollar

1. Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari deganda nimani tushunasiz?
2. Alisher Navoiy asarlarida ta’lim-tarbiyaga oid bildirilgan fikr-mulohazalaridan misol keltiring?
3. Oʻzbekistonda pedagogik tafakkur va ta’lim-tarbiya taraqqiyoti necha davrga boʻlib oʻrganiladi?
4. Zardushtiylar dinini muqaddas kitobi «Avesto»ning Markaziy Osiyoda tutgan oʻrni nimada?
5. Amir Temurning ta’lim-tarbiyaga oid oʻgʻitlari haqida nimalar bilasiz?
6. Alisher Navoiyni biz nimaga asoslanib mudarris-pedagog deb atashimiz mumkin?
7. Mustaqillikka erishgandan soʻng Amir Temur va Alisher Navoiyning nomlarini abadiylashtirish uchun qanday ishlar olib borildi?
8. Alisher Navoiy asarlaridagi insoniylik gʻoyalarining ifodalanishini pedagogik asoslarini tushuntirib bering?
9. SHarq mutafakkirlari asarlarida iqtisodiy tafakkur tushunchasini yoritilishini tushuntirib bering?
10. Turkistonga jadidchilik harakati qachon kirib kela boshladi?
11. Avloniy asarlarida ilm-fan va ma’rifat masalalarining ifodalanishi haqida tushuntirib bering?
12. “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi axlokiy munosabatlarni tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?
13. Oʻrta asr Gʻarbiy Evropada ta’lim-tarbiya tizimi qanday boʻlgan?
14. CHet el mutafakkirlari haqida nimalarni bilasiz, misollar keltiring?

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. N. Xoʻjaev va boshqalar. “Pedagogika asoslari”. Toshkent.,TDIU 2003.

2. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. “Pedagogika” Toshkent. TDIU, 2005 yil.

3. Sarsenbaeva R.M., Doniev B.B. Umumiy pedagogika. /Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.

4. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.

5.«Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isaev, A.I.Mixenko, E.N.SHiyanov. Moskva. «SHkolnaya pressa». 2004

6. Podlasыy I. P. Pedagogika. Moskva ,2003.

7. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi: darslik. –T.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi, 2005. – 304 b.

8. www.bilimdon.uz. – Oʻzbekiston Respublikasi oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligining veb sayti.

9. www.tgeu.uz – TDIU veb sayti.

10. www.tatu.uz – TATU veb sayti.

11. www.de.uz – Masofaviy ta’lim tizimiga bagʻishlangan veb sayt

12. www.inter – pedagogika.ru.

13. www.search.re.uz – O‘zbekistonning axborotlarini izlab topish tizimi.

## 3-mavzu: ZAMONAVIY TA’LIM–TARBIYANING MOHIYATI, TAMOYILLARI, MAZMUNI VA METODLARI

**Reja:**

**1. Didaktika haqida tushuncha**

**2. Ta’lim-arbiya nazariyasi va mazmuni**

**3. Ta’lim-tarbiya tamoyillari va ularga tavsif**

**4. Ta’lim-tarbiya metodlari va ularning mazmuni**

**5. O‘zbekistonda ta’limni isloh qilish tamoyillari va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy yo‘nalishlari**

### 1. Didaktika haqida tushuncha. Ta’lim mazmuni

Ta’lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, muhim qismlaridan biri bo‘lib u o‘qitish, bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug‘ullanadi. Ta’lim nazariyasini “Didaktika” tushunchasi bilan ham ifodalanadi. “Didaktika” so‘zi grekcha “Didasko” so‘zidan olingan bo‘lib, “Uqitish, o‘rgatish” degan ma’noni bildiradi. Didaktikaning o‘rganish ob’ekti o‘quv jarayoni, o‘quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o‘qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Ta’lim jarayonining asosiy mohiyati tarixan to‘plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga etkazish, avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ma’lum tizim orqali amalga oshirish bo‘lib hisoblanadi. [8]

Albatta, avloddan-avlodga o‘tib borgan sari ijtimoiy tajriba hajmi, demak bilimlar hajmi ham ortib boradi. Fan va texnikaning rivoji ham ilmiy bilimlarning hajmiga va xarakteriga ta’sir ko‘rsatadi. Bo‘larning hammasi esa o‘z navbatida ta’lim tizimida o‘z aksini topadi. Ta’lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo‘lib xizmat qiladi. CHunki aynan ta’lim tizimi jamiyatning har bir a’zosini ma’naviy, ilmiy dunyoqarashini shakllanishida eng asosiy o‘rinni egallaydi. SHuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta’lim tizimini isloh qilish muhim o‘rin tutgan. Ta’lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

O‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim jarayonida:

Zarur bilimlar bilan qurollantiriladi;
Kerakli malakalarga ega bo‘ladi;
Ko‘nikmalar hosil qiladi;

O‘quv jarayonida ta’lim oluvchilar va pedagoglar o‘rtasida o‘ziga xos munosabatlar o‘rgatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. SHuning uchun ham ta’lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faollik darajasi ta’lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo‘naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko‘zlab reja va dastur asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Talabalar esa ularni faol o‘zlashtirib olishlari kerak. Ta’lim

---

8 “Педагогика профессионального образования.” Под. ред. В.А.Сластенина. Москва «Академиа». 2005. 37-стр

jarayonida pedagog oʻrgatish, bilim, malaka, koʻnikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar oʻzlashtirish jarayonini oʻz boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon boʻlib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. Oʻqish talabalarning oʻzlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma’lum boʻlgan haqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir.

Ta’limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. YOsh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos boʻlib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta’lim tizimi talabalarga berishili kerak boʻlgan bilimlar, malaka va koʻnikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni echimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda oʻqish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta’lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni oʻrganish kerak deb oʻylash mutlaqo notoʻgʻri boʻlar edi. Oʻquv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar- fanlarning asoslari oʻrganiladi. Ammo shunga qaramay hozirda oʻrganish zarur boʻlgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, EHM, oila psixologiyasi, iqtisod asoslari, ma’naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta’lim hajmini benihoya kengayishiga sabab boʻlmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni oʻz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta’lim tamoyillarini (prinsiplarini) boʻzmagan holda, yosh avlodning sogʻligiga ziyon etkazmagan holda echimini topishga harakat qilmoqdamiz. Ta’limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni echish imkoniyatiga ega boʻlgan ma’naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga boʻlgan talab yanada kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta’lim tizimi bugungi kun talabinigina hisobga olgan holda emas, balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. CHunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy oʻzagiga aylanadi. Demak, ta’lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta’limning oʻziga xos xususiyatlaridan biridir. [9]

**Ta’limning yana bir oʻziga xos xususiyati uning tarbiyaviy xarakterga ega ekanligidir.** Har qanday tarbiya asosida bilim mavjud boʻlganidek har qanday ta’lim oʻzida ma’lum tarbiyaviy ta’sirni mujassamlashtiradi. Bilimlarning talabaning faqat fikrlash qobiliyatiga emas, balki ichki kechinmalariga, his-tuygʻulariga, fazilatlariga ham oʻz ta’sirini oʻtkazadi. Ayniqsa, gumanitar fanlarni oʻrganish talabaning ma’naviyatini shakllanishida ahamiyatlidir. SHuning uchun ta’lim muassasalari tarixan faqat ilm maskanlarigina boʻlib qolmasdan, balki tarbiya uchoqlari sifatida ham qabul qilingan. Ta’lim va tarbiya bir jarayonning ikki tomoni boʻlib, biri-birini toʻldirib keladi. Bilim bu kuch-qudrat, ana shu kuch-qudrat ma’naviyati etuk inson qoʻlida rivojlanishga xizmat qiladi. Ma’nan qashshoq inson bu qudratdan nooʻrin foydalanishi va jamiyatga ziyon etkazishi ehtimoldan holi emas. Bunday holatlar tarixda juda koʻp marotaba takrorlangan va bu isbot talab qilmaydigan aksiomaga aylangan. Demak, ta’lim albatta tarbiyaviy asosga ega boʻlishi va talabalarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki tarbiyalashdek murakkab jarayonini ham oʻz zimmasiga olishi lozim.

Ta’lim jarayoni ta’sirida talabaning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, oʻqishga, mehnatga boʻlgan munosabatini rivojlantirish va yangi pogʻonaga koʻtarish asosiy masalalardan biridir. Aynan ta’limning rivojlantiruvchi xususiyatini ikki darajaga ajratib tahlil qiladi.

***Zaruriy rivojlanish.*** Bu talaba tayyorgarligidagi mavjud daraja, boshqacha qilib aytganda, talabadagi bor daraja, ya’ni talabaning bugungi oʻquv jarayonigacha boʻlgan tayyorgarlik darajasidir. Bu daraja talabaning ishni mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi.

---

9 ”Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонуни” Тошкент 1997 йил.

***YUqori darajadagi rivojlanish.*** Boshqacha qilib aytganda, shu dars davomida ko‘tarilish kerak bo‘lgan darajadir. Bu talaba hozircha qila olmaydigan, lekin ko‘mak vositasida eplay oladigan ishdir. Talaba ana shu o‘zi uchun yangi bo‘lgan va bajarishga kuchi etadigan vazifani bajarish davomida ikkinchi darajaga ko‘tariladi. Lekin bu vazifa talabaning taraqqiyot zonasida joylashgan bo‘lishi shart, aks holda rivojlanishga erishish qiyin. YAqinlashib qolgan taraqqiyot zonasiga kirgan har narsa ta’lim jarayonida zarur rivojlanish darajasiga o‘tadi.

SHunday qilib, yaqinlashib qolgan taraqqiyot zonasi rivojlanishdan ilgarilab ketadigan ta’lim vositasida yaratiladi. Ta’limning har bir bosqichi taraqqiyotning erishilgan bosqichiga tayanadi va muayyan bosqichni ko‘zlagan holda navbatdagi bosqichni tayyorlab beradi.

Demak, ta’limning yana bir zaruriy xususiyatlaridan biri uning rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligidir.

Ta’limning ana shu yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda va ularga amal qilgan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish shubhasiz ta’lim samaradorligini oshiradi.

Ta’lim jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni bajarish lozim. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish.
2. Talabalarda dunyoqarashni, ishonch va e’tiqodlarini o‘stirish.
3. Talabalarning ma’naviyatini boyitish va tarbiyalash.
4. YOshlarning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini va iste’dodlarini ochish hamda o‘stirish.

Ushbu vazifalarni bajarishda **differensiyalashgan yondoshuvning** ahamiyati beqiyosdir. CHunki, **differensiatsiya** (ya’ni yakka holdagi yondoshuv) talaba shaxsini chuqurroq o‘rganishga, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Talaba shaxsi chuqurroq o‘rganilgandan keyingina unga mos bo‘lgan metodlar tanlab olinishi maqsadga muvofiq. Barcha talabalar uchun umumiy metodlar qo‘llash ta’limni ko‘r-ko‘rona olib borish bilan barobar va bu holda ta’limning samarasini juda past darajaga ega bo‘ladi. Ta’limni differensiatsiyalash muammosi hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda ma’lum darajada o‘z echimini topmoqda va aytish kerakki, bu echimlar ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritishga yordam bermoqda.

Ta’limda yoshlarni bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste’dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash va bilimlarni tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash ta’lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi. [10]

Albatta ta’lim tizimini samarali bo‘lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq. Pedagog birinchi galda o‘z kasbini sevishi, hurmat qilishi, talabaga katta qiziqish va mehr bilan qarashi, jamiyat oldidagi o‘zining katta mas’uliyatini his qila olishi shart. Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o‘quv materiallarini to‘g‘ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo‘lgan ta’lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo‘lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o‘rinli foydalana olishi, o‘z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

Bilish jarayoni kabi ta’lim jarayonida ham o‘quvchi bilmaslikdan bilishga, noto‘g‘ri va noaniq bilishdan toboro to‘liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi.Bu jarayonda hissiy idrok etish ham abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko‘rish ham bo‘ladi.

Muayyan fan va hodisalar ob’ektiv dunyoni bilish jarayonidan o‘rganiladi va ularning tashqi, ichki mohiyatini o‘zlashtirish jarayonida omillar aniqlanadi. Mushohada, tasavvur va abstrakt tafakkurga asoslanib faktlar umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqarish natijasida nazariyalar, qonunlar va kategoriyalar yaratiladi.

Bilish ikki pallaga- nazariya va amaliyotga bo‘linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har hil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik, raqam va boshqalar. Nazariyada g‘oya shakllanadi.

---

10 “Педагогика профессионального образования.” Под. ред. В.А.Сластенина. Москва «Академиа».2005. 48-стр.

Amaliyot bilimlarning haqiqiyligini ko‘rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba o‘zgartirish, yaratish – bo‘lar amaliyot shakllariga kiradi.

Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilishning vazifasi xodisalarning mohiyatini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini ochishdan iborat emas, balki biror bir qonunning qay tariqa namoyon bo‘lish sabablarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Ilmiy omil ilmiy bilishning elementi bo‘lib kuzatish, tajriba asosida qo‘lga kiritiladi, omilga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati, amaliy faoliyat uchun ahamiyati ham bo‘lmaydi. SHuning uchun ilmiy bilimning, fanning asosiy maqsadida omllar asosida yotgan umumiy bog‘lanishlarni, qonuniyatlarni topish, ularning mohiyatini bilishdadir.

Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish tevarak – atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarni sezgi organlarimizga ta’sir etuvchi ayrim sifatlarning ongimizda aks etishidir. Sezgilar – odam haqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilishda, masalan olimning bilishi bilan o‘quvchining bilish faoliyati o‘rtasida umumiylik bo‘lsa ham lekin, ular bir-biridan farq qiladi.

**Ta’limning mazmuni** uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta’limning mazmuni deganda, o‘quvchilarning o‘qish jarayonida egallab olishi lozim bo‘lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko‘nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta’limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1.Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur extiyojlar, ijtimoiy to‘zimning xususiyatlari.

2.Davlatning xalq ta’limi va muayyan turdagi o‘quv yurti oldiga qo‘yadigan maqsad va vazifalar.

3.O‘qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o‘quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e’tiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta’lim mazmuni o‘quv rejasi, o‘quv dasturi va darsliklarda ifodalangan.

**O‘quv rejasi** - deb, o‘qitiladigan fanlar, o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilini tuzilishini belgilab beruvchi davlat xujjatiga aytiladi.

O‘quv rejasi – barcha umumta’lim maktablarida so‘zsiz amal qilinishi lozim bo‘lgan davlat xujjatidir. Unda sinflar bo‘yicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv fanlari va o‘sha fanlar uchun ajratilgan o‘quv soatlari ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Maktabning yagona o‘quv rejasi xalq ta’limi vazirligi tamonidan tasdiqlanadi.

**O‘quv dasturi** – o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O‘quv dasturi har bir o‘quv fanining o‘qitish uchun ajratilgan bilim xajmi, tizimi va g‘oyaviy – siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat xujjatidir.

O‘quv dasturida o‘quv yili davomida har qaysi sinfda aloxida fanlar bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o‘quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma’lum mavzular orqali ko‘rsatiladi. Ma’lum mavzu yuzasidan o‘quvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

**Darslik** – o‘quv jarayonining zarur qismidir. Ko‘p vaqtlardan beri u o‘qitishning eng muhim vositasi hisoblanar edi.

Har bir o‘quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

Darsliklar bilan bir qatorda ayrim fanlardan o‘quv qo‘llanmalar ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to‘plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug‘at kitoblari vash u kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

O‘quvchilar darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan ham darsda, ham uy sharoitida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishlash tarbiyalanuvchilarning ahliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, axloq, odob, tafakkurning, nutqning, ishdagi mustaqilligini rivojlanishiga yordam beradi.

### 2. Tarbiya nazariyasi va mazmuni

**Tarbiya nazariyasi** – «Umumiy pedagogika» ning bir qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, vositasi, metodi va tashkil etish shakllarini o‘rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va

iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonni ham qaytadan ko‘rib chiqishni toqazo etmoqda.

**Tarbiya mazmunini** Qur’oni Karim oyatlari, Muhammad payg‘ambarimiz (a.s.) Hadislari, milliy va madaniy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, mutafakkir va olimlarning tarbiyaga oid asarlari kabilar tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta’lim va tarbiyaning milliy shakllarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma’lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo‘limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

**Milliy tarbiyaning o‘ziga xosligi.** Davlatimiz sobit qadamlar bilan o‘z taraqqiyot yo‘lidan bormoqda. Bu yo‘l – milliy xususiyatlar, qadriyatlarni tiklash, saqlash, rivojlantirish, milliy g‘ururni o‘yg‘otish, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkura negizida komolotga erishish yo‘lidir. Bu esa, o‘z navbatida sobiq SHo‘ro tarbiya nazariyasida o‘rganilishi mumkin bo‘lmagan milliy odob, milliy e’tiqod, iymon-diyonat kabi insonning butun milliy xususiyatiga bevosita bog‘liq fazilatlarni yosh avlodning shaxsiy sifatlariga aylantirishni dolzarb vazifa qilib qo‘ydi.

Bugungi kunda yo‘qolib ketayotgan milliy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari borki, ularni biz o‘sib kelayotgan yosh avlodga o‘rgatishimiz va amalda ularning ijrosini ko‘rmog‘imiz lozim. Masalan: ota uyda o‘tirganda, farzand uyning ustini kuramaydi yoki ustiga chiqmaydi; bir farzandga etti mahalla ota-ona; ayol kishi yonboshidan kelayotgan erkak kishini o‘tkazib yuborishi lozim, aniqroq qilib aytganda erkak kishining oldini ayol kishi kesib o‘tmaydi; erkaklar o‘tirgan xonaga ayol kishi, ayollar o‘tirgan xonaga esa, erkak kishi hech vaqt kirmagan; o‘zbekda shunday bir jihat borki, u ham bo‘lsa “andishalik”, mazkur so‘zning ma’nosini olib qaraydigan bo‘lsak, unda chuqur bir falsafiy ma’no mavjud; dasturxon boshida avvalo erkak kishi ya’ni, uyning xo‘jaynisi dasturxonga ovqatlanish uchun birinchi bo‘lib qo‘l uzatgan, so‘ngra boshqalar kabi o‘zbekning o‘ziga xos milliy jihatlari borki, ular boshqa birorta ham millat va elatga mansub emasligining guvohi bo‘lamiz.

SHu tariqa yuqoridagi fazilatlarni shakllantirishni o‘z ichiga oluvchi yangi pedagogik yo‘nalish dunyoga keldi. Darhaqiqat, milliy tarbiya – O‘zbekiston milliy mustaqilligining pedagogik maqsadi va shartidir.

**Milliy tarbiya –** O‘zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor farzandlarni tarbiyalab voyaga etkazishga xizmat qiladi.

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarga qaraganda shaxsga tashqi omillar ta’siri u xoh ijobiy, xoh salbiy ta’sir ko‘rsatsin, tarbiyalanuvchi tarbiyasida ular ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyalanuvchining shaxsiy tajribasi va ehtiyojlari tashqi ta’sirga munosabatni belgilab beradi va uning xulqiga ta’sir etadi. SHuning uchun tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishning o‘zigina kifoya qilmaydi. To‘g‘ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbidan paydo bo‘ladigan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashni, his qilishni hamda ulardan o‘zi uchun nimalarni maqsad qilish olganligini bilish zarur.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki, his tuyg‘ularini ham o‘stira borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabaning ongiga (ta’lim jarayoni asosida) hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, hulqini idora qilish jarayonida) sistemali va muntazam ta’sir etib boriladi. Talabani tarbiyalashda bo‘larning birontasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. SHuning uchun tarbiya jarayoni ko‘p qirrali va murakkab jarayon deb yuritiladi.Uning xususiyatlari quyidagicha aks ettiriladi.

### 3. Ta’lim-tarbiya tamoyillari va ularga tavsif

Inson vujudga kelibdiki, o‘z farzandiga bilganlarini O‘rgatish, o‘zi ega bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini keyingi avlodga o‘tkazish dastavval anglanmagan holda bo‘lsada

mavjud edi. Bu yashash uchun kurash êîíóíèààí kelib chiqib, yashashning zaruriy sharti hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan avloddan-avlodga o‘tkazish lozim bo‘lgan bilimlar hajmi ortib bordi. Bilimlar, egallash lozim bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar murakkablashib bordi. Bu jarayon olimlar tomonidan tahlil qilinib asta-sekin ma’lum qoidalar ishlab chiqildi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ta’lim jarayonini chuqur o‘rgangan olimlardan biri. U ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqida shunday fikrlarni bildiradi. O‘quv jarayonida pedagog quyidagi qonuniyatlarga:

-talabani zeriktirmasligi;

-bilim berishda turlilikka asoslanishi;

-uzviylikka, izchillikka rioya qilish kerak.

Beruniy yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko‘rgazmali bayon etish samarali natijalar berishini ham ta’kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) bilim olishda shaxslarni o‘quv muassasasida o‘qitish zarurligini qayd etar ekan, ta’limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

-talaba bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;

o‘qitishda jamoa bo‘lib, o‘quv muassasasida o‘qitishga e’tibor berish;

-bilim berishda talabalarning maylini, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

-o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qO‘shib olib borish.

Ushbu ishlab chiqilgan qoidalar ta’limda mustahkam o‘rin egallay boshladi.

Keyinchalik chex olimi YAn Amos Komenskiy ham bu borada ilmiy izlanishlar olib boradi va o‘zining “Buyuk didaktika” asarini yozishga kirishadi. Va u bu asarida ta’lim-tarbiyaning samarali tamoyillari, uslublari, dars jarayonlarini tizimlarini aniq ma’lumotlar asosida ko‘rsatib o‘tadi  “Didaktikaning otasi, asoschisi” nomiga sazovor bo‘ladi.

O‘zbekistonda didaktik ta’limning tashkil topishi va rivojlanishi Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muhammadrasul Rasuliy, Qori Niyoziy kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan bog‘liq.

SHunday qilib didaktika tamoyillari asrlar osha sayqal topib bordi. Albatta didaktika tamoyillari har bir davrning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zgarib boradi. CHunki ta’lim tamoyillari jamiyat va davlat oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ta’lim (o‘qitish) jarayoni murakkab hamda ko‘p qirralidir. Unda pedagog va talabalar faol ishtirok etadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta’lim jarayonining qonun qoidalari ya’ni ta’limga quyilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog‘liq.

**Ta’lim tamoyillari** pedagogning faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirilishi tegishli ko‘nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo‘l yo‘riqlarini o‘z ichiga oladi. SHu bilan bir vaqtda ta’lim tamoyillari har ikkala faoliyatning ya’ni pedagog va talaba tomonidan o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. SHunga ko‘ra ta’lim qoidalari o‘qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

**Ta’lim tamoyillari deb** umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o‘qish va o‘qitish jarayonlarining yo‘nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirilishi, bilim va malaka xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig‘indisiga aytiladi.

Keyingi yillarda ta’lim qoidalarini o‘rganish ularni tahlil qilish va mukammallashtirish ustida ish olib borilmokda. Ta’lim qoidalarini sistemalashtirish masalasi ham doimo faol masala bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda pedagogika fani quyidagi **ta’lim tamoyillarini** ajratib ko‘rsatmoqda:

2. Ta’limning ilmiy bo‘lishi;
2. Ta’lim va tarbiyaning birligi;
3. Ta’limning tizimli va izchil bo‘lishi;
4. Ta’limda nazariyaning amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishini ta’minlash;
5. Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillikka erishish;
6. Ta’lim jarayonining ko‘rsatmali va ko‘rgazmali bo‘lishi;
7. Bilimlarni puxta va tizimli o‘zlashtirib olish;
8. Ta’lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish;

9. Ta’limda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Ta’lim tamoyillarini guruhlarga ajratish va ularga tavsif berish ishi butunlay yakunlangan deya olmaymiz. CHunki yuqorida aytib o‘tganimizdek bu tamoyillar davr talablari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi ta’lim xususiyatlariga qarab o‘zgarishi mumkin. Bundan tashqari pedagogika va xususan didaktikaning fan sifatida mukammallashib borishi yangi bilimlarning xosil bo‘lishi ham ushbu tamoyillarni guruhlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. SHuning uchun ba’zi adabiyotlarda 7 ta, ba’zi adabiyotlarda 9 ta, ba’zi adabiyotlarda esa 10ta tamoyilni sanab o‘tilgan. Hozircha biz 9 ta tamoyil guruhini ajratishni lozim topdik.

**Ta’limning ilmiy bo‘lishi tamoyili**

Ilmiy bilimlar haqqoniy voqelikni inson ongida aks etishidir. Tevarak-atrofni o‘rab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va hodisalarning xossalarini va ularning o‘zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilim ilmiy bilimlar hisoblanadi. Ilmiy bilimlar tajribalar, tekshirishlar, tahlil qilish, isbotlash kabilarni talab etadi. Insoniyat ilmiy bilimlarini kengaytirib borgan sari haqiqiy voqelikka ma’lum darajada yaqinlashib boradi. Ilmiy jihatdan isbotlanmagan bilimlar ham mavjud va bu bilimlarni hali inson tahlil qilishi va chuqurroq o‘rganishi kerak bo‘ladi. Ta’lim jarayonida biz talabalarga isbotlab bo‘lingan, aniqlangan va amaliyotda tekshirib ko‘rilgan bilimlarni etkazishimiz lozim.

Ta’limning ilmiyligi talabaning o‘quv materiallaridagi qonuniyatlarini aks ettirish, tushunish va o‘zlashtirishi uchun to‘g‘ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir.

Nazariy qoidalarni tushunish-materialini ilmiy asosda izohlab berishning muhim belgisi bo‘lib, u talabaning fikrlash faoliyatini xususiyatlarini belgilaydi. Ilmiy bilimlar ilmiyligicha qolib, voqeilikni har xil darajada aks ettirishi mumkin. Ilmiy izoh ta’limning hamma bosqichlarida, har bir sinfda ilmiylik qoidalari vazifalaridan biri nazariy ma’lumotlar tizimini shu ma’lumotlar tevarak–atrofdagi dunyoni qanchalik chuqur aks etganligi nuqtai nazaridan bilib olishdir.

Ilmiylik qoidasi barcha yosh guruhlardagi va turli o‘quv yurtlaridagi talabalarga o‘rganish uchun ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko‘rilgan ma’lumotlar berilishini talab etadi.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash e’tiqod tarkib topadi. Tafakkur rivojlanadi. Etuk milliy kadrlarni tarbiyalash va etishtirish uchun hozirgi zamon fan-texnikasining rivoji darajasidagi ilmiy bilimlarni egallashga erishish muhim. SHu bilan bir qatorda talabalarni ilmiy–tadqiqot usullari bilan ham tanishtirib borish maqsadga muvofiq. Ilmiylik ta’limning mazmuniga ham, usullariga ham aloqadordir ya’ni darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv dasturlari, o‘quv rejasi ilmiy asosda yaratilishi lozim.

**Ta’lim-tarbiyaning birligi tamoyili**

Ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Har qanday bilim ma’lum tarbiyaviy ta’sirga ega va har qanday tarbiyaviy tadbir o‘zida bilim asosini aks ettiradi. Bu hayotiy qonuniyat bo‘lib biz ta’lim jarayonida uni hisobga olishimiz lozim. Ta’lim jarayonida o‘tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonilarini to‘g‘ri belgilash va uni ta’lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta’minlash juda qulay. CHunki tarbiya his-hayajon va amaliy hayot bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa bilimlarni puhtaroq o‘rganishga yordam beradi. Bilimlar esa ana shu tarbiyaviy jihatlarni mustahkamlanishiga ta’sir etadi. Bilimlar hayotni, hayotiy qonuniyatlarni bilishga xizmat qilsa, tarbiya ana shu hayotga nisbatan to‘g‘ri munosabatni tarkib topishini ta’minlaydi. Demak, bir butun ta’lim jarayonida ikki o‘zaro bog‘liqlik: hayotni bilish va unga bo‘lgan munosabatni tarkib toptirish jarayoni sodir bo‘lar ekan.

Ta’lim–tarbiyaning birligi ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish va o‘qitishning xilma-xil metod va uslublaridan foydalana olishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ta’lim bilan tarbiyaning birligini ta’minlamoq uchun:

a) bayon qilinayotgan o‘quv materiallarining mazmuni ham ilmiy, ham g‘oyaviy jihatdan to‘g‘ri tashkil qilinishi;

b) o‘qitilayotgan mavzunining ilmiy va tarbiyaviy mohiyatini ochib borilishi, ta’lim jarayonida hadislardan foydalanish imkoniyatini yaratilish;

v) bayon qilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustahkam o‘zlashtirilishi va turmushda unga amal qilinishi;

g) ta’limda muammoli jarayonini vujudga keltirish, talabalarning qiziqishlari, aktivlik va tashabbuskorliklarini ta’minlashga e’tiborining kuchaytirilishi;

d) ta’lim jarayonida talabalarning uyushqoqligini, intizomlilik va javobgarlikni sezish, o‘zaro yordam hislarini tarbiyalashni ta’minlash zarur.

Ta’limning tizimli va izchil bo‘lishi.

Ijtimoiy taraqqiyotning boy tajribasi ta’limda sistemalilik va izchillik bo‘lishi shart ekanini tasdiqladi. Bilimlarning ma’lum sistemaga solinishi va izchil bo‘lishi ta’lim samaradorligi belgilovchi eng etakchi omillardan biridir. Hozirgi zamon didaktikasidan bu tamoyilga katta e’tibor berilmoqda. CHunki ta’limda izchillikka rioya qilib o‘qitish bugun o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlashga va ertaga o‘rganiladigan bilimlarga zamin tayyorlashga yordam beradi. YA’ni o‘tilayotgan fan yoki bayon qilinayotgan yangi materialning talabalarning oldingi o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlari, ko‘nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog‘lanishi, shu bilan bir vaqtda o‘qitilayotgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish orqali kelajakda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, shuningdek navbatdagi ta’lim bosqichiga zamin yaratilishi nazarda tutiladi.

Ta’limning tizimli bo‘lishi uning izchil bo‘lishi bilan bog‘likdir.

Izchillikka asoslangan ta’limning xarakterli belgisi shundaki, u talabalarning oldindan o‘zlashtirilgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularning o‘zaro boshlanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldindan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yana ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta’minlashga qaratilgandir. Demak tizimli va izchillik ta’limda uzluksizlikni vujudga keltirishda ahamiyatlidir. Bundan tashqari ma’lum sistemaga solingan bilimlarni egallash o‘rganish jarayonida qulaylik vujudga keltiradi. Albatta tizimli va izchillikni soddadan murakkabga qarab yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq. Bilimlarning asta-sekin, izchillik bilan murakkablashib borishi tafakkurni rivojlantiradi va natijada ta’limning rivojlantiruvchi xususiyati kelib chiqadi.

**Ta’limda nazariyaning amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishini ta’minlash tamoyili**

Ta’limning asosiy maqsadi yoshlarni mustaqillik hayotga tayyorlash ya’ni turli xil hayotiy sharoitlarda o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarini amalda qo‘llay olish darajasiga etkazishdir. SHuning uchun biz ta’lim jarayonida talabalarni faqat ilmiy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki ana shu bilimlarni amaliyotda qullay olishlarini ta’minlashimiz lozim. Demak, bu tamoyil ta’limning ilmiyligi haqida tamoyil bilan hamoxang bo‘lib, ular bir-birlarini to‘ldirib keladilar. Ta’limning ilmiyligi bilimlarni nazariy jihatdan o‘rganishga, mantiqiy bog‘liqliklarni tushunishga, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga xizmat qilsa, amaliy harakatlar ana shu bilimlarni amalda qo‘llab ko‘rish yanada to‘liqroq ishonch hosil qilish, malaka hamda ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

**Ta’lim tizimida nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyili**

Mazkur tamoyilda dastavval o‘quv fanining mazmunini va o‘ziga xos xususiyatga bog‘liq holda o‘qish jarayonida amalga oshiriladi. Bu birlik ilmiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish va uni amalda qo‘llay olish, o‘quv materiallarini idrok qilish, anglash, shuningdek, uni mustahkam esda saqlab qolish kabi ruhiy operatsiyalar bilan bog‘liq holda bir butun jarayonni tashkil qiladi.

Ta’lim jarayonida talabalar tomonidan matematika, fizika, biologiya, ximiya, astronomiya va boshqa tabiiy fanlardan o‘zlashtirilgan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar tajriba xonalari va laboratoriyalari, zamonaviy texnika vositalari, tajriba er uchastkalari va ishlab chiqarish mehnati jarayonida qo‘llaniladi.

Bu mashg‘ulotlar ularni kelgusida murakkab ilmiy nazariyalarni amalda qo‘llana olishlari uchun zarur bo‘lgan tajriba bilan qurollantiradi. Talabalar o‘quv materialini tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonununiyatlarini ilmiy asosda atroflicha to‘g‘ri, chuqur tushunib oladilar va kelajakda amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan mahorat, ko‘nikma va malakalar hosil qiladilar. SHuning uchun ham har bir mavzuning xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganilayotgan yangi bilimlarni mumkin qadar amaliyot bog‘lash o‘quv jarayonining tamoyili sifatida qabul qilinadi.

**Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillikka erishish tamoyili**

Ma’lumki, eski musulmon ìàêòàálarida o‘qitish jarayoni, yod olish muhim o‘rin egallagan. Lekin tushunishga va anglab olishga e’tibor bir oz kamroq ajratilgan. Ayni vaqtda mohiyati anglab olingan bilimgina amalda samarali qo‘llash mumkin. SHuning uchun o‘quv jarayonida xotirasi kuchli bo‘lgan talabalarning mavzuni shunchaki yuzaki yodlab olishlariga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Onglilik talabalarni yangi materialini idrok qilishda ta’riflar, teoremalar, adabiyatdan she’r yodlash

va hokazolarning ifodalanishinigina emas, balki ularning hayotiy xodisalar, jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzuni ham tushunishlarini talab etadi. Aks holda bilimlarda yuzakichilik avj oladi, bunda material quruq yodlab olingan bo‘ladi. Bunday bilimlar tez unitiladi. Bundan tashqari bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish talabalarda bu bilimlarga nisbatan ma’lum munosabat xosil qilishni, emotsional kechinmalar uyg‘otishni ham o‘z ichiga oladi. [11]

Biz yaxshi bilamizki, ta’lim ikki tomonlilik xususiyatiga ega. Ta’lim jarayoni pedagog yo‘naltiruvchi bo‘lib maydonga chiqadi va talabalar o‘rganish jarayonini o‘z boshlaridan kechiradilar. O‘rganish jarayoni murakkab psixik jarayon bo‘lib talabadan ma’lum faollikni talab etadi. Pedagog qanchalik ta’lim jarayonini sermazmun, qiziqarli va mahorat bilan tashkil etmasin talaba tomonidan ma’lum faollik bildirilmasa, o‘quv jarayonida samaraga erishish mumkin bo‘lmaydi. Demak o‘quv jarayonida avval talabalarda faollikni uyg‘otish zarur. Bu faollik bilish jarayoniga ta’sir etadi, idrok qilish, tahlil qilish, analiz va sintez kabi psixik jarayonlarni ishga tushiradi. Talabalarda faollik holatini vujudga kelishda motivatsiyalar ahamiyatlidir.

Mustaqil tafakkur turli usullar bilan hosil qilinadi. Tafakkurni shakllantirish usullaridan biri mustaqil hal qilish, muammoli vazifalar qo‘yishdir. Aytib o‘tish joizki onglilik va faollikkina mustaqil tafakkurni vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda ta’lim oldiga qo‘yilayotgan eng katta talablardan biri ham mustaqil fikrlash, muammolar echimini mustaqil topish kabi xususiyatlarni talabalarda rivojlantirishdir. Umuman onglilik, faolllik va mustaqillik o‘zaro bir-birini to‘ldirib turuvchi psixik holatlar deyish mumkin. Bilimlarni ongli o‘zlashtirish, bir tomondan, talabalarning mustaqil, faol fikr qilishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan aynan shu jarayon davomida talabalarning mustaqillik va faolliklarini hamda mantiqiy fikr qilish faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishni nazarda tutadi. Talabalar faolligini rivojlantirish, ularning mustaqilligini oshirish, talabalar ongliligini o‘stirish o‘qitishda yuksak samaradorlikka erishishga yordam beradi.

**Ta’lim jarayonining ko‘rsatmali va ko‘rgazmali bo‘lishi tamoyili**

Ta’lim jarayonida mumkin qadar sezgi organlàrini ko‘proq jalb etish o‘rganishni osonlashtiradi. Eshitish jarayonida abstrakt tafakkur ma’lum ish bajarsa, ko‘rish orqali obrazli tafakkur ham ishga tushadi. Ko‘rsatmalilik mavzuni o‘rganishda engillik tug‘dirishi bilan birga talabada qiziqish ham uyg‘otadi. O‘rganilgan mavzuni uzoq muddat esda saqlanishiga va qayta esga tushirishga yordam beradi.

Talabalarning sxema, jadval, diagramma kabi materiallar ustida ish olib borishlari va material xususiyatlarini taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarishlari mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi.

Albatta ko‘rsatmalilik samarali natijalar berishi uchun uning boshqa tomonlarini ham e’tiborga olish kerak. Birinchidan, ishlatiladigan ko‘rsatmali qurollar u yoki talabalarining yoshi va o‘ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarlikka-saviyasiga mos keladigan bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, foydalaniladigan ko‘rsatmali qurollar o‘tilayotgan dars mavzusining mazmunini ochib berishiga yordam beradigan materiallar bo‘lishini hisobga olmoq, demak, uning to‘g‘ri tanlanishiga e’tibor bermoq lozim. Uchinchidan, dars jarayonida foydalanish uchun belgilangan ko‘rsatmali materiallardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo‘lgan ta’lim usullari to‘g‘ri tanlangan bo‘lishi lozim. Umuman olganda, ta’limni ko‘rsatmali bo‘lishini ta’minlash ustida hozirda ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va ko‘rsatmalilikni samaradorligini oshirishda fan-texnikaning keyingi yillar ichida erishgan yutuqlaridan foydalanish masalasi ishlab chiqilmoqda.

**Bilimlarni puxta va tizimli o‘zlashtirib olish tamoyili**

Ta’lim jarayonida biz talabalarni bilimlarni mustahkam esda saqlanib qolishini ta’minlash zaruriy talablardan biridir. O‘quv materiallarini mustahkam esda saqlab qolish, ayni dars jarayonida bayon qilinayotgan o‘quv materiallarini tizimli va ongli o‘zlashtirishga bog‘liq. Avvalgi mashg‘ulotlarda hosil qilingan bilim, ko‘nikma va malakalar ancha murakkabroq materialni o‘zlashtirib olish uchun pillapoya, baza bo‘lib xizmat qiladi. SHuning uchun ham bilimlar bazasining puxta bo‘lmasligi keyingi o‘rganiladigan yangi bilimlarni ham zaif bo‘lishiga

11 Подласый И. П. “Педагогика”. Москва. “Владос» ,2005, 56-срт.

olib keladi. YAxshi o‘zlashtirilgan, mustahkamlangan bilimlarda esa keyingi yangi bilimlarni o‘rganishda va mustahkamlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ularning puxta anglab olinganligini tekshirish, ba’zi tushunmovchiliklarni yo‘qotish, mustahkamlashga e’tiborni qaratish didaktikaning asosiy masalalaridan biridir. Ta’lim jarayonida takrorlashni uyushtirish bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash faqat oldindan o‘zlashtirilgan o‘quv materialinigina esga tushirmay, balki shu o‘quv materiallariga bog‘liq bo‘lgan yangi-yangi ma’lumotlar ham beriladi, o‘zlashtirilgan bilimlarning noaniq tuman bo‘lib qolgan tomonlari oydinlashtiriladi va to‘ldiriladi. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni uzluksiz va ma’lum tizim asosida olib borilishi ta’lim samarasini oshiradi. Bilimlarni doimiy ravishda tekshirib borish, takrorlash tizimli va uzluksiz ravishda to‘ldirib borish muhim didaktik talabdir.

**Ta’lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish tamoyili**

Har bir talaba o‘ziga yarasha qiziqishlari va shu bilan bir qatorda miqdori mavjud. Har bir talabaning o‘ziga xos bo‘lgan yutuqlari va shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Agar pedagoglar o‘quv jarayonida ana shu individual  xususiyatlarni hisobga olmasalar har qancha unumli metodlardan foydalanmasinlar o‘quv jarayonida yaxshi natijalarga erisha olmaydilar. CHunki ta’limning asosiy vazifalaridan biri talabani umumiy rivojini ta’minlash. Lekin talabaning haqiqiy rivoji faqat uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Talabalarning real o‘quv imkoniyatlarini, ularning rivojlanish jihatlarini o‘rganish hozirgi vaqtda shunchaki xohish emas, balki majburiy talabdir. Busiz o‘quv jarayonini muqobillashtirish, uni boyitish aqlga sig‘maydi. Albatta shaxsiy xususiyatlar juda xilma-xil va ularni o‘rganish ma’lum vaqt talab etadi. Kuzatish jarayonida talabaning kuchli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga mos bo‘lgan xususiyatlarini bilib olish mumkin. Talaba shaxsining muammolari va qiyinchiliklarini tahlil qilish hamda shu muammolarning sabablarini aniqlash keyingi pedagogik chora-tadbirlarni rejalashtirishda juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa o‘zlashtirishi bir oz pastroq bo‘lgan talabalar bilan yakka holda ishlash jarayonida pedagog o‘zi uchun talabaning yangi qirralarini kashf etishi e’tiborli. Keyingi davrlarda “differensiallashgan ta’lim” degan tushunchani keng tarqalishining asosiy sababi ham shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, qiziqishlari, iqtidori kabilarni hisobga olgan holda talabalarni guruhlarga ajratishni va shu guruhlar uchun  alohida dasturlar ishlab chiqishga qaratilgan. Guruhlar uchun tuzilgan dasturlar, qo‘llaniladigan metodlar talabalarning shaxsiy xususiyatlari hisobga olgan holda tanlanadi. Didaktika bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va bu ta’limning samaradorligini oshirishda  katta ahamiyatga ega.

**Ta’limda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili**

Ma’lum guruh uchun belgilangan o‘quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu sinf talabalarining yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. O‘rganilayotgan bilimlar, xosil qilinayotgan malaka va ko‘nikmalar talabalarni xaddan ziyod toliqtirib qo‘ymasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, o‘quv jarayoni talabalarning sog‘ligi, psixik holatiga salbiy ta’sir etishini oldini olish lozim. Buning uchun har bir yosh xususiyatlarini chuqurroq o‘rganib imkoniyatlar darajasini belgilab olish kerak. Ta’limning mazmuni shaxslarning kuch-quvvatiga mos bo‘lishiga erishish lozim. Ta’limni haddan ziyod “engillashtirish”, “osonlashtirish” ham maqsadga muvofiq emas, chunki bunday ta’lim rivojlantiruvchi bo‘la olmaydi. Demak har bir yosh davrida talabalarning imkoniyatlarini o‘rganish va imkoniyatlarga mos ravishda ta’limni tashkil etish, o‘rganiladigan bilimlar hajmini belgilashda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish juda muhim bo‘lib bu yo‘nalishda ham tegishli ilmiy-tekshirish ishlari olib borilmoqda.

Hozirda O‘zbekistonda ta’lim tizimini yangilash, mukammallashtirish  borasida bir talay ishlar olib borilmoqda. Qadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta’lim tizimini yaratish, o‘quv tarbiya jarayonining hamma bosqichlarini mukammallashtirish, har tomonlama etuk barkamol avlodni etishtirish uchun shart-sharoit yaratish masalalari ko‘rib chiqilgan. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) belgilangan. Bo‘lar ta’limning ustivorligi, ta’limning ijtimoiylashuvi, ta’limning milliy yo‘nalganligi, ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilardir. Ko‘rib

turganimizdek, uzluksiz ta’limni rivojlantirish tamoyillari didaktik tamoyillar bilan hamoxang bo‘lib, ana shu didaktik tamoyillarni yanada mukammallashuviga to‘rtki bo‘lib xizmat qilmokda.

Demak, bugungi kun talablarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogika va uning ajralmas qismi hisoblanmish didaktika o‘quv jarayonini qonuniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishi hamda ta’lim samaradorligini oshirish ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini keng miqyosda olib borishi maqsadga muvofiq.

**4. Ta’lim-tarbiya metodlari va ularning mazmuni**

Xalq ta’limi vazirligi, pedagogika ilmiy tadqiqot instituti, metodist pedagoglarning, xususan pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri - ta’lim-tarbiyadagi muammolarni, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish, barcha o‘quv fanlari bo‘yicha yangi milliy dasturlar yaratish, ta’limni pog‘onalash, dars jarayonini toifalashdan iboratdir.

SHu munosabat bilan yaqin o‘tmishdagi o‘zbek o‘quv muassasasilari o‘qitish tarixiga bir nazar tashlash ayni paytda ta’lim metodlarini o‘rganishni osonlashtiradi. SHubhasiz, mazkur ta’lim metodikasi tarixiga oid manba muayyan darajada ta’limning metodik bo‘shliqlarini ma’naviy jihatdan to‘ldiradi, pedagog tarbiyachilarning pedagogik meros va xalq pedagogikasiga bo‘lgan katta ehtiyoj va qiziqishlarini qondiradi.

Keyingi vaqtlarda taraqqiy etgan mamlakatlarning o‘quv muassasasi sohasidagi yutuq va tajribalarini o‘rganishga uni bizning sharoitimizga joriy etishga e’tibor kuchaydi. SHuningdek, xalq ta’limi ko‘lamiga inqilobgacha bo‘lgan o‘qitish tartibining turlari (litsey gimnaziya) ham dadil kirib kelmokda. Bunga mamlakatimizda gimnaziyalarning ochilishi, litseylarni ochilishini misol qilib keltirish mumkin.

**Ta’lim berishda o‘qitish metodlari asosiy o‘rinni egallaydi. Metod-**yunoncha atama bo‘lib, usul, yo‘l degan ma’noni anglatadi, ya’ni maqsadga erishish yo‘lini bildiradi. Metodlar (usullar) har qanday axborotni (maqsadni) o‘zatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi sinflarga ajratiladi:

- So‘z orqali ifodalanadigan metod.
- Ko‘rgazmali metod.
- Amaliy metod.
- Ta’lim jarayonida talabalarni o‘zlashtirish, fikrlash jarayonini tashkil etish bo‘yicha esa quyidagi metodlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:
- O‘qitishning maruza (suhbat) metodi.
- O‘qitishning amaliy ishlar metodi.
- Laboratoriya ishlari metodi.
- Mustaqil ishlar metodi.
- Reproduksiv-evristik metod.
- Ilmiy-tadqiqot metodi.
- O‘qitishning muammoli-izlanish metodi.
- O‘qitishning induktiv va diduktiv metodi.

Axborotni so‘z orqali etkazish va qabul qilishga qaratilgan birinchi guruh metodlariga: Hikoya, suhbat, maruza kabilarni kiritish mumkin.

Nutq madaniyatini o‘stirishda hikoyaning o‘qitish va fikrlarni bayon qilish metodi sifatidagi imkoniyatlari boshqa metodlarga nisbatan yuqoridir. **Hikoya qilish** - pedagog tomonidan yangi o‘tilayotgan mavzuga oid fakt, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon etiladi. Bu metod materiallarni bayon qilishdi, obrazlarga xarakteristika berishdi, tabiat hdisalari va ijtimoiy hayotdagi voqealarni tasvirlashda qo‘l keladi.

Hikoya qilish davomida talabalar passiv tinglovchi bo‘lib qolishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Talabalarning diqqatini tasvirlanayotgan ob’ektga qaratibgina qolmay balki xuddi shu ob’ekt haqida ular ongli va aktiv fikr yuritishlarini ham ta’minlamoq lozim.

**O‘quv materialini tushuntirish metodi**

Pedagog tomonidan o‘rganilayotgan mavzuning narsa, hodisa va voqealarning mazmunini xarakterlaydigan tushuncha, qonun va qoidalarni uqtirishdir. Bu metod ko‘proq matematika,

fizika, ximiya, ona tili, rus tili va shunga o‘xshash fanlarni o‘qitishda ko‘proq qo‘l keladi. Pedagogning ma’lum bir fanning u yoki bu mavzuga oid qonun, qoidalarni qanchalik asosli ekanligini faktlar, misol va dalillar keltirish, shuningdek masalalar, misollar ishlash yo‘li bilan isbotlab beradi.

Bu jarayonga talabalarning aktiv ishtirok etishlarini ta’minlamay turib, ko‘tilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Ayniqsa bayon qilinayotgan materiallarini umumlashtirish va xulosalar chiqarishda talabalarning o‘z mulohazalari bilan ishtirok etishlarini ta’minlash muhim.

**Maruza metodi**

Bu metod o‘quv materialini hajmini kattaligini, mantiqiy tuzilishi, obrazlari isbot va umumlashtirishning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Agar hikoya darsning bir qisminigina egallasa, maruza odatda ularni to‘la qamrab oladi. Maruza davomida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, mavzuga oid ko‘rgazmali materiallarni namoyish etish, maruza oxirida umumiy xulosalar chiqarish kabilar samaradorlikni oshiradi. Maruza metodi keng qamrovli axborotni talabalarga etkazishda juda ham qo‘l keladi.

**Suhbat**

Bu metod asosan savol-javob yo‘sinida olib boriladi. Suhbatlarning ma’lum maqsadga qaratilganligi ularning xarakterini belgalaydi. Suhbat evristik xarakterda, etik xarakterda, instruktiv metodik xarakterda bo‘lishi mumkin.

Suhbat metodi talabalarni faol ishtiroki orqali o‘tkazilganligidan mustaqil fikrlash, xulosalash kabi xislatlarni talabalarda shakllantiradi. [12]

**O‘qitishning ko‘rgazmali metodlari**

O‘qitish jarayonida ko‘rgazmalilik metodidan foydalanishning muhimligi o‘rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga talabani undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilish nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgata bilishdadir.

Ta’limda ko‘rgazmalilik metodi namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib borilishi mumkin. Ta’limda namoyish etish metodidan foydalanish asosan materiallarning xarakteriga-mazmuni, shakli ham hajmiga bog‘liqdir. Namoyishning o‘zi ham turlicha bo‘lishi mumkin: a) aslicha ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan buyum va narsalar, o‘simliklar va ularning tarkibi, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va hokazo.

**Ekskursiya metodi**

Ekskursiya metodi sinf sharoitida dars jarayonida qo‘llaniladigan o‘qitish metodidan tubdan farq qiladi. Bu metod bilan o‘rganilayotgan narsa va hodisalarni tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, tabiatni kuzatishga) yoki maxsus muassasalarga (mo‘zey, ko‘rgazma va hokazolarga) tashkiliy ravishda boriladi. Ekskursiya vaqtida kuzatish, zarur materiallarini yozib olish, rasmga tushirish, o‘lchash, hisoblash ishlarini olib borish mumkin. Ekskursiya davomida suhbat o‘tkazish, xulosalar yasash, o‘z fikrlarini umumlashtirish va yakun yasash lozim.

**O‘qitishning amaliy ishlar metodi**

Amaliy metodlarga masalalar echish, chizmalar tayyorlash, yozma mashqlarni bajarish kabilarni kiritish mumkin. Nazariy jihatdan egallangan bilimlar amalda qo‘llab ko‘riladi. Grafik jadval, kartalar chizish ham tegishli ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga va ularni mustahkamlashga yordam beradi.

**Laboratoriya ishlari metodi.**

Laboratoriya mashqlari frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, praktikumlar o‘qitishning texnik vositalari va o‘quv qurollari tipidagi boshqa asbob-uskunalar bilan mashg‘ulotlar tarzida o‘tkaziladi. Laboratoriya metodining boshqa o‘qitish metodlaridan farqi, shundaki, bu metod bilan ish qo‘rilganda har qaysi talaba nimanidir mustaqil, shaxsan tajriba qilib kuradi. Dars pedagog rahbarligida talabalarning mustaqil tajriba o‘tkazishlariga qaratilgan bo‘ladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarida mustaqillik, aktivlik, tashabbuskorlik oshadi.

**Mustaqil ishlar metodi**

---

12 Подласый И. П. “Педагогика”. Москва. “Владос» ,2005, 67-срт.

Keyingi davrda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga katta e’tibor berilmoqda. CHunki bu metod talabada ijodkorlikni, mustaqillikni rivojlantiradi. O‘quv dasturlarida mustaqil ta’lim uchun soatlar ajratilmoqda. Talabalarni mustaqil ishlarini tashkil etishda ma’lum fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ishning mazmuni, shakli va vazifalari tanlab olinadi. Topshirishgan mustaqil ishni bajarish uchun pedagog kerakli adabiyotlar va yo‘l yo‘riqlarni ko‘rsatishi, qisqacha tushuntirish berishi lozim. Talaba bajarishi kerak bo‘lgan mustaqil ish ko‘p vaqt egallamasligi va shu bilan bir qatorda talabaga rivojlantiruvchi sifatida ta’sir ko‘rsatishi kerak.

**Reproduktiv, evristik metod**

Reproduktiv metodlar birinchi navbatda talabalarning o‘quv materialini tezroq va mustahkamroq eslab qolishlarini ta’minlash bilimdagi tipik kamchiliklarni tez aniqlash uchun qulay. Reproduktiv metodlar ayniqsa o‘quv materialining mazmuni asosan axborot xarakterida bo‘lsa, murakkab va butunlay yangi bilimlar o‘rganilishi lozim bo‘lgan holatda samarali natija beradi. Tafakkurning reproduktivlik xarakteri pedagog yoki boshqa manba orqali xabar qilinadigan o‘quv axborotlarini aktivroq qilishini va eslab qolinishini nazarda tutadi. Hikoya, maruza, ko‘rgazmalilik va amaliy ishlar ham reproduktiv asosga qurilish mumkin. Reproduktiv xarakterdagi amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlarning davomida talabalar namunaga ko‘ra ilgari yoki yaqindagina o‘zlashtirgan faolligini oshirish maqsadida u ko‘pincha evristik ya’ni qisman izlanuvchan metod bilan qo‘yib olib borilishi mumkin. YAngi mavzuni bayoni davomida o‘rganilayotgan materialning ba’zi elementlari ustida talabalarga fikr yuritish imkoni beriladi. Pedagog tomonidan engil qisqa savollar tuzilib, talabalarning ishtirokida ularga javob topishga harakat qilinadi. Evristik metod talabalarning bilish darajasini aniqlashga ham yordam beradi. Demak, evristik metod yangi mavzuni idrok qilishda talabalarning ham qisman ishtirok etishini ta’minlaydi.

**Ilmiy tadqiqot metodi**

Bu metod ta’lim tizimida unchalik keng tarqalmagan metod bo‘lib, ma’lum tayyorgarlikni talab etadi. Pedagog rahbarligida talabalar yoki bir talaba ma’lum ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishi va ma’lum fan uchun yangi xulosalarni yasashi mana shu metodni qo‘llash jarayonida vujudga keladi. Bu metod oliygohlarda ko‘proq qo‘llaniladi. Bu metod davomida ilmiy bilish jarayoni sodir bo‘ladi, ya’ni xali noma’lum bo‘lgan bilimlar kashf etiladi va egallanadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot rejasi tuziladi. Maqsad belgilanadi va tadqiqot usullari tanlab olinadi. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar yasaladi.

**O‘qitishning muammoli-izlanish metodi**

YAngi mavzuni o‘rganish jarayoni o‘rganilayotgan materialni  tayyor holda talabalarga bayon etmasdan, balki muammo sifatida taqdim etish muammo-izlanish metodini keltirib chiqaradi. YA’ni dars davomida yasash kerak bo‘lgan xulosalar pedagog tomonidan emas, balki talaba tomonidan yasalishiga harakat qilinadi. Har bir talaba qo‘yilgan muammoni o‘zicha yondoshib hal etishga harakat qiladi va o‘z fikrlarini bayon etadi. O‘rtaga tashlangan fikrlar muhokama qilinadi va pedagog tomonidan yo‘naltiriladi. Pedagog va talabalar birgalikda xulosalar yasashadi. Muammoli-izlanish metodi talabalarni bilish faoliyatini faollashtiradi, mustaqillikka, ijod qilishga o‘rgatadi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bu metod o‘rganilayotgan masalani chuqur tahlil etishga va bilimlarning puxta bo‘lishiga yordam beradi. Bu metod o‘rganilayotgan masalani chuqur tahlil etishga va bilimlarning tafakkur darajasi hisobga olinishi kerak. Tanlangan mavzuni tahlil etish uchun talabalarda ma’lum bilimlar bazasi mavjud bo‘lishi lozim. SHuning uchun ham bu metodni qo‘llash uchun talabalar alohida axborotlar bilan qurollantiriladi. Keyingi davrlarda muammoli-izlanish metodidan foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda.

**O‘qitishning induktiv va deduktiv metodi**

O‘qitishning mantiqiy metodlari ikki turda: Induktiv va deduktiv metodlar bilan olib borilishi mumkin.

Darslarga tayyorlanish jarayonida o‘qitishning induktiv, deduktiv kabi metodlarini tanlash zarurati ham tug‘iladi. Keyingi davrlarda deduktiv o‘qitishga talab va e’tibor kuchaydi. Ammo tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib faqat tabiiy-ilmiy emas, balki umum mehnat xarakteridagi tajribalar amaliy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishga umid qilib bo‘lmaydi.

Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo‘llash o‘rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma’lum mantiqiy-xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o‘tishni tanlashni anglatadi.

Induktiv metodlar texnik qurilmalarni o‘rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo‘llaniladi. Matematika va fizikaga doir ko‘pgina masalalar, ayniqsa pedagog talabalarni ayrim umumiyroq formulalarni mustaqil egallashlariga olib kelishi zarur deb hisoblangan hollarda, induktiv metod vositasida echiladi.

Deduktiv metoddan foydalanganda pedagog va talabaning faoliyatida avval umumiy holat, formula va qonunini beriladi, so‘ngra asta-sekin ayrim holatlarni chiqarib aniqroq vazifalarni hal etish nazarda tutiladi.

Deduktiv metod o‘quv materialini tezroq o‘tishga yordam beradi, abstrakt tafakkurni aktivroq rivojlantiradi. Nazariy materialni o‘rganishda, anchagina umumiyroq holatlardan ayrim oqibatlarini aniqlashni talab qiluvchi masalalarni echishda deduktiv metodni qo‘llash ayniqsa foydalidir.

**Dasturlashtirilgan ta’lim**

Dasturlashtirish deganda o‘quv materialini o‘rganishning har qanday dastur emas, balki dasturlashtirishning kibernetik va matematik qoidalari yoki shartlariga muvofiq dasturgina tushuniladi.

Ma’lumki, kibernetika murakkab tizim yoki jarayonlarni eng qo‘lay yo‘l bilan ma’lum maqsadga muvofiq holda idora qilish haqida baxs yuritadi. Talabalarga tegishli ilmiy ma’lumotlarni qayta hisobga olishini ta’minlash, tekshirib ko‘rish, o‘zini-o‘zi tekshirish kabi vazifalarni kibernetika  boshqaradi.

Dasturlashtirilgan ta’lim esa, yuqoridagi kabi kibernetika ilmi va metodlariga bog‘liq holda ish kuradi. Dasturlashtirilgan ta’limning bosh vazifasi, talabalar mustaqil ishining unumdorligini oshirishga yordam berishdan iboratdir.

Dasturlashtirilgan ta’lim ikki yo‘nalishda: mashina vositasida hamda mashina vositasisiz olib boriladi.

Dasturlashtirilgan ta’limning mazmuni davlat dasturi asosida belgilanadi. U ma’lum fan yuzasidan dastur hajmida ilmiy bilim berish va shu bilimlarga bog‘liq holda tegishli ko‘nikma hosil qilishga qaratilgan mashqlar, misollar va masalalar ishlatish, ishlangan masala yoki savollarning javoblarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini talabalar tomonidan tekshirib ko‘ra olish imkoniyatlarini yaratadi. O‘zlashtirilgan bilim va malakalarni bir tartibga tushurishga yordam beradi.

Dasturlashtirilgan o‘qitish metodlari o‘quv materialini element bo‘yicha nazorat qilishni, o‘qitishni imkoniyati boricha individuallashtirishni, bilimlarni egallashning individual sur’atini hisobga olishini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi. Mashinasiz dasturlashtirilgan ta’lim maxsus ishlangan darslik va metodik qo‘llanmalar vositasida olib boriladi. Bunda darsliklarda ayrim o‘quv fanining alohida qismlaridagi  mavzu yuzasidan ma’lumotlar berilgan bo‘ladi. Bunda ham mashq uchun topshiriqlar, o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda masala va misollar echishda mehnat jarayonida qo‘llana olishlari, o‘zi bajargan vazifalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tekshirib ko‘ra olishlari uchun yo‘llanmalar berilgan bo‘ladi. Garchi talaba topshiriqni bajara olmasa yoki xato qilsa, o‘sha joydan, ya’ni o‘rganilishi lozim bo‘lgan materialning o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan o‘rnidan boshlab qay darajada ish ko‘rish lozimligi ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Bunday darsliklar xususan talabalarning mustaqil ishlari uchun juda muhimdir. Darslikda materiallar shunday taqsimlanadiki, unda berilgan materiallar qismlarga bo‘lib ko‘rsatiladi va har qaysi talaba tomonidan bajarilishi bilanoq o‘zini-o‘zi tekshirib ko‘rish imkoniyati beriladi. SHu yo‘sinda topshiriqlar borgan sari murakkablashib boradi. Dasturlashtirilgan matnlar bilimlarni o‘zlashtirishni muayyan mantiqiy yo‘lini vujudga keltiradi. Ammo bu yo‘l faqat ma’lum material uchun xarakterlidir, ya’ni ta’lim uslubi materialni mazmuniga bog‘liqdir. Mazmun o‘zgarsa, axborot berish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish usullari ham o‘zgaradi. Uni bilimlarning ayrim tarkibiy qismlari bo‘lish mumkin bo‘lgan mavzularni o‘rganishda, chunonchi, grammatikaga doir ayrim masalalarni, matematika teoremalarini, ba’zi bir ximiyaviy va fizikaviy formulalarni fanda qaror topgan tizimlar haqida ma’lumot beruvchi tarixiy, biologik va geografik materialni o‘rganish vaqtida qo‘llash mumkin.

Pedagog shuni nazarda tutish kerakki, dasturlashtirilgan matnlarda aqlni o‘stirish dasturi emas, balki o‘quv materialni o‘rganish dasturi berilgan. SHuning uchun bu metoddan foydalanishda ham uning kamchiliklarini hisobga olish lozim.

**Tarbiya metodlari haqida tushuncha**

**Tarbiya metod (usul)lari – o‘**quvchi o‘qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg‘ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday manosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o‘z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar – bilim va tarbiyaga ega bo‘lgan kishilar bilim va tarbiyaga ega bo‘lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar – bilim va tajriba o‘rganuvchi yoshlardir. Ammo, tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko‘rsatmasalar, tajriba va bilim o‘rgana olmaydilar.

Demak, tarbiya metodi – tarbiyachilarning o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishidir. “Metod” so‘zi grekchadan olingan bo‘lib, yo‘l, uslub degan ma’noni anglatadi.

Ta’lim metodlari singari tarbiya metodlari ham mavjud. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sinfda birinchi marta sinf xonasini tozalash uchun shanbalik uyushtirmoqda. U o‘quvchilarga ish bo‘lib berishdan oldin, lattani qanday qilib ho‘llash, parta va polni qanday artish kerakligi haqida gapirib, ko‘rsatib beradi. O‘qituvchining so‘zi bu erda metod hisoblanadi.

Tarbiya metodlariga namuna ko‘rsatish, tushuntirish, suhbat o‘tkazish, maslahat berish, iltimos qilish, ishonch bildirish, undash, ko‘ndirish, rag‘batlantirish, uyaltirish, tanbeh berish kabilarni misol keltirish mumkin**.**

Tarbiya jarayoni to‘xtovsiz va sistemali davom etadigan jarayon bo‘lib, unga pedagog, tarbiyachi rahnomalik qiladi va tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo‘lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat etadigan faoliyatni belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarning ushbu faoliyatga aktiv ishtirok etishini ta’minlab, ular o‘rtasida ijtimoiy, jamoa, o‘rtoqlik aloqalari va munosabatlari uchun sharoit yaratadi.

Tarbiyani yaxshi yo‘lga qo‘yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, tarbiya jarayoni manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Masalan, tarbiyalanuvchining odobliligi, etukligi bilan unga qo‘yiladigan talab o‘rtasidagi farq tarbiyachi va jamoa ta’siriga shaxsning o‘z pozitsiyasi, ya’ni munosabati tarbiya jarayonining ichki qarama-qarshiligi bo‘lsa, tarbiyachining talablari bilan shaxs mikro muhit ta’siri o‘rtasidagi o‘zilish tashqi qarama–qarshilikdir. YAna shuni e’tiborga olish kerakki, tarbiyada tarbiyalanuvchining tarbiyalanganlik dajarajasini ham e’tirof etish lozim. Bordi-yu, bu masala unutilib qo‘yilsa, tarbiya jarayonida yana qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Masalan, tarbiyalanuvchilarning faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta’minlash uchun shu faoliyat nima uchun, qaysi maqsadda, qancha muddatda bajarilishini ularning ongiga etkazish, bajarish usuli va natijasini hisobga olishda esa o‘zlariga havola qilish ma’qulroqdir. Bordi-yu, yaxshi faoliyat turi tavsiya qilinganda ularning onglilik va ishni bajarishga tayyorgarlik darajasi hisobga olinmasa, uni bajarish istagi uyg‘otilmasa, tarbiyachining o‘rinishlari befoyda bo‘ladi, talabalar passiv, behafsala bo‘lib qolaveradilar.

Tarbiya usullarida har tomonlama shaxsni shakllantirish maqsadida shaxs ongi, his tuyg‘ulari, irodasi va munosabatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatish usulini tushunish kerak

Tarbiya usullari ham ma’lum bir elementlarga bo‘linib tarbiya usullari deb yuritiladi. Masalan, pedagog tarbiyalanuvchiga biror bir vazifani topshirdi. O‘z navbatida bu vazifani bajarish uchun ko‘rsatmalar beradi. Bu ko‘rsatmalar va tushuntirish maxsus holda metodik usul sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiya usullari va vositalari o‘zaro mustahkam bog‘liqdir. Tarbiya usullari shaxsga ta’sir ko‘rsatishdan iborat emas. Tarbiya ikki tomonlama jarayon bo‘lib pedagog tarbiyachi faoliyati bilan talaba faoliyatini birlashtiradi.

Talabalarning tarbiyaviy ta’sirga faol tayyor bo‘lishiga erishish uchun buni muayyan sharoitga qo‘yish, uning faol faoliyatini tashkil etish lozim. U yoki bu tarbiyaviy vazifalarni hal etishning muvofiq tashkil etilgan metodik yo‘llari tarbiya vositalari deb yuritiladi. Talabalar bilan tarbiyaviy ishda foydalaniladigan vositalar bunda televidenie, radio, kitoblar shaxslar jalb qilinadigan faoliyat turlari tarbiya vositalari bo‘la oladi.

Pedagogning jonli nutqi, shaxslarning o‘yinlari, jamoatchilik, havaskorlik to‘garaklari tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Ammo tegishli tarbiyaviy vazifalarni hal etish uchun ularni albatta murabbiy pedagog ishining muayyan tizimiga kiritish kerak. Tarbiya natijasining samarali

bo‘lishi tarbiyaviy jarayonni tashkil etish usullari, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga va ularni qo‘shib olib borishga bog‘liq.

Tarbiya usulini tatbiq etish muayyan yoshdagi shaxs faoliyatiga mos kelsa muvaffaqiyatli bo‘ladi. Tarbiyaning umumiy usullari asosan 4 gruppaga bo‘linadi.

1. Ijtimoiy ongni shakllantirish usuli.
2. Ijtimoiy axloqni shakllantirish usuli.
3. Rag‘batlantirish usuli.
4. O‘zini-o‘zi tarbiyalash.

**Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari -** talabalarning ongli, his tuyg‘usi va irodasiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatish usullarini umuman shaxs ongiga ta’sir ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari **tushuntirish, suhbat va o‘rnak ko‘rsatish** qismlardan iboratdir.

**Tushuntirish** - talabalarda e’tiqod hosil qilishning eng keng yoyilgan usulidir. Tushuntirish usulidan ko‘zlangan maqsad shaxsga hatti-harakatlar, voqealar va hodisalarga u yoki bu talablarning ma’naviy, estetik, mazmunini ochib berish, unga hulq atvorga va insoniy munosabatlarga to‘g‘ri baho berishni shakllantirishda ko‘maklashishdan iboratdir.

**Hikoya va suhbat** pedagogning jonli so‘zi asosida shaxsni g‘oyaviy va ma’naviy shakllantirishning ta’sirchan usuli hisoblanadi. Hikoya qilinadigan mavzu talabalar uchun dolzarb, shaxslarni ma’naviy ishonch, ijobiy his tuyg‘ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Masalan, pedagog boshqa guruh jamoasi metallom yig‘ishda yordam berganligini maroq bilan gapirib bersa, buning samaradorligi talabalarning qanday quloq solishiga qarab tekshirish mumkin. Agar talabalar “Biz ham metallom terishda yordam beramiz”-degan umumiy istak bildirsa, demak, pedagogning hikoyasi shaxslar ongiga etib borgan va bunga javoban biron maqsad yo‘lida faoliyat ko‘rsatishga tayyorgarlik tuyg‘usini keltirib chiqaradi.

Suhbat xilma-xil mavzularda olib boriladi, masalan etika- estetika mavzusida ya’ni insonni yurish-turishi, atrofdagi voqealar, hulq atvor, go‘zalligi, davlatning ichki va tashqi siyosati, bilim olishi, talabalarni bilim doirasini kengaytirish va boshqa mavzularda olib boriladi. Suhbat vaqtida talabalar passiv tinglovchilar emas, balki muhokama qilayotgan faol ishtirokchilarga aylanadi. Suhbat vaqtida pedagog, tarbiyachilar tarbiyalanuvlarni tajribasiga, ularning bilimiga tayanishi lozim. O‘tkazilayotgan suhbat talaba uchun ahamiyatliligini hisobga olish zarurdir. YAngi materiallarni tanlash, tarbiyalanuvchini o‘ylashga, mazkur masala bo‘yicha o‘z bilimlarini orttirishga yordam beradi. Pedagogning o‘zi qanchalik kam gapirsa, talabalar dunyosiga shunchalik yaxshiroq kirib borishi, ular bilan ajablanishi, quvonishi lozim, shunda suhbat muvaffaqiyatli olib boriladi.

Suhbat natijasida qabul qilingan axloqiy me’yor keyinchalik talabalar hulq atvori va faoliyatida amalga oshirilishi lozim. Va keyingi davrga mo‘ljallangan o‘z hulq atvorini kuzatishlar bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlar berish imkoniyati tug‘iladi.

Tarbiyalanuvchi hayotiy faoliyatga intilar ekan, kattalar hurmat qiladigan kishilarni o‘ziga namuna qilib oladi, ularga taqlid qiladi. Taqlid qilishga moyillik ko‘p sabablar bilan izohlanadi. CHunonchi, tarbiyalanuvchilarning hayotiy tajribasi hali kam, barqaror hulq atvor ko‘nikmasi yo‘qligidadir. Tarbiyalanuvchilarning aktivligi taqlid xarakteriga ega. Talaba kattalar tarjibasini o‘zlashtira borar ekan, ko‘pincha o‘zi hurmat qiladigan, o‘ziga yoqtiradigan kishilarning hulq atvori obrazlarida foydalanadi, ulardan nusxa ko‘chiradi. Taqlid ularda bir muncha tanlash xarakteriga ega. Ularni boshqa kishilarning xarakteridagi ma’lum xislatlar jalb qiladi.

YOshlikdagi taqlid va ishtiyoq doirasi namunalar yordamida kengayib boradi. Taqlid qilish uchun ijobiy namunalar tanlashda axloqiy, g‘oyaviy, siyosiy omillarning ahamiyati kattadir. Tarbiyalanuvchilar va o‘smirlarning taqlid qilishga moyilligi ko‘pincha salbiy odatlarni ham o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Ba’zan tarbiyalanuvchilarni o‘quv muassasasi tartibini bo‘zuvchilar, ularning qo‘polligi soxta jasurligi jalb qiladi. Ota onalar va pedagoglar farzandiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘rtoqlari bilan aloqa qilishini ta’qiqlasa bu aksincha tarbiyalanuvchining haligi tarbiyalanuvchi bilan birga bo‘lish istagini yanada kuchaytiradi. Eng muhimi yomon ta’sirga ijobiy namunani qarama-qarshi qo‘yish, oilada va o‘quv muassasasida faoliyatni shunday tashkil etish kerakki, toki bu faoliyat unga zerikarli, mazmunsiz, majburiy bir narsa bo‘lib tuyulmasin.

Tarbiyalanuvchi boʻladigan muhitga ham imkoni boricha ijobiy taʼsir koʻrsatmogʻi zarur. Tarbiyada taqlid qilish va nusxa koʻchirish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Har bir shaxsning oʻziga xos tarzda alohida takrorlanmaydigan shaxs boʻlib uygʻonishiga erishmoq kerak. Namuna onglilikni, ijobiy faollik va mustaqillikni ragʻbatlantirib turgandagina bunga erishsa boʻladi. Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun oilada ota-ona, aka-uka, sevimli pedagog namuna boʻla olishi mumkin.

**Ragʻbatlantirish** uslubi biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga taʼsirini kuchaytirish hamda tarbiyalanuvchining shaxsini, xatti-harakatlarini aktivlashtirish maqsadida qoʻllaniladi.

Ragʻbatlantirish harakat qilishga ilhomlantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ishlarning formasi har qaysi tarbiyalanuvchining xususiyatiga qarab oʻzgaradi. Istiqbolga doir talablar tarbiyalanuvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Istiqbolni qoʻyish har xil insonning ulgʻayishi uchun ham, jamoa uchun ham muhimdir. Ragʻbatlantirish usullari orasida musobaqa katta oʻrin tutadi. Oʻquv muassasasi hayotida musobaqa ishlarini ommaviylashtirish muhimdir. Musobaqaning mohiyati qoloqlarni ilgʻorlar darajasida etkazish ishning umumiy yuksalishiga erishishdir. Musobaqa har bir talabaning imkoniyatlarini koʻra olish va baholashda olgʻa harakat qilishda, kuch etadigan istiqbolni belgilashda iroda va xarakterni tarbiyalashda yordam beradi.

Ragʻbatlantirish talabaga shunday taʼsir koʻrsatsinki, bunda tarbiyachi alohida bir talabaning xatti-harakatiga, xulq-atvoriga ijobiy baho bera olsin. Jamoa talablarining bajarilishini ragʻbatlantirishi uchun asos deb hisoblash kerak. Ragʻbatlantirish insonga yashayotgan va ishlayotgan jamoaning undan mamnunligini koʻrsatadi.

Jamoa toʻgʻri xulq–atvor koʻnikmalarini mustahkamlash va salbiy koʻnikmalariga barham berishi mumkin. Ragʻbatlantirish tarbiyalanuvchining takomillashuviga, xulq atvor va xatti–harakat bobida qanday yoʻl tutish kerakligini anglab olishga imkon beradi. Talabani qanday va nima bilan ragʻbatlantirishni pedagog bilmogʻi lozim.

Masalan, oʻquv yili oxirida yakun yasaladi va baholash nimaga asoslanishi kerak, oʻqish natijasigami, yoki talabaning oʻquv mehnatiga, munosabatigami?

Istiqbolni tasvirlash talaba faoliyatini ragʻbatlantiradi, bu narsa quvonch bilan kutish kayfiyatini oshirib, qoʻygan maqsadga erishish uchun butun kuchini sarflashga beradi.

Istiqbolni tasvirlash har bir tarbiyalanuvchining rivojlanishi uchun ham, jamoa uchun ham zarur.

**Maqtov** ragʻbatlantirish usulidir. Maqtov tarbiyachining alohida olingan shaxs xususiyatlariga ijobiy baho berishidir. Talaba tarbiyalanishida maqtovning oʻrni muhimdir. Maqtov shaxsni ijobiy xislatlarini tarkib topishga yordam beradi. Lekin maqtov ham talaba hissiyotlari rivojlanishi tezlashtirib yuboradi, unda manmanlik, xotirjamlik tuygʻularini keltirib chiqaradi.

**Jazolash usuli**

Jamoa talabaning axloqidan uning ishga munosabatidan, muomalasidan mamnun boʻlmasa, shaxsning oʻz hulqini toʻzatib olishda yordam koʻrsatish uchun jazo usullaridan foydalanadi. Maqtov singari jazo ham talabaning oʻzini noqulay sezishga, uyalishga majbur qiladi.

Tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda jazolash ham meʼyor darajasida boʻlishi shart. CHunki buning natijasida tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishning bir qator usullarini ishlab chiqilishi lozim.

**Oʻzini-oʻzi tarbiyalash usullari**

Tarbiya jarayonida talaba oʻzini-oʻzi tarbiyalashi, yaʼni oʻz ustida ishlash, aktiv ish olib borsagina tarbiyani samarali deb aytish mumkin.

Talaba oʻzini-oʻzi tarbiyalash borasida istiqbolini yaratishga intilishi, hayotda maʼlum mustaqillikka intilishda namoyon boʻladi. Oʻzini-oʻzi tarbiyalash oilada va oʻquv muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning taʼsiri ostida roʻy beradi. Oʻzini-oʻzi tarbiyalash jamoadagi shaxslarda faolroq amalga oshishi mumkinligi ularda iroda, tirishqoqlik intizomni tarbiyalaydi. Oʻzini-oʻzi tarbiyalash shaxslarning oʻz oldida muayyan vazifa qoʻya olishini, uni bajarishida ichki ishtiyoq bilan bajarish jarayonida shu vazifani bajarishi mumkinligini anglashni, nima qilganligi haqida hisobot berilishini nazorat qilishni va toʻplangan vazifalarning aniq natijalariga baho berishni oʻz ichiga oladi. Oʻzini-oʻzi tarbiyalash shaxsiy majburiyat, oʻz ishi haqida hisobotlarni tahlil qilish, oʻzini-oʻzi nazorat qilish, oʻz-oʻziga baho berish usullariga boʻlinadi.

**5. O‘zbekistonda ta’limni isloh qilish tamoyillari va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy yo‘nalishlari**

Respublikamizning istiqlolga erishuvi jamiyat hayotining barcha jabhalarida shu jumladan ta’lim-tarbiya sohasida ham o‘z aksini topdi. O‘zbek pedagogikasi tarixida burilish davri, yangilanish davri boshlandi. O‘zbekiston Respublikasidagi mustaqil huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uni intellektual-amaliy rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratib berdi. Bu o‘z navbatida insoniyat yaratgan ma’naviy–ilmiy boyliklarga, insonning o‘ziga yangicha munosabat, yondoshuvni yuzaga keltirdi.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: “Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir. Bunday yangicha yondashish albatta pedagogika fanini keyingi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Endi pedagogika fani faqat ta’lim-tarbiya jarayonini nazariy, metodik-amaliy ta’minlovchi emas, komil insonni shakllanishini, rivojlanishini ta’minlovchi keng sohalarni o‘z ichiga ola boshladi. Endilikda pedagogika fani o‘z oldiga yangicha fikrlash, yangicha tafakkur, milliy mafkuraning keng qamrovli sifatlarini shakllantirish vazifalarini qo‘ydi. SHuning uchun ham yangi ta’lim konsepsiyasi qabul qilindi va unda keyingi rivojlanishlarning barcha yo‘nalishlari qayta ko‘rib chiqildi. Ko‘p yillar davomida pedagogika siyosatga xizmat qilib kelgan va ma’lum chegaralanishlarga amal qilishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, endilikda u siyosatdan holi bo‘lgan holda erkin fan sifatida o‘z rivojlanishini davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. O‘zbek pedagogikasi o‘z milliy xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Ona tili, Vatan tarixi, geografiyasi, milliy urf-odat va an’analar e’tibordan chetda qolib, shaxslar ota-bobolar o‘tmishidan bexabar o‘qitilar edi. Respublikamizning istiqlolga erishuvi natijasida o‘zbek pedagogikasi ijodiy va milliy yo‘nalishda e’tiborli o‘zgarishlar kasb etdi. Boy milliy madaniy meros va an’analar e’tibordan chetda qolgan ilg‘or pelagogik fikrlar O‘zbek pedagogikasi o‘z o‘rnini topdi hamda o‘z vazifasini bajara boshladi. YAngi mazmunli darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar yaratishda milliy-madaniy, tarixiy adabiyotlardan, materiallardan keng foydalanila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 29 avgust qaroriga asosan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni kuchga kirdi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni ta’lim tizimini jiddiy yangilanishi, isloh qilinishiga asos bo‘ldi. Oldingi qabul qilingan qonunlardan (1930, 1949, 1958, 1973, 1984 yillar) farqli ularoq, xalq ta’limi tizimini tuzilishining quyidagi **yangi tamoyillardan** joriy etildi:

- ta’lim-tarbiyaning insonparvarligi hamda xalqchilligi;
- ta’lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;
- davlat ta’lim standartlari doirasida har bir kishiga millati, dinidan qat’iy nazar ta’lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi;
- davlat ta’lim tizimining ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta’limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustivorligi;
- tayanch (to‘qqiz sinf darajasida) ta’limning majburiyligi;
- ta’lim standartlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv bo‘lishiga asoslanganligi;
- ta’lim muassasalarida chet tillarini jiddiy o‘rganish, din tarixi, xalqimiz tarixi, madaniyati va jahon madaniyatini tarixi sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratilganligi;
- ta’lim muassasalarining turli siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarning ta’siridan holiligi;
- amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning barcha shaklida ta’lim muassasalarining teng huquqliligi;
- bilimdonlik va iste’dodni rag‘batlantirish;
- tarbiyalanuvchilar va ta’lim oluvchilarni hurmatlash;
- pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash va boshqalar.

**Ta’limni quyidagi yo‘nalishlarda isloh qilish vazifalari belgilab olindi:**

- umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asoslarini e’tiborda tutgan holda ta’lim-tarbiya mazmunini milliy mafkura, mustaqil Vatan tuyg‘usi asosida o‘zgartirish va takomillashtirish;

- ta’lim samaradorligini tinmay oshirish, jahon andozalari darajasiga olib chiqish;
- variativ o‘quv rejalari, dasturlar, darsliklar yaratish;
- bilimdonlik va iste’dodni qo‘llab-quvvatlash;
- ilg‘or tajribalarga, ijodkor ustozlar tajribasiga suyanish;
- ta’lim-tarbiyada bosh islohotchi bo‘lgan pedagog, tarbiyachilarpning yangi avlodni tayyorlashga kirishish;
- ta’lim muassasalarining moddiy-texnika asosini mutahkamlash, ta’limni kompyuterlashtirish, o‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirish;
- ta’lim tizimini, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- isloh g‘oyalarini iloji boricha viloyat, tuman, o‘quv muassasasi pedagogik jamoalariga tezroq etkazish, singdirish, amalga oshirish:

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qaerda ta’lim va tarbiyaga e’tibor katta bo‘lsa, o‘sha erda taraqqiyot, yuksalish bor. SHuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta’limni qay darajada amalga oshirilishiga bog‘liq.

**Uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish tamoyillari quyida gilardan iborat:**

- **ta’limning ustuvorligi** - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta’lim va yuksak intellektning nufo‘zi:
- **ta’limning demokratlashuvi** - ta’lim va tarbiya uslublarining tanlanishida o‘quv yurtlarining mustaqilligini kengayishi, ta’limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o‘tilishi;
- **ta’limning insonparvarligi** - inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga nisbatan bo‘lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi;
- **ta’limning ijtimoiylashuvi** - ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlarni shakllantirish ;
- **ta’limning milliy yo‘naltirilganligi** - ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotining o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;
- **ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi,** bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi;
- **iqtidorli yoshlarni aniqlash,** ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.
- **Uzluksiz ta’limni isloh qilish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:**
- ta’lim tizimining kadrlar saloùiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, pedagog, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufo‘zini oshirish;
- davlat va nodavlat ta’lim muasassalarining har xil turlarini rivojlantirish;
- ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta kurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim va kasb-hunar ta’limi dasturlarini tubdan o‘zgartirish;
- -majburiy umumiy o‘rta ta’limdan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga o‘tilishini ta’minlash;
- maxsus, kasb-hunar ta’limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o‘quv muassasalarini vujudga keltirish;
- ilg‘or texnologiyalarni keng o‘zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, chet el investitsiyalari ko‘lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish bilan bog‘liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- milliy mustaqillik tamoyillarini va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustivorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;
- ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta’lim muassasalarini mintaqalashtirish;

- ta’lim olishda, shuningdek talabalarni ma’naviy axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;
- ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;
- ta’lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnik va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta’minlash mexanizmlarini shakllantirish;
- uzluksiz ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta’lim va ilm-fan bilan bog‘liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;
- tub erli millatga mansub bo‘lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o‘z ona tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;
- ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta’lim dasturlarning izchilligi asosida ta’minlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xosligi mustaqil ravishda to‘qqiz yillik umumiy o‘rta hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga izchil o‘tilishni ta’minlaydi.

Umumiy ta’lim uzluksiz davlat ta’limi tizimida asosiy bo‘g‘in bo‘lib, ta’lim oluvchilarning ilmiy bilimlar olishini, mehnat ta’limi, boshlang‘ich kasb ko‘nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallashlarini, shuningdek o‘z ijodiy qobiliyatlari va ma’naviy fazilatlarini rivojlantirishlarini ta’minlaydi.

Ta’lim haqidagi davlat siyosatining asosiy mohiyati tayanch ta’limining (to‘qqiz yillik) majburiyligidir.

O‘rta maxsus ta’lim (akademik litsey, kasb-hunar kollejlari) uch yillik.

Oliy ta’lim: Birinchi bosqich - bakalavriat;

Ikkinchi bosqich - magistratura.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim: Aspirantura, doktarantura, tadqiqotchi kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash tarmog‘i.

Ta’limning davlat standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, u boshlang‘ich va tayanch o‘quv muassasasilarda 1995-1996 o‘quv yillargacha, So‘ngra oliygohlar uchun standartlar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

**«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy yo‘nalishlari**

O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 1997 yil 29 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarori bilan tasdiqlangan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan holda yuksak umumiy va kasbkor madaniyatiga, ijodiy hamda ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda muljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarni yangi avlodni shakllantirishga yo‘naltirilgandir. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmuni qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi. YAngi o‘quv rejalari, dasturlarni, darsliklarni joriy etishni, zamonaviy didaktik ta’limotni ishlab chiqishni, o‘quv yurtlarni attestatsiyadan o‘tkazishni va akreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta’lim muassasalarni tashkil etishni taqozo etdi.

YAngi tipdagi o‘quv muassasasilar va umumta’lim o‘quv yurtlari tarmog‘i rivojlana boshladi. Hozirgi kunda 238 ta litsey va 136 ta gimnaziya ishlab turibdi. “Iqtisodiy ta’lim”, “Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarni tiklash” va boshqa tarmoq dasturlari ro‘yobga chiqarilmoqda. Respublika umumta’lim o‘quv muassasasilarida 435 mingdan ortiq pedagog ishlamokda, ularning 73% oliy ma’lumotlidir.

Mehnat bozorini shakllantirishning xududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta’limini qayta tashkil etishga kirishildi. Hozirgi kunda bu tizimda jami 221 ming kishini ta’lim bilan qamrab olgan 442 ta o‘quv yurti, shu jumladan, 209 ta kasb-hunar o‘quv muassasasi, 180 ta kasb-hunar litseyi va 53 ta biznes-maktablari ishlab turibdi. Bugungi kunda boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi o‘quv yurtlarida kariyib 20 ming pedagog va malakali mutaxassislar ishlamoqda.

Respublikada jami 197 ming kishi ta’lim olayotgan 258 ta o‘rta kasb-hunar ta’limi o‘quv yurti ishlab turibdi. Ularda qariyib 16 ming pedagog va muhandis-pedagog xodimlar mehnat qilmoqda.

O‘zbekiston oliy o‘quv muassasasi tizimi 58 ta oliy o‘quv yurtini, shu jumladan 16 ta universitet va 42 ta institutni o‘z ichiga oladi. Ularda 164 ming talaba ta’lim olmoqda. 16 ta universitetning o‘n ikkitasi O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy ta’limni ko‘p bosqichli tizimga o‘tkazish amalga oshirildi.

**Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat:**

- Respublikaning demokratik huqukiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganligi;
- mamlakat iqtisodiyotida tub o‘zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo‘nalishdagi raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo‘liga izchil o‘tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatini kengayayottganligi;
- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs madaniyati va ta’lim ustivorligi qaror topganligi;
- milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi, vatanparvarlik, o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usining shakllanayotganligi, boy milliy-tarixiy an’analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;
- O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro‘sining mustahkamlanib borayotganligi.

**Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqarilishi ham ko‘zda tutilgan:**

- **Birinchi bosqich-(1997-2001 yillar)**-mavjud kadrlar tayyorlash tizimini ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy jihatdan, ilmiy-uslubiy, moddiy shart sharoitlar yaratish.
- **Ikkinchi bosqich-(2001-2005 yillar)** - Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.
- **Uchinchi bosqich-(2005 va undan keyingi yillar)**-to‘plangan tajriba tahlil qilinishi va umumlashtirilishi asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

O‘tkaziladigan islohotlar, samarali tajribalar respublikada ta’limning davlat standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish davr talabi ekanligi, bu ishni kechiktirmay amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

Ta’lim standartlari vositasida talabadagi ma’lumot darajasi muvozanati saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyoti istiqbollari muvofiqligi ta’minlanadi. Davlat ta’lim standartlari o‘quv jarayonini qat’iy chegaralangan qolipga solib qo‘ymaydi, balki aksincha pedagogik ijodkorlikka, ta’lim mazmunining yagona negizi atrofida turli-tuman tabaqalashtirilgan dasturlar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘qitish uslubiyatlariga katta yo‘l ochadi.

Davlatimiz rahbari uzluksiz ta’limni tashkil etishda uning jahon talablari darajasida bo‘lishi hamda u yuksak ma’naviyat zaminida qurilishiga katta ahamiyat berish kerakligini ta’kidlar ekan, davlat ta’lim standartlarini joriy etish va uning mexanizmini ishlab chiqish naqadar muhimligiga e’tiborni qaratadi.

**Standart** - ta’limda yaratilgan me’yoriy reja, dastur, darsliklarni o‘zlashtirish ekvivalenti, ya’ni ta’lim mazmunini o‘zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda talabani xaddan tashqari zeriktirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya’ni u talaba yoshiga mos, uni bajarishga qurbi etadigan darajada bo‘lishi kerak. Bunda albatta, ta’lim oluvchini qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim.

Davlat va jamiyat ta’lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo‘yayotgan ekan, o‘sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan qadr egallashi lozim bo‘lgan ijtimoiy sifatlarning minimal chegarasini ham ko‘rsatib berish tabiiydir. Ta’lim oluvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka yohud ma’naviy sifatlarning eng quyi miqdoridagi ilmiy asoslarda malaka yohud ma’naviy sifatlarning eng quyi miqdoridagi ilmiy asoslarda berilgan rasmiy pedagogik hujjat-davlat ta’lim standarti hisoblanadi. Demak davlat ta’lim standartlari nazorat vositasi, ayni vaqtda ta’lim muassasalarida ko‘zlangan ko‘rsatkichlarni qo‘lga kiritish uchun zarur bo‘lgan sharoitni belgilash o‘lchovi hamdir. Davlat ta’lim standartlarining ko‘rsatkichlari amaldagi mavjud ta’lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan talabaga singdirilishi lozim bo‘lgan sifatlarning jahon bo‘yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta’lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta’kidlab ko‘rsatish mumkin.

5. Talabalarga beriladigan ta’lim mazmunining majburiy minimumlarini belgilash.
6. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar majmuasini belgilash, bilim, ko‘nikma va malakalarning minimal miqdorini belgilash.

1999 yil 16 avgust Vazirlar Mahkamasi o‘zining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risdia”gi 390-sonli qarori bilan sinovdan o‘tkazilgan va takomillashtirilgan umumiy o‘rta ta’limning davlat standartlarini tasdiqladi. Mazkur standartlar asosida yaratilgan va tajriba sinov asosida takomillashtirilgan yangi o‘quv dasturlari Xalq ta’limi vazirligi hay’at majlisining 1999 yil 18 avgustdagi 13-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Davlat ta’lim standartlari yangi o‘quv dasturlari bilan birgalikda 1999-2000 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim o‘quv muassasasilarida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Ta’lim nazariyasi ta’lim jarayonini qonun va qoidalarini o‘rganuvchi pedagogikaning asosiy qismlaridan biri. Ta’lim jarayonining asosiy mohiyati tarixan to‘plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga etkazish, yoshlarni bilimlar bilan qurollantirish, kerakli malakalar va ko‘nikmalarni xosil qilish. Talabalarning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatini va iste’dodlarini ochish hamda rivojlantirish, ularni ma’naviy etuk va tarbiyali shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashdir.

**Tayanch iboralar:**

Didaktika, ta’lim, o‘qish, o‘qitish, mustaqil, kuzatish, tushuntirish, metod, induktiv, produktiv, evristik, tamoyil, ko‘rgazmali, fanlalararo bog‘liqlik, hayot bilan bog‘liqlik, o‘z ustida ishlash, uzluksiz ta’lim

**Nazorat savollari**

1. Ta’limning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ta’limning qanday xususiyatlarini bilasiz?
3. Didaktikaning asosiy tushunchalarini sanab bering?
4. Ta’lim va tarbiya tamoyillarini aytib bering?
5. Mustaqil O‘zbekistonda ta’limni isloh qilishning qanday asosiy yo‘nalishlarini bilasiz?
6. Ta’lim va tarbiya tamoyillarini izohlang.
7. Ta’lim va tarbiyaning birligi deganda nimani tushunasiz?
8. Ta’lim-tarbiya metodlarini izohlab bering?.
9. Darsning samaradorligi qanday omillarga bog‘liq?
10. Dasturlashtirilgan ta’limga izoh bering.
11. Bilim olish darajalarini izohlang.
12. Tarbiya metodlariga misol keltirig?
13. Ishonch bildirish metodi deganda nimani tushunasiz?
14. Siz qaysi metoddan ko‘proq foydalangan bo‘lar edingiz, misol keltiring?

**Asosiy adabiyotlar**

1. ”O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risi”dagi qonuni Toshkent. 1997 yil.

2. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi (darslik). –T.: Fan va texnologiya, 2008. –288 b.
3. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. “Pedagogika” Toshkent. TDIU, 2005 yil.

4. Sarsenbaeva R.M., Doniev B.B. Umumiy pedagogika. /O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.
5. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.

6. Podlasыy I. P. Pedagogika. Moskva ,2003.

7. Xo‘jaev N. va boshqalar. “Pedagogika asoslari”. Toshkent.,TDIU 2003.

8. www.bilimdon.uz. – O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining veb sayti.
9. www.tgeu.uz – TDIU veb sayti.
10. www.tatu.uz – TATU veb sayti.
11. www.de.uz – Masofaviy ta’lim tizimiga bag‘ishlangan veb sayt
12. www.inter – pedagogika.ru.
13. www.search.re.uz – O‘zbekistonning axborotlarini izlab topish tizimi.

## 4-Mavzu: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

**Reja:**

1. **Pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning dolzarbligi**
2. **Pedagogik texnologiya predmeti**
3. **Texnologiya va tizim tushunchalari**
4. **Pedagogik texnologiya nazariyasininig shakllanish bosqichlari**
5. **Faol o‘qitish metodlarini tanlash. An’anaviy va noan’anaviy metodlar**
6. **“Aqliy hujum” metodi**
7. **“Davra suhbati” metodi**

### 1. Pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning dolzarbligi

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri «shaxs manfaati va ta’lim ustvorligi»dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta’limning yangi modeli yaratildi.

Mamlakatimiz prezidenti I. Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yuz beradigan o‘zgarishlar ro‘y-rost oldindan ko‘rsatib berildi. Jumladan:

Ijtimoiy-iqtisodiy iqlimga ijobiy ta’sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o‘zgaradi;

Insonnn hayotda o‘z o‘rnini topish jarayoni tezlashadi;

Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;

Jamiyatimizning potensial kuchlarini ruyobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;

Fuqarolik jamiyati qurishni ta’minlaydi.

YUqorida keltirilgan fikrlarni amalga oshirishni ta’minlash mAqsadida hukumatimiz tomonidan qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p kara takrorlanadi.

Hozirgi kunda pedagogik adabiyotlar, ta’lim muammolariga oid ma’ruzalar, rasmiy hujjatlarda «YAngi pedagogik texnologiya», «Ilg‘or pedagogik texnologiya», «Progressiv

pedagogik texnologiya» «Zamonaviy ta’lim texnologiyasi» iboralari keng qo‘llanilmoqda. Ammo «Pedagogik texnologiya» tushunchasi hali bir qolipga tushirilmagan, ensiklopediyalarda izohlanganicha yo‘q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko‘pgina tariflari mavjud.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O‘zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta’lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llashga intilmoqdalar. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg‘or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi;
- an’anaviy o‘qitish tizimi yozma va og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rishi tufayli «axborotli o‘qitish» sifatida tavsiflanib, o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi.

Pedagogik texnologiyasi yuqorida sanab o‘tilgan shartlarni barcha talablariga javob beradigan pedagogikiy tadbirdir.

Pedagogikni texnologiyalashtirishning asosini, pedagogik jarayonini, uning samaradorligini oshirish va pedagogik oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o‘quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to‘liq boshqarish g‘oyasi tashkil etadi.

Bunday yondoshishning mohiyati, pedagogik jarayonini tizimlashtirishdan - uni, aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo‘yicha aniq elementlarga bo‘lib tashlash yordamida maksimal shakllashtirishdan iborat.

2. P**edagogik texnologiyaning predmeti** - pedagogik tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo‘yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o‘quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, pedagogik modelini tanlashdan, to ularni amalga oshirishgacha, ularning muqobillik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topadi.

Pedagogika fani va amaliyotida, «pedagogik texnologiya», «pedagogik texnologiyasi», «o‘qitish texnologiyasi» kabi atamalardan keng foydalanilmoqda.

**7. Texnologiyasi va tizim tushunchalari**

Dastlab **«texnologiya»** tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan – **«texnos»** (**techne)-** mahorat, san’at va **«logos»** (**logos)** – fan, pedagogikot so‘zlaridan tashkil topgan. Bu ifoda zamonaviy texnologiya jarayonini to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi.

**8. «Pedagogik texnologiya» nazariyasininig shakllanish bosqichlari**

| N | Bosqichlar | Yillar | Pedagogik texnologiya |
|---|---|---|---|
| 1. | I- bosqich | XX asrning 30 yillari | TT Pedagogik texnika-o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisidir. |
| 2. | II- bosqich | XX asrning 50 yillari | TT PTQpedagogik jarayonida texnik vositalarni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig‘imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, o‘quvchi faoliyatini individuallashtirish |
| 3. | III- bosqich | XX asrning 60-80 yillari | TT Pt TV dasturiy pedagogik. Dasturiy pedagogik-tarbiya maqsadlarini aniqlanishi, pedagogik jarayonini umumiy loyihalash, o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashxislash, pedagogik maqsadining natijalanganligini o‘rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish |
| 4. | IV-bosqich | Mustaqillik yillari | Pedagogikni texnologiyalashtirishning asosini, pedagogik jarayonini, uning samaradorligini oshirish |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | va pedagogik oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o‘quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to‘liq boshqarish g‘oyasi tashkil etadi |

V.P.Bespalkoning o‘zbekistonlik shogirdlaridan N.Sayidaxmedov va A.Ochilovlarning fikricha, pedagogik texnologiya-bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayonidir.

O‘zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta’rif beradi: «Pedagogik texnologiya- pedagogik jarayoniga yangicha yondoshuv bo‘lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir».

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiyaga berilgan boshqa ta’riflar ham keltiriladi, bizningcha, eng maqbuli YUNESKO ta’rifidir.

**«Pedagogik texnologiya – o‘z oldiga pedagogik shakllarini muqobillashtirish vazifasini qo‘yuvchi, texnik hamda shaxs resurslari va ularning o‘zaro faoliyatini hisobga olib, pedagogik berish va tahsil olish jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir».**

«**Pedagogik texnologiyasi**» – pedagogik modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir»

**Pedagogik texnologiya elementlari**

Pedagogik texnologiyalari quyidagi elementlar majmuasidan tashkil topgan: pedagogik beruvchi, pedagogik oluvchi, pedagogik maqsadi va kutilayotgan natija, pedagogik mazmuni, pedagogik metodlari, pedagogik shakllari, pedagogik vositalari, natijalarni baholash va tahlil etish. Ushbu elementlar ma’lum bir ketma-ketlikda joylashgan, mantiqqan o‘zaro uzviy bog‘langan va birgalikda pedagogik-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va uni sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Pedagogik texnologiyalarda** tahsil oluvchi shaxsi pedagogik jarayoni markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Bizga ma’lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O‘zbekiston Respublikasidagi pedagogik tizimining milliy modeliga alohida e’tibor qaratilgan. Bu model besh tarkibiy qismdan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz pedagogik, fan, ishlab chiqarish. Bu erda pedagogik milliy modelining asosiy tarkibiy qismi «**shaxs**» birinchi o‘rinda turadi. Boshqacha qilib aytganda butun pedagogik tizimi, shu jumladan o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

SHuning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan pedagogik jarayoni, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

SHaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- Pedagogik jarayonida shaxs ob’ekt emas, sub’ekt hisoblanadi;
- har bir tahsil oluvchi qobiliyat egasi, ko‘pchilik esa iste’dod egasi hisoblanadi;
- yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarda demokratlashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tahsil oluvchi va pedagogik beruvchi huquqlarini tenglashtirish:
- tahsil oluvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo‘l qo‘yish huquqi;
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi;
- tahsil oluvchi va pedagogik beruvchi munosabati zayli: ta’qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

YAngi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va noinsoniy hisoblanadigan zo‘ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir.

**Pedagogik texnologiyaning an’anaviy ta’limdan afzalligi**, u pedagogik jarayonini bir butunlikda ko‘rib, pedagogik maqsadi, kutiladigan natijalari, uning mazmuni, pedagogik metodlari, shakllari va vositalari, hamda tahsil oluvchi va pedagogik beruvchilarning faoliyatlarini tizimga keltirib, pedagogik bosqichlarini loyihalab, pedagogik jarayonini nazorat qilish va pedagogik natijalarini baholash kabi elementlarini o‘zaro uzviy bog‘lab tizimga keltirib turib uning loyihasini tuzishidadir.

Pedagogik texnologiyasining an’anaviy pedagogikdan keyingi farqi, u tahsil oluvchilarning o‘zlariga berilgan bilimni yodlab olib aytib berishiga emas, balki pedagogik va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarni bajarishiga yo‘naltirilganligidadir.

Pedagogik texnologiya asosan o‘z ichiga quyidagi omillarni oladi:

-pedagogikda umumiy maqsadning qo‘yilishi;

-tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o‘tish;

-nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish;

-o‘quvchilarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;

-bajariladigan o‘quv tadbirlari majmuasi (bu bosqichda o‘quvchilar bilan muloqot asosida pedagogikga joriy tuzatishlar kiritilishi lozim); natijani baholash.

Kasb-hunar kollejlarida ma’lum o‘quv predmetining biror bo‘limini yoki mavzusini pedagogik texnologiya asosida loyihalashtirayotganda, avvalo pedagogik mazmuniga e’tibor berilishi lozim bo‘ladi: ushbu predmet bo‘yicha pedagogik mazmunini o‘z ichiga olgan darsliklarning va o‘quv qo‘llanmalarning mazmuni, ma’lumotnomalar va boshqa axborot manbalari o‘quv axborotlarining mazmuni bo‘lib xizmat qiladi.

## 9. Faol o‘qitish metodlarini tanlash

Jamiyatimizning har bir fuqarosi XXI asr bo‘sag‘asida turar ekanmiz, ortda qolgan yillar qadrini baholashga va kelajak hayotining turli jabhalarini belgilab olishga urinishi tabiydir. Jumladan, o‘rta maxsus, kasb-hunar pedagogiki sohasida faoliyat ko‘rsatayotganlar ham bundan mustasno emas.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov pedagogik tushunchasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib quyidagicha ta’riflaydi: «Pedagogik O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O‘sib kelayotgan avlodnin barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kor, mahorati uzluksiz takomillashadi., katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi. Va yosh avlodga o‘tadi».Ta’kidlangan maqsadni amalga oshirish uchun pedagogikning yangi modelini yaratishni taqazo qiladi. Modelni amaliyotga tadbiq etish o‘quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uziy bog‘liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «o‘quv-tarbiyaviy jarayonini yangi pedagogik texnologiyalari balan ta’minlash» uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Bugungi kunda **pedagogik** texnologiyalarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

- **An’anaviy**
- **Noan’anaviy**

**An’anaviy pedagogik texnologiya**– muayyan muddatga mo‘ljallangan, pedagogik jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, o‘qitishning an’anaviy shakli, metodi va pedagogik vositalarining majmuidan foydalanib pedagogik-tarbiya mAqsadiga erishishdir.

**Noan’anaviy pedagogik texnologiya**-muayyan muddatga mo‘ljallangan, pedagogik jarayoni markazida o‘quvchi shaxsi bo‘lib, o‘qitishning zamonaviy shakli, faol o‘qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini pedagogik-tarbiya ishidan ko‘zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltirishdir.

Noan’anaviy pedagogik texnologiyasi an’anaviy pedagogik texnologiyasidan farq qilib, o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e’tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy xarakterga ega bo‘ladi. Dars tuzilmasi o‘zgaruvchan bo‘ladi.

**Noan’anaviy** pedagogik texnologiyasini o‘z navbatida uchga bo‘linadi***:***

- **Hamkorlikda o‘rganish**
- **Modellashtirish**
- **Tadqiqot( Loyiha)**

**Hamkorlikda o‘rganish** - *o*‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo‘yicha reproduktiv faoliyatini ta’minlovchi, mahorat va malakani ketma-ketlik bo‘yicha o‘quvchining bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o‘qitish va bilim olishdir. U  o‘quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga pedagogik olishini ko‘zda tutadigan metodlardan iborat. Bularga kitob bilan ishlash, o‘quv suhbati, davra suhbati, aqliy hujum,  kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi metodlarni kiritish mumkin**.**

**Modellashtirish**–real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko‘rinishini sinfxonada yaratish va ularda o‘quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga pedagogik olishini ko‘zda tutadi. Uning asosiy maqsadi o‘quvchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta’minlash orqali pedagogik jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan.

**Tadqiqot–** o‘quvchilar tomonidan muammoni tushunish va echish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar yig‘indisidan iboratdir. Tadqiqotning maqsadi dars jarayonida o‘quvchilarda savol qo‘yish va ularga javob izlashida qiziqishini uyg‘otishga qaratilgandir. Unda o‘qitish o‘quvchilarni amaliy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini ta’minlaydi.   Bularga muammoli vaziyat, loyihalash metodi, mustaqil izlanish, yo‘naltiruvchi matn kabi metodlar kiradi

Quyida pedagogik texnologiyalarga oid ayrim metodlarga to‘xtalib o‘tamiz.

## *10.* «AQLIY HUJUM» metodi

**Aqliy hujum** -g‘oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni echishda o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga o‘quvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. O‘quvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga o‘quvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir.   Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

Aqliy hujum metodidan foydalanilganda o‘quvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan o‘quvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O‘quvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi o‘quvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**«Aqliy hujum» metodining tarkibiy tuzilmasi**

**Муаммоли савол берилади**

**Фикр ва ғоялар билдирилади**

**Фикр ва ғоялар тыпланади**

**«Aqliy hujum» metodining bosqichlari:**

«Aqliy hujum» metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

**Фикр ва ғоялар гурущланади**

1. O‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda – yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum» metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Bildirilgan fikr-g‘oyalarni to‘ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

**«Aqliy hujum» metodining afzallik tomonlari:**

- natijalar baholanmasligi o‘quvchilarni turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- o‘quvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- o‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- o‘quvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otish mumkin.

**«Aqliy hujum» metodining kamchilik tomonlari:**

- o‘qituvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- o‘qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

1. O‘quvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. O‘quvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. O‘quvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. YUqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

**7. «DAVRA SUHBATI» metodi**

**Davra suhbati-** o‘quvchilar o‘rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

«Davra suhbati» metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o‘quvchining bir-biri bilan «ko‘z aloqasi»ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va o‘quvchilardan ushbu mavzu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir o‘quvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan o‘quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

YOzma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o‘quvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir o‘quvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi. Konvertni olgan o‘quvchi o‘z javobini qog‘ozga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. YAkuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

**Davra suhbati metodining afzalliklari:**

- o‘tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha o‘quvchilar o‘zaro muloqotda bo‘ladilar;
- har bir o‘quvchi o‘zining ishtirok etish mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

**Davra suhbati metodining kamchiliklari:**

- ko'p vaqt talab etiladi;
- o'qituvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- o'quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

**Davra suhbati metodini olib borish bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. O'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Aylana stol bo'ylab konvertlarning harakatlanishini sxema orqali ko'rsatib beradi va javoblar yozish uchun ajratilgan vaqtni belgilab beradi.
4. O'quvchi konvert ustiga savolini yozadi va yonidagi o'quvchiga uzatadi.
5. Konvertni olgan o'quvchi qog'ozga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi o'quvchiga uzatadi.
6. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar.

**Tayanch iboralar**

Pedagogika, texnologiya, pedagogik texnologiya, o'quv jarayoni, metod, an'anaviy, noan'anaviy, an'anaviy pedagogik texnologiya, noan'anaviy pedagogik texnologiya, hamkorlik, modellashtirish, tadqiqot (loyiha), aqliy hujum, davra suhbati

**Nazorat uchun savollar**

1. Pedagogik texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etishning dolzarbligi nimada deb o'ylaysiz?
2. PEDAGOGIK texnologiyasining predmetini ayting
3. Texnologiyasi va tizim tushunchalarini bilasizmi?
4. «Pedagogik texnologiya» nazariyasininig shakllanish bosqichlarini ayting
5. Pedagogik texnologiyasi elementlarini ayting
6. An'anaviy pedagogik texnologiyani bilasizmi
7. Noan'anaviy pedagogik texnologiyani bilasizmi
8. Faol o'qitish metodlarini tanlashni bilasizmi
9. «Aqliy hujum» metodini ayting
10. «Davra suhbati» metodini ayting

**Asosiy adabiyotlar**


1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O'zbekiston, 1997.
2. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2011 yil.
3. Rashidov H.F. va boshqalar. "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi. /O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
4. Sarsenbaeva R.M., Doniev B.B. Umumiy pedagogika. /O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.
5. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
6. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 608 bet.

www.bilimdon.uz. – O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus pedagogik vazirligining veb sayti.

www.tgeu.uz – TDIU veb sayti.


## 5-mavzu: PEDAGOGIK MULOQOT

**REJA:**

1. **Muloqot – pedagogik tarbiya vositasi sifatida**

2. **Muloqot yohud muomala madaniyati haqida tushuncha**
3. **Tarbiyalanuvchilarda shaxslararo insonparvar-axloqiy muloqotni tarbiyalash**
4. **O‘qituvchi-pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik muomala madaniyati**
5. **Pedagogik muomala testi**
6. **Pedagogik muloqot – bo‘lajak yuksak malakali mutaxassis shaxsini shakllantirish sharti sifatida**

**1. Muloqot – pedagogik tarbiya vositasi sifatida.** Muloqot (arabcha so‘z bo‘lib- “uchrashish, ko‘rishish; qabul qilish ma’nosini anglatadi”) insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va fikr almashuv shaklining bir turi[1].

SHunday ekan, inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta’lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me’yorlar, g‘oya va mafkura omillari ta’sirida yashab ijtimoiylashadi va barkamol shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Tarixiy tajriba va amaliy faoliyat shundan dalolat beradiki, insonni jamiyatdan va shaxslararo bo‘ladigan o‘zaro muloqotidan ajratib qo‘yish uning shaxs sifatida shakllanishiga imkon beradigan ijtimoiy sifat, xususiyat hamda fazilatlardan mahrum bo‘lishiga olib keladi. CHunki muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy-ma’naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini aks ettiradi. “Hech kimga sir emaski, deb yozgan edi polyak psixologi E.Meliburd,- shaxslararo munosabat biz uchun nafas olayotgan havodek zarurdir”.

Bu xususda fransuz yozuvchisi Antuan de –Sent Ekzyuperining “YAgona haqiqiy boylik bu insonlar orasidagi munosabat va muloqot boyligidir” degan fikrlari diqqatga sazovordir.

SHu o‘rinda tarixga bir nazar solib, buyuk yunon mutafakkiri Aristotel (Arastu)ning muloqot madaniyatiga doir ibratli sifatlarini esga olsak yomon bo‘lmaydi. U Afinada maktab- Likey tashkil etib, bu maktabni 13 yil boshqargan.

Aristotelning maktabi Likeydagi ta’lim uslubi va o‘quv texnologiyasi haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, ta’lim jarayonida ko‘p sonli tinglovchilar orasida o‘zaro tenglik, bahs-munozara, erkin fikr, o‘zaro hurmat hukm surgan. YA’ni muloqot madaniyati, muomala madaniyati, bahs-munozara yuritish madaniyati, muzokara madaniyati, nihoyatda kuchli, nafis, ehtirosli bo‘lganligidan darak beradi.

SHu ma’noda muloqot va muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyatidir. CHunki nutq va unda ifodalangan so‘z ohangi kishiga ta’sir etuvchi qudratli psixologik (ruhiy) kuchga ega, u nafaqat so‘zning mazmuni, balki so‘zlovchining aytayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham uning ta’sir darajasi va qudrati yanada ortishi mumkin. Masalan “Salom” so‘zining turli ohangda ifodalanishining 10 dan ziyod shakli, ya’ni ma’nosi bor:

1. Salom! – “Keling” degan ma’noda.
2. Salom! – “Xo‘sh, xizmat” degan ma’noda.
3. Salom! – “YAna keldingmi?” degan ma’noda.
4. Salo-o-m! – “Juda vaqtida kelding” degan ma’noda.
5. Salom?! – “Men sizni tanimayapman” degan ma’noda.
6. Salom!!! – “Gap tamom” degan ma’noda.
7. Salom! – “Ha, ishing tushdimi!” degan ma’noda.
8. Salom! – “Bir pas kutib turing” degan ma’noda.
9. Salom! – “Vaqtim yo‘q, ketaver!” degan ma’noda.
10. Salom! – “Mana ishim bitdi, gapir endi” degan ma’noda va hokazolar.

SHuningdek, “Ha” so‘zini ifodalashning 50 dan ortiq shakli bor bo‘lsa, “yo‘q” so‘zini aytishning ham xuddi shunday ohangdagi ma’nosi mavjud, ammo bir, ya’ni bu so‘zni yozishning faqat bir uslubi bor”[1].

Bu fikrning zamirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik qochirim yashiringan. Zotan, kishilar muloqotining asosida so‘z-fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir kishining saviyasi, ma’naviy dunyosi hamda madaniyatiga bog‘liq. Falsafa, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarda keng qo‘llaniladigan miqdor, sifat, me’yor tushunchalari insoniy muloqot madaniyati uchun ham to‘la muofiq keladi, binobarin , muomalada ham me’yorni bilish zarur.

Muhimi shundaki, muloqot jarayonida kishilar o‘rtasida fikriy mushtaraklik, o‘zaro ta’sir hamda axborot almashinuvi yuzaga kelishi bilan birga, ular ijtimoiy ma’noda bir-biriga tarbiyaviy

---

11 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том, Москва, «Рус тили» нашриёти, 1981, 636-бет.

11 М.Назаров. Мулоқот маданияти ҳақида. «Мулоқот», 2000 йил 6-сон, 23-бет.

ta’sir ham o‘tkazadilar. Lekin inson tabiatining shunday murakkb qirralari borki, uni mukammal bilish va o‘zlashtirib olish mumkin emas. Buyuk mutafakkir Ahmad Donish ta’biri bilan aytganda. Olamdagi jonli narsalarda hayvoniy va shaytoniy sifatlar bor. Bu quvvatlar birlashtirilib «*hosil bo‘lgan hamirdan bir jonli narsa yaratilib, uning otini inson deb aytganlar, haqiqatdan, – deb davom etadi mutafakkir- inson ulug‘ olamdir»*[1]. Insonning fazilatlari hamda nuqsoni haqida u shunday yozadi: *«Agar sen tafakkur daryosiga cho‘msang, etti osmonni xayoling qutichasiga joylaysan: agar qahri g‘azabing kelsa, yo‘lbarsni mushukdek ham ko‘rmaysan, agar mehribonliging tutar ekan, bechora chumolini kipriging ustida saqlaysan; agar sahiyliging jilva qilsa, kiygan to‘ningni muhtojga berib, o‘zing yalang‘och qolasan; agar baxilliging tutsa, qumursqa og‘zidagi donni talashasan»*[2].

**2. Muloqot yohud muomala madaniyati haqida tushuncha. Muomala madaniyati.** Kundalik faoliyatimizda kishilar bilan bo‘lgan muloqot, suhbat hamda muzokaralarda haqiqatni anglatadiga yagona tushuncha bu mantiqiylik deb hisoblanib, barcha xatti-harakatlarimizni mantiqiylik va mantiqsizlik degan tushuncha bilan baholashga o‘rganib qolgan edik.

SHu o‘rinda ibratli bir rivoyatni eslash o‘rinli: «Iskandardan so‘rabdilar: «Ozgina sarmoya va oz sonli askar bilan bunday ko‘p mamlakatni qanday hislat bilan qo‘lga kiritding?» Iskandar: «Lutf va yumshoq muomala bilan dushmanlarni qo‘lga kiritim. Ahd-paymon yo‘li bilan do‘stlarni yo‘lga soldim, shu jihatdan ko‘p mamlakatni egalladim», deb javob berdi.

Mustaqillik davriga kelib esa pedagoglar va psixologlarning konsepsiyasi asosida muloqot madaniyaining o‘ziga xos tomoniga daxldor bu tasavvurlar o‘zgarib ketdi. Ularning ko‘rsatishicha, insonning xulq madaniyati ikki kuch-tafakkur va hissiyot, aql va qalb o‘rtasidagi musobaqa natijasi emas, balki, bu ikki kuchning qo‘shilishi hamda unga ta’sir qiluvchi tajriba (jismoniy va madaniy) muhit kabi ko‘plab omillar asosida shakllanadi.

Zero, kishilarning bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarida shirinsuxanlik, go‘zallik, so‘zlashuv ohangidagi muloyimlik “Muosharat odobi” deyiladi. Mushorat odobi, ya’ni ilk muomala madaniyati bolaning go‘dakligida ota-ona bag‘rida, oilada shakllanadi. SHu bois ham xalqimiz “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deb bejiz aytmagan. Bola ta’lim muassasasida, ulg‘aygach esa, ijtimoiy muhitda va jamoada ko‘nikma hosil qilish jarayonida oilasida o‘rgangan muosharat odobining kuch-qudratida yosh avlodda muosharat odobini, ya’ni muomala madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchi-pedagogning o‘zi xushmuomalaligini namoish etib, o‘quvchi-talabalar qalbiga va yo‘l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikr bo‘lib, o‘rnak bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir.

Muomala va munosabatda o‘quvchi-talabalar qalbiga yo‘l topaolgan, xushfe’l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi yaxshi, tili shirin o‘qituvchi-pedagog va tarbiyachilarni dildan yoqtirishadi va hurmat-e’tibor qilishadi, ulardan ibrat ham olishadi.

SHunday ekan, insonning tili shirin, muomala madaniyati yuksak ega bo‘lsa u qisqa vaqt ichida xalq orasida katta obro‘-e’tibor topadi.

1-rasm

**МУОМАЛА МАДАНИЯТИ**

Ҳамкорлик фаолиятининг эҳтиёжидан вужудга келиб чиқувчи, шахслараро мулоқот ривожланишининг кўп қиррали жараёнидир. Муомала маданияти қуйидаги таркибий қисмлардан ташкил топади:

---

11 Аҳмад Дониш. Наводирул вақое. – Т.: «Фан», 1964, 325-бет.

22 Ўша жойда, 325-326-бетлар.

| | |
|---|---|
| **Коммуникатив** | **Бир томонлама ахборот узатиш**<br>Муомала ўз ичига ҳамкорлик фолиятининг қатнашчилари билан ўзаро ахборот алмашинувни қамраб олган бўлиб, коммуникатив жабҳа сифатида тавсифланиши мумкин. Шахслар бир-бирлари билан мулоқотга киришиши жараёнида муомаланинг муҳим воситаларидан бири тилга ва нутқ фаолиятига бевосита мурожаат қиладилар. |
| **Интерактив** | **Икки томонлама ахборот узатиш**<br>Мулоқотга киришувчиларни ўзаро таъсири, уларнинг нутқ фаолиятида нафақат сўз орқали фикр алмашинуви, балки хатти-ҳаракат ва хулқ-атвори билан ўзаро таъсир ўтказиши тушунилади |
| **Перцептив** | **Ўзаро бир-бирини идрок қилиши, англаши**<br>Мулоқотга киришувчилар ўзаро бир-бирларини идрок қилиш жараёни намоён бўлади, яъни улардан бири иккинчисининг ишончига лойиқ, ақли, фаросатли, тажрибали, юксак тайёргарликка эга инсон сифатида идрок қилинади. |

Darhaqiqat, o‘qituvchi-pedagog va tarbiyachilarning muomala madaniyati, aql-zakovati, fikri, his-tuyg‘ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ma’lum darajada so‘zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. SHunday ekan o‘qituvchi-pedagog va murabbiylar o‘z so‘ziga, tiliga nihoyatda ehtiyot bo‘lmog‘i lozim. Eng avvalo, o‘quvchi-talabalarga muomala madaniyatini, yoshi kattalar oldida o‘zini tuta bilishini, ularning gapini bo‘lmaslik va yoshi ulug‘larga gap qaytarmaslikni o‘rgatishi zarur.

SHunday qilib, bizning kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va so‘zlashuv munosabatlari nihoyatda go‘zal va muloyim bo‘lishini hayot taqozo etadi. SHu bois o‘quvchi-talabalar fe’l-atvorini o‘zgartirish, ularni bir-biriga, qolaversa insonlarga mehru-muruvvatli bo‘lishga o‘rgatish diniy aqidaparastlik, jaholat tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish eng muhim dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Aslida bu vazifa inson va jamiyat paydo bo‘lgandan buyon kun tartibida turgan bo‘lib, hali-hanuz muloqot va muomala madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Atoqli adib Bernard SHou so‘zlari bilan aytganda: “Biz hozir havoda qush kabi uchishni, suvda baliq kabi suzishni o‘rganib olgan bo‘lsak-da, bizga bir narsa, erda insondek yashashni o‘rganib olish etishmaydi”.

SHunga ko‘ra, muloqot va muomala madaniyatiga bo‘lgan ehtiyojni oqilona anglab olish muhim ahamiyatga ega. Zero, pedagogik muloqot va muomala madaniyati asosida erishiladigan yutuqlar o‘qituvchi-pedagogning ijodiy mehnati mahsulidir. Xullas, o‘qituvchi-pedagog har bir vaziyatni oqilona baholashi, uni to‘g‘ri rejalashtirishi, ta’lim va tarbiya jarayonlarida aql-idrok bilan muloqot va muomala madaniyatini tashkil etishi lozim.

### 3. Tarbiyalanuvchilarda shaxslararo insonparvar-axloqiy muloqotni tarbiyalash

Muloqot –- bu bir vaqtda boshqa insonlar bilan harakatlar, fikrlar, sezgilar, hayajonlar almashish hamda insonning o‘z qalbiga, xotiralariga, vijdoniga, orzulariga murojaat etishidir[1].

Muloqot – ijtimoiy-faol, individual-ijodiy, amaliy-predmetli faoliyatdir. Muloqotda asosiysi-birdamlik, do‘stonalik, bag‘rikenglik, fidokorlik hisoblanadi.

Muloqot – bu «SHaxsning eng yaxshi tomonlarini aniqlash va ochib berishga yordam beruvchi ijodkorlik shaklidir. U boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan axloq, odatlarning oddiy qoidalariga amal qilishga asoslanishini»[2] esda saqlash zarur. Muloqotning nazariy asoslarini L.S.Vыgotskiy, V.N.Leontev, M.G.Davletshin, E.G‘oziev,

11 Словарь по этики. Под. Ред И.С.Кона. – Москва; «Политика», 1983, с228.

SH.K.Mardonovlar oʻrganganlar, ushbu tushunchaning faoliyatdagi mantiqiy-metodologik izohlarini ishlab chiqqanlar.

Amerikalik olimlar madaniyatlararo muloqotlar imkoniyatlarini oʻrganishgan. Bu tadqiqotlar biz uchun maʼlum ahamiyatga ega boʻlib, ayniqsa, turli yoshdagi, ijtimoiy va etnik guruh vakillarining birgalikdagi faoliyatlari, oʻzaro aloqalari hamda muloqotlarini koʻzda tutuvchi kommunikativ vaziyatlarda idrok etish tuzilmalarining shakllanishi hamda rivojlanishi muammosi qiziqarlidir.

SHuningdek, L.A.Radzixovskiy, A.V.Brushlinskiy, A.N.Xaritonov va boshqa olimlar muloqotda (soʻzlashuv)ning oʻrni muhimligini alohida koʻrsatib berganlar. Ular fikrlashning rivojlanishini oʻqitishning faol dialogik metodlari, idrok etish va ijtimoiy rivojlanishini boshqarish orqali oʻrganganlar.

SHaxslararo muloqot funksiyalarini amalga oshirish-muloqot subʼektining maʼnaviy axloqiy koʻrsatmalari, shuningdek, insonparvarlik, emotsional-ijobiy, shaxsiy yondashuv, individuallik va oʻziga xoslik kabi yoʻnalishlari bilan belgilanadi.

Muloqot funksiyasi faqat muloqot subʼektlarining maʼnaviy-axloqiy yoʻnalishigina emas, balki koʻp jihatdan, uning insonparvar-axloqiy mazmuniga bogʻliq boʻladi. Muloqotning shakli, lahzali, tasodifiy, tematik rejalashtirilgan – bayon etish, axborot, xabar, suhbat, suhbatlashish, gaplashish, munozara kabilardan iborat. Eʼtibor berish, qiziqish, maʼqullash, hamdardlik, istiqbolni koʻra bilish yordamida taʼsir koʻrsatish, tushunilgan va anglab etilgan motivatsiya asosidagi faoliyat kabilar muloqot turiga kirib, masalani hal etishga yoʻnaltirish, emotsional muhit yaratish, ragʻbatlantirish, yoʻnaltirish bilan hamkorlikdagi harakatlar yakunini yasashga yoʻnaltirish, shuningdek, muloqotning samaraliligi, uning mavzusiga ijobiy motivatsiyasi, eʼtibori, qiziqishiga bogʻliq boʻladi. Motivatsiya muloqot jarayonining boshqaruvchisi sifatida maʼno, onglilik, ishonch va qatʼiylikni talab qiladi.

Muloqotning maʼnoli jihatlariga uning maqsad hamda umumiylikka erishishda oʻz individualligini koʻrsatishi, shuningdek, muloqotning turli funksiyalaridan foydalanish – qoʻzgʻatuvchi, ekspressiv, tashkiliy, informativ, emotsiyali, dalilga asoslanganligi va boshqalarni kiritish mumkin. SHaxslararo yuzma-yuz muloqotlarda individning potensial-shaxsiy, kasbiy-ehtiyojli hamda amaliy-idrok etish jaraëni sodir boʻladi.

“Muloqot va faoliyat” tushunchasiga ijtimoiy faollikning oʻziga xos shakli va ayni bir vaqtda individual mustaqillik sifatida qaraladi. Bu erda muammoni qoʻyish, uning maqsadi, vazifasi, masalalari, muloqot vaziyat-sharoit, muhit omillari, elementlari, muloqot subʼektiga talab (bir soʻz bilan aytganda, bu faoliyat subʼekti bilan shaxslararo muloqotni modellashtirish) muhim hisoblanadi. Bu jarayonda boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan odob, axloq, etiket boʻyicha oddiy qoidalarga amal qilish zarur. SHu bilan birga, emotsional-ijobiy omil, simpatiya, empatiya muhim oʻrin tutadi. Soʻz, nutq, hikoya qilib berish, xabardor qilish, gapirish, suhbatni olib borishni bilish (sherigiga eʼtibor, diqqat, tushunish va hurmat bilan qarash, soʻzsiz-emotsional tipdan mohirona foydalanish) muhim ahamiyatga ega. Muloqot, albatta, maʼnaviy, insonparvarlik hamda yuksak odoblilik darajasida boʻlishi kerak, asosiysi-shaxslararo muloqotda oʻzini suhbatdoshi oʻrniga qoʻyishni bilishi zarur.

SHaxslararo muloqot-oʻzaro aloqali, oʻzaro bir-birini tushunish, idrok etish, axborot almashish, oʻrgatish, rivojlantirish, tarbiyalash, oʻzini namoyon etish, oʻzini dolzarblashtirish, oʻzini tasdiqlash, ijtimoiy oʻzaro aloqalar orqali taʼsir koʻrsatish xususiyatlariga ega.

Insonparvarlik (lotincha humfnis-insoniylik) –inson oʻz huquqlari va qadr-qimmati, shaxs sifatidagi qimmatini hurmat qilishni ifoda etuvchi qarashlar toʻplami, uning farovonligi, har tomonlama rivojlanishi, hayoti uchun qulay sharoitlar yaratish toʻgʻrisidagi gʻamxoʻrlikdir.

Insonparvarlik-insonning oliy qadriyat sifatida eʼtirof etilishiga asoslangan qarashlar toʻplamidir.

SHaxslararo muloqotni insonparvarlashtirish jihati suhbatdosh-larning intellektual maʼnaviy imkoniyatlarini faollashtirish va shaxsiy-ijtimoiy oʻzligini amalga oshirishni koʻzda tutadi. Mana shunday muloqotda oʻquvchi-talabalar shaxsi shakllantiriladi, chunki bu jarayonda ularning ichki imkoniyatlari, shaxsiy insonparvarligi toʻla namoën etiladi. Bu erda boʻlajak mutaxassislarni shaxs, inson va insoniylik sifatlari toʻgʻrisidagi bilimlari va muloqot madaniyati namoyon boʻladi.

Insonparvarlik asosidagi muloqot – boʻlajak mutaxassislar uchun shaxsiy, ijtimoiy, hayotiy va kasbiy faoliyatlarining turli sohalarida insonparvarlik gʻoyalari va qadriyatlarini amalga oshirishning muhim shart-sharoitlari hisoblanadi. Bu davlat taʼlim siyosati hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy qoidalariga mos keladi.

Muloqotning insonparvarlik jihatlari maʼnaviy-amaliy asosga –axloqiylikka asoslanadi. Inson ijtimoiy hayoti jarayonida ishlab chiqilgan (avlodlar hayotiy tajribalari asosida) va axloqiy kategoriyalarda aks ettirilgan gʻoyalar, ideallar, qoidalar – meʼyoriy axloqiylikka asoslanadi.

SHaxslararo muloqotni insonparvarlashtirish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- muloqotda asosiysi-insondir;

---

22 Ўша жойда, 228-бет.

- muloqotda asosiysi-insonparvarlarcha muloqotda bo‘lish – do‘s-tonalilik, samimiylik, inoqlik, totuvlikdir.

Ushbu muloqotda suhbatdosh o‘zini ob’ekt sifatida emas, balki muloqotda teng ishtirokchi sifatida his etadigan yo‘l, vosita, metod hamda shakllarini topishi zarur.

SHunday qilib, muloqot jarayoni erkin, tabiiy, qiziqarli, bir-birini boyituvchi, bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi, o‘zini namoyon etuvchi bo‘lishi kerak. Quyidagilar insonparvarlik asosiga quriladi: suhbatdoshi (sherigi) shaxsiga e’tibor, do‘stona suhbat, muloqot sharoitlariga mos, suhbatning ritorik jihati ko‘zda tutiladi. Suhbatlashuvchi odob, axloq, ma’naviy sifatlarini namoyon etadi, suhbatdoshida kerakli sezgilarni uyg‘otib, istalgan fikr va mulohazalarni yuzaga keltiradi. SHerigiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish uchun muloqot sub’ekt-ob’ekt xususiyatida, insonparvarlashtirilgan mazmunda mahsuldor-ijodiy asosda amalga oshiriladi. Muloqotda insorparvarlik – bu suhbatdoshiga o‘zaro aloqa ob’ekti sifati emas, balki o‘zini namoyon etuvchi ob’ekt sifatida qarashdir.

## 4. O‘qituvchi-pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik muomala madaniyati

Hozirgi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodning aql-idrokini o‘stirish, ilmu ma’rifat ziyosidan bahramand qilish uchun o‘qituvchi-pedagogning bilim saviyasi, kasbiy mahorati va muomala madaniyat yuksak bo‘lishi hayotiy ehtiyojdir.

Ayniqsa, pedagog-ustoz bo‘lish uchun pedagogik faoliyatda tarbiyalanuvchilarga pedagogik tashxis qo‘ya bilish qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim-tarbiyani aniq maqsadlar asosida amalga oshirish o‘quvchi-talabalarning holati, aqliy va jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash hamda ularga amaliy jihatdan ko‘mak berish kabi bir qator pedagogik talablarga rioya qilishni taqozo etadi. Tashxis har bir o‘quvchi-talabaning ichki va tashqi qiyofasini aniqlash, ta’lim-tarbiyaning zamon talablariga mosligini e’tiborga olish o‘quvchi-talabalarning har tomonlama rivojlanishiga ta’lim-tarbiya metodlari samarasini belgilab olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliёtga tatbiq etish va o‘quvchi-talaba shaxsi qobiliyatining rivojlanish darajasini, me’yor-larini aniqlash imkonini beradi. O‘qituvchi-pedagog jamoa bilan o‘quvchi-talabalar guruhlari, ayrim ayrim gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, ma’ruza, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman, butun ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi-talabalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olishi lozim. O‘quvchi –talabalar jamoasi bilan muomala ko‘pincha suhbat, ma’ruza, axborot va hokazolar shaklida bo‘ladi. Birinchi navbatda, suhbatni qanday boshlash, qanday qilib o‘qituvchining gaplariga o‘quvchi-talabalarning diqqatini tortish, ularni qiziqtirish mumkinligi haqida quyidagi fikrlarni bildiramiz.

Mavzuga o‘quvchi-talabalar diqqatini tortishga urinib ko‘rish lozim. Bunda mavzuni bayon etishni erkin, qiziqarli faktni ma’lum qilishdan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Suhbat o‘quvchi-talabalarda doimiy qiziqish uyg‘otishi uchun bir qator murakkab bo‘lmagan usullardan foydalanish zarur. Eng muhim so‘zlar va iboralarni intonatsiya bilan ajratib ko‘rsatish va aksincha, intonatsiyani o‘zgartirish, unchalik muhim bo‘lmagan materialni bayon qilish kerak, ovoz va nutq ohangini o‘zgartirish foydalidir.

Hamkorlik muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘qituvchi-pedagog ma’lum yo‘l-yo‘riqlarga ega bo‘lishi, o‘quvchi-talabalar bilan hamkorlikni muayyan natijaga erishishning zarur sharti deb bilishi, hamkorlikka barcha o‘quvchi-talabalarning jalb etilishi, hamkorlik jarayoniga o‘zining hissiy jalb qilinganligi zarur ekanligini anglab etishi lozim.

Agar o‘quvchi-talabalarning faoliyati jamoa faoliyati sifatida tashkil etilsagina o‘qituvchi-pedagogning o‘quvchi-talabalar bilan hamkorligi paydo bo‘ladi, ya’ni hamkorlik qilishni talab etadi va buning uchun shart-sharoit yaratadi.

Hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo‘lgan ishlar uchun dolzarb bo‘lishi yoki o‘quvchi-talabalarning xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. O‘quvchi-talabalarni biror faoliyat sohasiga, biror aniq ishga jalb etar ekan, o‘qituvchi- pedagog ularga psixologik va pedagogik jihatdan to‘g‘ri vazifa qo‘yishi, ya’ni to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq berishi kerak.

O‘quvchi-talabalar belgilangan narsani amalga oshirishga kirishgan-larida o‘qituvchi-pedagog ayni bir vaqtning o‘zida ham ishtirokchi, ham kuzatuvchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Muomala bilish jarayonidir. Bilish o‘quvchi-talabalarning miqdorlar tizimini o‘zlashtirish va hosil qilish tarzida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchi-talabalarga olamni va unda o‘zini tushunish imkonini beradi. Bilish faoliyati va uning jarayonidagi muomala o‘quvchi-talabalarga o‘zlarining bilishga doir qiziqishlari va mayllariga to‘garak mashg‘ulotlarida, ilmiy jamiyatlarda, olimpiada va tanlovlarda ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Muomala har qanday axborotni idrok etishga va ularning o‘quvchi-talabalar tomonidan talqin qilinishiga ham ta’sir o‘tkazadi. O‘quvchi-talabalarning muomalasini tashkil etish pedagogik ta’sir ko‘rsatishning shunday guruhiga kiradiki, u faqat alohida bir o‘quvchi-talabaga qaratilib qolmasdan, balki o‘quvchi -talabalarning muayyan birligiga-ta’lim muassasasi jamoasidan tortib o‘rtoqlari guruhiga ham mo‘ljallangan. SHu munosabat jarayonining mazmuni o‘quvchi-talabalar jamoasining mazmuni asosiga aylanadi. Jamoada muomalani tashkil etish butun ta’lim-tarbiya jarayonidan va jamoaning butun

faoliyatini tashkil etishdan ajralib qolgan qandaydir bir narsa emas.

Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligining eng muhim sharoitlaridan biri – bu jarayonning o‘quvchi-talabalar muomalasi uchun ma’lum darajada imkon yaratib berishdir.

Ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya ishining butun mazmuni amalda o‘quvchi-talabalar muomalasi mazmunining asosi hisoblanadi. Biroq o‘qituvchi-pedagoglar har bir o‘quvchi-talabani o‘z sub’ektiv vaziyatiga qo‘yish uchun ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etganlaridagina bu imkoniyatni faollashtirish sodir bo‘ladi. Bir qator shart-sharoitlar mavjud bo‘lganda, o‘quvchi-talaba jamoa faoliyatining sub’ektiga aylanadi. Bu shart-sharoitlarning eng muhimligiga to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchidan, jamoaning faoliyati o‘z mazmuniga ko‘ra xilma-xil bo‘lsa, ikkinchidan, bu faoliyatni o‘qituvchi-pedagoglar boshqarib borishi lozim. Uchinchidan, o‘quvchi-talabalar jamoasida tashkil etiladigan faoliyat, ularning ijodkorligiga katta imkoniyatlar yaratib bersa, to‘rtinchidan, bu faoliyat o‘quvchi-talabalar jamoasini uyushtrishining xilma-xil shakl-larini birga qo‘shib olib borishi lozim.

O‘quvchi-talabalarning jamoa topshiriqlarini bajarishlarining boshqa shaxslar – yuqori sinf o‘quvchilari ëki yuqori kursdagi talabalar o‘z jinsidagi va boshqa jinsdagi tengdoshlari bilan aniq maqsadga qaratilgan muomalasini taqozo etadi. Katta yoshdagi o‘smir jamoat topshirig‘ini bajarar ekan, ko‘pincha faoliyatning tashkilotchisi maqeida bo‘ladi. Uning oldida birgalikda bajariladigan ishga o‘rtoqlarini jalb etish zarurati bo‘ladi. Xilma-xil pedagogik vazifalar doimo vujudga kelib turadigan pedagogik faoliyatda hal qilishning mazkur tarkibiy qismi alohida ahamiyat kasb etadi. CHunki u biror faktga pedagogik faoliyatning umumiy materiallariga baho berish imkonini beradi. Tasavvur qiling: siz darsda savol berdngiz va o‘quvchi –talabalar qo‘l ko‘tardilar. Endi kimdandir so‘rash kerak. Vazifami? Ha, ancha oddiy bo‘lib tuyuladi. Ko‘pdan beri hech kimdan so‘ramagan bo‘lsa, shuni turg‘azaman deb o‘ylaysiz yoki vaqt oz, Jamshiddan yoki Anvardan so‘rayman ularning ikkalasi ham har gal to‘g‘ri javob beradi deysiz.

Tarbiyaviy jarayonni yoki alohida tarbiyalovchi ta’sirni rejalashtirish faqat pedagogik ta’sir ko‘rsatishning shakllari, usullari va yo‘llarini aniqlashdangina iborat bo‘lmay, balki pedagogik muomala tizimini, albatta, aniqlashni ham bildiradi.

3-shakl

**ПЕДАГОГИК МУОМАЛА МАДАНИЯТИ**

**Ўқитувчининг ўқувчи-талабаларга таъсир ўтказиш усулларининг муайян тизимлари**

- Ҳамкорлик иштирокчиларининг ўзаро ахборот алмашинуви;
- Турлича коммуникатив воситалар ёрдамида ўқитувчи-педагог томонидан ўқувчи-талабалар билан ўзаро таъсир ва ўзаро муносабатни ташкил этиш;
- Муайян мақсадни дастурий асосда амалга оширишни режалаштириш ва ўтказиш функциясини бажаради;
- Ўқув фаолиятини яккаҳол бажаришнинг воситаси;
- Тарбия жараёнини таъминлашнинг ижтимоий-психологик тизими;
- Таълим-тарбиянинг муваффақиятини таъминловчи ўқитувчи-педагог билан ўқувчи-талабаларнинг ўзаро муносабатининг муайян тизимини ташкил қилишнинг усули;
- Ўқувчи-талаба индивидуаллигини такомиллаштириш, истеъдодини қарор топтириш имконини берувчи жараён эканлиги;
- Яккаҳол фаолиятнинг субъекти сифатида рўёбга чиқариш асослидир;
- Ўқитувчи ва ўқувчи-талабалар жамоасининг ўзаро таъсир малакаси, усули, тизими англашиниб унинг моҳияти, ўзаро ахборот алмашиши, таълимий ва тарбиявий таъсир ўтказиш ўзаро тушунишга эришиш ва уни ташкил этиш

Aniq maqsadli vazifa va tarbiya usulini tanlash vazifasi boʻlgan umumiy pedagogik vazifani hal qilib boʻlgandan keyin ulardan bevosita oʻzaro aloqani tashkil etish uchun vosita boʻlgan fikr almashishga doir vazifani vujudga keltirish zarur. Oʻzaro fikr almashishga doir vazifa muammoli aloqa vaziyatidan iborat boʻlib, uni hal qilish tarbiya usullarini pedagogik muomala tizimi orqali amalga oshirish uchun zarurdir.

Pedagogik muomalaning samarali jarayoni uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning oʻzi kifoya qilmaydi. Oʻquvchi-talabalar bilan oʻzaro munosabatning boshlanishi, oʻzaro fikr almashishiga doir yana bir muhim vazifani hal qilish bilan muomala obʼektlarining diqqatini oʻziga jalb qilish bilan bogʻliqdir.

YUqoridagi oʻqituvchi-pedagoglar va oʻquvchi-talabalar oʻrtasida teng huquqli hamkorlikni vujudga kelishini, ular oʻrtasida ruhan muloqot paydo boʻlishiga etaklovchi pedagogik faoliyat shaklini muomala deb atash mumkin. Quyidagi pedagogik muomalaga kirishimlilik testida buning mazmun-mohiyatini koʻrishimiz mumkin:

**5. Pedagogik muomala testi**

Pedagogik muomala – oʻquvchi-talabalar oʻrtasidagi oʻzaro aloqa oʻrnatilishi va hamkorlik rivojlanishidan iborat jarayon boʻlib, bu jarayon ularning oʻzaro hamkorlik qilishga nisbatan ehtiyojlari

asosida vujudga keluvchi quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi faoliyatdir:

-o‘zaro tushunish va anglash;

-o‘zaro bir-birini idrok qilish;

-o‘zaro axborot almashish;

-o‘zaro harakat qilishning yagona uslubini ishlab chiqish.

Muomalaviy boshqaruv – xodimlar ustidan rahbarlik qilish maqsadida amalga oshiriladigan muomala jarayonidir.

Muomalaviy boshqaruvning maqsadi:

-buyruq va ko‘rsatmalar, tavsiyanomalar, maslahatlar berish;

-topshiriq bajarilganligi to‘g‘risida qatnashchilardan axborot olish va ularni taqqoslash;

-ijrochilar tomonidan bajarilgan topshiriqqa baho berish.

Muomalaviy boshqaruvning asosiy bosqichlari:

a) ishtirokchilarga ko‘rsatmalar beruvchi ma’lumotlarni kuzatish;

b) qayta (ikkinchi marta, takroran) ma’lumot olish;

v) qatnashchilar tomonidan to‘plangan ma’lumotga baho berish.

Ko‘rsatmalar beruvchi ma’lumotlar uzatishning shakllari:

a) direktiv-buyruq ko‘rsatma, talabnoma;

b) demokrativ –tavsiya, maslahat, iltimos.

Pedagogik muomala – o‘quvchi-talabalarga ta’lim va tarbiya berish maqsadida maxsus ravishda amalga oshiriluvchi, pedagogik-psixologik odob (takt)ga asoslanuvchi hamkorlik negizidan iborat muomala jarayonidan biridir.

Pedagogik muomalaning maqsadi – o‘quvchi-talabalar bilan o‘zaro samarali ijtimoiy va pedagogik-psixologik hamkorlik qilishga erishish;

-o‘quvchi-talabalar bilan o‘zaro shaxsiy munosabatlarni shakllantirish;

-o‘qituvchi o‘quvchi-talabalarning bir-birlarini yanada chuqurroq tushunishlariga hamda anglashlariga yordam berish.

Agar biz ta’limning mohiyati o‘quvchi-talabalarda bilish faoliyatini bevosita boshqarish ekanligini hisobga olsak, u holda pedagogik muomala bilan muomalaviy boshqarishning ko‘pgina vazifalari o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Xuddi shu boisdan ham muomalaviy boshqarish jarayoniga berilgan tavsiyanomalar pedagogik muomala faoliyatiga bevosita xosdir. Muomalaning eng muhim xususiyatlari o‘zaro bir-birini anglash va o‘zaro bir-birini idrok qilishda o‘z ifodasini topadi.

O‘zaro bir-birini anglash quyidagi omillarga bevosita bog‘liqdir:

- adabiy tilning milliy birligi;

- kasbiy atamalar bilan milliy tilning o‘zaro uyg‘unligi;

- ma’lumotning to‘laligi, uning mantiqiy jihatdan izchil ravishda bayon qilinishi;

- suhbatdoshlarning aqliy darajasi, madaniy saviyasi va kasbiy tayyorgarligini hisobga olish;

- shaxslararo munosabat qatnashchisi diqqatini ob’ektga to‘play olish imkoniyat uquvi;

- muhokama qilinayotgan masalani hal qilishda suhbatdoshlarni shaxsiy qiziqishlarining mutanosibligi;

- o‘zaro idrok qilish esa ushbu holatlar bilan uzviy bog‘liqdir;

- suhbatdoshning nufuzi, obro‘si,uning mutaxassisligiga oid bilimi, malaka va ko‘nikmalari;

- o‘zaro shaxsiy munosabatning holati, uning his-hayajonga serobligi;

- rahbar o‘z suhbatdoshlarida qanchalik ko‘p ijobiy hissiy holatlar, chuqur kechinmalar uyg‘ota olsa, u taqdirda ularning o‘zaro idrok qilishi tez sur’atda (lahzada) amalga oshishi mumkin;

- o‘zaro shaxsiy munosabatda hissiy holatning namoyon bo‘lishida;

- darajasiga ko‘ra ishtirokchilarda: simpatiya, empatiya, do‘stlik yoqtirib qolish, befarqlik, nafrat, yoqtirmaslik singari salbiy hissiy kechinmalar, tuyg‘ular yuzaga keladi. SHuning uchun ham muomalaviy boshqaruv jarayonidagi eng muhim qoida har qanday yo‘l va usul yordami bilan bo‘lsa ham, eng avvalo, suhbat jarayonida ijobiy hissiy holatlarni vujudga keltirishdan iboratdir.

Mazkur holat qanchalik kuchli, yuksak ko‘tarinki sur’atda namoyon bo‘lsa, demak, muomalaviy boshqaruv shunchalik engil kechishi mumkin.

PEDAGOGIK MUOMALA TESTI

| № | Savollar | Ha | Yo‘q | Ba’zan |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Siz ish yuzasidan uchrashuvga borishga shaylanib turibsiz, kutish sizni asabingizni buzadimi? | 2 | 1 | 0 |
| 2 | Sizni biron yig‘ilish, kengashga yoki shu singari yig‘ilishlarda nutq so‘zlashga taklif qilishsa norozilik paydo bo‘ladimi? | 2 | 1 | 0 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3 | Oxirgi daqiqalargacha shifokorni chaqirishga urinmaysizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 4 | Sizni hech bo‘lmagan shaharga xizmat safariga borishni taklif qilishsa, siz bundan o‘zingizni olib qochasizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 5 | Siz kechinmalaringizni biror kishi bilan baham ko‘rishni xohlaysizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 6 | Ko‘chada notanish kishi sizga iltimos bilan murojaat qilsa (biror ko‘chani, uyni ko‘rsatib yuborish uchun vaqt so‘rab) asabiylashasizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 7 | “Ota bilan bola” muammosi har xil avlodlarni bir-birlarini tushunmasligi bois yuz beradi, deb hisoblaysizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 8 | Siz tanishingizga bir necha oy oldin olgan pulni qaytarishni unutganligini aytishga uyalmaysizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 9 | Sizga oshxonada mazasiz taom berishdi. Tarelkani jahl bilan surib, jimgina o‘tirasizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 10 | Siz notanish kishi bilan yolg‘iz qoldingiz, siz uni birinchi bo‘lib gapirishini kutasizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 11 | Siz kutilmagan navbatga turib qoldingiz, siz o‘z niyatingizdan voz kechmasdan, navbatni oxirigacha kutasizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 12 | Nizoli vaziyatni ko‘rib chiquvchi komissiya tarkibiga kiritishdi, siz bu holatdan qochishga urinasizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 13 | Sizda badiiy adabiyot, san’at, madaniyat, boshqalar fikrini noma’qulligini belgilovchi shaxsiy individual mezoningiz bormi? SHundaymi? | 2 | 1 | 0 |
| 14 | Sizga oshkor bo‘lgan masala bo‘yicha kimdir noto‘g‘ri nuqtai nazar bildirishdi. Siz bahslashmasdan jim o‘ltirasizmi? | 2 | 1 | 0 |
| 15 | Sizga bo‘sh vaqtingizda u yoki bu o‘quv mavzu va xizmat vazifalari bo‘yicha murojaat qilib turishadimi? | 2 | 1 | 0 |
| 16 | Sizda o‘z fikringizni og‘zaki bayon etishdan ko‘ra yozma ifodalash qulaymi? | 2 | 1 | 0 |

*Eslatma:* Sizning e’tiboringizga testda bir nechta oddiy savollar havola qilinadi. Siz tez javob berishga harakat qiling “ha”, “yo‘q”, “ba’zan”.

Natijalarga ko‘ra, muomalaga kirishimlilik qobiliyatini belgilovchi darajalar quyidagilarga ajratiladi?

30-32 ball. Sizni mutlaqo muomalaga kirishishingiz qiyin. Siz ko‘proq o‘zingizni ichki tuyg‘ularingizga berilib, atrofdagilar bilan chiqishishga ancha qiynalasiz.

25-29 ball. Berk, tund odamsiz.

19-24 ball. Siz ma’lum darajada muomalaga kirishish imkoniyatiga egasiz.

14-18 ball. Normal.

9-13 ball. Muomalaga juda yaxshi kirisha olasiz.

4-8 ball. Muomalada etakchilik qilaolasiz, har xil vaziyatlarda ham muomalada mavzu tanlay olasiz.

3 va undan kichik ball. Sizda muomalaga kirishimlilik yuqori, ammo odamlar sizdan qochishga harakat qilishadi.

**6. Pedagogik muloqot – bo‘lajak yuksak malakali mutaxassis shaxsini shakllantirish sharti sifatida**

Ma’lumki “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da oliy ta’lim tizimida bilimdon, milliy va umumbashariy qadriyatlarni egallagan, yuksak madaniyatli, yuqori intellekt egasi bo‘lgan etuk mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Albatta, bu o‘rinda bo‘lajak mutaxassislarda mukammal kasbiy tayyorgarlik, ijodkorlik, siyosiy va iqtisodiy bilimdonlik, hayotiy faollik kabi sifatlar bilan bir qatorda muloqot qobiliyatini ham shakllantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. SHuningdek, YUrtboshimizning nutqlari va fundamental asarlarida ham ana shunday keng tafakkurli, ongli, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, hayotda o‘z o‘rnini yo‘qotmaydigan barkamol shaxslar etishib chiqishi bir necha marta qayd etilgan.

Pedagogik muloqotga asosan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, bulajak mutaxassislar o‘quv-bilish faoliyatini boshqarishda muhim omil sifatida qaraladi. Pedagogik-psixologik muloqotni bir

necha guruhlarga bo‘lib tasniflashga harakat qilinadi. Pedagogika va ilmiy-uslubiy jihatdan o‘qituvchi-pedagoglar va talabalar o‘rtasida kechadigan pedagogik muloqotni uchta asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

1) barqaror ijobiy, ya’ni ushbu guruhga mansub o‘qituvchi-pedagoglar chuqur bilimdonligi, pedagogik mahoratining yuksakligi, tafakkurining kengligi, samimiyligi bilan talabalarning hurmatini qozonadilar. Ular talabalar bilan do‘stona va hamfikrlilik nuqtai nazaridan munosabatga kirishadilar, zarur hollarda o‘z yordamlarini ayamaydilar. Talabalar bunday o‘qituvchi-pedagoglarni xush ko‘radilar va ular bilan muloqot qilishga oshiqadilar;

2) sust-ijobiy bunday o‘qituvchi-pedagoglar doimo talabalar davrasida, ular qalbini tushunishga harakat qiladilar. Lekin ularning bu munosabatlari turg‘un emas va ayrim paytlarda bunday o‘qituvchi-pedagoglar kayfiyatga beriluvchan bo‘ladilar;

3) salbiy – bunday o‘qituvchi-pedagoglar talabalar bilan rasmiy munosabatda bo‘ladilar va ko‘pincha ularga pand-nasihatlar qilib turishni o‘zlarining burchi deb hisoblaydilar. Talabalar bunday o‘qituvchi-pedagoglardan yiroq bo‘lishga harakat qiladilar, muloqot qiyinchilik bilan amalga oshadi va bu esa ular o‘rtasida keskin vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin.

Tarbiyalanuvchilar o‘z ustozlaridagi kasbiy va nazariy bilimdonlik bilan bir qatorda kamtarlikni, samimiylikni, bag‘rikenglikni, vazminlikni, haqqoniylikni, adolatparvarlikni qadrlaydilar. Bunday o‘qituvchi-pedagoglar bilan til topishish oson, chunki ular talabalar shaxsiga hurmat bilan qaraydilar, rasmiyatchilikdan yiroq bo‘ladilar. O‘quv-tarbiyaviy jarayonning samarali kechishi ko‘p jihatdan pedagogik muloqotning maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilishiga bog‘liq. SHuni unutmaslik lozimki, o‘qituvchi-pedagoglar shogirdlari nazarida o‘zlarining shaxsiy fazilatlari, xis-tuyg‘ulari, xatti-harakatlarini boshqara olishlari, pedagogik muloqot madaniyati kabi sifatlari bilan hayotiy namuna bo‘la olishlari lozim deb hisoblaymiz. Pedagogik muloqotda o‘qituvchi-pedagoglar nutq texnikasiga rioya qilishi, ohangning muloyimligi, badiiy til ifoda usullarining boyligi, kabi qator omillarga ham e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir.

Ba’zan o‘qituvchi-pedagoglarda ayrim talabalar haqida noto‘g‘ri taassurotlar paydo bo‘lib qolishi mumkinki, bu esa o‘z navbatida pedagogik muloqotda noxush holatlarga olib keladi. Bu tasavvurlar kasbdoshlarning talaba haqidagi sub’ektiv fikrlari, birlamchi noto‘g‘ri taassurotlari, shogirdlarining individual xususiyatlarini e’tiborga olmaslik oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

Albatta ta’lim-tarbiyaning har qanday shakllarini amalga oshirishda pedagogik muloqotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya bilish juda ahamiyatlidir. Dars jarayonida pedagogik muloqot muayyan o‘quv materiali asosida olib boriladi va talaba shaxsini kompleks rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Ta’limning innovatsion metodlariga asoslangan hamkorlik, o‘zaro xayrixohlik, tolerantlik ruhida olib borilgan muloqotgina shubhasiz ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Muloqot jarayonida o‘qituvchi-pedagog talabalarning qiziqishlari va ular o‘zlarini namoyon qilishga bo‘lgan intilishlarini inobatga olishi lozim. U ta’limni insonparvar-lashtirish, individuallashtirish prinsiplariga amal qilgan holda talaba shaxsining rivojlanishi uchun ma’lum shart-sharoitlarni yaratadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida va amaliyotda samarali foydalanilmoqda. Endilikda talabalar o‘qituvchi-pedagoglardan tayyor bilimlarni qabul qilib oluvchi shaxs emas, balki ta’limning faol ishtirokchisi sifatida qaralmoqda. Binobarin, talabalar o‘rganilayotgan muammoni mustaqil tadqiq qiladi, chuqur mushohada yuritadi, masalaning echimini topishga harakat qiladi. Bu o‘rinda muloqot bahs-munozaralar, mini-konferensiyalar, davra suhbatlari, talabalar minbari kabi ko‘rinishlarda olib borilishi mumkin. Do‘stona o‘zaro hurmat ruhida tashkil qilingan muloqot natijasida talabalarda o‘z imkoniyatlariga ishonch paydo bo‘ladi va o‘zlarini shaxs sifatida kengroq namoyon qilishga intiladilar. Ular muayyan ilmiy, madaniy va tarixiy jarayonlarning faol ishtirokchilariga aylanadilar. Nazariy gipotezalarni tahlil qiladilar va ularga davr nuqtai nazaridan tanqidiy baho beradilar. Bunda o‘quv fanlarining mantiqiy tuzilishi, bilimlarni o‘zlashtirishda qo‘llaniladigan metodlarning tanlanishi, o‘quv materialini o‘rganish uchun ajratilgan vaqt kabi omillarni ham hisobga olish zarur deb o‘ylaymiz. O‘qituvchi-pedagog o‘zi o‘qitayotgan fanning talabalarni kelgusi kasbiy faoliyatiga tayyorlashdagi o‘rnini doim his qilib turishi kerak.

SHuningdek, o‘qituvchi-pedagog pedagogik muloqotni tashkil qilar ekan, talabalarda noxush kechinmalar, salbiy tuyg‘ularning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymasligi va guruhda ishchanlik, ko‘tarinkilik, hamkorlik va ijodkorlik vaziyatini yarata bilishi juda ahamiyatlidir.

Xullas, oliy o‘quv yurtlarida pedagogik muloqot turli vaziyatlarda, ya’ni darsda va kurs ishlari, referatlar tayyorlashda hamda pedagogik amaliyot jarayonida ro‘y beradi va talabaning bo‘lajak mutaxassis sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari talabalar bilan o‘tkaziladigan turli ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy mavzularga bag‘ishlangan munozaralar ham ularning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Talabaning erkin mulohaza yuritishi, xulosalarini aniq bayon qilishi, o‘zgalar fikriga e’tiborli, sabr-toqatli bo‘lishi muloqotni tashkil qilishning muhim shartlaridandir.

Buguni talaba – ertangi etuk mutaxassis sifatida shakllanar ekan, uning ko‘z o‘ngida unga sabr-toqat va mehr-shafqat bilan saboq bergan ustozlari gavdalanadi. O‘zgalar bilan insoniylik nuqtai nazaridan muomalada, munosabatda, muloqotda bo‘ladigan o‘qituvchi-pedagoglar o‘z shogirdlari qalbida mangu saqlanib qoladilar va yo‘lchi yulduzdek ularning hayot yo‘lini yoritib, yuksaklikka chorlaydilar.

**Tayanch iboralar:**

Muloqot, muomala, ta’lim, tarbiya, madaniyat, muomala madaniyati, insonparvar, axloq, shaxs, pedagogik muloqot, muomala testi, kommunikativ, interaktiv, perseptiv, fikr, erkin fikr, mutaxassis

**Nazorat uchun savollar**

1. Muloqot deganda nimani tushunasiz?
2. SHaxslararo insonparvar-axloqiy muloqotning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
3. “Muloqot va faoliyat” tushunchasini izohlang.
4. Muomala nima?
5. Muomala madaniyati nima?
6. Pedagogik muomala nima?
7. Pedagogik muloqot yuksak malakali mutaxassis shaxsini shakllan-tirishda qanday ahamiyatga ega?

**Asosiy adabiyotlar**


7. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O‘zbekiston, 1997.
8. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2011 yil.
9. Rashidov H.F. va boshqalar. “Kasbiy pedagogika” blokini o‘qitish metodikasi. /O‘quv-uslubiy qo‘llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
10. Sarsenbaeva R.M., Doniev B.B. Umumiy pedagogika. /O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.
11. Mavlonova R., To‘raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
12. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 608 bet.

www.bilimdon.uz. – O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus pedagogik vazirligining veb sayti.


## 6-mavzu: O‘QUV-TARBIYAVIY VAZIYATLARNI LOYIHALASHTIRISH ASOSLARI

**Reja:**

1. **O‘quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalash**
2. **Loyihalash jarayonining ob’ekti va muammolari**
3. **Ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish**
4. **Oiladagi tarbiyaviy majburiyatlar va vazifalar**
5. **Tarbiya – o‘quv-tarbiyaviy jarayon sifatida**

### 1. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalash.

Ta’lim – boshqariladigan jarayon bo‘lib, uning natijasi, ko‘p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog‘liq. Didaktik loyiha esa ta’lim texnologiyasining mahsulidir. Talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko‘ra boshqarish ta’lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko‘p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo‘lgan masofada ta’limning samarali usullari, vositalari ko‘p topiladi. Bu erda ta’lim texnologiyasi eng samarali usul bo‘lib, ta’limning samarali shaklini tanlashda o‘qituvchiga yordamga keladi.

Demak, maqsaddan etalonga etib kelguncha o‘qituvchi (pedagog) va talaba ongi juda ko‘p hodisalar bilan uchrashadi. Ta’limga texnologik yondashish – bu ma’lumot va ta’lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo‘li bilan o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, pedagog va

talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o‘qitish maqsadi, o‘qish maqsadi) ta’limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta’limni loyihalash va amalga oshirish yo‘llari bilan mo‘ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta’lim jarayonini loyihalash haqida gap ketganda o‘zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug‘iladi: ta’limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta’limning joriy va oraliq natijasiga ko‘ra didaktik loyihaga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish; ta’limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Pedagog ta’lim natijasini tez-tez tekshirib, talabalarni o‘zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va talabalar o‘zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko‘paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. Talabalar ta’limning zaruriyligini, ular ta’lim jarayonining haqiqiy sub’ektiga aylangan paytida sezishadi.

Ta’lim jarayoni bo‘yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: ta’lim loyihasini tayyorlash va loyihani amalga oshirish.

1. Ta’lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o‘qituvchi yoki ekspert a’zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo‘lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida pedagog va talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Ta’lim loyihasi ma’lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma’lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta’lim mazmuni o‘rganiladi, u yoki bu mavzuni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad, ta’limning didaktik maqsadi, pedagog va talabalar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo‘yicha o‘tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o‘zlashtirish usuli oldindan belgilab qo‘yiladi. Bu ishlarning barchasi ongda ta’lim modelini yaratishga olib keladi.

2. Ta’lim loyihasini amalga oshirish. Ta’lim loyihasi bevosita ta’lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e’tibor qaratiladi:

- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha maqsad, vazifalar bilan talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e’lon qilish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish, o‘zlashtirish me’yorlarini aytib berish;
- talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag‘batlantirish, ular diqqatini bo‘lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o‘rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg‘otish, o‘qish-o‘rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg‘otish, emotsiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o‘quv holatlariga tatbiq etish yo‘llari orqali mavzu bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash, to‘plangan ma’lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga oid o‘zgarish, qo‘shimcha, tuzatishlarni belgilash;
- bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha to‘plangan bilimlarga ishlov berish.

Ta’lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqudlodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. O‘rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib loyihaga yangi o‘zgarish, qo‘shimcha va tuzatishlar kiritiladi;

- bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o‘quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko‘ra mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha axborot to‘plash, to‘plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, talabalarning bilim va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko‘rsatish, guruhdagi har bir talabaga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo‘shimcha topshiriqlarni berish, ularni o‘quv materialini yanada atroflicha o‘zlashtirishga rag‘batlantirish;
- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi talabalarning ma’lumot va ta’lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o‘zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o‘zlashtirgan talabalarni ogohlantirish, qo‘shimcha topshiriqlar berish kabilardan iborat.

2. **Loyihalash jarayonining ob’ekti va muammolari. Loyihalash** hozirgi kunda pedagogik jarayonning muhim tomonlaridan bo‘lib, malakali ishlab chiqilgan pedagogik jarayon texnologiyasi va boshqa ob’ektlar o‘qituvchi tomonidan ta’lim oluvchilarni shaxs sifatida shakllantirishda salbiy ta’sir etuvchi faktorni yo‘qotib, shu bilan birga har bir ta’lim oluvchiga pedagogik tizim tomonidan qabul qilingan individual sharoitlar yaratadi.

Pedagogik loyihalashning umumiy algoritmi quyidagilardan iborat:

Loyihalash ob’ektining tahlili.

Loyihalash shakllarini tanlash.

Loyihalashtirishni nazariy ta’minlash.

Loyihalashtirishni metodik ta’minlash.

Vaqt bilan ta’minlash. (ma’lum vaqt va hajmda ishlash).

Loyihalashni moddiy va texnik ta’minlash.

Loyihalashni huquqiy ta’minlash. (pedagogik tizim va jarayonda)

Kompyuter orasidagi aloqani yo‘lga qo‘yish.

Hujjatlarni rasmiylashtirish.

Loyihaga mutaxassislarning bahosi.

Loyihalarni tasdiqlash va foydalanishga berish.

Loyihani tasdiqlashda birinchi o‘rinda tayyorlangan loyiha kafedra himoyasiga beriladi, so‘ngra tegishli markazlarga yuboriladi. Bu markazlar loyihaning yutug‘i, maqsadi, o‘quv materiallarining mazmuni, metodlari va shakllariga o‘z bahosini chiqaradi.

**3. Ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish**

Ta’limda yoshlarni bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste’dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash va bilimlarni tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash ta’lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi. Albatta ta’lim tizimini samarali bo‘lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq. Pedagog birinchi galda o‘z kasbini sevishi, hurmat qilishi, talabaga katta qiziqish va mehr bilan qarashi, jamiyat oldidagi o‘zining katta mas’uliyatini his qila olishi shart. Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o‘quv materiallarini to‘g‘ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo‘lgan ta’lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo‘lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o‘rinli foydalana olishi, o‘z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

Ta’lim oluvchilarning asosiy o‘quv faoliyati bilimlarni o‘zlashtirish bo‘lib, quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: o‘quv materiallarini qabul qilish, fikrlash, egallab qolish va qo‘llash. Bu komponentlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘quv jarayonida ketma-ket qo‘llanilib butun bir o‘quv jarayonini tashkil etadi.

Ta’lim oluvchining o‘quv materialini qabul qilishi.

O‘quv materialini qabul qilish o‘quv jarayonining eng muhim qismidir. O‘quv materialini yaxshi qabul qilinishi o‘quv ishlab chiqarish faoliyatida mustahkam fundament rolini o‘ynaydi.

O‘quv materialini samarali o‘zlashtirishning ichki sharoitlari.

O‘quv materialini samarali o‘zlashtirish uchun eng avvalo ta’lim oluvchining ichki ehtiyoji bo‘lishi kerak. Ichki o‘zlashtirish javob bergandan imtihongacha esda saqlanib javob berib bo‘lganidan keyin esdan chiqadi. O‘zlashtirishning muvaffaqiyati ta’lim oluvchining faoliyatiga ham bog‘liq bo‘ladi. CHunki ta’lim oluvchi berilayotgan materiallarga qiziqsa va o‘z ustida ishlasa o‘zlashtirishning eng yuqori cho‘qqisiga erishishi mumkin.

O‘zlashtirishning ichki faktlaridan yana biri berilayotgan materialni ta’lim oluvchi tomonidan tushunishdir. CHunki ta’lim oluvchi mavzuni tushunmasa, qancha o‘z ustida ishlamasin, oldingi mavzular bilan bog‘liq bo‘lmasa, mavzuning o‘zlashtirilishi sodir bo‘lmaydi va juda sayoz bo‘ladi.

Qabul qilishning tashqi faktorlari.

O‘quv materialini qabul qilishning asosiy faktorlari asosan o‘quv materialining mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Uning qiyinligi, o‘quv materialida qo‘llaniladigan texnik materiallar aniq va abstraktligiga, amaliyotga bog‘liqligiga qarab farq qiladi.

Eslab qolish.

O‘quv materialini qabul qilishning eng muhim komponenti bu yangi materialni eslab qolishi va xohlagan vaqtda uni nazariy va amaliy qo‘llay olishdir. Ta’lim oluvchi o‘quv materiali bilan faol ishlaganda uni yaxshi eslab qolib, samarali qo‘llaydi. Eslab qolishning eng asosiy samaradorligi ta’lim oluvchining irodaviy xususiyatlariga bog‘liq.

Bilimlarni qo‘llashda ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Bizga ma’lumki bilimlarni amaliy faoliyat davomida qo‘llay bilish, bilimlarni egallaganlik darajasini ko‘rsatadi. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay bilish, ya’ni laboratoriya ishlarini bajarish davomida egallagan bilimlar asosida uy vazifasini bajarish, bilimlarni mustaqil egallashdan iborat. Bu jarayonda bilimlar kengayib mukammallashib chuqur o‘zlashtirilgan bilimga aylanadi.

Ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatini tashkil qilishda o‘z ustida mustaqil ish olib borishi ham muhim ahamyait kasb etadi. SHaxsiy bilimlarni oshirish, ta’lim olishning alohida turi hisoblanib, o‘z-o‘zini o‘qitish jarayoni ko‘proq ta’lim oluvchining zimmasiga yuklatiladi. Bu jarayonda ijtimoiy-psixologik shartlar quyidagilar hisoblanadi:

Ta’lim oluvchining shaxsiy kasbiy malakasining yuqoriligi.

Mutaxassislarning bilim darajasi mehnatni raqobatbardoshligini ko‘taradi.

Hozirgi zamon texnologiyalari va mutaxassislar faoliyati ishsizlikni keltirib chiqarib, ishsizlarni yangi mutaxassislik turiga qayta o‘qitishni taqoza etadi.

Dunyo iqtisodiyotining rivojlanishi mutaxassis kadrlar bilimini mukammallashib boriga olib keladi.

**Ta’limning samaradorlik mezoni**

Asosiy samaradorlik kriteriyasiga mutaxassislik kiradi:
malakaviy faoliyatda mustaqillik hissi;
mehnat xavfsizligiga amal qilgan holda texnik talablarni bajarish;
ishlab chiqarishda vaqt va normalarni bajarish;
kasbiy faoliyatda fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilib borish;
mehnat madaniyatiga qat’iy amal qilish;
mehnat faoliyatiga ijodiy yondoshish;
bajarilgan ish uchun mas’uliyat his qilish kabilar kiradi.

**4. Oiladagi tarbiyaviy majburiyatlar va vazifalar.**

Oila jamiyatning bir bo‘lagi. SHunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo‘lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila tor maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoadir. SHu sababli oilalar birlashib jamiyatni tashkil etadi.

Jamiyatdagi o‘zgarishlar oilaga ta’sirini ko‘rsatganidek, oiladagi o‘zgarishlar ham jamiyatga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Buni biz 1998 yil mamlakatimizda “Oila yili” deb e’lon qilinishi misolida ko‘rishimiz mumkin. SHu munosabat bilan hukumatimiz ishlab chiqqan tadbirlar oilani ijtimoiy muhofaza qilish, oilada yoshlar tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish, oilaning huquqiy tamoyillarini kengaytirish va boshqa oilani mustahkamlash bilan bog‘liq masalalarga qaratildi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: ”Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Oila ahil va totuv bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi - milliy farovonlik asosidir”.

SHuni unutmaslik lozimki, farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina oila tarbiyasi muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. YOsh avlod hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. SHu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida yigit-qizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An’ana va marosimlar tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi.

Kelajagimizning qanday bo‘lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog‘liq.Bu qonuniyat oilaning tarbiya borasidagi faoliyatiga ham bog‘liq. Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o‘ziga xos bir olam. U tarbiya ishida ham o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, o‘sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta’minlash mumkin. Oila tarbiyasidagi yutuqlar ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo‘yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir.

Har bir ota-ona o‘z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlariga bog‘liqdir. Bundan tashqari normal oilaviy muhit, ota-onaning obro‘si, to‘g‘ri kundalik rejim, bolani kitobga va o‘qishga, mehnat qilishga o‘z vaqtida jalb qilishlari ham muvaffaqiyat garovidir.

Ko‘rinib turibdiki, qadimdan ham, bugun va ertaga ham, bundan keyin ham aqlli, farosatli, tafakkuri chuqur - bir so‘z bilan aytganda kamolotli farzand tarbiyalash muammosi dolzarbdir. Xalq bunday fazilatli insonlarni sevadilar, e’zozlaydilar va hurmat qiladilar.

Bunday tafakkurga boy kamolotli farzand tarbiyasining sarchashmasi oiladan boshlanadi. Oila ana shunday tabarruk qal’adir. U qanday qurilishi lozim? Oila o‘zi nima va uning maqsad, vazifalari nimalardan iborat?

**Oila –** voyaga etgan ikki jinsning sevish, ardoqlash, hurmat qilish asosida, ixtiyoriy ravishda, qalb xohishi bilan tuzilgan qonuniy ittifoqidir.

Mo‘‘jazgina bir qal’a qurildi. Endi bu qal’ada bekinmachoq o‘ynalmaydi. YOshlikdagi o‘yinqaroqlik, beboshlik, erkalik, beparvolik o‘rnini sezgirlik, mas’uliyat, andisha, javobgarlik kabi fazilatlar egallay boshlaydi. Bunga har bir yosh tayyorlanib, mas’uliyat ko‘nikmasini his qilib, oila maqsad va vazifalarini tushunib, uqib bormog‘i lozim.

**Oila maqsadi –** ikki jinsning o‘zaro kelishuvi asosida farzandni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligini ta’minlash.

**Oila vazifasi –** er-xotinning birgalikda xo‘jalik yuritish asosida oilani ham ma’naviy, ham iqtisodiy jihatdan ta’minlash hamda jamiyatga sog‘lom, aqlli, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash.

**Ota-onaning farzand oldidagi va aksincha farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlari**

Komil farzandli bo‘laman, baxtli oila quraman degan maqsad bilan oila qurdingiz. Ammo bu maqsadga erishish farzand tarbiyalashdagi muhim omillarni, farzand oldidagi burchlarni bilib ish ko‘rishni taqozo etadi.

Ota-onaning farzand oldidagi burch va majburiyatlari

farzandga chiroyli ism qo‘yish (farzandingiz o‘z ismini o‘zgalarga aytganda orlanmasin); savodini chiqarish, iqtidoriga qarab bilim berish, imkoniyatiga yarasha o‘qitish va kasb-hunar o‘rgatish;

- uylantirish. turmushga chiqarish;
- uyli-joyli qilish;
- farzandlar orasidagi meros taqsimotida adolatli bo‘lish.

Farzandning ota-ona oldidagi burch va majburiyatlari

- Ota-onaning pand-nasihatlariga quloq solish, ularga har doim yordam berish, mehribon, e’tiborli bo‘lish, oila ishlariga ham ma’naviy, ham iqtisodiy yordam berish;
- har bir farzand o‘z singil va ukalariga mehribon, yo‘lboshchi va yo‘ldosh, odobda, axloqda, ishda, ilm-hunar o‘rganishda o‘rnak bo‘lish;
- ota-onalarining nimaga muhtoj ekanliklarini qalban his qilish, ularga bu borada amaliy mehribonlik ko‘rsatish;
-oilaga berayotgan ma’naviy va iqtisodiy yordamini minnat qilmaslik;
- tavallud, bayram va hayit kunlarida yo‘qlab turishni kanda qilmaslik;
- keksa ota-onalariga alohida g‘amxo‘rlik qilishi, shirin muomalada bo‘lishi, orzu-niyatlarining amalga oshishida yordam berish;
- vaqti-soati etib, bandalikni bajo keltirsalar, izzat-ikrom bilan oxirgi manzilga kuzatish, ma’rakalarini kamtarona, dabdabasiz, qarindosh-urug‘lar, uni bilgan, hurmat qilgan eng yaqin odamlar bilan o‘tkazish.

**Oila a’zolarining huquqlari**

Oilada va jamiyatda er va xotin teng huquqlarga ega. Bu erda qonunda belgilangan huquqlar haqida gap ketmoqda. Bunday tenglik saylash, saylanish, kasb tanlash, ishlash, bilim olish, o‘ziga yor tanlash va hokazo huquqlarda o‘z ifodasini topadi. Lekin ikki jinsning biologik, ruhiy tuzilishi nuqtai-nazaridan bunday tenglik yo‘q. SHuning uchun ayol va erkakning oilada ro‘zg‘or tebratish, farzandlarni tarbiyalash, farzandlarning oila yumushlari va vazifalaridagi mehnat taqsimoti masalalaridagi huquq va burchlarida birmuncha tafovutlar mavjud.

**Erkakning vazifasi –** oilani ma’naviy, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash. Ayoli va farzandlarining tashvishlariga sherik bo‘lish. Oilaga soya solayotgan xavf-xatarlarga qalqon bo‘la bilish. Oila a’zolariga g‘amxo‘r bo‘la bilish.

**Ayolning vazifasi –** oilada farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanish. Ularni oq yuvib, oq tarash. Erkaknning tashib kelgan oziq-ovqatlarini pishirish, mehmon kutish. Er va bolalarini ishga va o‘qishga kuzatish, kutib olish.

Er va ayolning vazifalari yuqorida sanab o‘tilganlardangina iborat emas, albatta. Bu vazifalarning barchasini sanab o‘tishning hech qanday iloji yo‘q. Oila sharoitidan kelib chiqqan holda, har bir inson o‘z tafakkurini ishga solib, vazifalarini belgilab olmog‘i va ularni shunday bajarmoqlari lozimki, uyga kelgan har bir mehmon tuz-nasibasini totib, qaytayotganida oila a’zolari orasidagi o‘zaro hurmat, ularning har birini aqlu farosatiga tasannolar o‘qib ketsinlar.

Oila deb atalmish aravani tortib borayotgan er va xotinning bir-biriga elkadosh bo‘lishini, o‘zaro odoblarini, bir-biriga bo‘lgan mehribonliklarini ko‘rgan farzandlar ulardan o‘rnak oladilar va ularga o‘xshashga harakat qiladilar. CHunki farzand aytgan nasihatingizni esidan chiqarishi mumkin, ammo ko‘rganini hech esidan chiqarmaydi. Oilada farzand tarbiyasining bu jihatini hech qachon esdan chiqarmaslik lozim.

Aytaylik, bozordan shirinlik xarid qildingiz, kelgan zahotiyoq uni kichigingizga berdingiz-u, hech kimga ko‘rsatma dedingiz. U esa bolaligiga borib, shirinlikni hamma akalariga ko‘z-ko‘z qilib chiqdi. Lekin ularga yo‘q. Ular o‘ksinishadi. Kichik bo‘lgan yaxshi ekan deyishadi. Hamma

narsa kichikka, sovg'a ham, shirinlik ham, erkalatish ham, deb bolalar orasidagi yakkalik, o'zini uzoq tutish kayfiyatlari paydo bo'la boshlaydi. Bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, uyga biror narsa xarid qilib, olib kelganingizda har doim uni adolatli taqsim qiling. Taqsimlash jarayonida ota-ona o'zlarini ham unutmasliklari kerak. Bu juda muhimdir. Bolalaringiz bu jarayonni ko'rsa, vaqti kelib ular ham topib keladigan bo'lganlarida sizga ulush ajratishni unutmaydilar. Bolalar oldida qilgan bu adolatli taqsimingiz ular uchun eng katta saboq bo'ladi. Birinchidan, ular bir-birlariga mehrlari orta boradi. Ikkinchidan, doimo ota-onani eslab turadigan bo'ladilar. Aks holda olib kelgan narsalaringizni faqat bolalaringizga taqsim qiladigan bo'lsangiz, keyinchalik ular sizni eslamaydigan, faqat o'zlarini o'ylaydigan bo'lib qoladilar. Ayniqsa, qarib kuch-quvvatdan qolganingizda tarbiyada yo'l qo'ygan bu xatoingiz siz uchun juda katta azobga, tuzatib bo'lmas armonga aylanadi.

Farzandlaringizga bir ko'z bilan qarangiz, kattasini katta, kichigini kichik deb, shunga yarasha ish tutsangiz, kichiklarning kattalari bilan maslahatlashib ish tutishlariga, kattalarining kichiklarini izzat qilishga, ularni himoya qilishga odatlantirsangiz, ularni yaxshi ishlarini ma'qullab, rag'batlantirib borsangiz, yomon ishlarini o'z vaqtida qaytarib, bu ishning nima uchun yomonligini yotig'i bilan tushuntirib borsangiz, farzandlaringizning kamoli, o'zingizning kelajakdagi rohat-farog'atingiz uchun juda muhim va katta tarbiyaviy ishni amalga oshirgan bo'lasiz. Ulardagi mehr-oqibatni, obro'larini ko'rib, o'z hayotingizdan mamnun bo'lasiz, farzandlaringiz tarbiyasi borasidagi chekkan zahmatlaringiz, mashaqqatlaringiz unutiladi.

Quyidagi tarbiyaviy masalalarni tahlil qiling:

***Masala-1***. o'ziga to'q otaxonning uch qiz, bir o'g'li bor edi. U kishi qariganlarida mehrni shu yagona o'g'illaridan kutgan edi. Ammo kelini noboproq chiqib, ular otaga qarashmadi. Ikki katta qizi ham o'z oilalari bilan bo'lib, otadan xabar olmas edilar. Otaning kuniga kenja qizi yaradi. Oq yuvib, oq taradi, ko'nglini ko'tarishga harakat qildi. Otaxon olamdan o'tganlaridan keyin kenja qizdan tashqari hamma meros talashib, ettisi o'tmasdan janjallashishdi.

***Masala-2***. Besh og'a-inining uchinchisi biznes qilaman deb katta qarzga botib qoldi. Nihoyatda ahvoli tang bo'lgan uka akalaridan qarz so'radi. o'ziga to'q akalari qarzni qaytarib bera oladimi, yo'qmi? deb unga qarz berishmadi. Uka nima qilishini bilmay, o'zini har tomonga urdi. Oxiri noiloj bir qaltis ishga qo'l urib, qamalib ketdi. Mahallada: "Ukamning bolalarini biz boqayapmiz, hech narsaga muhtojlik joyi yo'q",- deb ko'kragiga urib yurgan akalarni qanday baholaysiz?

**Tayanch iboralar:**

O'quv-tarbiya, vaziyat, loyiha, loyihalash, tarbiya, ta'lim, tarbiyalash, tarbiyaviy jarayon, ta'lim oluvchi, o'quv faoliyati, ta'lim loyihasi, ma'lumot, mustaqil faoliyat, mezon, mutaxassis, oila, ota-ona, majburiyat, vazifa, burch

**Nazorat uchun savollar**

2. O'quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalash deganda nimani tushunasiz?
3. Ta'lim loyihasini tayyorlash deb nimaga aytiladi?
4. Ta'lim loyihasini amalga oshirishni bilasizmi
5. Pedagogik loyihalashning umumiy algoritmi nimalardan iborat?
6. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish deganda nimani tushunasiz?
7. O'quv materialini samarali o'zlashtirishning ichki sharoitlarini ayting
8. Qabul qilishning tashqi faktorlariga nimalar kiradi?
9. Loyihalash jarayonining ob'ekti va muammolarini bilasizmi
10. Ta'limning samaradorlik mezonini ayting?
11. Oiladagi tarbiyaviy majburiyatlar va vazifalar haqida nimalarni bilasiz?
12. Ota-onaning farzand oldidagi va aksincha farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlari haqidachi?

**Asosiy adabiyotlar**


1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O'zbekiston, 1997.
2. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2011 yil.

3. Rashidov H.F. va boshqalar. “Kasbiy pedagogika” blokini o‘qitish metodikasi. /O‘quv-uslubiy qo‘llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
4. Sarsenbaeva R.M., Doniev B.B. Umumiy pedagogika. /O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.
5. Mavlonova R., To‘raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002
6. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. Qo‘llanma. T. 1998
7. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 608 bet.

www.bilimdon.uz. – O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus pedagogik vazirligining veb sayti.

## 7-mavzu: O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI VA VOSITALARI

**Reja:**
**1. O‘qitishning umumiy va muayyan shakllari.**
**2. Ta’lim vositalari va ularning turlari.**
**3. Tarbiya vositalari va ularni amalga oshirish shakllari**

### 1. O‘qitishning umumiy va muayyan shakllari

Ta’limni tashkil etish shakllari ma’lum ijtimoiy to‘zumning manfaatlariga mos holda shakllangan. XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi YA.A. Komenskiy (1592 - 1670) tarixda birinchi bo‘lib maktab ta’limida sinf – dars tizimini yaratdi.

YA. A. Komenskiyning ta’limni tashkil qilish haqidagi karashli bir kator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo‘lsa ham garb mamlakatlariga juda tez tarkaldi va ta’limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e’tirof etildi.

Sinf – dars tizimi shark mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tadbik bo‘lmadi. Ularda oktyabr tuntarishiga kadar o‘rta asr maktablariga xos ta’lim tizimi davom etib keldi.

Bir o‘qish xonasida 6 yoshdan 15 - 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar guruhi bilan bir vaqtda mashg‘ulot olib borilardi. SHuningdek, bir o‘qish xonasidagi (20 - 30) O‘quvchining bilim darajasi ham turlicha bo‘lar edi. [13]

O‘zbek maktabi oktyabr tuntarishidan keyin sinf – dars tizimiga utdi.

Sinf – yoshi va bilimi jixatdan bir xil bo‘lgan ma’lum miqdoridagi O‘quvchilar guruhidir.

**Dars – ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli sifatida.** Dars deb bevosita O‘qituvchining rahbarligida muayyan O‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg‘ulotiga aytiladi.

Dars – o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

Dars – o‘quv ishlarining markaziy qismidir.

Ayni paytda, o‘quv muassasalarida ta’limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmokda.

**1.** Sinf – dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

**2.** Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

Sinf – dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulot O‘qituvchining kundalik o‘quv materialini tizimli bayon kilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishini, O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma

13 Подласый И. П. “Педагогика”. Москва. “Владос» ,2005, 77-срт.

va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, O‘quvchilarni mustaqil ishlashga urgatishni o‘z ichiga oladi.

Amaliy va tarjiba ishlari shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar sinf sharoitidan tashkarida, o‘quv ustaxonasi, tajriba er uchastkalari va kolxoz – sovxoz ekin maydonlarida ishlash, ekskursiyalar o‘tkazish yo‘li bilan olib boriladi.

Hozirgi zamon didaktikasi ko‘p yillar davomida tuplangan o‘qitish qoidalari, fan yutuklari va ilg‘or tajribalar asosida boyib bormokda deyishga asos bor. Ammo o‘quv jarayonining hamma qismlarini o‘qitishni tashkil qilishning mazmuni, usullari, vositalari va shakllari bilan munosabatlari yaxshi ochib berilmagan. Bo‘larning hammasi didaktik qoidalardan amalda foydalanishni qiyinlashtiradi. Maktab oldida turgan yangi vazifalar va extiyojlar O‘quvchilarga beriladigan ta’lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yukori bosqichga kutarishni talab qiladi.

O‘qituvchi o‘zining anik sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko‘p mos keladigan o‘quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan xoli emas. Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashga tavakkalchilikka, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo‘l kuymaydi.

**Darsga bo‘lgan talablar**

Dars, yukorida aytib utilganidek, o‘qitishni tashkil etishning o‘zgarmas shakli emas. O‘quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo‘llarini izlaydi. Bu sohada turli xil kurik-tanlovlar, jumxuriyat mikyosida o‘tkazilayotgan pedagogik o‘qishlarda o‘rtaga kuyilayotgan ilg‘or O‘qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Turli - tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

**1.** Har bir dars ma’lum bir maqsadni amalga oshirishga karatilgan va puxta rejalashtirilgan bo‘lmogi lozim.

**2.** Har bir dars mustahkam g‘oyaviy - siyosiy yunalishga ega bo‘lmogi lozim.

**3.** Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog‘langan bo‘lmogi lozim.

**4.**Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmogi lozim.

**5.** Darsga ajratilgan har bir soat va dakikalarni tejab, undan unumli foydalanmok lozim.

**6.** Har bir dars O‘qituvchi va O‘quvchilarning faolligi birligini ta’minlamogi lozim.

**7.** Darsda o‘quv materiallarining mazmuniga oid ko‘rsatmali kurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmok lozim.

**8.** Dars mashg‘ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi O‘quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

**9.** Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chikib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmok imkoniyatini izlamok lozim.

Bir soatlik darsga muljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil kilingan mashg‘ulot turi dars turlari deb yuritiladi.

**Ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars tiplari quyidagilardir:**

**1.** YAngi bilimlarni bayon qilish darsi.

**2.** O‘tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.

**3.** O‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirish va baholash darsi.

**4**. Takroriy – umumlashtiruvchi va kirish darslari.

**5.**Aralash dars (yukoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo‘llanish).

Har bir dars turining ma’lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa O‘qituvchining o‘quv materialini to‘g‘ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda koldirishga, takrorlashga va uning o‘zlashtirilishini nazorat kilib borishiga yordam beradi.

Ma’lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda ikkinchi, xatto uchinchi bir dars turining elementlari bo‘lishi mumkin. Masalan, maktablarimizda eng ko‘p qo‘llaniladigan dars tiplaridan biri – yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

a) yangi bilimlarni bayon qilish;

b) yangi bilimlarni mustahkamlash;

v) yangi bilimlar ustida mashq qilish;

g) yangi bilimlarga bog‘liq holda uy vazifalari topshirish.

Demak, har bir dars turlicha kurinishda bo‘ladi, shu sababli ham, shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash (ikkinchi bir dasr turi elementi – savol–javob o‘tkazish), yangi bilimlar ustida mashq o‘tkazish (uchinchi bir dars turi elementi – masala va misollar echdirish, grammatik tahlil, grafik ishlar olib borish), uyga vazifa (boshqa bir dars elementi – tushuntirish, yo‘l-yuriklar ko‘rsatish va xokazo) kabi boshqa elementlarning bo‘lishi ham mumkin. SHunga qaramay, darsdan ko‘zlangan maqsad O‘quvchilarga yangi bilim berishga karatilgan bo‘lsa, butun didaktik usullar shunga buysundiriladi. SHuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Ma’lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir dars elementlari asosiy dars turidan urin olishi va ayni paytda asosiy dars turining tuzilishini tashkil qilishi mumkin.

Demak, dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi.

Biroq, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism – didaktik usul, dars tuzilishi bo‘lavermaydi. U o‘qitish usuli bilan bog‘langandagina dars tuzilishini tashkil qila oladi. YA’ni dars tuzilishining o‘zgarishi bilanoq dars olib borish usuli ham o‘zgaradi. Demak, darsning shu qismiga kelib, dasrning shakli ham, usuli ham o‘zgaradi, yangilanadi. Bu bilan darsning yangi bosqichi boshlanadi.

**Seminar va amaliy-tajriba ishlar shaklidagi mashg‘ulotlar**

Seminar mashg‘ulotlari talabalarning mavzudagi muhim masalalarni chuqur o‘rganish yuzasidan mustaqil ishlashini, keyinchalik ularni jamoa bo‘lib muhokamama qilishini tashkil etish shaklidir.

Seminar darslarida mavzu o‘rganilgunga kadar o‘qituvchi o‘quvchilar uchun savol va topshiriqlar to‘zib chiqadi. Kirish mashg‘ulotida u o‘quvchilarni materialning mazmuni, kilinadigan ishning xarakteri bilan kiskacha tanishtiradi, ularga har qaysi seminar uchun topshiriq beradi va tayyorlanishi uchun adabiyot ko‘rsatadi. Bir xil vazifalar  hamma uchun umumiy bo‘ladi, boshqa vazifalar ayrim O‘quvchilarga yoki 3 – 4 kishidan tuzilgan guruhga beriladi. Bunda hamma O‘quvchilar seminar uchun dasturdagi majburiy materiallar minimumini ishlab chikishlari kerak.

Seminarlarga 2-3 xafta tayyorgarlik quriladi. O‘quvchilar adabiyotni o‘rganadilar, material yigadilar, har xil kuzatishlar o‘tkazadilar, o‘z axboratlari yuzasidan tezislar to‘zadilar.

Seminarlar o‘qish vaqtida o‘tkaziladi. Bunday mashg‘ulotlar miqdori mavzuning mazmuniga va uni o‘rganish ajratilgan vaqtga bog‘liq. O‘quvchilar mashg‘ulotlarda axborot beradilar; ularga turli xil namoyish etiladigan narsalarni ilova qiladilar. Masalani muhokamama qilishda hamma O‘quvchilar ishtirok etishadi. Seminarga puxta tayyorlanish uchun o‘qituvchi ayni bir vazifani hammaga yoki bir necha o‘quvchiga berishi mumkin.

**2. Ta’lim vositalari va ularning turlari.**

**Ta’lim vositalari –** ta’lim-tarbiya jarayoni sifati samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ta’lim vositalari bilan qay darajada ta’minldanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim jarayonini amalga oshirishda yordam beruvchi vositalarga ta’lim vositalari deyiladi. Ta’lim vositalari uchga bo‘linadi: aniq, texnik va chop etilgan o‘quv materiallari.

Aniq ta’lim vositalarga o‘qitishda qo‘llaniladigan barcha aniq vositalar, xususan: mashina, taraktor, jihoz, dastgoh, tayyor mahsulotlar va hakozalar kiradi. Texnik vositalarga proektor, kino apparat, o‘quv televideniyasi, vediomagnitafon, kompyuter vediofilmlar, multimedia va boshqalar kiradi. Bundan tashqarii sinf doskasi, doska-stend, doska-bloknot, kodoskoplar ham texnik vositalarga kiradi. CHop etilgan o‘quv materiallariga barcha chop etilgan o‘quv va ko‘rgazmali materiallar kiradi. Jumladan, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, tarqatmali materiallar, ishchi varaqalari, nazorat (test) varaqalari, ma’ruza matnlari, jadvallar, yo‘l-yo‘riq xaritalari, topshiriq kartochlari va boshqalar.

***1. O‘qituvchi uchun vositalar:*** o‘quv predmetini o‘qitish metodikasi bo‘yicha qo‘llanmalar, shaxsiy metodika, murakkab masalalar bo‘yicha metodik tavsiyalar, o‘qituvchilar tomonadan tayyorlangan metodik ishlanmalar, mantiiqiy struktura va boshqalar.

***2. O‘quvchi uchun vosita:*** darslik, o‘quv qo‘llanma yoki o‘qituvchining ma’ruza matnlari, jadvallar, yo‘l-yo‘riq xaritalari, topshiriq kartochkalari va boshqalar.

***3. Dars o‘tish uchun vosita:*** plakatlar, diagrammalar, modellar, maketlar, etalonlar, namoyish qilish jihozlari, laboratoriya Amaliy ishlarini o‘tkazish uchun jihozlar, diafilm va boshqalar.

Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to‘ldirishi ya’ni uyg‘unlashuvi kerak. CHop etilgan o‘quv materiallari ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlashi va ularning faollashuviga ko‘maklashadi. SHuningdek, o‘qituvchi uchun yuqorida keltirilgan ta’lim vositalarini dars o‘tish jarayonida to‘g‘ri tanlashi muhim ahamiyatga egadir.

***Sinf doskasi*** – o‘quv materialini vizual namoyish qilishning an’anaviy va qulay vositasidir. Undan o‘quv materialining asosiy tayanch nuqtalarini belgilashdi yoki biror narsani tez yozish lozim bo‘lganda foydalanish juda qulaydir. Bundan tashqarii sinf doskasi ta’lim muassasasining har bir o‘quv xonasida mavjud.

*Kamchiligi:* yangi materialni tushuntirish uchun doskada yozilganlarni o‘chirishga to‘g‘ri keladi, avval yozilganlarni qayta ko‘rsatish imkoni bo‘lmaydi. Bundan tashqario‘qituvchi doskaga yozayotganida tahsil oluvchilarga teskari holatda bo‘lib, uni eshitish qiyin bo‘ladi.

***Doska-stend*** – mashg‘ulotlarda o‘quv munozaralari, aqliy hujum, guruh ishlari va boshqa muhokamalar natijalarini hujjatlashtirishda foydalaniladigan o‘qitishning texnik vositasidir. Bunda, stendga o‘sha kattalikdagi qog‘oz qo‘yiladi va unga turli rangdagi hamda shakldagi kartochkalar yopishtiriladi. Mashg‘ulot davomida stenda mazkur kartochkalar yordamida ilovalar, tuzilmalar, sharhlar va shu kabilarni tuzish mumkin. Uning afzalligi shundaki, kartochka (ilova, tuzilma, sharh) lar joylashuvini xohlagan vaqtda o‘zgartirish imkoniyati mavjud. SHuningdek, doska-stend bilan ishlaganda qisqa vaqt davomida barcha tahsil oluvchilarning fikr-mulohazalari va g‘oyalarini qamrab olish va qayd etish imkoniga ega bo‘linadi.

***Kodoskop (grafoproektor)*** – shaffof plyonkadagi tasvir (slayd) niekranga proeksiyalash uchun qo‘llaniladigan jihoz hisoblanadi. Undan ma’ruza vaqtida materiallarni namoyish qilish uchun, shuningdek, guruh ishlari taqdimotida yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Kodoskop foydalanish uchun qulay, moslashuvchan vosita bo‘lib, bir marta foydalangan plyonkadan ko‘p marta foydalanish mumkin, bundan tashqarii doska bo‘lmagan hollarda asosiy tushunchalar, g‘oyalar va natijalarni o‘qituvchi plyonkaga flomaster yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozib ko‘rsatishi mumkin.

***Tarqatmali materiallar*** – ta’lim oluvchilar uchun o‘rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo‘lmagan (1, 2 varaq) yozma o‘quv materiali hisoblanadi. Mazkur materiallar Mashg‘ulot ishini qiziqarli qilish imkonini berib, ko‘p hollarda ta’lim oluvchilar uchun mustaqil ravishda o‘qib chiqib muhokama qilish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan o‘qitish vositalarining qanday darajada ta’minlanganligiga bog‘liqdir. O‘qitish vositalari ta’limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari singari didaktikaning asosiy kategoriyasi sifatida ta’lim jarayonida ishtirok etadi.

O‘qituvchi o‘z faoliyati jarayonida o‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda o‘qitish vositalaridan keng foydalanadi.

Bugungi kunda ta’lim oluvchilar o‘z ijodiy imkoniyatlarini namoyish qilish, tabiatdan berilgan iste’dod va qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishi o‘qitishning zamonaviy metod, shakl va vositalaridan foydalanish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

**ЎҚИТИШ ВОСИТАЛАРИ**

**БОСМА**

**ТЕХНИК**

**АНИҚ**




**Chizma. Ta’lim vositalarining turlari**

Xususan, o‘qitish vositalari o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarni beruvchi har qanday ma’lumot va axborot tashuvchi vositalardir. O‘qitish vositalari foydalanishi jihatidan uch turga ajratiladi:

1. **Ta’lim beruvchi uchun**: o‘quv-metodik qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar va ishlanmalar, o‘quv rejasi va dasturlari, ma’ruza matni, majmuasi kabilar.
2. **Ta’lim oluvchi uchun**: darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, jadvallar, yo‘l-yo‘riq texnologik xaritalari, tarqatmali materiallar, tipik xatolar xaritasi, topshiriqlar varaqasi kabilar.
3. **Dars o‘tish uchun**: Plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalari, texnik vositalar, aniq vositalar kabilar.

O‘qitish jarayonida ayrim hollarda ta’lim oluvchi uchun mo‘ljallangan o‘qitish vositasi ta’lim beruvchi uchun ham, dars o‘tkazish uchun ham talab etiladi. O‘qitish jarayonida ta’limning tanlab olingan metod, vosita va shakllari bir-birlarini to‘ldirishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘qitish vositalarini xususiyatlariga ko‘ra uch turga ajratish mumkin: **bosma** (matnli, tasvirli), **texnik** (audiovizual, yordamchi (jihozli)) va **aniq** (modelli, haqiqiy).

Quyida shular haqida so‘z boradi (chizma):

- matnli o‘qitish vositalari deganda olingan ma’lumot va axborotlarni olish, yig‘ish va ularni qayta ishlash tushuniladi. Bu qayta ishlangan vositalarni o‘quv dasturlari, darsliklar, ma’ruza matnlari, tarqatmali materiallar, imtihon va nazorat varaqalari ko‘rinishida rasmiylashtirish mumkin;
- ta’lim muassasalarida tasvirli o‘qitish vositalari umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. Ularga fotosuratlar, eskizlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, tasvirlar, simvollar va plakat kabilarni misol keltirish mumkin;
- ta’lim muassasalarida audiovizual o‘qitish vositalari jarayonlar va ishlash mexanizmlari to‘g‘risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. Bularga videofilmlar, kompakt disklar, audiokassetalar, Power Point materiallari, elektron darslik kabilarni misol keltirish mumkin;
- ta’lim muassasalarida yordamchi (jihozli) o‘qitish vositalari tasvir va matnni yozish, saqlash uchun xizmat qiladi. Ularga, doskalar (bo‘r doska, oq doska, magnit doska), “Pinbord” doskasi, videoproektor, videoproektor ekrani, kodoskop, kompyuter, flipchart, audiomagnitafon, videomagnitafon, televizor kabilarni misol keltirish mumkin;
- modelli o‘qitish vositalari o‘rganilayotgan ob’ektning modeli orqali u haqida tasavvur hosil qilish uchun xizmat qiladi. Unga, modellar, maketlar, trenajerlar, mulyajlar kiradi;
- haqiqiy o‘qitish vositalari ta’lim muassasalarida o‘rganilayotgan ob’ektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. Bularga, asbob-uskunalar, stanoklar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, xom ashyo kabilarni misol keltirish o‘rinli.

- технологик жараёнлар бажарилиши, машина ва механизмларнинг ишлаши тўғрисида;
- видеофильмлар;
- виртуал стентлар;
- ида-товушли маҳсулотлар;
- компакт дисклар(CD-Rom)
- фотосуратлар ва тасвирлар
- эскиз, чизма ва схемалар
- расмий тасвирлар, режа-жадваллар, символлар, диаграмма ва графиклар.

- махсус адабиётлар
- ўқув-дидактик адабиётлар,
- модулли ўқув дастурлари
- тарқатма материаллар
- синов ва назорат варақлари
- жиҳозлар;
- ускуналар;
- хом – ашё ва тайёр маҳсулотлар;

Матнли – визуал воситалар

Тасвирли -визуал

Аудио – визуал воситалар

Меҳнат соҳасида ишлатиладиган асл нарсалар

**Ўқув жараёнини визуаллаштириш воситалари**

**Rasm.**

**O‘quv didaktik materiallar va vositalar**

Nazariy darslarda ta’lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, ya’ni darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, tarqatmali materiallar hamda texnik vositalaridan foydalanishadi. Ular amaliy mashg‘ulotlar jarayonida aksariyat tasvirli va aniq vositalardan, ya’ni eskizlar, chizmalar, asbob-uskunalardan foydalanishadilar. Ta’lim muassasalarida ta’lim beruvchi ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar, jarayonlar va vazifalar to‘g‘risida keng qamrovli aniq tasavvurlarni vujudga keltirish uchun foydalanishadi.

YOrdamchi vositalar buning aksi bo‘lib, tasvir va mantlarni yozib olish va esda saqlab qolish imkonini beradi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproektor kabilardir. Ish sohasiga tegishli aniq narsalar, ya’ni mahsulotlar, asbob-uskunalar va boshqalar dars jarayonida didaktik funksiyaga ega bo‘lib, o‘quv vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ta’lim vositalaridan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo‘ljallangan guruh, maxsus soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o‘rin tutadi.

SHuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim beruvchi o‘quv va ko‘rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq, oqilona foydalanishni bilishi kerak. SHuningdek, u o‘qitish vositalaridan foydalanayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni tezda bartaraf etadigan bo‘lishi lozim.

O‘quv-didaktik materiallar (yoki o‘quv vositalari) deyilganda, o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilar tushuniladi. Modulli metodika asosida o‘qitishda o‘quv-didaktik materiallar sifatida nazariy darslarda matnli vizual vositalardan, misol uchun o‘quv kitoblari, kartoteka va prospektlardan, tarqatma materiallari, uslubiy qo‘llanmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo‘yicha ko‘rsatmalardan foydalanilish tavsiya etiladi (rasm).

Bunday o‘quv va didaktik materiallarga qo‘shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlar hosil qilishni osonlashtiradi.

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funksiyalar to‘g‘risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Ish sohasiga tegishli asl narsalar, ya’ni mahsulotlar, jihozlar va asboblar nazariy yoki amaliy mashg‘ulot paytida didaktik funksiyaga ega bo‘lsa, u holda o‘quv vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o‘rin tutadi. Va nihoyat, amaliy mashg‘ulotlar o‘qituvchisi o‘quv va ko‘rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo‘lishi lozim.

Masalan: «Buxgalteriya hisobi nazariyasi» fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazuvchi o‘qituvchi buxgalteriya ishi jarayonida sodir bo‘ladigan nuqson va kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf eta bilishi, hisob-kitoblarda adashmasligi, kompyuter texnologiyasini yaxshi o‘zlashtirishi, qisqasi o‘z kasbiy sohasining mohir ustasi bo‘lishi kerak. Amaliyot o‘qituvchisi o‘z kasbiy sohasi bo‘yicha qanday yangi materiallar va kashfiyotlar borligi, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o‘zi yangilik qila olishi mumkinligi haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lishi lozim. Ko‘pincha doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proektor slaydlari kabi vizual vositalarni o‘quvchilarning o‘zlari tayyorlaydilar.

Modul tarkibidagi nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun manbaviy material sifatida foydalanilgan vositalar quyidagicha farqlanadi:

Амалиёт ўқитувчилари томонидан дарсни кўргазмали ўтказиш ва билим бериш учун қўлланилади.

**Ўқув материаллари**

Ўқувчилар ўрганишлари учун ўқитувчи томонидан тайёрланади.

**Дидактик материаллар**

Ko‘pincha o‘quv materiallari bir paytning o‘zida didaktik materiallar sifatida, ya’ni o‘qitish va o‘rganish uchun ishlatiladi.

O‘quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o‘qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg‘ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar yo‘q bo‘lsa, u holda ularni o‘qituvchining o‘zi tayyorlashi lozim:

O‘quv va didaktik materiallarni tayyorlashda o‘qituvchi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e’tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatma materiallar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;
- yozma topshiriqlar, yozma va og‘zaki testlar uchun so‘rov qog‘ozlari;
- baholash varaqasi, nazorat qog‘ozi;
- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

Nazariy darslarni o‘tkazish paytida amaliy ko‘rsatmalar quyidagi vositalar orqali ishlatiladi (jadval);

| Turi | Ishlatish uchun ko‘rsatmalar |
|---|---|
| O‘quv kitoblari | Kitobning muayyan betlarini belgilab, dars |

| | |
|---|---|
| | rejasiga kiritiladi. |
| Tarqatmali materiallar | O‘quv kitoblari yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlanadi va ko‘paytiriladi. |
| Doska tasvirlari | Mavzu va grafiklarga oid eskizlar tayyorlash. |
| Slaydlar | Nusxalash apparatida yoki kompyuterda tayyorlanadi. |
| Modellar | Ish jarayonidagi har bir yaroqli predmet – ham yaxshi, ham yomon mahsulotlar ko‘rsatilishi lozim. |

Amaliy mashg‘ulotlar yoki amaliy ish paytida berilgan amaliy ko‘rsatmalar asosida quyidagi vositalardan foydalanilish tavsiya etiladi (jadval).

Agar o‘quv va didaktik materiallar mavjud bo‘lsa, u holda ularning fan va modulning o‘quv maqsadlari va mazmuniga mos kelish-kelmasligini tekshirishi kerak.

O‘quv maqsadlariga erishish uchun quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim:

Manbalarda muayyan kasbiy sohaga oid dalillar, tushunchalar,tamoyillar va usullarning taqdim etilganligiga;

Manbalarda "o‘zlashtirilishi shart bo‘lgan” va "o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan” darajadagi bilimlar mavjudligiga;

Materiallarning bilim berish uchun yoki ko‘nikmalar shakllantirilishiga mo‘ljallanganligi.

**Amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan o‘quv vositalari**

| Turi | Ishlatish uchun ko‘rsatmalar |
|---|---|
| Texnik chizmalar (kinematik sxemalar,konstruktiv chizmalar) | Asl nusxalari maxsus jildlarda to‘planadi. |
| Ekspluatatsion ko‘rsatmalar | Nusxalardan tarqatmalar va slaydlar tayyorlash uchun ishlatiladi. |
| Ish rejalari va boshqa hujjatlar | Faqat nusxalar ishlatiladi, asl nusxlari esa toza saqlanadi. |
| Modellar, real jihozlar asboblar va maxsulotlar. | YAroqli va yaroqsiz jihozlar, yaxshi va yomon mahsulotlar farq ko‘rsatib beriladi. |

O‘qitish va o‘rganish materiallardan didaktik foydalanishga mos holda materiallarning mazmuni va tuzilishiga ko‘ra o‘qituvchi va o‘quvchi materiallariga bo‘linishi kerak.

O‘qituvchi qo‘lidagi materiallar tarkibida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi lozim:

- modulning o‘quv maqsadlari va mazmuni haqidagi ma’lumotlar;
- tashkiliy masalalarga oid ma’lumotlar;
- amaliy mashg‘ulotlar va mashqlar o‘tkazilishida qanday didaktik-uslubiy tartib qo‘llanilishi haqidagi ma’lumotlar;
- mashqlar ta’rifi;
- o‘quvchilarning nazariy va amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha natijalarini tekshirish va baholashga oid ma’lumotlar;
- test va sinovlarga oid savol va javoblar.

O‘qituvchilar uchun tayyorlangan materiallar nafaqat sohaga tegishli ma’lumotlarni, balki tashkiliy ishlar va uning natijalarni baholash haqidagi ma’lumotlarni, o‘quvchilar uchun tayyorlangan materiallar faqat sohaga tegishli bilimlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Didaktik materiallar faqat o‘quvchiga mo‘ljallangan bo‘lsa, o‘qitish materiallaridan farq qiladi. Masalan, ular topshiriq varaqalari, savolnomalar, yo‘naltiruvchi savollar va muayyan tarqatma materiallar bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma’lumotlarning bo‘lishi tavsiya etiladi:

- matnlarda bo‘sh qoldirilgan joylar (o‘quvchilar tomonidan to‘ldirilishi uchun);
- o‘quvchining erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar;

- ustaxonada ishlash uchun moʻljallangan va ish bosqichlari koʻrsatilgan (tushunarli) chizmalar (eskizlar) va jadvallar;
- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqidagi ma’lumotlar.

**3. Tarbiya vositalari va ularni amalga oshirish shakllari**

Oʻqituvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya vositalaridan foydalaniladi. Masalan, sinf majlisi, yigʻilishlar, ertalabki ommaviy yigʻin (lineyka), kluv ishlari, turli tadbirlar va boshqalar.

**Tarbiya vositalari** biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yoʻl bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (koʻrsatmali qoʻllanmalar, kitoblar, radio, televidenie). Bundan tashqari oʻquvchilar jalb qilingan faoliyat turlari – shanbaliklar, kutubxona faoliyati, uchrashuvlar, kinofilmlar, san’at asarlari, oʻqituvchining jonli soʻzi, bolalar oʻyini, sport, badiiy havaskorlik toʻgaraklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari boʻlishi mumkin.

**Tarbiya shakl (turi) lari** – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va oʻzaro bir-biriga ta’sir koʻrsatishidir.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl (tur) lari, metodi va vositalaridan mohirona foydalanishga bogʻliq. SHu oʻrinda tarbiyachilar ta’sir etishning oʻquvchi shaxsiyatiga mos turini tanlab olishlari, uning shaxsini ijobiy tomonga oʻzgartirishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratishlari lozim. Tarbiya shakllari har bir oʻquvchiga, har qaysi oʻquvchilar jamoasiga alohida munosabatda boʻlishni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonida oʻqituvchi yakka oʻquvchi yoki oʻquvchilar jamoasi manfaati yoʻlida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun oʻquvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta’sir etish majmuasiga tarbiya shakli deyiladi.

Oʻquvchi yoshlarni tarbiyalashda milliy an’analar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Bular oʻz navbatida, yangicha tarbiyaning oʻzgacha muvofiq uslub va shakllarini taqozo etadi. **Tarbiya shakllarini** oʻrganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish, koʻnikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin: oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, axloqiy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy, estetik, jismoniy kabi usullari mavjud.

Oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish lozim. YOsh avlodlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilgʻor kishilari diqqat markazida boʻlib kelgan. Dunyoqarash faqat insonlarga xos xususiyat boʻlib, hayvonot dunyosi, boshqa narsalar, ya’ni buyumlar va mavjudodlar uchun bu hol yotdir, ularda ham dunyoqarash boʻladi, deb oʻylash nooʻrindir.

Avvalo ta’kidlash lozimki, ilmiy dunyoqarash turli kasb egalarida turlicha – toʻlaroq, mukammalroq, chuqurroq yoki yuzakiroq, chalaroq, sayoz va xomroq boʻlishi mumkin. Bunda kishilar tomonidan oldingi ajdodlardan me’ros boʻlgan ma’naviy boyliklarni, bilimlarni va hozirgi mavjud bilimlarni oʻzlashtirish darajalari muhim ahamiyatga egadir.

Ilmiy dunyoqarash jonli kuzatishdan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga oʻtish orqali amalga oshadi. Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida doim vorislik asosida rivojlanadi. Oʻtmish dunyoqarash yangi davr dunyoqarashining ildizini tashkil etib uni hayotbaxsh ozuqa bilan ta’minlab turadi.

**Aqliy tarbiya**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kelib chiqayotgan yangidan-yangi muammolarni ilmiy asosda hal qila oladigan shaxsni tarbiyalash bosh masala hisoblanadi. Buning uchun esa aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatiga oʻrgatish zarur. Aqliy tarbiyani shakllantirishda faqat tushuncha va faktlardan foydalanishning oʻzi etarli emas, buning uchun fikrlash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, sistemalashtirish, taqqoslash, asosiy ma’lumotni ajratib olish kabi jarayonlarni ham faol qoʻllash lozim boʻladi. Boʻlarning hammasi dars vaqtida amalga oshirib borishi aqliy mehnatni toʻgʻri tashkil qilish malakasini shakllantirish kerak. Aqliy mehnatni toʻgʻri tashkil qilish, talabalarga mustaqil bilim olishda eng muhim element boʻlib hisoblanadi. Aqliy tarbiya oʻquvchilarda aqliy mehnatni toʻgʻri tashkil etish, oʻzini-oʻzi boshqarish, oʻzini-oʻzi nazorat qilish, malakasini hosil boʻlishiga koʻmaklashadi. Aqliy tarbiya

talabalarda didaktikani jamlab olish xususiyati, xotirasini mustahkamlash, fikrlash operatsiyalarini ratsional o‘tkazish kabi malakalarni o‘stiradi.

Aqliy tarbiyasi etuk, o‘tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik - bu donolik. Donolik - bu insonning eng buyuk va oliyjanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne’matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. SHuning uchun bo‘lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo‘lmas», - deyiladi.

**Axloqiy tarbiya**

«Axloq», «hulq» va «atvor» so‘zlari arabcha so‘z bo‘lib ular o‘zbek tilida ham o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Ayrim odatlarda «axloq-kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me’yorlari majmui» desa, boshqalar esa «axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, hamma sohalarda kishilarning hatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi» deyishadi.

Axloq me’yorlari hulq atvorning regulyatori sifatida odat me’yorlariga zid hatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. SHunisi ham borki, huquq majburiy bo‘lsa axloq ixtiyoriydir.

Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo‘lishga o‘rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib boradi. Axloqiy tarbiyada yaxshi hulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq ta’limi tizimida o‘qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. SHaxsning jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o‘z hulqiga munosabatlarni quyidagilarda o‘z aksini topgan:

*a)* jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;

*b)* mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;

*v)* atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat, yuqori muomala madaniyatiga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish;

*g)* shaxsning o‘ziga, o‘z hulqiga, axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonini Alpomish, To‘maris, SHiroq kabi xalq qahramonlari; A.Temur, Ulug‘bek, Bobur singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy kabi olimu fo‘zalolarimiz qarashlariga tez-tez murojaat qilishimiz, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishning asosini tashkil qiladi. SHu bilan birgalikda tarbiya borasidagi jahon standartlariga ham e’tiborni qaratmoq lozim. Estetik tarbiya ancha keng ma’noga ega bo‘lib shaxsni tabiat va jamiyatdan go‘zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o‘rgatadi.

Tarbiya turlarining hammasi bir-birlari bilan o‘zaro uzviy bog‘liq, lekin shunga qaramasdan o‘z mazmunidan kelib chiqqan holda, ular o‘z spetsifikasiga ham egadir. Endi biz quyidagi: aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, xuquqiy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi kabi tarbiya turlarining har biriga alohida-alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo‘ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o‘zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma’naviy motivlar shakllangan bo‘ladi. Bu motivlar esa o‘sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag‘batlantiradi.

YOsh avlodni jamiyatga, mehnatga, o‘ziga munosabatni ochib beruvchi ma’naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash - tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina o‘quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir. Jumladan:

1. Axloqiy onglilik.
2. Axloqiy qadriyatlar.
3. Axloqiy his-tuyg‘ular.

**Ekologik tarbiya.**

Ekologiya so‘zi «tom» yoki «uy» degan ma’noni anglatib, nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan birinchi bor fanga kiritilgan. Ekologiya fani hozirgi bozor munosabatlari davrida

ko‘pgina tarmoqlarga ega: o‘simliklar ekologiyasi, zooekologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Ekologiya fani tanlab olingan bir yoki bir necha ob’ektning yashash sharoitini yoki normalarini o‘rganadi va yashashning optimal darajasini aniqlashga yordam beradi.

Bu yo‘nalishdagi ishlar bizga ekologik bilimlarni etkazadi, ammo bu bilan insoniyat cheklanib qolmaydi. Davr talabiga ko‘ra, yana boshqa yo‘nalishda ham ish olib borishni talab etmoqda. U ham bo‘lsa **ekologik tarbiya masalasidir.**

Ekologik tarbiya albatta ekologik bilim asosida shakllanadi, lekin u o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to‘g‘ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o‘z oldiga talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo‘yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik his-tuyg‘ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi. SHunday qilib, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ekologik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham shakllantirib borish zarur bo‘ladi. Ekologik munosabatlarga:

1. Hayotga munosabat.
2. YAxlitlik hissini tarbiyalash.
3. Javobgarlik hissini tarbiyalash.
4.Tabiat go‘zalliklarini his etish kabi komponentlarni kiritish mumkin.

**Huquqiy tarbiya.**

Huquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko‘zlagan holda ifodalanishidir. Huquqiy tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo‘naltirilganligining tarkibiy qismi tarzida huquqiy qarashlariga asoslanishi zarurdir.

O‘sib kelayotgan yosh avlod huquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o‘z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning hammasi prinsipial jihatdan yangi, yanada murakkab muammolarni hal etish zarurligini ifoda etadi. Avvalo, huquqiy tarbiya yangi yosh avlodni kamol toptirishning samarali vositasi sanaladi.

YUqorida qayd qilingan mulohazalar **huquqiy tarbiyaning** yaxlit tizimi quyidagilardan iboratligini ifodalaydi:

**Birinchidan**, huquqiy tarbiya sub’ektlariga: davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, mansabdor shaxslar va boshqalar kiradi.

**Ikkinchidan**, huquqiy tarbiya ob’ektlariga: mansabdor shaxslar, fuqarolar, ichki ishlar idoralari xodimlari kiradi.

**Uchinchidan**, huquqiy tarbiya mazmuniga: huquqiy ta’lim, huquqiy targ‘ibot va tashviqotlar kiradi.

**To‘rtinchidan**, huquqiy tarbiya shakllariga: maruzalar, seminarlar, suhbatlar, viktorinalar kiradi.

**Beshinchidan**, huquqiy tarbiya metodlariga: ishontirish, rag‘batlantirish, majburlash kiradi.

**Oltinchidan**, huquqiy tarbiya vositalariga: matbuot, radio, televidenie, adabiyot va san’at asarlari, ko‘rgazmali tashviqot hamda targ‘ibot vositalari kiradi.

Mustaqillik sharoitida huquqiy madaniyat bilan huquqiy tarbiyaning bog‘liqligi yanada ortadi.

**Estetik tarbiya**

Hayotda tabiat go‘zallikning manbasidir. U estetik tuyg‘ularni, bolalarning kuzatuvchanligini va tasavvurini rivojlantirish uchun juda boy material beradi. Bundan tashqari, san’at ham estetik tarbiya vositasi hisoblanadi. San’at orqali estetik tarbiyalash pedagogikada badiiy tarbiya deb ataladi. U quyidagi metodlardan foydalangan holda olib boriladi:

1. Badiiy asarlarni namoyish qilish va ijro etish.
2. Badiiy asarlarni tahlil qilish va baholash.
3. San’atshunoslik bilimlaridan xabardor qilish, talabalar san’atning har xil turlarini ifoda vositalari, tarixi va nazariyasini xarakterlovchi muayyan ma’lumotlar jamg‘armasiga ega bo‘lishi zarur.

4. Talabalar ijodiy va ijrochilik faoliyatini tashkil etish, talabalar badiiy faoliyatining xilma-xil shakllarida mashqlar o‘tkazib, ijodiy qobiliyatlarini, voqelik predmetlarini va hodisalarini san’at vositalari yordamida mustaqil tasvirlash ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantiradi.

**Jismoniy tarbiya**

Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirish tizimidagi o‘z vazifasini bajarish bilan birga, u quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan: salomatlikni mustahkamlash, inson oranizmini chiniqtirish va talabalarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish; harakat ko‘nikmalarini va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; o‘g‘il bolalarni armiya safariga tayyorlash; fizkultura va sportning mohiyati hamda ijtimoiy roli haqidagi ma’lumotlardan xabardor qilish. Talabalarning sog‘ligini himoya etish va boshqarish jismoniy tarbiyaga ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo‘lga kiritgandan buyon davlat darajasida ahamiyat bermoqda. Jismoniy tarbiya va sport ishlariga hukumatimiz tomonidan katta g‘amxo‘rlik qilmoqda. Buning dalili sifatida Toshkent shahri va barcha viloyatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va tumanlarda bunyod etilayotgan sport inshootlari, sport komplekslarini keltirish mumkin.

**Mehnat tarbiyasi**

Mehnat tarbiyasi yosh avlodni tarbiyalashda markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Rivojlanishning asosiy vazifalaridan biri mehnat tarbiyasi va ta’lim samaradorligini umumiy ta’lim o‘quv muassasasi talabalarini kasb tanlash, mustaqil hayotga amaliy va texnika inqilobi va hozirgi zamon ishlab chiqarish sharoiti talabalarning mehnat tarbiyasi va ta’limi ana shu talablar darajasiga ko‘proq muvofiq bo‘lishini talab qilayotir. Nega deganda tarbiyalanuvchilar o‘quv yurtini tamomlagandan keyin ishlab chiqarishning butun tizimini bemalol bilishlari va unda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tezda payqab olishlari kerak.

«Umumiy va kasb-hunar ta’limini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari»da ta’kidlanadiki, mehnat tarbiyasini shaxsni shakllantirishning eng muhim omili va xalq xo‘jaligining mehnat resurslariga talabini qondirish vositasi deb bilish kerak.

Mexnat faoliyatini tashkil etishga kuyiladigan umumiy talablarni quyidagi jadvalda keltirib o‘tildi.

| **Mehnat faoliyatini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Mehnat faoliyatining axloqiy asosda, ijtimoiy-g‘oyaviy mazmunga egaligi. | Mehnat faoliyatini jamoa xarakteriga egaligi. | Mehnat topshiriqlarini berishda o‘quvchilar imkoniyatini hisobga olish. | Mehnat faoliyatining tizimli va rejali bo‘lishiga erishish. | Mehnat faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishi. |

Mehnat faoliyati jarayonida inson tabiatini o‘zgartiribgina qolmay u bilan birga o‘zi ham o‘zgaradi. Mehnat faoliyati shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga uning tabiat va jamiyatga qarashli tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Mehnat inson aqliy qobiliyati jarayonini o‘z ijodiy faolligini namoyon qilib ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi. Mehnat tufayli insonning ma’naviy munosabatlari shakllanadi. Jismoniy jihatdan kamol topib o‘z mehnat ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantira boradi.

Ammo, har qanday mehnat ham shaxsni har tomonlama tarbiyalash va kamol toptirish omili bo‘lavermaydi. Ekspulatatsiya va zo‘ravonlikdan xoli bo‘lgan mehnatgina insonga hal qiluvchi va tarbiyalovchi ta’sir ko‘rsatadi. Agar inson majburan mehnat qilsa bu jarayon ma’naviy rivojlanishga xalaqit beradigan va ma’naviy mamnuniyat keltirmaydigan mehnatga aylanadi.

O‘quv yurtlarida mehnat tarbiyasini rivojlantirish yo‘llarini ijodiy ishlab chiqishda shaxs mehnatini tashkil etish metodikasiga jiddiy e’tibor berish kerak. Mehnatdan maqsadga muvofiq foydalanilsagina u tarbiyalanuvchilar ma’naviy kamolotini omili bo‘lib qolishi mumkin. Buning uchun mehnat shaxsni qiziqtirishi, jismoniy mehnatgagina emas, balki aqliy mehnat bo‘lishi lozim. SHaxs mehnat natijasini tushunishi kerak. SHaxs faqat o‘quv muassasasidagina emas,

undan tashqarida ham mehnat qilishi kerak. Mehnat tarbiyalanuvchilar uchun ularning qurbi etadigan ijodiy faoliyat bo‘lishi lozim. Mehnat tarbiyasini bir qator etakchi vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- umumfoydasi uchun mehnat qilish zarurligi;
- talabalarda jamoa mehnat faoliyatida ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan barqaror ma’naviy va irodaviy xislatlarni tarbiyalash;
- talabalarni umumiy bilim va politexnik bilimlar tizimi bilan hozirgi zamon ishlab chiqarishda qatnashish uchun zarur bo‘lgan maxsus mehnat ko‘nikmalari va malakalari bilan qurollantirish;
- talabalarga bo‘lajak kasbni ongli tanlashda yordam berish;
- mehnat madaniyati asoslarini tarbiyalash, tarbiyalanuvchilarning iqtisodiy tarbiyasi.

Mehnat tarbiyasining vositalari quyidagilar:

1. Ijtimoiy foydali mehnat.
2. Oilaviy mehnat.
3. Mehnat faxriylari va turli mehnat vakillari bilan uchrashuv.

Mehnat ikki xil bo‘ladi:

*Aqliy mehnat.*

*Jismoniy mehnat.*

Aqliy mehnat - shaxs uchun eng og‘ir mehnatdir. Bu mehnat aqliy zo‘r berishni talab qiladi, uzoq vaqt davom etadi va qunt bilan shug‘ullanishni talab qiladi. Bu mehnatning murakkabligi yana shundaki, bundagi natijalarning namoyon bo‘lishi qiyinroq bo‘ladi, bu natijalarni shaxs deyarli tushunmaydi.

Akliy mehnati jarayonida tarbiyalanuvchilar turli darajada murakkablikka ega bo‘lgan va mustaqillikni turli darajada talab qiladigan bir qator aqliy, hamda amaliy xarakterlarni egallaydilar. Bu esa ularda bilimga qiziqishini, aqliy faoliyatning samarali turlarini shakllantiradi.

Akliy mehnati tarbiyalanuvchilarning qurbi etadigan darajada bo‘lishi kerak. Tarbiyalanuvchilarning qurbi etmaydigan mehnat inson organizmiga ziyon etkazadi. O‘qishdan ko‘nglini sovutishi mumkin. SHu sababli pedagog har bir tarbiyalanuvchining yosh xususiyatini va ta’lim olishga individual tayyorligini aniqlash, shaxsning e’tibori va tafakkuridagi xususiyatlarini bilishi, mehnat va dam olish rejimiga rioya qilishi muhimdir. O‘quv mehnatning bosh vazifasi-shaxsni o‘qishga o‘rgatishdan, uni O‘quv mehnati metodikasi va texnikasini qurollantirishdan, O‘zi bilim oladigan bo‘lish imkoniyatini berishdan iborat. O‘quv mehnati jarayonida ta’sir qiladigan ko‘nikma va malakalar tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali unumli mehnatda qatnashishga tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyalanuvchini bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun yaxshi poydevor bo‘ladi. Pedagogning o‘quv muassasasi tarbiyalanuvchilarida darsliklar, kompyuter texnikasi bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda mehnat tarbiyasiga doir ishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega. O‘quv mehnati jarayonida aqliy mehnat madaniyati hosil qilinadi. O‘rtoqlik, xayrixohlik, intizomlilik, uyushqoqlik singari fazilatlar tarbiyalanadi. Binobarin, bo‘larning bari mehnat tarbiyasini eng samarali hal qilish uchun xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, tarbiya jarayoni to‘xtovsiz va sistemali davom etadigan jarayon bo‘lib, unga pedagog, tarbiyachi rahnomalik qiladi va tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo‘lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat etadigan faoliyatni belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarning ushbu faoliyatga aktiv ishtirok etishini ta’minlab, ular o‘rtasida ijtimoiy, jamoa, o‘rtoqlik aloqalari va munosabatlari uchun sharoit yaratadi.

Tarbiyani yaxshi yo‘lga qo‘yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, tarbiya jarayoni manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir.

**Tayanch iboralar:**

Dars, fakultativ mashg‘ulotlar, kurs ishlari, uy ishi, maslahat soatlari, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, nazorat va mustaqil faoliyat shakllari, ma’ruza darslari, laboratoriya, amaliy va seminar mashg‘ulotlari, bosma: matnli, tasvirli vositalar, doskalar: bo‘r doska, flipchart doskasi, kodoskop, pinbord doskasi, videoproektor.

Tarbiya metodlari, tushuntirish, suhbat, rag'batlantirish, ibrat-namuna ko'rsatish, ishonch bildirish, uyaltirish, jazolash, tarbiya vositalari, aqliy tarbiya, axloqiy, ekologik, huquqiy, jismoniy tarbiya turlari.

**Nazorat uchun savollar**

1. O'qitishning umumiy va muayyan shakllarini tushuntiring?
2. Ma'ruza darslari, laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlari deganda nimalarni tushunasiz?
3. Qo'shimcha mashg'ulotlarga misol keltiring?
4. Fakultativ mashg'ulot deganda nimani tushunasiz?
5. Sinf-dars tizimi nima, izohlab bering?
6. Texnik vositalar va ularning turlarini aytib bering?
7. Matnli va tasvirli vositalarga misol keltiring?
8. Flipchart doskasi va pinbord doskasining farqi nimada deb o'ylaysiz?
9. Tarbiya metodlariga misol keltirig?
10. Ishonch bildirish metodi deganda nimani tushunasiz?
11. Siz qaysi metoddan ko'proq foydalangan bo'lar edingiz, misol keltiring?
12. Tarbiya vositasi sifatida qaysi ko'rinishini afzal deb bilasiz, fikringizni izohlang?
13. Ekologik tarbiyaga misol keltiring?
14. Huquqiy va axloqiy tarbiyaning farqli jihatlari nimada deb o'ylaysiz?
15. Tarbiya orqali insonni to'liq o'zgartirish mumkinmi?
16. Tarbiyaning jazo metodidan foydalanishni ahamiyati qanday deb o'ylaysiz, misol keltiring?

**Asosiy adabiyotlar**

1. "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi"dagi qonuni Toshkent. 1997 yil.

2. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi (darslik). –T.: Fan va texnologiya, 2008. –288 b.

3. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. "Pedagogika" Toshkent. TDIU, 2005 yil.

4. Rashidov H.F. va boshqalar. "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi. /O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.

5. Sarsenbaeva R.M., Doniev B.B. Umumiy pedagogika. /O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.

6. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.

7. Podlasыy I. P. Pedagogika. Moskva ,2003.

8. Xo'jaev N. va boshqalar. "Pedagogika asoslari". Toshkent.,TDIU 2003.

9. www.bilimdon.uz. – O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining veb sayti.

10. www.tgeu.uz – TDIU veb sayti.

11. www.tatu.uz – TATU veb sayti.

12. www.de.uz – Masofaviy ta'lim tizimiga bag'ishlangan veb sayt

13. www.inter – pedagogika.ru.

## 8-mavzu: PEDAGOGIK NAZORAT VA TA'LIM SIFATI NAZORATI

**REJA:**

1. **Ta'lim sifati va uni baholash mazmuni va mohiyati**

2. **Ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillar**

## 3. Mezonga va me’yorga asoslangan baholash

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning ikkinchi sifat bosqichida belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Kasb-hunar kollejlari bugungi kunda zamonaviy binolar, moddiy texnik ta’minot, ta’lim vositalari, o‘qitishning texnik vositalari, kompyuter va multimedia bilan jihozlangan.

Ushbu o‘quv jihozlardan dars jarayonida samarali foydalanish uchun pedagog va muhandis-pedagoglardan katta mahorat talab qilib, ularning o‘z ustlarida ishlashlari, ijodkorlik faoliyatlarini oshirishlarini talab etadi.

Ta’lim jarayonini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish birinchi navbatda kasb-hunar kollejlarining tajribali, ta’lim-tarbiya ishlariga yangicha yondosha oladigan, o‘qitishning ilg‘or t’lim texnologiyalarini dars jarayonlariga joriy eta oladigan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni mustaqil boshqara oladigan pedagog va muhandis-pedagoglarga bog‘liqdir.

Buning uchun birinchi navbatda ta’lim muassasasi tomonidan ta’lim sifati nazoratini to‘g‘ri olib borish va duch kelinayotgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash lozim bo‘ladi.

O‘MKHT muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etilishi va olib borilishi birinchi navbatda uning sifat nazoratini olib borilishiga bog‘liq. SHunga asosan ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishning asosiy elementlarining pedagogik mohiyatini tushunish,qo‘yilgan maqsadga erishishi uchun o‘qitishning maqsadi, o‘quv mazmuni, o‘quv vositalari, o‘qitish metodlari va baholashning monitoringini olib borish asosida ta’limning sifat nazorati tashkil etiladi.

Ta’lim muassasalarida ta’limning sifat nazoratini olib borishdan oldin o‘quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda har bir rahbar quyidagi vazifalarning mazmun va mohiyatini mukammal bilishi va ularning bajarilishining sifat ko‘rsatkichlarini tahlilini olib boradi.

- **Ta’limning maqsadlari;**
- **Ta’limning mazmuni;**
- **Ta’limning o‘quv vositalari;**
- **Ta’lim metodlari;**
- **Ta’limda baholash.**

O‘quv jarayonini tashkil etishning mantiqiy tuzilmasi chizma ko‘rinishida keltirildi (chizma)

**Ўқув жараёни**

Таълимнинг мақсадлари

Таълимнинг мазмуни

Таълимнинг ўқув воситалари

Таълимнинг
усуллари

Таълимда
баҳолаш

Нима учун
ўқитиш

Нимани
ўқитиш

Нима билан
ўқитиш

Қандай
ўқитиш

Қандай
баҳолаш

**м**

**о**

**н**

**и**

**т**

О

Р

И

Н

Г

**CHizma. O‘quv jarayonining mantiqiy tuzilmasi**

***O‘quv jarayonining tashkiliy elementlari***

O‘quv jarayonini tashkil etishdagi ushbu elementlarning har birini bajarilishini ta’minlashda aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan rejalar tuziladi va belgilangan muddatlarda monitoring ishlari olib boriladi.

O‘quv jarayonining tashkiliy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim muassasalarida ta’lim mazmuni va sifati nazoratini olib borish uchun birinchi navbatda hr bir rahbar va pedagog xodimlar qanday ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- **Ta’limda boshqaruv mexanizmini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish;**
- **Ta’limda sifat nazoratini tashkil etish;**
- **Ta’limda sifat tushunchasi;**
- **Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar**
- **Sifatni baholash mezonlari;**
- **Ta’limda sifat nazoratini olib boruvchilar;**
- **Nazorat monitoringgi va uning kiritilishi;**
- **Natijalarni baholash va qo‘shimcha tadbirlar belgilash.**

**Sifat** – qo‘yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning nazorati va baholash bo‘yicha olingan natijalarning monitoringi.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasi, o‘quv uslubiy ta’minoti, zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, pedagog va muxandis pedagoglarning malakasini oshirish, o‘qitishning didaktik materiallari bilan ta’minlanib kelishidan asosiy maqsad zamonaviy ta’lim berish va ta’limning sifat darajasini oshirishga qaratilgandir.

Ushbu o‘quv jihozlari, o‘quv uslubiy materiallar, o‘qitishning didaktik materiallaridan dars jarayonida samarali foydalanish va o‘quvchilarning nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirib borishda ta’limning sifat nazoratini tashkil etish mexanizmlarini kollej rahbariyati tomonidan ishlab chiqilishi lozim va doimiy ravishda uning monitoringini olib borishdir.

Buning uchun birinchi navbatda ta’lim muassasasi rahbari va pedagogik jamoasi tomonidan ta’lim sifatini belgilovchi omillar aniqlanib (2-shakl) olinadi. Ushbu omillarning bajarilishi yoki mavjud kamchilik va muammolar rahbariyat tomonidan bartaraf etilib, ta’lim sifatini nazoratini olib borish bo‘yicha sifat komissiyasi tuziladi va ularning har birining vazifalari rahbar tomonidan ishlab chiqilib bajarilish monitoringini olib boradi.

Har bir ta’lim muassasasida boshqaruv mexanizmi ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lsa, kollej rahbarining bosh vazifalaridan biri bo‘lgan ta’lim mazmuni va sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan rejalari aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, shu ta’lim muassasasida ta’limning sifat nazoratini tashkil etish va uning monitoringini olib borish mexanizmlari xam ishlab chiqilishi lozim. Buning uchun kollej rahbari o‘zining muovinlari, pedagog va muxandis pedagoglarning ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan asosiy vazifalarni ishlab chiqishi va shu vazifalarning bajarilishi monitoringini olib borish uchun rahbar nazorati ostida sifat komissiyasi tuziladi va ta’lim sifatini belgilovchi omillardan kelib chiqqan xolda ta’lim sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi va shu mezonlar asosida ta’lim sifatini baholab boradi va duch kelinayotgan muammolar bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar belgilaydi.

Ta’limda sifat nazoratini olib borish uchun rahbar tomonidan ishchi guruhning mantiqiy strukturasi ishlab chiqiladi. Ushbu ishchi guruh a’zolari ta’lim sifatiga tegishli bo‘lgan asosiy vazifalarni bajarishga kirishadi va belgilangan muddatlarda rahbarga axborot berib boradi.

**1. Baholash shakllari.** Baholash, uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o‘tkazilishi mumkin:

3. Mezonga asoslangan baholash
4. Me’yorga asoslangan baholash.

**Mezonga asoslangan baholash** baholanuvchining ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko‘nikmalarini oldindan belgilangan o‘quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko‘ra taqqoslash va o‘lchashdan iborat bo‘lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o‘rganish maqsadlari bo‘yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o‘lchanadi.

**Mezonga asoslangan (yoki maqsadli) baholash**

| Afzalligi | Kamchiligi |
|---|---|
| O‘quv maqsadiga muvofiq baholanadi;<br>ta’lim oluvchining o‘zlashtirish darajasini ob’ektiv baholaydi;<br>baholash o‘zining aniq ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi;<br>ta’lim oluvchi olgan bahosida yo‘l quygan xatolarini yaqqol ko‘rib turadi;<br>baholanuvchini ta’lim olishga yo‘naltiradi;<br>baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ularning o‘z bilimi va malakalariga bo‘lgan ishochini oshiradi;<br>hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o‘rnatadi;<br>ta’lim mazmunini aniqlab beradi;<br>baholanuvchilarning o‘z faoliyati natijalariga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi | Mezonlarni ishlab chiqish ko‘p vaqt talab qiladi;<br>mezonlarning ob’ektivligi, haqqoniyligi va aniqligini aniqlashga nisbatan talablarning ko‘pligi<br>Ijtimoiy fan yo‘nalishlari bo‘yicha mezonlar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelinadi |

**Me’yorga asoslangan baholash** nisbiy baholash shakli bo‘lib, baholashdan so‘ng baholanuvchilarning ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchashdan iborat.

**Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchanadi. Me’yorlangan (normaga asoslangan) baholashda baho bir necha ko‘rsatkichlarga va ta’lim olish shart-sharoitiga ko‘ra, o‘zgarishi mumkin bo‘ladi. Masalan, o‘qituvchi tomonidan hayrixohlikning paydo bo‘lishi, o‘qituvchining o‘ta qat’iyligi sababli ham baho o‘zgarishi mumkin.**

**Me’yoriy (normaga asoslangan ) baholash**

| Afzalligi | Kamchiligi |
|---|---|
| O‘qituvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi;<br>turli shart-sharoitga oson moslashtirish mumkin;<br>baho bo‘yicha ko‘rsatkichlar umumiy tarzda olinadi;<br>muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularning o‘zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi;<br>baholash natijasida guruh ichidan ma’lum sondagilarini ajratib olish imkonini beradi (masalan, kollejga kirish imtihonlari natijasida boshqalarga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkich ko‘rsatgan 25 kishini ajratib olish mumkin). | Baholashda bilim bilan xulqni baholash aralashtirib yuboriladi;<br>ba’zan xulqni baholash bilimni baholashni belgilab qo‘yadi;<br>baholar o‘qituvchi tomonidan sub’ektiv belgilanishi mumkin;<br>ta’lim oluvchiga nisbatan simpatiya ham bahoni yuqori qo‘yib yuborishga olib keladi;<br>bilimlarni ob’ektiv va haqqoniy baholashning;<br>bilimlarni ob’ektiv va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyat yaratadi |

**2.Baholash turlari.** Baholash, o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra, uch turga ajratiladi:

- Boshlang‘ich baholash;
- Joriy, ya’ni shakllantiruvchi baholash;
- YAkuniy, ya’ni umumlashtiruvchi baholash.

Boshlang‘ich baholash ta’lim jarayoni boshida ta’lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta’lim jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash muntazam ravishda o‘tkazib boriladi. U ta’lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta’lim jarayoni samarasini

tezkor(operativ) aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

YAkuniy (umumlashtiruvchi) baholash ta'lim oluvchining ta'lim jarayonining ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. YAkuniy baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkaziladi. U joriy baholash natijalarini jamlaydi.

**Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:**

- Ta'lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu uning baholashga tayyorgarlik ko'rishiga olib keladi.
- Baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishga, diqqatni chalg'itadigan yoki tasodifiy uzilishlardan o'zini chetga olishga hamda ta'lim oluvchining o'z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi.
- Baholash o'tkazish sharoitida o'quvchi o'zini erkin tutishi va noxushlik his qilmasligiga imkoniyat yaratish kerak.
- Baholovchi va ta'lim oluvchi baholash nima berishi, u qachon, kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga egadir.
- Qo'yilgan baho o'quv natijasini tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir.
- Ta'lim oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim.
- Rejalashtirilmagan baholashni o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

**1. Baholash tamoyillari.** Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta'lim oluvchi uning qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini bilishi kerak. Ta'lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga, uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

Ta'lim oluvchining bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari turlichadir. Ba'zan ta'lim beruvchi bilimlarni tekshirishning uzoq vaqt mobaynida bir xildagi usullarini qo'llaydi. Unda so'rash, savol berish, bahoni izohlash sohasida muayyan odat paydo bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bunday tekshirishga moslashib ketadilar, o'qituvchining qay tarzda so'rashi ularga oldindan ma'lum bo'ladi. Ular faqat ta'lim beruvchi uchun, uni qanoatlantirish uchun javob bera boshlaydilar.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi:

- O'quv maqsadlariga asoslanganlik.
- Haqiqiylik.
- Haqqoniylik.
- Ishonchlilik.
- Qulaylik.

**1. O'quv maqsadlariga asoslanganlik.** Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan–to'g'ri bog'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. SHuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholash tizimi loyihalashtirilayotganda, baholash topshiriqlari berilgan ta'lim mazmuni doirasida bo'lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirayotganda, har doim quyidagi ikki savolni e'tiborga olish lozim:

1. Baholash topshiriqlari ta'lim jarayonidan ko'zlangan o'quv maqsadlarini to'la aks ettiradimi?

2. O'quv maqsadlari darajasiga baholash shakllari, usullari va mezonlari to'g'ri tanlandimi?

Masalan, yo'l harakati qoidalari bo'yicha olingan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin undan mashinani boshqarish malakalarini baholashda foydalanib bo'lmaydi. Bu malakalar og'zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

**2. Haqiqiylik.** O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ta'lim oluvchining erishgan natijalari to'g'risida asoslangan va ishonchli axborotlar berish kerak. O'lchanishi talab etiladigan narsalargina o'lchanishi kerak. Ta'lim oluvchi egallagan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarni o'lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

**3. Haqqoniylik (ob'ektivlik).** Bir-biridan mustaqil ta'lim beruvchilar bir xil ta'lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha bir xil baho bergan holdagina mazkur topshiriq va test haqiqiy hisoblanadi. Bu haqqoniylik har xil vaqtlarda berilgan baholar uchun ham taalluqlidir. Ushbu mezonlar ko'pincha markazlashgan holatda, o'tkaziladigan yalpi «rasmiy testlar» paytida amalga oshiriladi, xolos. Ta'lim beruvchi tomonidan tuzilgan testlar esa, odatda, mazkur talablarni bajarmaydi.

Baholash tizimi o'quv maqsadlariga mos bo'lishi, shuningdek, baholash shart-sharoitlari va maqsadlari bilan o'quvchilar oldindan tanishgan bo'lishlari lozim. Ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

**4. Ishonchlilik.** Natijalarni baholash mobaynida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligi qanchalik ishonchli ekanliligi nazarda tutiladi.

Baholash ishonchli bo'lishi uchun ta'lim oluvchilarda bir-biriga o'xshash, ammo har xil sharoitlarda baholash o'tkazilganda, natijalari bir xil bo'lishi kerak. Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo'lishi uchun turli ekspertlar yordamida turli vaqtlarda baholash o'tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

Baholash ishonchliligining ikki tomoni bor:

1. **Baholash usulining ishonchliligi**. Agar foydalanilayotgan baholash usulining ishonchliligi yuqori bo'lsa, talabaning o'zlashtirish darajasi baholashning har xil usullaridan foydalanganda ham o'zgarmay qoladi (olingan natijalar bir xil, o'zgarmas bo'ladi).

2. **Baholashning o'zlashtirish darajasini hisobga olish ishonchliligi**. Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini baholash usullarining ishonchliligi deb, baholash boshqa joyda va boshqa imtihon oluvchi tomonidan o'tkazilganda ham, uning bir xil bo'lishi, o'zgarmasligi tushuniladi.

Baholash usullarining ishonchlilik darajasi quyidagi holatlarda ko'proq bo'ladi:

- hamma ta'lim oluvchilar qo'yilgan talabni aniq tushunsa;
- baholash shartlari oldindan ma'lum qilinsa va unga rioya qilinsa;
- hamma natijalar baholashning oldindan kelishilgan mezonlariga to'la asoslangan bo'lsa;
- tasodifiy xatolarni kamaytirish maqsadida mos baholash turlari qo'llanilsa.

**5. Qulaylik.** Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lim oluvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'lmagan qismlariga nisbatan ko'proq ball berish kerak bo'ladi.

2. Baholash jarayonida uchraydigan ba'zi xatoliklar. **Ta'lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog'liq bir necha baholash xatolari mavjud:**

* **Hayrixohlik xatosi**

Agar ta'lim beruvchi biror ta'lim oluvchiga nisbatan hayrixohlik bilan qarasa, bu bahoning biroz yuqoriroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

* **YUqori talab qo'yish xatosi**

Agar ta'lim beruvchi o'ziga nisbatan yuqori talablar qo'ysa va xuddi shunday yuqori darajadagi talablarni ta'lim oluvchilarga nisbatan qo'llasa, bu bahoning biroz pastroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

* **O'rtacha baho berish xatosi**

Bu xato ta'lim oluvchilarning natijalari o'rtacha baholanishini bildiradi.

Buning sabablari ta'lim beruvchining o'ta yaxshi yoki o'ta yomon baho berishdan qo'rqishi bo'lishi mumkin.

* **O'z fikrini o'zgartirmaslik xatosi**

Ta'lim beruvchi o'zining birinchi fikrini o'zgartirishni xohlamasligi tufayli, o'z nazoratining natijalarini o'zgarishsiz qoldiradi. Bir marta sodir bo'lgan voqea tufayli ta'lim beruvchida biror ta'lim oluvchi to'g'risida qolgan ijobiy yoki salbiy taassurot, keyinchalik bu ta'lim oluvchining shaxsiyatiga oid barcha boshqa xususiyatlariga e'tibor bermasligiga olib keladi.

* **YOqtirmaslik xatosi**

Biror ta'lim oluvchini yoqtirmasligi yoki unga nisbatan salbiy fikrda bo'lishi tufayli ta'lim beruvchi ta'lim oluvchiga yomon baho qo'yadi. Bu xato «hayrixohlik xatosi»ning aksidir.

Ta'lim beruvchining baholashdagi xatoliklarining oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

- Baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish va ularni to'g'ri tanlash.
- Nazorat varag'ini ishlab chiqish.
- Baholovchining bir emas, balki ikkita bo'lishi.
- Baholash usullarini to'g'ri tanlash.
- Samarali baholash tizimini qo'llash.
- Baholash topshiriqlarini va ularga javoblarni imkoni boricha yozma ravishda o'tkazish va rasmiylashtirish.

**Baholashda uchraydigan xatolarning oldini olish uchun quyidagilarga rioya qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:**

1. Baholashdan oldin ta'lim oluvchilar bilan talablar va baho mezonlari muhokama qilinishi lozim.
2. Baho mezonlarga muvofiq qo'yilgach, ta'lim oluvchilarga ma'lum qilinadi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan birgalikda olingan baholarning natijalarini va yo'l qo'yilgan xatolarni muhokama qilishlari hamda sababini aniqlashlari lozim.
4. Xatolarni tuzatish chora-tadbirlarini belgilab olishlari lozim.

**1. Baholash tizimlari.** Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiali o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash o'qitish jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Oxirgi paytlarda Respublikamiz ta'lim muassasalarida quyidagi ikkita baholash tizimi qo'llanilib kelinmoqda:

3. Baholashning besh ballik tizimi.
4. Baholashning reyting tizimi.

**2. Baholashning besh ballik tizimi.** Baholashning besh ballik tizimida baholashga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

<u>A. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo'lishi shart.</u> Bu talabga rioya etilmasa, o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Ta'lim oluvchilar darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak. Ta'lim beruvchining doimiy ravishda nazorat qilib turishi shunga majbur etadi.

<u>V. Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir</u>. Har bir o'quvchi uning bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini tushunishi kerak. <u>S. Davlat ta'lim standartlariga</u>

asoslanganlik. Ta’lim oluvchilarning bilimlari, malaka va ko‘nikmalari davlat o‘quv dasturlarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

**Bilimlarni tekshirish va baholashning turlari.** Odatda baholashning joriy, oraliq va yakuniy turlari eng ko‘p qo‘llaniladi. Ular og‘zaki va yozma ishlar, individual va yoppasiga so‘rash, dars bo‘yicha ball qo‘yish shaklida o‘tkaziladi.

***1. Bilimlarni joriy tekshirish*** har bir darsda o‘tkaziladi. U tushuntirish, mustahkamlash, materialni takrorlash chog‘ida o‘quv jarayonining zarur qismi hisoblanadi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchidan mavjud bilimlarga tayanib ish ko‘rgan taqdirdagina ta’lim beruvchilik faoliyati muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Joriy tekshirish bu bilimlarni aniqlashga va o‘quv jarayonini ana shu asosda olib borishga imkon beradi. O‘quv materialini egallash borasida ta’lim oluvchi duch keladigan ko‘pgina qiyinchiliklar yangi bilimlar va ta’lim oluvchining o‘zidagi mavjud bilimlar o‘rtasida etarli darajada bog‘lanishning yo‘qligi bilan izohlanadi.

Bilimlarni joriy tekshirish maxsus ajratilgan vaqtda so‘rash uy vaifasini tekshirish uchun mustaqil ish bajartirish shaklida o‘tkaziladi.

Joriy tekshirishning turli formalarini qo‘shib ish ko‘rish ta’lim oluvchilarning bilimlarini takomillashtirish, faoliyatini kuchaytirish imkoniyatini beradi.

***2. Muayyan mavzuni o‘zlashtirishni tekshirish*** butun mavzuning o‘zlashtirilishini nazorat qilib borishni ta’min etadi. O‘quv dasturining o‘rganilgan mavzularidan birining mazmuni tekshiriladi. Bu xildagi tekshirish materialni sistemalashtirishda juda katta ahamiyatga egadir. Bu tarzda o‘tkaziladigan tekshirish mantiqiy fikr yuritishga, o‘quv materialidagi eng muhim jiddiy bog‘lanishlarni topishga, asosiy narsalarni esda saqlab qolishga o‘rgatadi.

***3. Bilimlarni yakuniy baholash va nazorat qilish*** har bir chorak uchun va o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi. Uning ahamiyati ta’lim oluvchilarning erishgan yutuqlariga, rivojlanish darajasiga xolisona to‘g‘ri baho berishdan iboratdir. O‘quv faoliyatinining barcha jihatlari hisobga olinadi. Agar bilimlarni joriy va oraliq tekshirish diqqat-e’tiborni ayrim o‘quv fanlariga jalb qilsa, yakuniy tekshirish esa barcha o‘quv fanlari natijalari yig‘indisidan iborat.

YAkuniy baho ta’lim oluvchining chorak yoki o‘quv yili davomidagi ishining natijasini aks ettiradi. Bilimlarni yakuniy baholashda, eng muhimi, materialning o‘zlashtirilishi mantig‘ini tekshirishdan iboratdir.

**Besh balli baholash tizimi mezonlari.**

Ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishiga qarab, davlat ta’lim standartlarining bajarilish sifati haqida, o‘quv faoliyatining natijalari haqida, ta’lim oluvchilar olgan bilimlar, malaka va ko‘nikmalar haqida, ularning rivojlanish darajasi haqida xulosa chiqariladi.

Ta’lim oluvchilarning bilimini baholash quyidagi besh balli tizim asosida olib boriladi:

- «5» (a’lo) ball ta’lim oluvchining o‘quv dasturi mazmunini chuqur va to‘la egallab olgani, o‘quv materiallarida nazariy va faktik jihatlarni ajrata bilgani, mustaqil ravishda javob qila olgani, aytilgan ta’riflarni tushuntirishni izohlay bilgani, shuningdek, javobning to‘g‘ri uslubda va badiiy shakldа ekanligi uchun qo‘yiladi. Javob ishonchli va bexato bo‘lishi kerak.
- «4» (yaxshi) ball ham materialning mazmunini chuqur va to‘la o‘zlashtirgani uchun, o‘rganilgan tushunchalarni, qoidalarni, ta’riflarni to‘g‘ri bayon eta olish va isbotlay bilish malakasi uchun qo‘yiladi. Lekin ta’lim oluvchi noaniqliklarga, javob mazmunida, shakli va uslubida ayrim xatolarga yo‘l qo‘yadi.
- «3» (o‘rta) ball ta’lim oluvchi o‘quv materiallaridagi asosiy qoidalar va bog‘lanishlarni o‘rganganligi va tushunishini anglatadi. Lekin u tushunchalarni etarli darajada chuqur egallab olmaganligidan dalolat beradigan xatolarga yo‘l qo‘yadi, aytadigan fikrni bayon eta olmaydi. Javobida birlik yo‘q bo‘ladi. Javob garchi to‘g‘ri bo‘lsa ham, u alohida, tarqoq fikrlardan iborat bo‘ladi. Ta’lim oluvchi, odatda, ta’lim beruvchining yordami bilan javob beradi.
- «2» (yomon) ball ta’lim oluvchi sistemasiz tarqoq bilimlarga ega bo‘lgan uchun qo‘yiladi. U asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ajratmaydi, nazariy va faktik mazmunning bir-biridan farqini bilmaydi. Ta’lim oluvchi odatda yod olingan iboralarni takrorlaydi, bundan va na uning o‘zida, na ta’lim beruvchida qanoatlantirish hissi tug‘ilmaydi. Bu bilimlarning shunday bir darajasiki, dasturdagi materialning bundan keyingi o‘rganilishini unga asoslanib tashkil etib bo‘lmaydi. Bunday bilimlar aqliy rivojlanishga kamdan-kam yordam beradi.
- «1» (juda yomon) ball qachonki, ta’lim oluvchi dasturdagi materialni bilmagan va tushunmagan, mazmunda ko‘plab qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ygan hollarda qo‘yiladi.

Baholashdagi munosabatlarning mohiyati javobning ijobiy tomonlarini ochib berish va salbiy holatlarini ko‘rsatishdan iboratdir. Bilimlarning mazmuni kabi uni bayon etish shaklini ham, shuningdek, bilimlarga munosabatni ham nazarda tutish kerak.

Besh balli baholash tizimining afzalliklari:

- Ta’lim oluvchilarni rag‘batlantiradi.
- Ta’lim oluvchining faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi.
- Ta’lim beruvchining vaqti tejaladi.
- Ta’lim oluvchining yakuniy baholash baholarning soniga qarab emas, sifatiga qarab baholanadi.
- Baholashning qulayligi.
- Rasmiylashtirish hujjatlarining kamligi.

Besh balli baholash tizimining kamchiliklari:

- Baholashning nisbiyligi.
- YOzma nutqidagi xatoliklarni to‘g‘rilash imkoniyatining kamayishi.
- Baholashning sub’ektivligi.

**3. Baholashning reyting tizimi.**

Ushbu baholashning reyting tizimi oliy ta’limning 3-bosqichida o‘qitilayotgan “Pedagogika. Psixologiya” fani misolida ko‘rib chiqilgan.

**REYTING BAHOLASH TIZIMI**

**Reyting nazorati jadvali***

| Semestr haftalari | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Reyting nazorati turlari | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 20 | Attestatsiya | Ballar | Saralash ballari |
| JN | 0-5 | | | 0-6 | | | 0-6 | | | 0-6 | | | 0-6 | | | 0-6 | | | | 0-35 | 39 |
| ON | 0-17 | | | | | | | | | 0-18 | | | | | | | | | | 0-35 | |
| ∑ (JN+ON) | 0-70 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | 0-70 | |
| YAN | 0-30 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | 0-30 | 0 |
| Ja-mi: | 0-100 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | 0-100 | 55 |

*Izoh: Semestr haftalari soni ta’lim yo‘nalishi(mutaxassislik)ning o‘quv rejasi va o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin (18-19 haftalar qishki ta’til davri hisoblanadi).

Mazkur fan bo‘yicha navbatdagi sesmestrdagi reyting nazorati jadvali*

| Reyting nazorati | Semestr xaftalari | Ballar | Sar |
|---|---|---|---|

| turlari | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 | 31 | 32 | 33 | 34 | 35 | 36 | 37 | 38 | 39 | 40 | Attestatsiya | | alash ballari |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| JN | 0-5 | | | 0-6 | | | 0-6 | | | 0-6 | | | 0-6 | | | 0-6 | | | 0-35 | | 39 |
| ON | 0-17 | | | | | | | | | 0-18 | | | | | | | | | 0-35 | | |
| ∑ (JN+ON) | 0-70 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | 0-70 | |
| YAN | 0-30 | | | | | | | | | | | | | | | | | | 0-30 | | 0 |
| Jami | 0-70 | | | | | | | | | | | | | | | | | | 0-100 | | 55 |

*Izoh:Semestr haftalari soni ta’lim yo‘nalishi(mutaxassislik)ning o‘quv rejasi va o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin.

**JN bo‘yicha baholash mezonlari**

JNda amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg‘ulotda talabaning o‘zlashtirishiga mos ravishdagi mezon asosida 0-2 (yoki har 3(uch) hafta bo‘yicha 0-6), jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan. JN bo‘yicha 0-2(0-6) ballik tizimdagi mezonlar semestr boshida talabalar e’tiboriga etkaziladi.

**ON bo‘yicha baholash mezonlari**

ON ma’ruza mashg‘ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o‘tkaziladi. ON bo‘yicha talaba jami 0-35 (har bir ONda 0-17 /0-18) ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o‘qitilgan mavzulari bo‘yicha o‘zlashtirish nazorati turli shakllarda o‘tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o‘tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-17 /0-18 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi va talabalar e’tiboriga etkaziladi.

**JN va ON bo‘yicha reyting ballarini umumlashtirish mezonlari**

Mazkur fan bo‘yicha ∑(JN+ON) 0-70 gacha bo‘lgan reyting ballarini quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

| Baholash mezonlari | Reyting ballari | | ∑ (JN+ON) |
|---|---|---|---|
| | JN | ON | |
| “Pedagogika. Psixologiya” fani mashg‘ulotlari mavzulari bo‘yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda “Pedagogika. Psixologiya” faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo‘llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega | 30-35 | 30-35 | 60-70 |
| Fan mashg‘ulotlari mavzulari bo‘yicha to‘la bilimga ega. Mashg‘ulotlarda “Pedagogika. Psixologiya” faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo‘llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega | 25-29 | 25-29 | 50-69 |
| Fan mashg‘ulotlari mavzulari bo‘yicha koniqarli bilimga ega. Amaliy mashg‘ulotda “Pedagogika. Psixologiya” faoliyati bilan bog‘liq masalalar | 20(19)-24 | 20-24 | 39-49 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| bo‘yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega | | | |
| Fan mashg‘ulotlari mavzulari bo‘yicha koniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg‘ulotda “Pedagogika. Psixologiya” faoliyati bilan bog‘liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi | 0-19 | 0-19 | 0-38 |

**YANni baholash mezonlari**

YAN og‘zaki, «YOzma ish» yoki «Test sinovi» shaklida 30(0-30) ballgacha belgilangan mezonlar asosida, majmuali (YOzma ish + test sinovi) shaklida 30(6/24) ballik tizim asosida o‘tkaziladi.

**Talabalarning fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash mezonlari**

Talabalarning fan bo‘yicha bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish 0-100 ballik reyting tizimi asosida quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

| **Talabaning fanni o‘zlashtirishini nazorat qilish mezonlari** | **Ballar** |
|---|---|
| Pedagogika. Psixologiya fani mashg‘ulotlari jami mavzulari bo‘yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda «Pedagogika. Psixologiya» faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo‘llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega | 8 6-100 |
| Fan mashg‘ulotlari jami mavzulari bo‘yicha to‘la bilimga ega. Mashg‘ulotlarda «Pedagogika. Psixologiya» faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo‘llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega | 7 1-85 |
| Fan mashg‘ulotlari jami mavzulari bo‘yicha koniqarli bilimga ega. Amaliy mashg‘ulotda «Pedagogika. Psixologiya» faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega | 5 5-70 |
| Fan mashg‘ulotlari jami mavzulari bo‘yicha koniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg‘ulotda «Pedagogika. Psixologiya» faoliyati bilan bog‘liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi | 0 -54 |

Reyting tizimining afzalliklari:

- Xaqqoniy baholanishi.
- YOzma nutqning o‘sishi.
- YOzma nutqdagi xato va kamchiliklarni aniqlash imkoniyatlarining mavjudligi.
- Faoliyat elementlarini baholash imkoni yaraladi.
- Ta’lim oluvchining bilimga bo‘lgan ishtiyoqi sezilarli darajada oshadi.
- Ta’lim oluvchini muntazam shug‘ullanishga undaydi.

Reyting tizimining kamchiliklari:

- Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchi bilan ishlaganda, ko‘p vaqt sarf qiladi.
- Ballarni hisoblash ko‘p vaqt talab qiluvchi murakkab jarayonligi.
- Baholash usullariga qarab (test, yozma va h.k.) ta’lim oluvchining og‘zaki nutqi pasayadi.
- Ajratilgan vaqtning etarli emasligi.
- Ta’lim oluvchini baholash nazoratining murakkabligi va noqulayligi.

Baholash metodlari. Nazariy bilimlar va aqliy layoqatni baholashda baholashning umumiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda metodlardan foydalaniladi.

**<u>Baholash metodlari</u> nazariy bilimlarni o‘zlashtirganlik, ya’ni o‘quv maqsadlariga erishganlik darajasini ma’lum vositalar, mezonlar va me’yorlar asosida aniqlashni hamda o‘lchashni ta’minlovchi bosqichlar tizimidan iborat.**

Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlari va aqliy layoqatini baholashda O/ZAKI va YOZMA baholash topshiriq shakllaridan foydalaniladi.

Og‘zaki shakldan ko‘proq og‘zaki savol-javoblarni qisqa vaqt ichida o‘tkazish uchun foydalaniladi. Ushbu jihatiga ko‘ra, bu baholash topshiriq shaklidan oraliq nazoratni amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

БАШОЛАШ ТОПШИРИ+ ШАКЛДАРИ

О/ЗАКИ | Ё З М А

Og‘zaki topshiriq shaklining turlari:

- Ochiq
- YOpiq

**Oғзаки шаклнинг ОЧИҚ тури деганда, таълим олувчининг сыралган материал юзасидаги маълумотлар билан бир қаторда эркин ва ижодий ёндашиш асосида жавоб бериши назарда тутилади**.

**ЁПИҚ турда эса таълим олувчи фақат берилган материал доирасида жавоб бериш билан чекланиб қолади.**

Og‘zaki topshiriqlarni bajarish jarayonida ta’lim oluvchilarning bilimlari bilan birga o‘zini tutishi, reaksiyasi va muloqot qilish qobiliyati inobatga olinadi. Ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

- kasbiy holatlarga simulyasiya (taqlid) qilish;
- echish yo‘llarini topish bilan bog‘liq muammoli holatlarni muhokama qilish;
- ta’lim oluvchining muammoli holatlarga bo‘lgan shaxsiy munosabati.

Psixik omil (tanglik, erkin emaslik, qo‘rquv kabilar) katta rol o‘ynashi tufayli ko‘pincha haqiqiy natijalar berish qobiliyati ko‘rinmay, yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Ta’lim beruvchi savol bergan paytda ta’lim oluvchi yaxshi javob beradi, deb kutmaslik kerak. SHu sababdan, ta’lim beruvchining savol berish tarzi muhim rol o‘ynaydi. U savolni tushunarli va aniq berishi kerak :

-javob berish uchun etarli vaqt berish kerak;

-ikki xil ma’noni anglatadigan savollar bermaslik kerak;

-ta’lim oluvchi savollarga javob berishda qiynalishni boshlasa, savollar qamrovini mos ravishda qisqartirish kerak.

**Tayanch iboralar:**

Sifat, ta’lim, ta’lim sifati, baholash, ta’lim sifatini baholash, o‘quv jarayoni, baholash shakllari, baholash turlari, baholash tamoyillari, haqiqiylik, haqqoniylik, ishonchlilik, qulaylik, mezon, me’yor, og‘zaki, yozma, reyting, test

**Nazorat uchun savollar**

1. Sifat deganda nimani tushunasiz?
2.Ta’lim sifati deganda nimani tushunasiz?
3. Baholash o‘zi nima?
4. Ta’lim sifatini baholash deganda nimani tushunasiz?
5. O‘quv jarayonining tashkiliy elementlari nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?
6. Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
7. Baholash shakllari deganda nimani tushunasiz va ular nicha xil shakldan iborat?
8. Baholash turlari necha xil bo‘ladi?

9. Baholash tamoyillari deganda nimani tushunasiz?

**Asosiy adabiyotlar**


1. ”O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risi”dagi qonuni Toshkent. 1997 yil.
2. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi (darslik). –T.: Fan va texnologiya, 2008. –288 b.
3. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. “Pedagogika” Toshkent. TDIU, 2005 yil.
4. Rashidov H.F. va boshqalar. “Kasbiy pedagogika” blokini o‘qitish metodikasi. /O‘quv-uslubiy qo‘llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
5. Sarsenbaeva R.M., Doniev B.B. Umumiy pedagogika. /O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.
6. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.
7. Podlasыy I. P. Pedagogika. Moskva ,2003.
8. Xo‘jaev N. va boshqalar. “Pedagogika asoslari”. Toshkent.,TDIU 2003.
9. www.bilimdon.uz. – O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining veb sayti.
10. www.tgeu.uz – TDIU veb sayti.
11. www.tatu.uz – TATU veb sayti.
12. www.de.uz – Masofaviy ta’lim tizimiga bag‘ishlangan veb sayt
13. www.inter – pedagogika.ru.


## 9-mavzu: MA’RIFIY TIZIMLARNI BOSHQARISH

**REJA.**

1. **Ta’lim tizimini boshqarish**
2. **Ta’lim muassasi faoliyatida rahbarlarning vazifalari.**
3. **O‘zini-o‘zi boshqarishning nazariy asoslari.**
4. **O‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlari.**
5. **O‘zbekiston Respublikasida oliy va O‘rta maxsus ta’limini boshqarish tizimi.**
6. **Oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarish tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.**

### 1. Ta’lim tizimini boshqarish

Ta’lim tizimi hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan bog‘lash prinsipi O‘zbekiston o‘quv muassasasilari, kasb-hunar kollejlari oldida to‘rgan barcha nazariy va amaliy vazifalarni xal etishda asosiy prinsip bo‘lib keldi va shunday bo‘lib koladi. Ta’lim tizimini boshqarishga siyosiy yovdashish ta’lim-tarbiya ishlaridagi xodisa, fakt va jarayonlarga mustaqil O‘zbekiston Respublikasi manfaatlari nuktai nazaridan turib munosabatda bo‘lish demakdir.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida Xalq ta’limini keng yoyilishi, mikdor va sifati jihatidan jadal usishi, turli xildagi ta’lim tizimi va ta’lim muassasalaridan tashkari o‘quv-tarbiya maskanlarining ishlab turishi, ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarishning juda zarurligini takozo etadi. Ijtimoiy boshqarish masalalari ilmiy bilimning maxsus sohasi qilib ajratiladi. Pedagogik jarayonlarni, xodisalarni va ob’ektlarni boshqarishda pedagogika qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Bu holda pedagogik boshqarish tushunchasi qo‘llaniladi.

Barcha tipdagi o‘quv yurtlari, o‘quv muassasasidan tashkari muassasalar, xalq ta’limi bo‘limlari va boshqalar asosiy boshqarish ob’ektlariga kiradi. Ta’lim-tarbiyani tashkil qilish va boshqarishga doir ishlarning hammasi pirovard natijada yagona asosiy maqsadga erishishga, ma’lum darajada umumiy ma’lumot darajasi va kasbiy tayyorgarligiga ega bo‘lgan har tomonlama rivojlangan va imon-e’tiqodli qilib tarbiyalangan kishini tarkib toptirishga qaratilgandir. Xalq ta’limi tizimiga tarkibiga vazirliklar, tuman xalq ta’limi bo‘limlari, o‘quv muassasasilar, litsey, kasb-hunar kollejlari kiradi.

Ta’limni tizimini boshqarish pedagogika fanining muhim tarmog‘i bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim tizimi organlari va ularning vazifalari, ish faoliyatining mazmuni va metodlarini belgilab beradi, shuningdek, ta’lim muassasalariga rahbarlik qilish tizimini asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini boshqarishga umumiy rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi olib boradi.

Respublikada ta’lim tizimini boshqarishda bir qator davlat organlari -tegishli vazirliklar -chunonchi, xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, shuningdek, markazlar, xususan, Respublika ta’lim markazi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markaz, viloyat, shahar va tuman xalq ta’limi bo‘limlari ham ishtirok etadilar.

Ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlarining huquqlariga doirasiga quyidagilar kiradi.

9. Ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini ruyobga chiqarish;
10. Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;
11. DTS, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo‘lgan talablarining bajarilishini ta’minlash;
12. O‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish;
13. O‘quv va o‘quv uslubiy adabiyotlarini yaratish va nashr etishni tashkil qilish;
14. Ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiklash;
15. Davlat oliy ta’lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;
16. Pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Respublika ta’lim tizimini boshqarishda mahalliy davlat hokimiyati organlari ham ishtirok etadi. Ularning Respublika ta’lim tizimini boshqarishdagi urni va roli quyidagilar bilan belgilanadi:

1. ta’lim muassasalari faoliyatining mintakani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish extiyojlariga muvofiqligini ta’minlaydilar;
2. ta’lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (Respublika tasarrufida bo‘lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro‘yxatga oladilar;
3. o‘z hududlaridagi ta’lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash mikdorlarini va imtiyozlarini belgilaydilar;
4. ta’lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo‘lgan davlat talablariga rioya etishni ta’minlaydilar; shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

**2. Ta’lim muassasi faoliyatida rahbarlarning vazifalari**. Ta’lim tizimini boshqarish sohasida ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish ishlarini tashkil etishga ham alohida e’tibor beradilar. Ta’lim muassasasi uning rahbari (direktori yoki rektor) tomonidan boshqariladi.

Ta’lim muassasasi direktori talabalarni ma’naviy barkamol, jismonan soglom bo‘lishlari, fan asoslarini puxta o‘zlashtirishlari uchun, umuman, ta’lim muassasalarining butun faoliyatini uchun javobgar shaxs sanaladi. Tashkilotchi, oliy ma’lumotli kamida uch yillik pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan eng yaxshi pedagog tuman xalq ta’limi bo‘limi tavsiyasiga binoan viloyat xalq ta’limi (Toshkent shaxrida-shahar xalq ta’limi) bo‘limi tomonidan direktor etib tayinlanadi, bir

o‘quv muassasasidan ikkinchi o‘quv muassasasiga kuchiriladi. Viloyat xalq ta’limi bo‘limi bu haqida O‘zbekiston Respublikasi XTVga ma’lum kiladi.

Ta’lim muassasasi rahbarlarining buyrugini ta’lim muassasi xodimlari bajarishlari shart. Rahbarlarning ta’lim muassasidagi vazifalari asosan quyidagilardan iborat: o‘quv muassasining pedagogik jamoasiga rahbarlik qilish, kadrlarni to‘g‘ri tanlash, joy-joyiga qo‘yish, xodimlarning ijtimoiy-g‘oyaviy saviyasi va malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, talabalar bilim va tarbiyasi sifatli bo‘lishini ta’minlash, sinfdan va o‘quv muassasasidan tashkari ishlarning tashkil etilishiga rahbarlik qilish va tegishli nazorat urnatish, talabalarning to‘g‘ri kasb tanlashini ta’minlashni yo‘lga qo‘yish, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan ishlarni tashkil etish, o‘quv muassasasida ichki nizom,  sanitariya-gigiena, umumiy rejim, mehnatni muxofaza qilish va texnika xavfsizligi koidalariga rioya etishni ta’minlash va xokazolar.

Muassasa direktor pedagog va yordamchi xodimlarni ishga qabul kiladi va ishdan bushatadi, xodimlar pedagoglarni ragbatlantiradi, shuningdek, o‘rinli holatlarda ularni jazolaydi, alohida urnak ko‘rsatgan pedagog va xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etadi. Rahbar muayyan masalalarni xal etishda pedagogik jamoa fikr mulohazalarini inobatga oladi. Ta’lim muassasi faoliyati yuzasidan tegishli muassasalar, davlat oldida javob beradi.

Ta’lim muassasi faoliyatini tashkil etishda rahbarga o‘quv hamda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlar ko‘maklashadilar.

O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari ta’lim muassasining o‘quv ishlari bo‘yicha mas’ul shaxsdir. U o‘quv ishlariga bevosita rahbarlik kiladi. Oliy ma’lumotli, kamida uch yillik pedagogik stajga ega bo‘lgan eng yaxshi pedagoglargina mazkur lavozimda ishlashlari mumkin. Uning nomzodini ta’lim muassasi rahbari tavsiya etadi, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi tasdiklaydi.

O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari o‘quv muassasasidagi ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi, o‘quv dasturlari talablarini bajarilishi dars mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etilish hamda talabalarning bilimlarini o‘zlashtirishlari uchun javobgar bo‘lib, ta’lim ishlarining yo‘lga qo‘yilishi talabalar bilim darajasining usishi ustidan nazorat olib boradi. Pedagoglarga metodik yo‘riqlar ko‘rsatadi, ta’lim ishlarining uyushtirilishini rejalashtiradi, metod birlashmalarning ishlariga rahbarlik kiladi.

Ma’naviyat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari ta’lim muassasalarining tarbiyaviy ishlariga bevosita rahbarlik kiluvchi mas’ul shaxsdir. Oliy ma’lumotli, kamida uch yillik pedagogik malakaga ega bo‘lgan eng yaxshi pedagoglargina mazkur lavozimda ishlay olishlari mumkin. Uning nomzodini ta’lim muassasi rahbari tavsiya etadi, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi tomonidan tasdiklanadi.

Ma’naviyat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari ta’lim muassasida tarbiyaviy jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishi, tarbiyaviy ishlarning yillik rejasini ishlab chiqish va uning bajarilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tadbirlarning bajarilishi ustidan nazoratni urnatish, ichki tartib koidalariga rioya etilishini ta’minlash, talaba, pedagog va xodimlarning ma’naviy kiyofasini shakllantirish, ularning xulq-atvorlari ustidan nazoratni tashkil etish kabi ishlarni olib boradi.

Xujalik ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari - ta’lim muassasining xujalik-moliyaviy ishlarini yuritish ishiga mas’ul sanalgan shaxsdir. Ushbu lavozimga nomzodni ta’lim muassasi rahbari tavsiya etadi va tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi tasdiklaydi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy mablag‘ bilan o‘quv muassasining ta’minlanishi, kushimcha daromad manbalarini yaratish borasidagi takliflar bilan chiqish, ta’lim muassasining o‘quv jihozlar bilan ta’minlanishi, binoning joriy hamda to‘la ta’mirlanishiga erishish kabi masalalarini xal etishdan iboratdir.

Ta’lim muassasining pedagogik kengashi (oliy o‘quv yurtlarida ilmiy kengash) ta’lim muassasasi rahbari xo‘zuridagi maslaxat organi bo‘lib, uning karorlari jamoaning yagona va umumiy fikrini aks ettiradi. Pedagogik Kengash (Ilmiy Kengash) qabul kilgan ayrim karorlar ta’lim muassasasi jamoasi uchun ham, rahbar uchun ham majburiy hisoblanadi. CHunonchi, ta’lim-tarbiya ishlarining holati,  yutuq va kamchiliklari, pedagog-xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etish (o‘quv muassasasilarda talabalarni sinfdan-sinfga kuchirish, talabani o‘quv muassasasidan xaydash), kabi masalalar pedagogik (Ilmiy) Kengash yigilishlarida Respublika xukumati karorlari, Prezident farmonlari, yuqori organlarning ko‘rsatmalari (masalan, XTV va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklarining)ni amalga oshirishga doir tadbirlarini belgilash, ta’lim jarayonini amalga oshirish, ta’lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, innovatsion va axborotlar

texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish hamda ommalashtirish, oila, jamoatchilik bilan ta’lim muassasi o‘rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish uni mustaxkamlash va xakozo masalalarni kurib chiqiladi.

Kengashning har bir a’zosi ta’lim tarbiya ishiga oid masalani o‘z tashabbusi bilan Kengash yigilishi muxokamasiga olib chiqish huquqiga ega. Kengash karori ta’lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiklangandan sung kuchga kiradi va jamoaning har bir a’zosi uchun majburiy hisoblanadi.

Ta’lim muassasalarida metodik ishlar ta’lim-tarbiya ishlarining sifatini oshiruvchi eng muhim vositalaridan biri sanaladi. Metodik ishlarni tashkil etishdan ko‘zlanadigan maqsad-pedagoglarning ijtimoiy-g‘oyaviy dunyokarashini kengaytirish va pedagogik, uslubiy mahoratini oshirishdan iboratdir.

Metodik birlashmalarga tajribali pedagoglar boshchilik kiladilar, ular birlashma yigilishida saylanadilar.

Metodik ishlar asosan ta’lim va tarbiya ishining sifatini yaxshilashga qaratiladi va u turli shakllarda olib boriladi. Metodik birlashmalar yigilishlarida ochiq darslar o‘tkazish tartibi, ularning o‘tkazilish holatlari ham muxokama kilinadi. Pedagoglarning o‘zaro dars ko‘zatishlari ham metodik ishlarning muhim shakli sanaladi. Ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan metodik ishlar umumiy rejada o‘z ifodasini topadi.

Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan faoliyat yuzasidan ish yuritish hujjatlarida kayd etiladigan hisobotlar muhim ahamiyatga egadir. Hisobot ishlari davlat tomonidan belgilangan va tasdiklangan shakllarda olib boriladi. Buning uchun ta’lim muassasasi hujjatlari, ish yuritish va hisob-kitob yaxshi yo‘lga qo‘yilishi kerak. Bunday muhim hujjatlar sirasiga talabalar (talabalar)ni hisobga olish bo‘yicha yuritilayotgan hujjat kiradi, unda:

a) talabalar ro‘yxati (alfavit asosida);

b) talabalarning shaxsiy ishlar;

v) talabalarning sinflar bo‘yicha ( talabalarning kurslar bo‘yicha) ro‘yxati va boshqalar mavjud bo‘ladi.

**Ta’lim muassasalarida ish yuritish hujjatlari** quyidagi tartibda joylashtiriladi:

- rahbar organlarning ko‘rsatmalari;
- tashkiliy masalalarga oid hujjatlar;
- o‘quv masalalarga oid hujjatlar;
- tarbiyaviy masalalarga oid hujjatlar;
- kadrlarga oid hujjatlar;
- jamoatchilik bilan olib boriladigan hamkorlik, ta’lim muassasasining, ommaviy ishlariga oid hujjatlar;
- moliya, xujalik ishlariga moddiy ta’minot va ta’mirlash ishlariga oid hujjatlar;
- ta’lim muassasasidan yuborilgan va unga kelgan hujjatlar kayd etiladigan daftar va boshqalar.

Mazkur hujjatlarning yuritilishi ta’lim muassasi faoliyatiga to‘la baho berish, mavjud kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarilib boriladi. Barcha darajadagi ta’lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq belgilanadi. Ta’limning me’yoriy-huquq bazasi rivojlantiriladi. Moliya-xujalik faoliyati olib borish hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta’minlanadi. Ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga kura ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatish huquqi beriladi.

Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va xomiylarning vakillarini o‘z ichiga oluvchi vasiylik va ko‘zatuv kengashlari to‘zish orkali ta’lim muassasalarining samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

### 2. O‘zini-o‘zi boshqarishning nazariy asoslari

O‘zini-o‘zi boshqarish darajasi hayotning turli bosqichlarida turli odamlarga bir xil bo‘lavermaydi. O‘zini-o‘zi nazorat darajasi, shaxsiy boshqarishi u yashayotgan va mehnat

kilayotgan muxitga bog‘lik. Bundan tashkari uning shaxsiy sifatlari, zakovati, gayrati, fe’li, ruxiy va jismoniy, kolaversa nasl-nasabiga bog‘lik. Nizoli va tang holatlar yuzaga kelganda ayrim odamlar o‘zini-o‘zi boshqara olmaydi, ba’zilari esa oddiy xollarda o‘zini yo‘qotib kuyadi. Inson o‘zining fikrlari, xulqiga doimo tanqidiy yondashishi, hayot talablari va o‘z imkoniyatlarini hisobga olishi kerak.

Talaba shaxsi ta’lim jarayoni davomida ham, ta’limdan tashkari vaqtda ham shakllanib boradi. Talabaning shaxs sifatida kamol topishida pedagogning, ota-ona, kuni-kushni va mahallaning ta’siri nixoyatda katta, ammo har bir talaba, talaba o‘z ustida tinmay ishlashi, o‘zini-o‘zi bilim darajasini, madaniyatini, tarbiyasini, ma’naviyat va ma’rifatini yuksaltirish ustida ish olib borishi zarur.

YOshlarda mustaqil ravishda bilim olish va uni hayotga qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish, axloq va odobni yaxshilash zarurati talabalik davrida shakllanadi.

YOshlarni talaba bo‘lguniga kadar ota-onasi, o‘quv muassasasi pedagoglari, qarindosh-urug‘i, mahalla-kuy nazorat qilib borsa, talaba bo‘lganidan keyin bu nazorat susayib ketadi. Bu holatni talabaning o‘zi anglab etishi lozim, shundan keyin boshqaruv nazariyasining asosiy tamoyili, tushuncha va koidalarni egallagan holda o‘zini-o‘zi tarbiyalay boshlashi kerak. Quyida boshqaruv nazariyasining eng umumiy holdagi tushunchasi berilgan. Har bir talaba uni o‘rganib, o‘z shaxsiyatiga qo‘llashi shart.

Jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida jamiyatning alohida qobiliyat va bilimlarga ega bo‘lgan kishilar tomonidan boshqarilishiga extiyoj paydo bo‘la boshladi. Keyinchalik boshqaruvchi kishilar soni kupaya borib, alohida ijtimoiy guruhga, sung tabaqaga aylandilar. Bu ijtimoiy tabaqa kengayib, davlat deb nomlanadigan boshqaruv organi paydo bo‘la boshladi.

Davlatning turli chaykalishlarsiz, ilmiy asosda boshqarilishiga extiyoj orta borishi natijasida boshqaruv nazariyasi vujudga keldi.

Boshqaruv nazariyasi nisbatan yangi va istikbolli fan tarmog‘i bo‘lib, ob’ektiv borlikni ilmiy bilishga asoslanadi. U o‘z faoliyatini bir qator tabiiy va ijtimoiy fanlar zamirida kuradi. Akademik Todor Pavloning aytishicha, istisnosiz barcha fanlar pirovard maqsadda boshqaruvga xizmat kiladi. CHunki har qanday ilmiy tadqiqot olib borishdan maqsadi – tabiat, jamiyatdagi ob’ektiv qonuniyatlarni aniqlab, ularni inson extiyojiga xizmat kildirishdir. Bu esa – boshqaruv. Boshqaruv jarayonining moxiyati va qonuniyatlarini aniqlash, bu jarayonda sodir bo‘ladigan munosabatlarni ochib berish, uning tizimini ishlab chiqish va boshqaruv sub’ektining asosiy tamoyillarni ishlab chiqish boshqaruv nazariyasining vazifalaridir.

Masalan, ijtimoiy hayotni boshqaruv nazariyasi shu sohani boshqarish jarayonida qo‘llaniladigan tadbirlar tartibi va bosqichlarini aniqlab beradi.

Ижтимоий жараёнлар бошқарув назариясининг объектив асослари

Жамиятнинг тараққий этиши натижасида ижтимоий хаётнинг алоҳида жабҳалари орасидаги алокалар якинла- шиб бориб, узвий му- носабатлар даражасига кутарилиши ва бир бутун ижтимоий

Илмий билишнинг замонавий босқичида жамиятдаги ҳодисаларнинг ижтимоий жараёнлар билан узвий боғлиқлиги ва ижтимоий ахборотлар окимининг кўпайиб ва тезлашиб

Бошқарувчи ва бошқа- рилувчилар орасидаги муносабатларнинг тобора ривожлана бориб, бири иккинчисини тақозо этиши ва бошқалар

SHu munosabat jamiyatning ob’ektiv ijtimoiy qonuniyatlari hamda boshqaruv qonuniyatlari orasidagi uzviylik boshqaruvni to‘g‘ri amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham boshqaruv jarayonini shakllantirishda ijtimoiy fanlardagi qonuniyatlarga suyanish kerak.

Boshqaruv sub’ekti va boshqarilish ob’ekti orasidagi munosabatlar ijtimoiy jarayonlarni boshqarish nazariyasi tadqiqot predmetiga kiradi.

Boshqaruv munosabatlari muayyan bir maqsadga intilgan kishilarning o‘zaro qonuniy ravishda kelishib kilgan harakatidir. Ammo ayrim shaxslar va ijtimoiy guruhlar boshqarilishi jarayonida bir xil vazifani bajarib, bir xil ahamiyat kasb etmaydilar.

Boshqarilish jarayoni hamma vaqt «boshqaruv organlari» deb nomlangan maxsus ijtimoiy guruhlar tomonidan amalga oshirib kelingan. Ular ijtimoiy jarayonlarning kechish qonuniyatlarini o‘rganib chiqib, ularni maqsadga yo‘naltiradilar va nazorat qilib turadilar.

Boshqarish maqsadida olib borilgan munosabatlarni boshqa ijtimoiy munosabatlardan, jumladan, ishlab chiqarish, axloq-odob, o‘zaro muloqot va boshqalardan farqlash uchun ular faqat jamiyatni tartibga soluvchi munosabatlar ekanini anglash kerak. Ular boshqarilish jarayonining umumiy faoliyatidan kelib chiqib, jamiyatdagi mavjud qonuniyatlarga asoslanadilar.

Boshqaruv deb tegishli qonuniyatlar asosida (bu jarayonni optimallash orkali) boshqariluvchi majmuani bir holatdan ma’lum bir boshqa maqsadga mos holatga keltirishga aytiladi.

Ijtimoiy hayotni boshqarishni ilmiy asosda tashkil qilish uchun boshqariluvchining muayyan holati to‘g‘risida to‘liq va ob’ektiv ma’lumotga ega bo‘lish kerak.

SHuning uchun ham boshqarilish holatiga kelishdan oldin boshqaruv jarayonining ilmiy asoslangan loyihasi, undagi tamoyillar, qo‘llaniladigan uslublar, boshqarilish bosqichlari va boshqa jabxalar ijodiy ishlab chiqilib, qog‘ozga tushiriladi. Bunga **majmuani ilmiy boshqarish deyiladi.**

Boshqaruvning ilmiy jihatdan amalga oshirishda asosiy omillardan biri **boshqaruv jarayonini iqtisodiy** jihatdan asoslab berishdir. Bunga boshqariluvchi ob’ektni muayyan holatdan jamiyatga kerak bo‘ladigan holatga o‘tkazish jarayonida sarflanadigan kuch, mablag‘ va vaqtni hisoblab chiqish hamda ularni jalb qilish manbalarini aniqlash, bu jarayon amalga oshgandan keyin jamiyatga keladigan ijtimoiy va iqtisodiy samaralarni ko‘rsatib berishi kerak. Buni **majmuani iqtisodiy boshqarish deyiladi.**

Ijtimoiy jarayonlarni boshqarish nazariyasining asosiy vazifalaridan biri boshqarishni tashkil qilish qonuniyatlarini aniqlab berishdir.

Boshqaruvni tashkil qilish organlari deganda, jamiyat hayotini boshqarish maqsadida birlashgan kishilar jamoasiga aytiladi. Ular tuzilishi jihatidan piramidasimon shaklga ega va bir-biriga buysingan bosqichlardan iboratdir. **Boshqaruvning bu bosqichini ma’muriy boshqarish deyiladi.**

Ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning maqsad va strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Arastu o‘z vaqtida aytganidek, har doim va har joyda ezgulikka etishish ikki shartning bajarilishiga: 1)har qanday faoliyatning yakunidagi maqsadni to‘g‘ri belgilashga; 2) pirovard maqsadga erishish tadbir va choralarini izlab topishga bog‘likdir.

Boshqaruvning maqsadi va ko‘rsatgichlari o‘zgarmas narsa emas, maqsad amalga oshishi bilan birga ular ham o‘zgarib turadi.

Har qanday jamiyat uch ijtimoiy jabxadan tashkil topadi, ular o‘zaro uzviy bog‘lik bo‘lib, birgalikda **«jamiyat hayoti»** degan kompleksni tashkil kiladi. Ular quyidagilardan iboratdir:

**Siyosiy hayot.** Jamiyatni boshqarish jarayonida «davlat» deb nomlangan va boshqarishning mas’uliyatini zimmasiga olgan, maxsus bilim va iktidorga ega bo‘lgan muayyan bir ijtimoiy guruhning boshqa barcha ijtimoiy guruhlar bilan, ularni tinchlik va farovonlikka boshlash maqsadida, amalga oshiriladigan munosabatlari ichki siyosat deyiladi.

Demak, boshqaruvga aloqador mas’ul kishilar tinchlik va farovonlikka erishish mezonlarini va jamiyat taraqqiyotining bokiy qonuniyatlarini to‘liq bilishlari va shu qonuniyatlar asosida o‘z siyosatlarini shakllantirishlari shart.

Barcha ijtimoiy guruh vakillari, boshqacha qilib aytganda, butun fukaro kayokka boshqarilayotganliklarini va unga erishishning yagona to‘g‘ri yo‘li shu ekanligini yaxshi bilishlari shart. SHundagina ular siyosiy hayotda faol katnasha oladilar. SHundagina demokratik jamiyatga erishish mumkin.

**Iqtisodiy hayot.** Inson boshqa mavjudodlardan o‘zining bunyodkorlik faoliyati bilan ajralib turadi. U tinmay moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratadi. Bunday boyliklarni yaratishda mahsulot ishlab chiqarish, uni saqlash, savdo-sotik va boshqa sohalar ishtirok etadilar.

Bu sohalar o‘zaro uzviy bog‘lik bo‘lib, jamiyat iqtisodiyotini tashkil kiladi.

**Ijtimoiy hayot.** Inson o‘zini o‘zi namoyon qilishini ijtimoiy hayot jabxasi deyiladi. Bu jabxada kishi o‘qiydi, dam oladi, fukaro sifatida, shaxs sifatida, oila va millat a’zosi sifatida o‘zini namoyon kiladi, hamda jamiyat ishlab chiqkan moddiy va ma’naviy boyliklardan foydalanadi.

Jamiyatning farovonligi – har bir jamiyat a’zosi o‘zini to‘la namoyon kila olish sharoiti bilan belgilanadi.

Siyosiy va iqtisodiy jabxalarning pirovard maqsadi va faoliyatning samaradorligi ijtimoiy faoliyatga to‘liq sharoit yaratilganligida ko‘rinadi. Demak, iqtisodni rivojlantirishda boshqaruv idoralari jamiyatni to‘g‘ri yo‘ldan eltishni o‘z faoliyatining asosiy mezoni qilib olishadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo xalqlari o‘zining ijtimoiy hayotini kup kismini oilada o‘tkazar ekanlar. SHundan kelib chiqib, fukarolarning oilaviy sharoitlariga e’tiborni kuchaytirish lozim.

Ikkinchi navbatda ma’rifat sohasi turadi, chunki ma’rifat sohasida kishi ham ishchi, ham oila a’zosi, ijtimoiy guruh va millat sifatida shakllanadi va rivojlanadi.

Ma’rifat sohasiga e’tibor sust bo‘lgan jamiyatda yaxshi mutaxassislar, bilimdon olimlar etishib chiqishi kiyin.

Davlat iqtisodiy va ma’muriy boshqarishni to‘liq o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa, ijtimoiy sohani boshqarishda faqat iqtisodiy va ma’muriy ta’sir etish yo‘li bilan ishtirok etadi.

**Ilmiy boshqaruv.** Bunda ta’lim-tarbiya sohasining avvalgi holati atroflicha taxlil kilinib, uning ko‘rsatkichlari ijtimoiy byurtmaning ko‘rsatkichlariga muvofiq keladiganlari rivojlantiriladi, muvofiq kelmaydiganlari o‘zgartiriladi. Bu vaqtda butun ta’lim-tarbiya jarayonining tizimi, uning bosqichlari, har bir bosqichda beriladigan bilimlar mazmuni, ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullannuvchilarni ijtimoiy muxofazalashning ilmiy asoslangan loyihasi, bajarilishi shart bo‘lgan ishlar, ularning ketma-ketligi va bajarilish muddatlari, boshqaruvni amalga oshiruvchi mo‘tassaddilar va bu jarayonning tadbir choralari ishlab chiqiladi. Odatda bu ilmiy asoslangan loyiha bir necha variantlarda tuziladi.

**Iqtisodiy boshqaruv.** Bu bosqichda ta’lim-tarbiyani maqsadga mos holatga keltirish uchun boshqarish bosqichida rejalashtirilgan ishlarni bajarishga ketadigan sarf-harajatlar mikdori aniq hisoblanib, moliyaviy ta’minlanish manbalari hamda huquqiy asoslari ishlab chiqiladi.

Boshqaruv jarayonining muvaffakiyatli kechishi kup jihatdan iqtisodiy boshqaruv bosqichining ilmiy asosda xal kilinishiga bog‘likdir. Iqtisodiy

boshqaruv bosqichi to‘g‘ri xal kilinishi uchun bajariladigan ishga ish xaki to‘g‘ri belgilanishi, moliyaviy manbalari aniq va barkaror bo‘lishi, hamda bu jarayonning barcha masalalari iqtisodiy qonuniyatlardan kelib chiqib bajarilishi zarur.

**Ma’muriy boshqaruv bosqichi.** Bu boshqaruvning eng sunggi bosqichi bo‘lib, uni muvaffakiyatli amalga oshirish uchun boshqaruv modelini to‘g‘ri to‘zib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bu uch bosqich o‘zaro uzviy bog‘lik bo‘lib, «boshqaruv» degan ijtimoiy xodisani tashkil kiladi.

Har qanday faoliyat sohasining, ayniqsa, ijtimoiy sohalarning, shu jumladan ma’rifat sohasi faoliyatining samaradorligiga erishishda uning ilmiy tadqiqot ishlarini tartibga keltirish va rivojlantirishdan boshlash kerak.

Talabalar[14]ni olingan bilimlarni hayotda qo‘llay bilishga o‘rgatish zarur. Bunga quyidagilar kiradi: o‘zini-o‘zi boshqara olish; ijtimoiy talablarni ongli ravishda bajarish; siyosat, huquqshunoslik, iqtisodiyot, ekologiya va boshqa fanlardan olgan bilimlariga amalda rioya qilish, tabiat va jamiyatdagi vokealarni mustaqil taxlil kila bilish. SHunday holatga erishish kerakki, bilim kishining barcha harakat va faoliyatining asosi bo‘lib kolsin.

SHaxsga ma’rifiy fikrlashni o‘rgatish, umumiy ruxshunoslik qonuniyatlarini berish lozim. CHunki bugungi talaba ertaga ota-ona, rahbar, tarbiyachi bo‘ladi. Undan tashkari, har qanday shaxs o‘zi bilan muloqotda bo‘lgan kishilarga ozmi-kupmi tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

**Boshqarish tamoyillari bilan birga uning vazifalari ham mavjud. Boshqarishning vazifasi** kishilarning sub’ektiv faoliyatini birinchi navbatda boshqarish sohasidagi faoliyatini ob’ektiv qonunlarning talablariga ana shu qonunlar belgilab beradigan progressiv tendensiyalarning talablariga muvofiqlashtirishdan iborat. SHu sababli iqtisodiy qonunlarning moxiyatini, ularni amal qilish sharoitini bilish xalq xo‘jaligining hamma bosqichlarida ilmiy asosda boshqarishni tashkil etishning eng muhim omili hisoblanadi. SHunday ekan boshqarishning quyidagi vazifalari (funksiyalari) amal kiladi: rejalashtirish, muvofiqlashtirish, ishlab chiqish, o‘zgartirish kiritish, nazorat qilish.

Ma’lumki, birinchi chakirik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun qabul kilingan edi. Ushbu qonunning 10-moddasida ta’lim turlari bayon etilgan bo‘lib, unda o‘quv muassasasigacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, o‘quv muassasasidan tashkari ta’lim kabilarni o‘z ichiga olishi nazarda tutiladi. SHunday ekan, ushbu ta’lim muassasalarini ham boshqarish nazardan chetda qolmaydi.

### 3. O‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlari

O‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlari talabalar o‘quv faoliyatining muhim elementlaridan biridir. SHunday bo‘lsa-da, kupchilik talabalarning o‘quv malakalari sistemasi orasida aynan o‘zini-o‘zi nazorat qilish metodi juda

---

14 Мавланкулов М. “Банк тизимида бошкарув назорати” Битирув малкавий иши. 2005 йил

45-бет.

bushligidan kupgina tadqiqot ham dalolat beradi. SHu tufayli talabalarda o‘zini-o‘zi nazorat qilish mahoratini shakllantirishni yaxshilashga yo‘naltirilgan maxsus ishlarni amalga oshirish lozim bo‘lib koladi.

Talabalarga uy vazifasini bajarayotganda o‘zini-o‘zi tekshirishning quyidagi usullarini qo‘llashni tavsiya etish lozim. Darslik tekstini o‘qib chiqilgandan sung uning muhim joylarini ifodalovchi qisqa rejani mustaqil to‘zish, sungra shu rejadan foydalanib tekstni asosiy mazmunini gapirib berishni, har bir bob oxirida keltiriladigan nazorat savollar yoki pedagog uy vazifasi berayotganda sodir bo‘ladigan savollar ustida maxsus ishlashni, agarda bunday savollar bo‘lmasa, javob rejasini tekst yuzasidan nazorat savollar ko‘rinishida to‘zishni ularga topshirish tavsiya etiladi. Bunday ish usulini yuqori sinflarda qo‘llash mumkin. Talabalarga masalalarning echilishi, mashklarning to‘g‘ri bajarilganligi tekshirishning xilma-xil usullaridan foydalanishni tavsiya qilish lozim. Bu usullar turli predmetlar uchun o‘ziga xosdir. Masalan, iqtisodiyot fanlari natijani taxminan solishtirish, echimni javobga taqqoslash, bir iqtisodiy amalni boshqalari (teskarilari) bilan taqqoslashlar o‘tkaziladi. Bo‘lishning to‘g‘riligi kupaytirish bilan, ayirish-qo‘shish bilan va analiz qilish. Talabalarga olingan natijaning to‘g‘riligini tekshirishni o‘rgatish foydalidir.

Nazorat va o‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlarini o‘zaro moxirona biriktirish barcha o‘quv predmetlari bo‘yicha ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bu metodni nafaqat o‘quv muassasasilarda qo‘llash mumkin, balki kollej va litseylarda, oliy o‘quv yurtlarida ham qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

YUqorida yozilganidek, talaba va talabalar uy vazifasini bajarayotganlarida, talaba talabadan farq kilinishini unutmaslik lozim. Talaba albatta bitta darslikdan foydalanib, o‘zini-o‘zi nazorat kilsa, talaba undan bir pogona yuqori bo‘lgani uchun bitta adabiyot bilan cheklanib kolmasligi kerak. Balki kushimcha adabiyotlarni kutubxonalardan kidirib, yoki xozirgi kunda zamon talabiga javob beradigan internetdan foydalanib, uy vazifalarini mustaqil bajarishi mumkin. SHunda talaba mustaqil izlanishga, mustaqil fikrlashga o‘zini ustida ishlashga hamda o‘zini-o‘zi nazorat qilishga o‘rganadi va ko‘nikma hosil kiladi. Bu zamon talabiga javob beradigan metodlardan biridir. Undan tashkari yana bir metodni qo‘llash mumkin. YA’ni o‘zi mustaqil shu predmetga, mavzuga taalluqli bo‘lgan savollarni, testlarni to‘zib, mustaqil javob berishi va yangiliklarni yaratishi mumkin. SHuningdek ilmiy ishlar ham qilishi mumkin.

### 4.O‘zbekiston Respublikasida oliy va o‘rta maxsus ta’limini boshqarish tizimi

O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta’limi beradigan maorif muassasalari davlat byudjeti hisobidan ta’minlab turiladi. Ularning kundalik faoliyatini tegishli vazirliklar va idoralar boshqarib boradi.

258 ta o‘rta maxsus ta’limi o‘quv yurtlari tarmoq prinpipi bo‘yicha 22 ta vazirlik va idoraga karashli bo‘lib, bu xol yagona o‘quv - metodik rahbarlikni va ta’minotni tashkil etishni kiyinlashtiradi. Ham iqtisodiy vazifalarni, ham ijtimoiy vazifalarni xal etish uchun o‘rta maxsus ta’limi o‘quv yurtlarini kengaytirishi rejalashtirish ham kiyin.

Respublikadagi 58 ta oliy o‘quv yurti 12 ta vazirlik va idoraga karashli bo‘lib, ularning asosiylari Oliy o‘quv yurti vazirligi (32 ta oliy o‘quv yurti), Xalq ta’limi vazirligi (6 ta oliy o‘quv yurti), Sog‘likni saqlash vaziligi (7 ta oliy o‘quv yurti), Qishlok va suv xo‘jaligi vazirligi (4 ta oliy o‘quv yurti) va Madaniyat vazirligi (3 'ta oliy o‘quv yurti) dir. Oliy o‘quv yurtlarining maxsus o‘quv yurtlari kabi turli vazirliklar va idoralarga bo‘ysunishi yagona o‘quv-metodik rahbarlik va ta’minotni tashkil etishga tuskinlik kilmokda.

Oliy o‘quv yurtlarida Kengaytirilgan kengashlar oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Bu kengashlar tarkibiga tashki tashkilotlarning vakillari (mahalliy hokimiyat organlari, korxonalar, ilmiy tadqiqot institutlari vakillar) kirishi mumkin, lekin ular oliy o‘quv yurtlari oldiga umumiy vazifalarini qo‘yishda va ular faoliyati natijalariga baho berishda sanoat va intellektual rivojlangan mamlakatlar oliy o‘quv yurtlarida bo‘lgani kabi xal kiluvchi o‘rin tutmaydi.

O‘quv, ilmiy, tarbiyaviy masalalar, oliy o‘quv muassasasi ichki faoliyatining o‘zga masalalari bilan olimlar kengashi shug‘ullannadi, bu kengashda tashkilotlar va talabalarning vakillari yo‘q.

Rektorni oliy o‘quv yurtini tasarruf kiladigan vazirlikning taksimotiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tayinlaydi. Prorektorlar rektorning taksimotiga muvofiq tegishli vazirlik tomonidan tayinlanadi.

O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida pedagogik kengashlar boshqaruvining oliy organi hisoblanadi, talabalarning 10 foizi kengashga kiradi. Pedagogik kengashlarga tashki tashkilotlarning vakillari taklif etilishi mumkin, lekin ular xal kiluvchi ovozga ega bo‘lmaydi.

O‘rta maxsus bilim yurti direktori unga rahbarlik kiladigan vazirlik yoki idora tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’limini boshqarish tizimi davlat tizimi qatoriga kiradi. Maxsus ta’limini boshqarishning barcha darajadagi organlarida va o‘quv yurtlarida bu jarayonga malakali mutaxassislar tayyorlash va ta’limni rivojlantirishdan manfaatdor bo‘lgan tashki tashkilotlar (mahalliy hokimiyat organlari, savdo-sanoat doiralari, jamoat tashkilotlari va jamgarmalar) vakillari kirmaydi. Moliyaviy va moddiy ta’minot jihatidan karaganda, ta’limni boshqarishga mahalliy hokimiyat organlari va savdo-sanoat doiralari vakillarini jalb etish ayniqsa muhimdir.

**5. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari**

Oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarish tizimining sifat jihatidan yangi darajasi an’analarini, boy tarixiy va ma’naviy merosni hisobga olgan holda sanoat va intellektual rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanishi lozim. Ta’limni boshqarish tizimi shakli va mazmuni jihatidan davlat-jamoatchilik tusida bo‘lishi kerak.

Hunar ta’limini boshqarish tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

o oliy va o‘rta hunar ta’limi va o‘quv yurtlarini boshqarish tizimiga davlat - jamoat tusini berish;

o oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarish tizimini mahalliy lashti-rish;

o oliy va o‘rta hunar ta’limi o‘quv yurtlarini boshqarishning tashki tashkilotlar: mahalliy hokimiyat organlari, tadbirkorlar doiralari (mutaxassislarga buyurtma beruvchilar), jamoat tashkilotlari va jamgarmalar vakillari o‘z ichiga oladigan ma’muriy kengashlar tarzidagi oliy boshqaruv organlarini barpo etish;

o o‘quv-metodik, moliyaviy va tashkiliy masalalarni xal etishda oliy o‘quv yurtlari muxtoriyatini kengaytirish;

o ta’lim, ilm-fan ishlab chiqarishni birlashtirish asosida yirik o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari (birlashmalari) ni boshqarishning samarali shakllarini barpo etish;

Kutiladigan natijalar:

- oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarishning puxta va samarali davlat-jamoat tizimini barpo etish;'
- tashkiliy, moddiy va moliyaviy masalalarni xal etishga mahalliy hokimiyat hamda tadbirkordar doiralarini jalb etish;
- oliy o‘quv yurtlariga muxtoriyat berish.

«Hunar ta’limini boshqarish tizimi» dasturini amalga oshirishga doir tadbirlar

| № | Tadbirlar | Bajarish muddati | Asosiy (mas’ul) ij-rochilar |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3.1 | O‘zbekiston Respublikasi xukumati koshida davlatning ta’lim sohasidagi siyosatini va uni rivojlantirish strategiyasini belgilab | 1998 | Davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (OO‘MTV), Xalq ta’limi vazirligi (XTV), Sog‘likni |
| 3.2 | Oliy o‘quv yurtlarini boshqarishning oliy organi sifatida shafelik (ma’muriy) | 1997<br><br>1998-2005 | OO‘MTV, XTV, Sog‘likni saqlash, Madaniyat ishlari, Qishlok va suv |
| 3.3 | Oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarish tizimini mahalliylashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish. Takliflarni amalga oshirish. | 1997<br><br>1998-2005 | XTV, OO‘MTV |
| Z.4 | Ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarishni birlashtirish asosida o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish komplekslari (birlashmalari) ni boshqarish organlari to‘g‘risidagi nizomni | 1997 | XTV, OO‘MTV, Fan va texnika davlat kumitasi, vazirliklar va idoralar, |
| 3.5 | O‘quv-uslubiy, tashkiliy va moliyaviy masalalarda keng muxtoriyatga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurti to‘g‘risidagi nizomni ishlab | 1997 | XTV, OO‘MTV |

YUqorida bildirilgan mulohazalarga tayanib quyidagi xulosalarga kelamiz:

1. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining mazmuni Respublika ta’limi taraqqiyotini yuqori bosqichlarga ko‘tarish, uni eng ilg‘or xorijiy mamlakatlar ta’limi darajasiga, jaxon yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish asosida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Ushbu mazmun ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarida yanada yorkin namoyon bo‘ladi.
2. Ta’lim tizimi deb muayyan jamiyatda ijtimoiy-tarixiy jarayonda tarkib topgan, ma’lum tamoyillar asosida boshqariladigan hamda bir-biri bilan bog‘langan barcha tipdagi o‘quv-tarbiya muassasalari yig‘indisiga aytiladi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi doirasida davlat va nodavlat ta’lim muassasalari, ilmiy-pedagogik muassasalar hamda ta’lim sohasidagi boshqaruv organlari, shuningdek, ularga karashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyat olib boradilar. Respublikada ta’lim rasmda ko‘rsatilgan bosqichlarda olib boriladi.
3. Ta’lim tizimini boshqarish pedagogika fanining muhim tarmog‘i bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim tizimi organlari va ularning vazifalari, ish faoliyati mazmuni va metodlarini belgilab beradi, shuningdek, ta’lim muassasalariga rahbarlik qilish tizimini asoslaydi.

**Kisqacha xulosa**

Umuman olganda, ta’lim tizimini boshqarishda umumiy rahbarlikni asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi olib boradi va shu bilan birgalikda o‘z vakolatlarga egadir. Bundan tashkari, ta’lim tizimini boshqarishda ta’lim muassasalarining metodik birlashmalari, metodik birlashmalarning bo‘limlari o‘z faoliyatlarini olib boradilar.

**Tayanch tushunchalar.**

Ta’lim tizimi, mazmun va metod, ta’lim tizimini boshqarish, yagona davlat siyosati, mahalliy davlat hokimiyati, ta’lim muassasasi faoliyati, direktor, ma’naviy barkamol, jismoniy soglom, xodimlar, pedagoglar, direktor o‘rinbosarlari, metodik ishlar, metodik birlashmalar.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining mazmuni nimadan iborat?
2. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini ayting?
3. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi muassasalarni ko‘rsating?
4. O‘zbekiston Respublikasida ta’limning qanday turlari mavjud?

5. Ta’lim tizimini boshqarish tushunchasini siz qanday tushunasiz?
6. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi qanday boshqariladi?
7. Oliy va o‘rta hunar ta’limini boshqarish tizimi deganda nimani tushunasiz?

**Adabiyotlar:**


1. K. Xoshimov va boshqalar taxriri ostida «Pedagogik tarixi». O‘zbekiston Respublikasi «Fan» nashriyoti. Toshkent -2001 yil.
2. N.Xo‘jaev va boshqalar “Pedagogika asoslari” 2003 yil.
3. N.Xo‘jaev va boshqalar “Ta’lim nazariyasi” 2003 yil.
4. O.Musurmonova, Z.Baubekova. «O‘zbek xalq pedagogikasi». A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2000 yil.
5. E.N. Pronina, V.V.Lukashevich. “Psixologiya i pedagogika”. Uchebnik dlya studentov VUZov. Izdatelstvo «Elit», Moskva 2004.
6. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. Pod. red. V.A.Slastenina. Moskva «Akademia».
7. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.
8. «Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isaev, A.I.Mixenko, E.N.SHiyanov. Moskva. «SHkolnaya pressa». 2004
9. Mavlankulov M. “Bank tizimida boshqaruv nazorati” Bitiruv malkaviy ishi. 2005 yil

a. 45-bet.

10. www.ppf.uni.udm.ru
11. www.talant.spb.ruG‘wald.html
12. www.school. edu. ru.
13. www. inter – pedagogika. ru.
14. www. ppsy.ru.
15. www.wwings.ru


## 10-mavzu: PSIXOLOGIYANING PREDMETI, VAZIFALARI VA TADQIQOT METODLARI

**Reja:**
**1. Psixologiya fan sifatida**
**2. Psixologiyaning predmeti va maqsadi**
**3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni va tarmoqlari**
**4. Psixologiya fanining tadqiqot metodlari**

### 1. Psixologiya fan sifatida

Psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila boshlagan davrga deyarli 160 yil bo‘ldi. SHu davr ichida juda ko‘plab ilmiy tadqiqot natijalarini o‘z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar, qo‘llanmalar yozildi. Lekin, bu bilan fanning jamiyat hayotida tutgan o‘rni juda oshib ketdi, deb bo‘lmaydi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko‘rsatgan barcha olimlar ko‘proq diqqatlarini mavxum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar. Vaholanki, inson, uning barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’siri masalasi hozirgi davrga kelib, o‘ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi.

XX asrda insoniyat texnika, elektronika va boshqa shunga o‘xshash murakkab texnologiyalarni yaratgangani bilan xarakterlansa-da, vaqti kelganda, shunday holatga duch kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o‘ta aqlli inson o‘zi va o‘zi atrofidagilarning ruhiy kechinmalarini to‘g‘ri baholay olmasligi sababli, o‘zini nochor va kuchsiz sezishi mumkinligini hayot isbotladi. XXI asrda juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi dunyo xaritasida munosib o‘rin olgan mustaqil O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi **<u>inson omilini</u>** har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va

sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi xususida qayg‘urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to‘qqizinchi sessiyasidagi “O‘zbekistondagi demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzuidagi maruzasida **ettinchi ustuvor yo‘nalish** deb, barcha islohotlarning pirovard natijasini belgilab beradigan **inson omili** va mezoni ekanligi besabab ko‘rsatib berilmagandir. (Karimov I. A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari.- “Turkiston”, 2002 yil 31 avgust).

Inson psixologiyasini bilish, o‘z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta’minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni ob’ektiv va to‘g‘ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

SHunday qilib, yangi davr har bir insondan o‘z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o‘z davrida «O‘z - o‘zingni bil!» degan shiorni o‘rtacha tashlagan bo‘lsa, yangi davr «o‘z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil», degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘ydi. Ayni shu muammoni echishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

An’anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o‘rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug‘ullanadigan kimsalar o‘rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo‘lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. YAngi davr va uning o‘zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

**Psixologiyaning fan sifatida** dunyoga kelishi va rivojlanishi ko‘plab olimlarning ilmiy adabiyot va darsliklarida bayon etilgan. Fransiyalik olim J.Godfruaning “CHto takoe psixologiya” nomli 2-jilddan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat markazda bo‘lgan ekanligi, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17-asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19-asrlarda Kondilyak, Lokk, YUm yondoshuvlari asoslab berilgan. Psixologiyaning Fan sifatida rivojlanishida nemis psixologi va fiziologi Vilgelm Vundt (1832-1920)ning xizmati, uning tomonidan maxsus tajribaviy sinov laboratoriyalarining tashkil etilishi va mohiyati ochib berilgandir. Demak, psixologiya 1879-yilda Leypsig Universitetida nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundt tomonidan birinchi psixologik laboratoriya tashkil etilib, unda ilmiy asosda turli tajribalar o‘tkazish boshlangandan keyin mustaqil fan sifatida tan olingan.

Psixologiyaning paydo bo‘lishi va Fan sifatida e’tirof etilishida biologik, ijtimoiy, bixevior (xulqga ko‘ra), kognitiv, psixoanalitik, gumanistik, sotsial-psixologik yo‘nalishlar va ularning asoschilari bayon etilgan (Godfrua J. CHto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. -496 s. 57-80-b.).

Rossiyalik psixolog olim R.S.Nemov uch jilddan iborat “Psixologiya” kitobida psixologiya atamasi 16-asrda birinchi marta qo‘llanilganligini, ong va o‘zini kuzatish tufayli inson o‘zidagi psixik holatlarni o‘rgana borganligini, keyinchalik insonning faoliyati sohasida shu psixik jarayonlarni o‘rganish zarurati etilganligini izohlab bergan (Nemov R.S. Psixologiya: Uchebnik dlya stud. Vo‘zov., Kn. 1.: 688 s. 8-12 b.).

O‘zbek psixolog olimlari E.G‘oziev, M.Xolmuhamedov, X.Ibrohimovlarning “Psixologiya metodologiyasi” o‘quv qo‘llanmasida psixologiya fanining falsafa va tabiatshunoslik fanlari negizida paydo bo‘lganligi etarlicha dalillar vositasida ko‘rsatib berilgan. E.G‘ozievning 2 jilddan iborat “Umumiy psixologiya” darsligida psixologiya fanining predmeti, bu fanning vujudga kelshi, asosiy sohalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, psixologiyaning metodologiyasi va prinsiplari, faoliyat, uning tuzilishi, shaxs va uning tuzilmasi, shaxs psixikasining namoyon bo‘lish shakllari, shaxsning psixologik xususiyatlaridan qobiliyat, temperament, xarakter kabilar

keng va batafsil yoritib berilgan. O‘zbek psixologiyasida shaxsning rivojlanishida faoliyat, faoliyat tuzilmasi, kasbiy faoliyat xususiyatlari M.G.Davletshin tomonidan o‘rganilgan. SHaxsning ijtimoiy ta’sirlar mahsuli ekanligi, shaxs va jamiyat munosabatlarining o‘ziga xos tomonlari, jamiyatning bir bo‘lagi sifatida oila institutining psixologiyasi masalalari G‘.B.SHoumarov, N.A.Sog‘inov, B.M.Umarov ishlarida o‘rganilgandir. Oila maskanining milliy, xududiy, an’anaviy xususiyatlarini o‘zbek, tojik, qirg‘iz, qoraqalpoq, rus oilalari misolida maxsus tadqiq etish, uning motivlari, shaxslararo munosabatlari, nikoh qurish omillari jihatidan o‘rganish ishlarini psixologlardan M.Utepbergenov, R.Dushanov, E.Morshinina, SH.Jo‘raevalarning ilmiy ishlaridan ko‘rinadi. Psixologiya fanida tafakkur xususiyatlarini maxsus o‘rganish va tadqiq etish ishlari R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova ilmiy ishlarida kuzatiladi. SHu o‘quv qo‘llanmaning mualliflaridan biri V.M.Karimova o‘zining bir qator kitoblarida psixologiyaning ijtimoiy psixologiyaga aloqador muammolarini, chunonchi rahbarlik, liderlik, muloqot, samarali ta’sir mexanizmlari, guruh va shaxs psixologiyasi muammolarini; umumiy psixologiyaga aloqador tafakkur, uni rivojlantirish usullarini, shaxsda mustaqil tafakkurni namoyon bo‘lishi va uni samaradorligiga oid masalalarni ko‘rsatib bergan. SHuningdek, bu muallifning ilmiy yo‘nalishlari oila, yoshlarning oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlari muammolariga qaratilgandir.

**2. Psixologiyaning predmeti va maqsadi**

«Psixologiya» so‘zi ikkita grek so‘zlaridan - *«psyche»* - jon, ruh va «*logos*»- ta’limot, ilm so‘zlaridan iborat bo‘lib, an’anaviy ma’noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmeti har birimizning tashqi olamni va o‘z-o‘zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo‘yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, **psixikadir**, deb ta’rif berishadi. Psixika - bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi. Lekin bu qisqa ta’riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto‘g‘ri bo‘ladi. CHunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma - xilki, biz ba’zan o‘z-o‘zimizni ham tushunmay qolamiz. SHuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro‘y berayotgan ob’ektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo‘lish bilan, balki hayotda munosib o‘rin egallash, o‘z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo‘lish, o‘ziga va o‘zgalarga ta’sir ko‘rsatishning usullarini bilish va ulardan o‘z o‘rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixikaga aloqador bo‘lgan jarayonlarni, o‘zimizda, miyamiz, ongimizda ro‘y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, o‘rtoqlarimizdan biri bizga yokadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu hatti - harakatlarini bevosita ko‘rib, baholab, tahlil qilolsak-da, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko‘rishmay qolganimizda uni sog‘inayotganligimiz bilan bog‘liq hisni bevosita ko‘rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o‘xshash holatlar psixologiya o‘rganadigan hodisalar va holatlarning o‘ziga xos tabiati va murakkabligidan darak beradi va ular boshqa turli hodisalardan farq qiladi.

SHunday qilib, psixologiya fani o‘rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o‘rganishning ikki jihati bor: bir tomondan, ularni o‘rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Oxirgi jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o‘zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o‘zaro bir - birlari bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarga bo‘ysunadi.

Demak, psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq - atvori va turli faoliyatlarining o‘ziga xos tomonlaridir, deb ta’riflash mumkin.

**Psixologiya fanining maqsadi** insonni o‘zini-o‘zi anglashi va atrof-muhit bilan o‘z mutanosib munosabatlarini o‘rnatish va uni kamol toptiruvchi omillarni aniqlash.

Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti va jamiyatdagi munosabatlarning murakkablashuvi va undagi intesiv o‘zgarishlar inson psixikasiga ta’sir etib. bu holat insoniyat oldiga bir qancha echimini topishi kerak bo‘lgan masalalarni vujudga keltirmoqda. SHuningdek uzluksiz bilim

zaxiralarini to‘ldirib borishlarini talab etmoqda. Ushbu jarayonlar insonlarga katta ruhiy zo‘riqishlarni, sog‘liqlarini susayishini keltirib chiqarmoqda. Inson tabiatan ichki ruhiy muvozanatini va uyg‘unligini saqlashga, jismoniy va psixologik jihatdan sog‘lom bo‘lishlikka intilishga mansub. SHu nuqtai nazardan kelib chiqib psixologiya fani insoniyat oldida turgan mazkur masalalarni echishida katta ahamiyat kasb etadi.

Har bir inson pinhona bo‘lsa ham o‘zining psixologik xususiyatlarini bilmoqchi va o‘zi to‘g‘risidagi fikrlarini psixolog yordamida tekshirib ko‘rishga urinib ko‘radi. Biz o‘zimizni yaxshi bilishimiz kerakmi? Bu savolga faqat ijobiy javob berishimiz mumkin. qachonki inson o‘zining murakkab bo‘lgan psixik olamini yaxshi bilsa, u hayotiy muammolarini onsonroq echish yo‘lini topaoladi, odamlar bilan tez muloqotga kirishaoladi, ulardan yordam oladi va etibor qozonadi. Har bir kishi o‘zining ijobiy va salbiy xususiyatlarini bilib, yomonlarini yo‘qatishga xarakat qiladi va yaxshilarini oshirishga intiladi, o‘zining hulq-atvorini boshqaraoladi. Xozirgi kunda ko‘p kasb egalariga ham psixologik muammoarni echish masalasi ko‘ndalang turibdi. Ayniqsa o‘qituvchi kasbini tanlagan insonlarga psixik olamni o‘rganish ta’lim va tarbiya berishda o‘quvchilarga individual yondoshuvni tanlashlarida ko‘mak beradi. Amaliyotda pedagog doyim o‘quvchi o‘z olamida yashashi bilan to‘qnashadi, o‘qituvchi nima qilayotganini, nimaga undayotganini tushunmaydi. **Ta’lim va tarbiyada eng muhim narsa nima?** O‘quvchilarning ta’lim olish jarayonini qanday osonlashtirish mumkin, ularni qilayotgan xatolarining sabablarini qanday o‘rganish mumkin? Nega ba’zi bir o‘quvchilar yomon o‘qishadi yoki darslarni o‘zlashtiraolmaydilar? O‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari yoki qiziqmasliklarini qanday tushuntirish mumkin? Bunday savollar juda ko‘p va bunga faqatgina psixologiya fani aniq javob topib beradi.

Psixikaning turli shakllarda ko‘rinishlari: psixik jarayonlar, psixologik holatlar, xususiyatlar mavjud bo‘lib, psixik aks ettirish bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, ya’ni shaxs individualligi orqali namoyon bo‘ladi; shaxsning faoliyati jarayonida yuzaga keladi; atrofdagi voqelikni to‘g‘ri aks ettirish imkoniyatini beradi.

Psixologiya fanining predmeti masalasida psixika va uning namoyon bo‘lish shakllari zamonaviy psixologiyaning umumiy psixologiya sohasiga aloqador bo‘lib, ko‘plab olimlar o‘z ilmiy adabiyotlarida bu jihatni muhim sifatida qaraydilar.

Psixika o‘ziga alohida bir olam emas: u organik hayotning yuksak shakllaridan bo‘lib, faqat hayvonlar bilan odamga xosdir. Hayvonlar bilan odam, o‘simliklardan farq qilib, yolg‘iz organik hayotga ega bo‘libgina qolmay, balki shu bilan birga, psixik hayotga ham egadir. Lekin, ma’lumki, xayvonlarning psixik hayoti odamning psixik hayotiga qaraganda soddaroqdir. Odam psixikasi hayvonlar psixikasidan sifat jihatidan farq qiladi. Odamda psixikaning yuksak shakli – ong bor. Odam ongli zotdir.

***Psixik jarayonlar*** bu psixik hodisalarning paydo bo‘lishi, qonuniy, izchil ravishda o‘zgarishi va bir taraqqiyot bosqichidan navbatdagisiga o‘tishi, ularda sifat o‘zgarishlarining sodir bo‘lishidir.

Psixik jarayonlarga bilish jarayonlari, irodaviy va emotsional jarayonlar kiradi.

***Bilish jarayonlariga*** esa: ongimizning muayyan ob’ektga yo‘naltiriltiruvchi ***diqqatni,*** sezgi organlariga bevosita ta’sir qiladigan narsalarning, ya’ni qo‘zg‘atuvchilarining in’ikos sifatidagi ***sezgilar*** va ***idrokni***; voqelikni yangilanib turadigan aksi sifatida ***xotirani***; voqelik xususiyatlarining kishi ongida umumlashgan va qaytadan in’kos qilingan hamda bevosita bilish qiyin bo‘lgan ***xayol*** va ***tafakkurni;***

***Irodaviy jarayonlar*** bu muayan tarzda harakat qilish motivlari yoki istagining paydo bo‘lishi, birdan bir qarorga kelish va ijro etishdir.

***Emotsional yoki hissiy*** (his-tuyg‘ularning hosil bo‘lishi, ehtiyojining qondirilishiga qarab ularning kuchayishi va boshqalar)ni kiritish mumkin.

***Psixik holatlar*** – shaxsning ob’ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi ijobiy hamda salbiy emotsional kechinmalari; mamnuniyat va g‘azab, ishonch va ishonchsizlik, aktivlik va passivlik kabi hislar. Psixik holatlarga xursandchilik, xafachilik, parishonxotirlik, ziyraklik, qayg‘u, affekt va stresslar, yoqimli va yoqimsiz tuyg‘ular, tinchlik-farog‘at, hayajonlanish va mayuslanish, o‘yg‘oqlik va uyqu holatlari, dadillik, lanib qolish holatlarini boshdan kechirish psixik xolatlarga kiradi.

***SHaxsning psixik xususiyatlari*** yoki fazilatlariga kishi aqlining va tafakkurining belgilari, uning xarakterida, temperamentida, qobiliyatlarida barqaror bo‘lib qolgan irodaviy xususiyatlar, muayyan tarzda harakat qilishdan iborat barqaror va yangidan xosil bo‘lib turadigan xoxish-istaklar, xis-tuyg‘u xususiyatlari va shu kabilar kiradi.

**3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni**

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo‘nalishdagi muammolarni ma’lum ma’noda o‘rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bo‘lar birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo‘lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o‘ziga xos va etakchidir.

***Falsafa*** va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo‘lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to‘la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o‘rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo‘lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o‘zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma’lumotlarga ega bo‘lishiga yordam beradi. SHuni alohida ta’kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog‘liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko‘ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g‘oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

***Sotsiologiya*** fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o‘z taraqqiyotining muhim bosqichiga o‘tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko‘lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo‘lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta’minlash ishiga xizmat qiladilar. Qolaversa, huquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O‘zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demoqratik o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta’minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar fikr va qarashlaridagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida o‘rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tatbiqiy ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun joylarda tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari ayni shu vazifani bajarishga qaratilgandir. Respublikamiz miqyosida esa “Ijtimoiy fikr” markazining turli mavzular bo‘yicha olib boradigan ijtimoiy so‘rovlari aholining kayfiyati, qiziqishi, xoxishi, ehtiyoji, niyatini ifodalash bilan birga, hukumat va davlat tomonidan qanday istiqbolli rejalar to‘zish lozimligiga olib keladi. Ijtimoiy-psixologik so‘rovlarning oliygohlarda o‘tkazilishi ustoz-shogird, talaba-o‘qituvchi munosabatlarini, ish joylarida o‘tkazish xodim-rahbar, xodim-xodim munosabatlarini bilib olish imkonini yaratadi. Bu orqali nafaqat sotsiologik so‘rov, balki inson shaxsiga aloqador psixologik xususiyatlarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

***Pedagogika*** bilan psixologiyaning o‘zaro hamkorligi va aloqasi an’anaviy va azaliy bo‘lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufo‘zi o‘ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o‘zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘ydi. Milliy dasturda e’tirof etilgan yangicha modeldagi **shaxsni** kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo‘lib etishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart - sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta’lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda pedagogikaning o‘z uslub va qoidalari etarli bo‘lmaydi. SHuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta’lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o‘qitish texnologiyalarini bola tomonidan o‘zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechoglik ta’sir ko‘rsatayotganligini o‘rganish va shu asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma’naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta’lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o‘qitishning eng ilg‘or va zamonaviy

shakllarini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi. SHaxsga ta’lim va tarbiya berishning alohida emas, birgalikda qaralishida pedagogika va psixologiya fanlarining o‘zaro uzviyligi muhimdir. Hozirgi kunlarda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ta’lim oluvchining psixologik xususiyatlarini bilgan holda, unga pedagogik ta’sir etish va uni yangi bilimlarga yo‘naltirish texnologiyasi joriy etilganligi ham bu ikki fan bir-biriga chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

**Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.k.** psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob’ektiv o‘rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e’tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug‘ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etgani sababli, o‘sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik hodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o‘lchash metodlari) o‘z o‘rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. SHuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o‘z hissasini qo‘shgan holda uni boyitadi.

**Kibernetika** fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo‘lib, u inson shaxsining o‘zini-o‘zi boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo‘lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o‘z o‘rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma’lumotlar asri bo‘lgan XX1 asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so‘zning shaxslararo munosabatlardagi ta’sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o‘rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o‘rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo‘llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o‘rganishni kafolatlaydi.

**Texnika fanlari** bilan psixologiyaning o‘zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini echishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo‘nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo‘lsa, texnika taraqqiyotga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo‘lgan masaladir. Ayniqsa, mustaqil O‘zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir - asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta’minlash qanchalik dolzarb bo‘lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fukaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam - mashina» dialogining eng samarali yo‘llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

**Iqtisodiyot** bilan psixologiyaning o‘zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo‘lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o‘tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o‘ziga xos namoyon bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. O‘zbekiston Prezidenti I. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fuqarolarda, birinchi navbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e’tiborni qaratgan edilar. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo‘lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o‘z navbatida iqtisodiy islohotlarning ob’ekti hamda sub’ekti bo‘lmish inson omilidagi barcha psixologik o‘zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini echishi kerak.

YUqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi.

SHuning uchun bugungi kunda psixologiya fanidan alohida bo'lib ajralib chiqqan tarmoqlar to'g'risida ham fikr yuritish mumkin.

Psixologiyaning alohida **tarmoqlarini** differensiatsiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. CHunki hamma sohada inson shaxsi faoliyat ko'rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir. SHuning uchun hozirgi davr mutaxassislari psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari lozimdir.

Psixologiyaning 300dan ortik tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi:

- umumiy psixologiya - psixologiyaning barcha masalalarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi;
- pedagogik psixologiya - kishiga ta'lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;
- yosh davr psixologiyasi - turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi;
- ijtimoiy psixologiya - odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;
- mehnat psixologiyasi - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadi;
- injenerlik psixologiyasi - avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorning faoliyatini, odam-texnika o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;
- yuridik psixologiya - huquq tizimining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;
- harbiy psixologiya - kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;
- savdo psixologiyasi - jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, haridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko'radi;
- tibbiyot psixologiyasi - shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi.

SHuningdek psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, iqtisodiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, rahbar psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, pedagogik psixologiya, intellekt psixologiyasi, psixodiagnostika va boshqa ko'plab sohalari mavjud.

**4. Psixologiya fanining tadqiqot metodlari**

Barcha tabiiy va ijtimoiy fanlar singari psixologiya ham bundan keyingi tahlilini taqazo qiluvchi faktlarning to'plashning ikkta metoliga – o'z navbatida qator shakillari mavjud bo'lib, ularning mohiyatini o'zgartirmaydigan kuzatuv va eksperiment o'tkazish metodlariga egadir. Psixologiyada ilmiy bilishning ushbu vositalari mavjudligi (garchi bu har qanday fanda, umuman olganda, tomomila o'z-o'zidan tushunarli deb hisoblansa ham) ni alohida ta'kidlash zarurati shundan kelib chiqadiki, idiealistik psixologiya yuqorida bayon etilgan sabablarga ko'ra,

kuzatuvchi o‘z- o‘zini kuzatish bilan cheklanib, psixologik tadqiqotda, ayniqsa oliy darajadagi psixik jarayonlarni o‘rganishda, eksperementning biron bir jiddiy rol o‘ynashni inkor etib keladi.

**Psixologiya fanining metodlari**

1. Kuzatuv
2. uzluksiz;
3. o‘zini-o‘zi kuzatish
4. Tajriba usuli
5. laboratoriyada tajriba o‘tkazish;
6. tabiiy sharoitda tajriba o‘tkazish
7. kesma
8. So‘rovnoma
9. Suhbat
10. Tarjimaixol
11. Intervyu
12. Sotsiometriya
13. Test
14. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash

Kuzatuv agar u tashqi hodisalarni tasvirlash bilan cheklanibgina qolmasdan, balki ushbu hodisalarning psixologik tabiyatini izohlab berish darajasiga ko‘tarilsa, psixik tadqiqot metodi bo‘la oladi. Kuzatuvchining mohiyati psixologik faktlarni faqat hisobga olishdan emas, balki bu psixologik faktlarning sabablarini ilmiy nuqtai nazardan izoxlab berishdan iboratdir. Faktlarni hisobga olish bilan turmushdagi oddiy kuzatuvchilar deb atalmish kuzatishlar chog‘ida shug‘ullaniladiki, kishi u yoki bu ishlar, xatti- harakatning sabablarini tusmol Bilan izohlaydi. Turmushdagi kuzatuvchilar ilmiy kuzatuvchilardan avvalo o‘zining tasodifiyligi, uyushmaganligi va rejasizligi bilan farq qiladi. Unda psixik faktning hosil bo‘lishi va uning kechishiga ta’sir qiladigan barcha muhim shart sharoitlar kamdan- kam hisobga olinadi. Biroq turmushdagi kuzatuvchilar son- sanoqsiz ravishda o‘tkazilib turishi va mezon sifatida ixtiyorida kundalik tajribaning mavjudligi vajidan oqibat natijada ba’zan psixologik donishmandlikni ratsianal mag‘zini hadiya etadi. Turmushdagi son sanoqsiz psixologik kuzatuvchilarning natijalari maqol va maqollarda mujassamlashgan va o‘rganish uchun muayan qiziqish tug‘diradi.

Iliy psixologik kuzatuv turmushidagi kuzatuvchidan farqli o‘laroq, xulq- atvor va faoliyatning kuzatilayotgan faktni tasvirlashdan uning ichki psixologik mohiyatini tushuntirib berishga muqarar o‘tilishini taqazo etadi. Kuzatuv jarayonida hosil bo‘ladigan gipoteza ana shu o‘tishning shakli xisoblaniladi. Uni tekshirish yoki rad etish esa keyingi kuzatvlarda hal bo‘ladi. Psixologik kuzatuvchilarning jiddiy muhim talablari aniq planning bo‘lishi va shuningdek olingan natijalarning maxsus kundalikda qayd etilishdan iborat.

Faoliyat mahsulini psixologik jihatdan tahlil etish kuzatuv turlaridan hisoblanadi. Bu holda faoliyatning bamisoli o‘zi emas, balki uning mahsuli o‘rganilayotganday bo‘ladi, lekin amalda harakat natijasida yuzaga chiqadigan psixik jarayonlar o‘rganish ob’ekti hisoblanadi. Juladan, bolalarpsixologiyasida bolalar chizgan rasmlarni o‘rganish katta rol o‘ynaydi. SHaxsni turli xildagi faoliyat jarayonida kuzatuvda hosil bo‘ladigan erkin harakteristikalarni umumlashtirish metodi ham shular jumlasiga kiradi.

YAngi psixologik faktlarga ega bo‘lishning va ob’ektiv tarzda ilmiy bilishning asosiy vositasi – eksperement metodidir. Faqat keyingi yuz yil mmobaynida psixologiyadagi mavqega

ega bo‘lgan bu metod hozirgi  paytda psixologik bilimlarning bosh ta’minotchisi va ko‘pgina nazariyalar uchun negiz bo‘lib hizmat qilmoqda.

Kuzatishdan farqli o‘laroq, psxologik eksperement tadqiqotchining  sinalayotgan faoliyatiga faol aralashuvi mumkinligini nazarda tutudi. Jumladn, tadqiqotchi psixologik fakt aniq namoyon bo‘lishiga, uning eksperimentchi xohlagan yo‘nalish bo‘yicha o‘zgartirishlarga, har jihatdan tadqiq qilish uchun bir necha marotalab takrorlanishga imkon beradigan shart- sharoitni yaratadi.

Eksperement metodning ikkta asosiy turi farqlanadi: *labaratoriya eksperimenti* va *tabiiy eksperiment.*

Labaratoriya eksperimentning xarakterli belgisi faqat uning labaratoriya sharoitlarida maxsus psixologik asbob- uskunalar yordamida o‘tkazishlarida va sinaluvchining xati- harakatlari yo‘l- yo‘riqqa qarab sodir bo‘lishi bilgangina emas, balki sinalayotganini biladigan sinaluvchi kishining munosabati bilan ham  belgilnadi. Labaratoriya eksperimenti yordamida diqqatning xossalarini, idrok, xotira va  boshqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin. Hozirgi paytda labaratorya eksperimentining ko‘pincha shunday tarzda o‘tkazishadiki, unda odam odatdagi sharoitlarda bajarishi mumkin bo‘lgan faoliyatning ba’zi psixologik jihatlari modellashtirilib qo‘yiladi. Jumladan, eksperimentning anchagina hissiy zo‘riqish vaziyati modellashtirilib, uning jarayonida sinaluvchi, masaln, kasbi kori uchuvchi bo‘lgan kishi anglangan echimlar qabul qilishi, yuksak darajadagi uyg‘unlikni taqazo etadigan murakkab xarakatlar qilishi, prborlardagi ko‘rsatkichlarga munosabat bildirishi va h. k lar belgilab qo‘yilgan bo‘lishi mumkin.

*Tabiiy eksperiment* (birinchi martda 1910 yilda A. F. Lazurskiy taklif etilgan) mo‘ljalanganligiga ko‘ra, eksperiment o‘tkazilayotganini biladigan sinaluvchida hosil bo‘ladigan zo‘riqishga yo‘l qo‘ymasligi va tadqiqotni odatdagi, tabiiy sharoitlarga (dars, suhbat, o‘yin, uy vazifalarni bajarish va boshqalar) ko‘chishi lozim.

Metodlarni yotlashning samaradorligi uni uzoq vaqt xotirada saqlab qolishi to‘g‘risidagi ko‘rsatmaga bog‘liqligini tadqiq qilish tabiiy eksperimentga misol bo‘la oladi. O‘quvchilardan bir guruhi o‘rganilishi lozim bo‘lgan material bilan tanishtiriladi va buning ustiga o‘qituvchi ushbu material yuzasidan  ertasiga so‘ralishini aytadi. Boshqa bir guruhda esa o‘quv materiallari xuddi shu tarzda o‘talib bo‘lgach, o‘quvchilarga o‘tilgan dars bir haftadan so‘ng so‘ralishini aytiladi. Haqiqatda esa har ikkala guruhlarda ham o‘quvchilardan ikki haftadan keyin so‘ralgan. Ana shu tabiiy eksperiment jarayonida uzoq vaqt xotirada saqlab qolishga mo‘ljallangan yo‘l- yo‘riqning afzaliklari aniqlanadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqot vazifalarini bajaradigan *tabiiy eksperiment psixologo – pedagogik eksperiment* deb ataladi. Har xil yosh bosqichlarida o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini o‘rganishda, o‘quvchi shaxsni shakllantirishni konkret yo‘llarini anqlashda uning roli benihoya kattadir. Hozirgi payitda labaratoriya eksperimenti bilan tabiiy eksperimentning bir – biridan farqi juda ham shartli bo‘lib, ular mutlaqlashtirillmasligi kerak.

Hozirga qadar biz tadqiqiy metodlar haqida so‘z yuritik. Bu metodlar yrdamida olim ilmiy bilish uchun muhim faktlarni aniqlashi, u yoki bu qonuniyatlarning mavjudligini kashf etilishi, psixik hodisalarning  sirli mehanizimini topishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ushbu metodlar vositasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar predmeti psixologiya faning predmetiga mos keladi.

Psixologik  metodlar faqat tadqiqot maqsadlari uchun emas, balki sinov  maqsadlari uchun ham qo‘llanishi mumkin. Keyingi ma’noda vazifa  ilmiy bilimlarning  yanada chuqurlashtirilishi uchun zarur bo‘lgan  biron- bir yangi ma’lumotlarni olishdan emas, balki sinaluvchining psixologik belgilari ilgari aniqlangan psixologik  normalar va standartlarga  qanchalik muvofiq kelishini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Psixologik shaxsning muayan psixologik  fazilatlarni aniqlash maqsadida foydalanishiga harakat qiladigan bunday ma’lumotlar testlar bo‘lib hisoblanadi.

***Test-*** qisa mudatli topshiriq bo‘lib, uning bajarilishi ba’an bir psixik funksiyalar mukammaligini ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Testlar yordamida ayrim qobilyatlarning, ko‘nikmalarning, malakalarning bor yo yo‘qligini aniqlashga, u yoki bu kasb sohasida ishlashi uchun  layoqatlilik darajasini va h.k. larni bilishga harakat qilinadi. Psixologik testlar, jumladan, kosmonavtik kosmik parvozga psixologik jihatdan tayorgarlik darajsini aniqlash lozim bo‘lib qolganida, sinaluvchilar o‘qishningalohida usullari qo‘llanilgan eksperimental

guruppalarda bilimlarni qanday o‘zlashtrilganliklarini bilish zarurati tug‘ilgan paytlarda, shuningdek boshqa hollarda qo‘llaniladi.

Testning diagnostik qimmati ilmiy eksperimentning darajeasiga va test uchun asos qilib olingan psixologik faktning  haqiyqiyligiga, ya’ni manzur test qay tarzda tuzilganiga- uning oldidan o‘tkazilgan juda katta eksperimental ishning natijasi hisoblanadimi, yoki taxminiy, tasodifiy va yuzaki kuzatuvchilar natijasimi  ekanligiga ko‘p jihatdan bog‘liqlir. Etarli darajada asoslanmagan va tekshirilmagan psixologik testlar pedogogika ishida, kasb tanlash sohasida psixik rivojlanishdagi nuqsonlar va vaqtinchalik kechikishlarni aniqlashda anchagina ziyon ketirish mumkin bo‘lgan jiddiy xatolarga sabab bo‘lishi mumkin.

“Psixologik tadqiqot metodi” tushunchasi konkret ilmiy psixologik muammoni hal etishning maxsus metodikasi sa’nosida ham ishlatilishi mumkin. Ana shu konkret metodikalarda o‘z- o‘zidan ravshanki, metodologik prinseplar amalga oshiriladi va faqat mazkur muammo uchun emas, balki bilishning boshqa barcha muammolari uchun ham umumiy bo‘lgan usullari yuzaga chiqadi. Lekin konkret metodikalarning o‘ziga xosligi eng avvalo ular vositasida hal etilayotgan ilmiy vazifaning qanday xarakterda bo‘lishi bilan belgilanadi. Hozirgi zamon psixologiyasida qo‘llanib kelinayotgan konkret psixologik metodikalar xaddan tashqari ko‘pdir. Ularning shakllari ham juda turli-tuman bo‘lib, psixologiyaning va problemaning tmuayyan tadqiqot usulini, ya’ni konkret metodikasini talab qilgan soxasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

SHu bilan birga konkret psixologik metodikalarning ko‘pchiligi uchun xos bo‘lgan ba’zi umumiy belgilarni ham alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Buni normal ravojlangan va va aqliy jixatdan zaif bolalarda diqqatning barqarorligi yoshga taalluqli tafovutlarni o‘rganish vazifasi qo‘yilgan tadqiqot misolida ko‘rib o‘tamiz.

Tadqiqot odatdagidek to‘rt bosqichga ajratiladi.

Birinchi bosqich-tayyorgarlik bosqichi. Bunda xar xil vositalar yordamida material o‘rganiladi dastlabki ma’lumotlar to‘planadi (o‘quv mashg‘ulotlari va mkhnat faoliyati chog‘ida, turmushda ataylab uyushtirilgan suhbatlar jarayonida kuzatuvdan foydalaniladi, ba’zan maxsus tanlangan savollar yozilgan anketalar qo‘llaniladi, biografik ma’lumotlar aniqlanadi, anamnez to‘planadi, ya’ni tadqiq qilinayotgan faktlar hosil bo‘lishiga qadar mavjud shart-sharoitlar ta’riflanadi va xokozolar).

Ikkinchi bosqich-xususan eksperimental bosqich bo‘lib, tadqiqotning kankret metodikasi amal qiladi va o‘z navbatida bu bosqich birin ketin qo‘llaniladigan qator bo‘g‘inga eksperiment seriallarga bo‘linadi.

Tadqiqotning uchunchi bosqichi-tadqiqot ma’lumotlarni sifat jixatdan qayta ishlashdir. U psixologiyaning matematik aparatini dastlab ilgari surilgan gipotezaning tasdig‘i tarzida olingan hulosalarning xaqqoniyligi xaqida hukm chiqarish imkonini beradigan turli xildagi statik usullari va ehtimolilik nazariyasining asosiy qoidalarini qo‘llashni taqozo etidi.

Tadqiqotning to‘rtinchi bosqichi-olingin ma’lumotlarni izohlab berish, ularni psixologik nazariya asosida talqin qilish, gipotezaning to‘g‘ri va noto‘g‘riligini uzil kesil aniqlashdan iboratdir.

SHunday qilib korrektura namunasi deb atalgan mazkur konkret metodikaning qo‘llanishi ob’ektiv psixologik tadqiqotning ko‘pgina xarakterli belgilarini o‘z ichiga oladi. Bunday tadqiqotning prinspial jixatdan metodologik asoslanganligi xaqida yuo‘orida so‘z yuritilgan edi. Kuzatuv faoliyat maxsulini taxlil etish, suhbatlar o‘tkazish, anamnestik ma’lumotlarni aniqlash, eksperiment o‘tkazish va uning natijalarini metodik o‘yl bilan qayta ishlash, hulosalar chiqarish va ularni izoxlab berish bularning hammasi tadqiqot ishining tarkibiga singib ketadi va unda o‘z ifodasini topadi.

Psixologik muommolarning ilmiy jixatdan xal etishi zarurati tug‘ilganda tegishli konkret psixologik metodikani qo‘llana bilishni talab qiladi. Psixologik tadqiqotning ob’ektiv metodlardan keng foydalanishi turli hildagi konkret metodikalarning qo‘llanishi hozirgi zamon psixologiyasiga tadqiqotlarning yuksak darajada olib borilishini ta’minlaydi.

Barcha tabiiy va ijtimoiy fanlar singari psixologiya ham bundan keyingi tahlilni taqozo qiluvchi faktlarni to‘plashning ikkita metodiga – o‘z navbatida qator shakllari mavjud bo‘lib, ularning mohiyatini o‘zgartirmaydigan kuzatuv va eksperiment o‘tkazish metodlarigsha egadir.

YAngi faktlarga ega bo‘lishning va ob’ekt tarzda ilmiy bilishning asosiy vaositasi – eksperiment metodidir.  Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: laboratoriya eksperiment iva tabiiy eksperiment.

Psixologik-pedagogik tadqiqot vazifalarini bajaradigan tabiiy eksperiment psixologo-pedagogik eksperiment deb ataladi. Har xil yosh bosqichlarida o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini o‘rganishda, o‘quvchi shaxsini shakllantirishning konkret yo‘llarini aniqlashda uning roli benihoya kattadir.

Suhbat metodi – psixologiyaning ilmiy tekshirish metodlaridan biri bo‘lib, tekshiruvchi va tekshiriluvchi o‘rtasidagi savo-javob tariqasida ro‘y beradiyu Suhbat metodi tekshiruvchi tkshiriluvchiga o‘rganiladigan muammoning tabiatiga muvofiq oldindan tayyorlab qo‘yilgan savollar beroib, ularga javoblar oladi. Masalan, suhbat metodi yordamida shaxsning qiziqishlari, dunyoqarashi, e’tiqodi, nutqiy xususiyatlari va boshqa sifatlari o‘rganilishi mumkin. Suhbat jarayoni samimiy, erkin ravishda o‘tishi, savollar atroflicha o‘ylab tuzilgan bo‘lishi, keyingi savollar

Test – bu qisqa muddatli topshiriq bo‘lib, uning bajarilishi ba’zan bir psixik funksiyalar mukammalligining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Testlar yordamida ayrim qobiliyatlarning, ko‘nikmalarning, malakalarning bor yo yo‘qligini aniqlashga, u yoki bu kasb sohasida ishlash uchun layoqatlilik darajasini va xokazolarni bilishga harakat qilinadi.

Mazkur mavzuni chuqurroq o‘rganishda internet tarmog‘idagi ma’lumotlarga ham e’tiboringizni qaratishni tavsiya etamiz, qarang (**www.psychology.net.ru**).

**Qisqacha xulosa:**

YAngi davr har bir insondan psixologik bilimlarni egallashni talab etadi. Buning uchun shaxs psixikasining namoyon bo‘lish shakllari: psixik jarayonlar, psixologik holatlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini bilish zarur. Psixologiya fan sifatida 18-asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi. Hozirgi kunda bu fanning 300 dan ortiq sohasi alohida fan sifatida shakllangan. Psixologiya fani barcha fanlar bilan o‘zaro bog‘liqdir.

**Tayanch iboralar:**

Psixologiya, psixika, tarmoqlar, tadqiqot metodlari, inson omili, ruh, jon tushunchasi, psixik jarayon, bilish jarayoni, irodaviy jarayon, emotsional jarayon, psixik holat, shaxs, pedagogika, test, metod

**Nazorat uchun  uchun savollar:**

1. Psixologiya fanining predmeti nima?
2. Psixologiyaga asos solingan yil?
3. Psixologiya so‘zining ma’nosi qanday?
4. Psixologiya fani o‘rganadigan jarayonlar?
5. Psixikaning namoyon bo‘lish shakllari qanday ko‘rinishga ega?
6. Psixologiya qaysi fanlar bilan o‘zaro bog‘liq?
7. Psixik jarayonlar deb nimaga aytiladi?
8. Psixologik holatlar qanday ko‘rinishga ega?
9. SHaxsning individual xususiyatlari nima?
10. Psixologiyaning qanday tarmoqlari mavjud?

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Godfrua J. CHto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. -496 s.
2. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
3. Nemov R.S. «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003
4. Gamilton. YA.S. “CHto takoe psixologiya”. “Piter”, 2002.
5. Drujinina V. “Psixologiya “. Uchebnik. “Piter”, 2003.
6. www.expert.psychology.ru


## 11-mavzu: SHAXS VA UNING FAOLIYATI

**REJA:**

1. **SHaxs to‘g‘risida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik**
2. **SHaxs va uning faolligi**
3. **Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar**
4. **Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi**
5. **Mativlarning turlari va anglangan darajasi**

## 1. SHaxs to‘g‘risida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik

O‘z mehnati tufayli inson psixikasi takomillashib xayvonlar psixikasidan tobora o‘zqlashmoqda, va bunga sabab bo‘layotgan omillar bu uning jamiyatda bo‘lishligi, odamldar bilan birgalikdagi faoliyati, ular bilan turli munosabatlarga kirishishi, uning dunyoqarashini shakllanishidir va shu bilan birga u jamiyatning faol a’zosi shaxs bo‘lib shakllanishidir.

SHaxs tushunchasiga ta’rif berishimizdan avval biz, insonning shaxs bulib etishmaganlidan avvalgi jarayonni kuzatib undagi hali to‘liq yoki bo‘lmasa mutlaqo hali shakllanmagan tomonlarini, ya’ni sifat va xususiyatlarini nazardatutishimiz mumkin. YA’ni hali shakllanmagan shaxs psixologiyada ***individ*** nomi bilan yuritiladi.“Individ” tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. YAngi tug‘ilggan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb xisoblash mumkin.

Biron-bir kishini biz individ deb ataganda biz juda ko‘p narsalarni aytgan bo‘lamiz. Aslini olganda, bu bilan uning potensial ravishda inson ekanligi aytilgandir. Uning bundan keyingi va hatto juda ham umumiy tarzxdagi ta’rifi fazilatlarining bayon etilishi va izohlanishi taqozo qiladi. Bunday fazilatlarsiz u faqat boshqalarga o‘xshamaydigan emas, balki ular kabi harakat qilmaydigan, fikrlamaydigan, iztirob ham chekmaydigan, jamiyat a’zosi sifatida, tarixiy jarayonning ishtirokchisi sifatida ijtimoiy aloqalarga jalb ham etilmagan real kishi emas, balki demografik ma’lumotnomalardagi jonsiz birlik holida qoladi. Xolos. Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alohida ijtimoiy fazitlat kashf etadi, shaxs bo‘lib etishadi. Individ hali bolaligidayoq tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatla sistemasiga jalb etiladi. U bu sistemani allaqachon tayyor holda uchratadi. Kishining jamiyatdagi bundan keyingi rivojlanishi munosabatlarining shu qadar chigalliklarini vujudga keltiradiki, bu hol uni shaxs sifatida shakllantiradi.

Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta’sir o‘tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan muntazam tarzdagi ijtimoiy fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

“SHaxs” va “individ” tushunchalarining bir-biriga o‘xshashligini barcha etakchi psixologlar B.G.Ananev, A.N.Leontev, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn va boshqalar inkor etishadi.

“Individ” va “shaxs” tushunchalarining o‘xshashligi emas, balki birligi haqidagi fikr quyidagicha tarzda o‘rtaga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan savolga javob berilishini takqozo qiladi: shaxs bo‘lib hisoblanmagan individning mavjud bo‘lishi yoki aksincha individning konkret sohibi sifatida undan tashqarida va usiz mavjud bo‘lish fakti ko‘rsatilishi mumkinmi? Taxminiy tarzda fiker yuritilagn taqdirda unisi ham va bunisi xam bo‘lishi mumkin. Agar kishilik jamiyatidan tashqarida voyaga etgan individni hayolan tasavvur qilinadigan bo‘lsa, bu holda u birinchi bor odamlarga duch kelib, biologik jonzotgna xos individual xususiyatlardan bo‘lak hech qanday, yuqorida aytilganidek, kelib chiqishi jihatidan hamisha ijtimoiy-tarixiy xarakter kasb etadigan shaxsiy fazilatlarga ega ekanligini namoyon qila olmaydi balki tevarak-atrofdagi odamlar mabodo uni birgalikdagi faoliyat va munosabat jarayoniga “torta olishgan” taqdirda ularning paydo bo‘lishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitlargagina ega bo‘ladi. Hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar tajribasini o‘rganish bu vazifani amalga oshirishning g‘oyat darajada murakkabligidan dalolat beradi. qarshimizda hali shaxs sifatida kamolatga erishmagan individ bo‘ladi. Real

individni gavdalantirmaydigan shaxsning paydo bo‘lish imkoniyatlari mavjudligi muayyan istisnolar bilan tan olinishi ham mumkin.

Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan hislatlar va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. **Individuallik** – kishining o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va xarakter xusussiyatlarda, odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur) da qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubda va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o‘zida mujassamlashtirgan odam yo‘q – inson shaxsi o‘z individualligi jhatidan betakrordir.

**SHaxsning tuzilishi.** Birinchi navbatda, shaxsning individualligini ko‘rsatadigan va faqat ehtirosda, ichki qiyofada, qobiliyatlarda va hokazolarda ancha keng ifodalanadigan fazilatlari va umumiy tuzilishinigina emas, balki shaxsning rivojlanish darajasi har xil bo‘lgan guruhlarda, ana shu guruh uchun etakchi hisoblangan faoliyat orqali ifodalanadigan individlararo munosabatlarda o‘zini namoyon etishini ham qo‘shish shart.

Inson shaxs sifatida shakllanishining asosi bu uning faoliyatidir. Insonni yashashining, ijtimoiy mavjudod sifatida rivojlanishinig beligilovchi sharoiti belgilovchi sharoiti bo‘lib, xar hil faoliyat turlarining majmui bo‘ladi. Faoliyatni o‘zlashtirish va uning murakkablashuvi inson psixikasini rivojlanishining asosiy sharoiti bo‘ladi. SHuning uchun tarbiyaviy masalalarni echish inson faoliyatlarining bir biriga buysunuvchanligi qonuniyatlariga, ularning dinamikasiga tayanishi kerak. Tarbiyaviy ta’sirlarni tuzishda bola jalb etilgan xar hil faoliyat turlarining xarakterini va xususiyatlarini, ularning mohiyatini, xajmini va mazmunini inobatga olish kerak.

**2. SHaxs va uning faolligi**

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘zini-o‘zi anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning ***faolligidir.*** Faollik (lotincha «actus» - harakat, «activus» - faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu - o‘sha oddiy qo‘limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog‘liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavxum fikrlashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. SHuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o‘zini-o‘zi anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

***A. Tashqi faollik*** - bu tashqaridan va o‘z ichki istak-xohishlarimiz ta’sirida bevosita ko‘rish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo‘ladigan faollik.

***B. Ichki faollik*** - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o‘zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya’ni aslida ko‘rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so‘ng ona o‘z farzandi visoliga etdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siylashi, ko‘zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko‘rsak, ichki faollik - o‘sha ko‘z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog‘inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta’siri), ko‘rib idrok qilgandagi o‘zaro bir-birlariga intilishni ta’minlovchi ichki, bir qarashda ko‘z bilan ilgab bo‘lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo‘ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo‘lsak ham, uni ifodalagan rasmni ko‘rsak ham, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxsga va uning ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, shaxsning jamiyat bilan bo‘ladigan murakkab va o‘zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. SHaxs aynan turli faolliklar jarayonida

shakllanadi, o‘zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo‘lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni **faoliyat** deb yuritiladi. YA’ni, ***faoliyat*** - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o‘zini-o‘zi o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir. Bu - yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o‘z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o‘yin faoliyati, bu - moddiy ne’matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy - tadqiqotchilik faoliyati, bu - rekordlarni ko‘paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o‘xshash. SHunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lib turadi.

**3. Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar**

Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma’lum narsaga - predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, maruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo‘lib, u avvalo o‘sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o‘zgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasini boyitayotgan bo‘ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan *nimalarga* yunaltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. ***Tashqi faoliyat*** shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat bo‘lsa, ***ichki faoliyat*** - birinchi navbatda aqliy faoliyat bo‘lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki - aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro‘y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo‘lsak, bola dastlabki so‘zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o‘zicha gapirishga o‘rganib, o‘ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o‘z oldiga maqsad va rejalar qo‘yadigan bo‘lib boradi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo‘ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o‘ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi faoliyat aqliy bo‘lgani bilan uning peshonalari, ko‘zlari, hattoki, tana va qo‘l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to‘xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan - misol uchun, o‘zum ko‘chatini ortiqcha barglardan halos etayotgan bog‘bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy harakatlar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- ***perseptiv –*** ya’ni, bo‘lar shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to‘g‘risida yaxlit obraz shakllanadi;
- ***mnemik faoliyat,*** narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab kolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog‘liq murakkab faoliyat turi;
- ***fikrlash faoliyati*** - aql, faxm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni echishga qaratilgan faoliyat;
- ***imajitiv*** - («image» -obraz so‘zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o‘tish ro‘y bergan bo‘lsa, bunday jarayonni psixologiyada **interiorizatsiya** deb

ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishi **eksteriorizatsiya** deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan, shunday bo‘lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo‘nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o‘tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko‘pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o‘girilganda, **malaka** hosil bo‘ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o‘rganganmiz. Agar malakalarimiz qat’iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko‘ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlasa, biz buni **ko‘nikmalar** deb ataymiz. *Ko‘nikmalar* - doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko‘nikma va malakalar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun ham o‘quv faoliyati jarayonida shakllanadigan barcha ko‘nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlaydi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi. Agar, faqat malakani oladigan bo‘lsak, uning shakllanish yo‘llari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- oddiy namoyish etish yo‘li bilan;
- tushuntirish yo‘li bilan;
- ko‘rsatish bilan tushuntirishni uyg‘unlashtirish yo‘li bilan.

Hayotda ko‘nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni engillashtiradi. O‘qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta’minlaydi.

Faoliyatni klassifikatsiya qilish va turlarga bo‘lishning yana bir keng tarqalgan usuli - bu barcha insonlarga xos bo‘lgan asosiy faollik turlari bo‘yicha tabaqalashdir. Bu - muloqot, o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyatlaridir.

**Muloqot** - shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo‘lish, odamlarga o‘xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. SHaxs o‘z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

**O‘yin** - shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma’naviy ne’matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o‘zlashtiriladi. Bola toki o‘ynamaguncha, kattalar hatti-harakatlarining ma’no va mohiyatini anglab etolmaydi.

**O‘qish** faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o‘ynaydi va ma’no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko‘nikmalar o‘zlashtiriladi.

**Mehnat** qilish ham eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo‘lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma’naviy ne’matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdir.

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo‘lgan ma’lumotlarni eslab qolish va kerak bo‘lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo‘lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo‘naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog‘liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak.

### 4. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi

YUqorida biz tanishib chiqqan faoliyat turlari o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. SHaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o‘zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, kuzatilmaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq - atvorini tushuntirish uchun psixologiyada *«motiv»* va *«motivatsiya»* tushunchalari ishlatiladi.

***«Motivatsiya»*** tushunchasi «motiv» tushunchasidan kengroq ma’no va mazmunga ega. **Motivatsiya** - inson xulq-atvori, uning bog‘lanishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo‘lganda ishlatiladi, ya’ni: «nega?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «qanday manfaat yo‘lida?» degan savollarga javob qidirish - motivatsiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

Motiv va motivatsiya muammolarini tadqiq etishda rus va sobiq ittifoq psixologlari o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar, jumladan, K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterov, A.F.Lazurskiy, V.M.Myasishchev, A.A.Uxtomskiy, L.S.Vo‘gotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.YAkobson va boshqalar.

O‘z zamonasining buyuk eksperimentatori A.F.Lazurskiy psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlarini tadqiq etayotganida motivlar masalasiga qiziqish bilan yondashadi. Buning uchun muallif o‘z izlanishlarida “mayllar va xohishlar kuchi hamda zaifligi”, “motivlar kurashiga moyilligi”, “motivlar muhokamasiga ortilganligi”, “xohishning qadriyatga ega ekanligi, aniq xususiyatliligi” singari kontekstlar orqali o‘rganishga intiladi. SHuning bilan birga A.F.Lazurskiy intilish rivojining darajasi ongli irodaviy zo‘r berish bilan bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Motiv muammosi D.N.Uznadze tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, uning mohiyatini tushntirish, ustanovka nazariyasiga asoslangan. SHuning uchun motivni muallif sub’ekt faolligining manbai, deb tushuntiradi, motivatsiyani esa irodaviy aktga olib keluvchi bosqich deb hisoblaydi.

A.N.Leontev motivatsiya masalasini tushuntirishda inson ongining namoyon bo‘lishini tahlil qilish vositasi orqali yondashadi. U hatti-harakat xulq motiviga aylanishini psixologik mexanizmlarini tahlil qiladi.

V.N.Myasishev fikricha, motiv harakat ob’ektiga nisbatan munosabatning ifodalanishidir.

SHaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o‘zini tutishi sabablarini o‘rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa bo‘lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi:

**a)** ichki sabablar, ya’ni hatti-harakat egasining sub’ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo‘ljallar, istaklar, qiziqishlar va xokazolar);

**b)** tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. YA’ni, bo‘lar ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan tashqi stimullardir.

SHaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda **shaxsiy dispozitsiyalar** ham deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. YA’ni, ba’zan shunday bo‘ladiki, shaxs o‘zi amalga oshirgan ishi yoki o‘zidagi o‘zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini o‘zi tushunib etmaydi, «Nega?» degan savolga «O‘zim ham bilmay qoldim, bilmayman», deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo‘ladi, ya’ni, dispozitsiya anglangan, ongli hisoblanadi.

SHu nuqtai nazardan ***motiv*** - konkretroq tushuncha bo‘lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniksa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng hamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o‘ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo‘ladi. SHunisi ajablanarliki, o‘sha bir konkret vaziyat xususidagi turli shaxslarning baholari ham turlicha bo‘ladi. Bundan tashqari, bir shaxsning o‘zi ham o‘zidagi holat, kayfiyatga bog‘liq xolda bir xil vaziyatni alohida xollarda turlicha idrok qilishga moyil bo‘larkan. SHuning uchun ham odamning ayni paytdagi real harakatlarini o‘sha ma’lum sharoitdagi ichki va tashqi stimullarga uning bergan bahosi yoki reaksiyasi sifatida qaramay, balki unda shunga o‘xshash holatlarni idrok qilishga ichki bir hozirlik - dispozitsiyaning mavjudligi bilan tushuntirish to‘g‘riroq bo‘ladi. SHu ma’noda shaxs xulqining motivatsiyasi turli sharoitlardan orttirilgan tajribaga tayangan, ongli tahlillar, hattoki, ijtimoiy tajriba normalarining ta’sirida shakllanadigan sabablar kompleksini o‘z ichiga oladi. Masalan, texnika oliygohlarida: «Materiallarning qarshiligi» nomli kurs bor deylik. SHu kursni o‘zlashtirish va undan sinovdan o‘tish ko‘pchilikka osonlikcha ro‘y bermaydi. Hali kurs boshlanmasdanok, yosh talabalarda shu kurs va uning talablariga nisbatan shunday ustanovka shakllanadiki, albatta, bu kurs qiyin, uni olib boruvchi o‘qituvchi o‘ta talabchan, kattiqqo‘l va hokazo degan. Bunday motivatsiya mana necha avlod talabalar boshdan kechirayotgan holat. Endi konkret shaxsning dars jarayoni boshlangan keyingi harakatlari konkret motivlar bilan izohlanadi va tirishqoq talaba uchun bu fan ham boshqa fanlar qatori tinimsiz izlanish, o‘z vaqtida darslarni tayyorlashni talab qilsa, boshqasi uchun (dangasaroq talaba uchun) bu darsdan keyin dars yo‘q va u qachon shu semestr tugashini kutib harakat qiladi.

Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. YA’ni, maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo‘ladi va aynan ularning tabiati va zaruratiga bog‘liq tarzda xulq motivlari namoyon bo‘ladi. Misol uchun talabaning o‘quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qiziquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma’lum bir davrida, masalan, bog‘cha yoshidan boshlab qoniqtirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa o‘quv qurollari, ma’lum ta’lim maskanida tashkil etilgan shart-sharoitlar va u erdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o‘zi, bola uchun motiv o‘rnini bosadi. YAna bir oddiy misol: qo‘lingizda kitob bor. Siz hali uni o‘qishni boshlamadingiz. Lekin o‘qish istagi bor, shu istakning ortida esa, o‘sha mazmunni bilish va uning mohiyatini bilib olish ehtiyoji turadi. Rus olimi R. Nemov shaxsdagi motivatsion sohani quyidagicha tasavvur qiladi. Umuman, har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. *Biologik ehtiyojlar* - bu - fiziologik (tashnalik, ochlik, uyku), jinsiy, moslashuv ehtiyojlari.
2. *Ijtimoiy ehtiyojlar* - bu - mehnat qilish, bilish, estetik va axloqiy-ma’naviy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo‘lganimiz bilan shu narsani unutmasligimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo‘ladi, ya’ni, ular o‘sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, eng tabiiy va tushunarli hisoblangan bizning emishga - ovqatga bo‘lgan ehtiyojimizni olsak, u ham konkret muhitga qarab turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. YAna misol uchun, tuy marosimlari yoki juda to‘kin dasturxon atrofida o‘tirgan odam nima uchun shunchalik ko‘p ovqat iste’mol qilib yuborganini bilmay qoladi. Agar bu tabiat qo‘yni yoki paxta dalasidagi hashar bo‘lsa-chi, bir burda issiq non ham butun tanaga rohat baxsh etuvchi malham bo‘lib, ochlikni bilintirmaydi. Kamtarona dasturxondan ovqat eb o‘rgangan kishi oz-oz eyishga o‘rgansa, yoshligidan normadan ortiq eb o‘rgangan odam vrach oldiga borib, o‘zi uchun ozdiruvchi dori-darmon so‘rasa so‘raydiki, lekin uyda o‘zi emishini nazorat qilishi kerakligini bilmaydi. Demak, bu ham madaniyatga, etikaga, oila muhitiga bevosita bog‘liq narsa ekan.

Umuman shaxs ijtimoiy xulqi motivi haqida gap ketganda, uning ikki tomoni yoki elementi ajratiladi: ***harakat dasturi va maqsad.*** Harakat dasturi maqsadga erishishing vositalariga aniqlik kiritadi. SHuning uchun ham dasturda nazarda tutilgan vositalar maqsadga erishishni oqlashi kerak, aks xolda dastur hech narsa bermaydi. Masalan, ba’zi ota-onalar farzandlarini yaxshi tarbiyalash va undan ideallaridagi shaxs etishib chiqishini orzu qilib, uning oldiga juda og‘ir tarbiyaviy shartlarni qo‘yadilar, bola erkinligi bo‘g‘iladi, u qat’iy nazorat muhitida ushlanadi. Oqibatda bola keyinchalik boshqarib bo‘lmaydigan, qaysar, uncha-muncha tashqi ta’sirga berilmaydigan bo‘lib qolib, har qanday boshqa ijtimoiy sharoitda qiynaladigan bo‘lib qoladi. SHuning uchun ham motiv har doim anglangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan, maqsadlar va unga etish vositalari aniq bo‘lishi kerak. SHundagina ijtimoiy xulq jamiyatga mos bo‘ladi.

### 5. Motivlarning turlari va anglanganlik darajasi

***Motivlarning turlari.*** Motivlar quyidagi turkumlarga ajratiladi: shaxsning ijtimoiy ehtiyojlariga mos motivlar; umumiylikka ega bo‘lgan motivlar; faoliyatga mos motivlar; paydo bo‘lish xususiyati, muddatiga ko‘ra motivlar; aks etish darajasi nuqtai-nazaridan ierarxik vujudga kelgan motivlar.

Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra har qanday faoliyat muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va etarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. SHuning uchun ta’lim jarayonida o‘zlashtirish, egallash va o‘rganishni amalga oshirishni ta’minlash uchun o‘quvchilarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi lozim.

Turli kasb egalari faoliyati motivlarini o‘rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o‘zgartirish muammosi ahamiyatga ega. SHunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida **muvaffaqiyatga erishish motivi** bo‘lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D. Makklelland, D. Atkinson va nemis olimi X. Xekxauzenlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta’minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: **muvaffaqiyatga erishish motivi** hamda **muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivi.** Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarni kirishishda qaysi motivga mo‘ljal qilishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat

muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilarki, nima qilib bo‘lsa ham yutuqka erishish ular uchun oliy maqsad bo‘ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma’qullashlarini biladilar. Bu yo‘lda ular nafaqat o‘z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar - tanish-bilishlar, mablag‘ kabi omillardan ham foydalanadilar.

Boshqacha xulq-atvorni muvaffiqiyatsizlikdan qochish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo‘lsa ham muvafikiyatsizlikka duchor bo‘lmaslikni o‘ylaydilar. SHu tufayli ularda ko‘proq ishonchsizlik, yutuqka erishishga ishonmaslik, pessimizmga o‘xshash holat kuzatiladi. SHuning uchun bo‘lsa kerak, oxir-oqibat ular baribir muvaffiqiyatsizlikka uchrab, «O‘zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da» degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffiqiyatli tugatgach, ko‘tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishishsa, ikkinchi toifa vakillari, har qanday ishni yakunlagandan so‘ng, uning natijasidan qat’iy nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va og‘rinish hissi bilan boshqa ishga kirishadilar. Bu o‘rinda *talabchanlik* degan sifatning roli katta. Agar muvaffiqiyatga yo‘nalgan shaxslarning o‘zlariga nisbatan qo‘ygan talablari darajasi ham yuqori bo‘lsa, ikkinchi toifa vakillarining talablari aksincha, past bo‘ladi. Bunday tashqari har birimizdagi o‘zimizdagi real qobiliyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz ham ushbu motivlarning faoliyatdagi o‘rniga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘zidagi qobiliyatlarga ishongan shaxs hattoki, mag‘lubiyatga uchrasa ham, unchalik qayg‘urmaydi, keyingi safar hammasi yaxshi bo‘lishiga ishonadi. Ishonchsiz shaxs esa kichkina berilgan tanbeh yoki tanqidni ham juda katta ruhiy azob bilan qayg‘urib boshdan kechiradi. Uning uchun ham shaxsning u yoki bu vaziyatlarda qayg‘urish sifati ham ma’lum ma’noda motivlar xarakterini belgilaydi.

SHunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning mehnatga, odamlarga va o‘z-o‘ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo‘lishini biror mas’uliyatli ish oldidan o‘zimizni tutishimiz va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo‘ladi. Masalan, mas’uliyatli imtixon topshirish jarayonini olaylik. Ba’zi talabalar imtixon oldidan juda qayg‘uradilar, hattoki, qo‘rqadilar ham. Ular uchun imtixon topshirish juda katta tashvishday. Boshqalar esa bu jarayonni bosiqlik bilan boshdan kechirib, ichidan hayajonlanayotgan bo‘lsalar ham, buni boshqalarga bildirmaydilar. YAna uchinchi toifa kishilari umuman beg‘am bo‘lib, sira koyimaydilar. Tabiiy, shunga muvofiq tarzda, har bir toifa vakillari ishining muvaffaqiyati va faoliyatning samarasi turlicha bo‘ladi. Bunga har bir shaxsdagi da’vogarlik darajasi ham ta’sir qiladi. Da’vogarlik darajasi yuqoriroq bo‘lganlar bilgan-bilmaganini isbot qilishga o‘rinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o‘qituvchi bilan tortishmaydilar ham.

SHuning uchun ham har birimiz ijtimoiy faoliyat motivlaridan tashqari, shaxsiy hislatlarimizni ham bilishimiz va ongli tarzda xulqimizni boshqara olishimiz kerak.

**Mativlarning anglangan darajasi.** YUqorida ta’kidlaganimizdek, motivlar, ya’ni hatti-harakatlarimizning sabablari biz tomonimizdan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. YUqorida keltirilgan barcha misollarda va holatlarda motiv aniq, ya’ni shaxs nima uchun u yoki bu turli faoliyatni amalga oshirayotganligini, nima sababdan muvaffaqiyatga erishayotganligi yoki mag‘lubiyatga uchraganini biladi. Lekin har doim ham ijtimoiy xulqimizning sabablari bizga ayon bo‘lavermaydi. Anglanmagan ijtimoiy xulq motivlari psixologiyada ijtimoiy ustanovka (inglizcha «attitud») hodisasi orqali tushuntiriladi.

Ijtimoiy ustanovka shaxsning ijtimoiy ob’ektlar, hodisalar, guruhlar va shaxslarni idrok qilish, baholash va qabul qilishga nisbatan shunday tayyorgarlik holatiki, u bu baho yoki munosabatning aslida qachon shakllanganligini aniq anglamaydi. Masalan, Vatanimizni hammamiz sevamiz, bayrog‘imiz muqaddas, nemis investorlarga ishonamiz, negrlarga raxmimiz keladi, tijorat ishlari bilan shug‘ullanadiganlarni albatta puldor, badavlat, deb hisoblaymiz va hakozo. Bu tasavvurlar, baho va hissiyotlar qachon va qanday qilib ongimizda o‘rnashib qolganligiga e’tibor bermasdan yuqorida sanab o‘tgan hissiyotlarni boshdan kechiraveramiz. Mana shularning barchasi ijtimoiy ustanovkalar bo‘lib, ularning mazmun mohiyati aslida har bir inson ijtimoiy tajribasi davomida shakllanadi va uzoq muddatli xotirada saqlanib, konkret vaziyatlarda ruyobga chiqadi.

Amerikalik olim G. Ollport ijtimoiy ustanovkaning uch komponentli tizimini ishlab chiqqan:

A. Kognitiv komponent - ustanovka ob’ektiga aloqador bilimlar, g‘oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

B. Affektiv komponent - ustnovka ob’ektiga nisbatan sub’ekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotsional munosabatlar);

V. Harakat komponenti - sub’ektning ob’ektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo‘lgan harakatlari majmui (xulqda namoyon bo‘lish).

Bu uch xil komponentlar o‘zaro bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustivorroq bo‘lishi mumkin. SHuni aytish lozimki, komponentlararo monandlik bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va tartib - intizom bilan juda yaxshi tanish bo‘lsalar ham, har doim ham unga rioya qilavermaydilar. «Tasodifan dars qoldirish», «jamoatchilik joylarida tartibni buzish» kabi holatlar kognitiv va harakat komponentlarida uyg‘unlik yo‘qligini ko‘rsatadi. Bu bir qarashda so‘z va ish birligi tamoyilining turli shaxslarda turlicha namoyon bo‘lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqka zid harakat qilsa, va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o‘rganib qoladi va ustanovkaga aylanib qolishi mumkin. SHuning uchun ham biz ijtimoiy normalar va sanksiyalar vositasida bunday qarama-qarshilik va tafovut bo‘lmasligiga yoshlarni o‘rgatib borishimiz kerak. Bu shaxsning istiqboli va faoliyatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

**Qisqacha xulosa:**

SHaxs va uning faolligi masalasi doimo dolzarbdir. SHaxs faoliyati turlariga o‘yin, mehnat, o‘qish, muloqot kiradi. SHaxsdagi harakatlar jismoniy va aqliy harakatlarga bo‘linadi. Ularning har bir o‘z tuzilmasi va xususiyatiga ega. SHunga ko‘ra tashqi va ichki faollik kuzatiladi. SHaxs harakatida motivlar muhim bo‘lib, ular ijtimoiy xulq motivlari, shaxs motivatsiyasi, motivlar kabi turlarga bo‘linadi. SHaxsda muvaffaqiyatga erishish va mag‘lubiyatdan qochish motivlari ko‘rinadi. Ishlab chiqarish jarayonida ro‘y beradigan turli vaziyatlarda shaxs motivatsiyasining o‘zgarishi va uni boshqarish masalalari muhim bo‘lib, uni o‘rganish har bir shaxs uchun zarurdir.

**Tayanch iboralar:**

SHaxs, faollik, tashqi faollik, ichki faollik, faoliyat, jismoniy harakat, aqliy harakat, perseptiv faoliyat, mnemik faoliyat, fikrlash faoliyati, imajitiv faoliyat, ko‘nikma, malaka, muloqot, o‘yin, o‘qish, xulq, motiv, motivatsiya, ustanovka

**Nazorat uchun savollar:**

1. Faollik so‘zining ma’nosi qanday?
2. Inson faolligining turlari?
3. Aqliy harakat ko‘rinishlari kanday?
4. Interiorizatsiya deb nimaga ataladi?
5. Eksteriorizatsiya qanday jarayon?
6. Malaka va ko‘nikmalar qanday hosil bo‘ladi?
7. “Motiv” va “motivatsiya” tushunchalari qanday ma’noga ega?
8. SHaxsiy dispozitsiyalar nima?
9. Motivlarning qanday turlari mavjud?
10. Ijtimoiy ustanovka qanday ahamiyatga ega?

**Adabiyotlar ro‘yhati:**


1. G‘ozievE.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. “Psixologiya” Uch.T-2. “Prospekt”. Moskva - 2004.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T.: 1994
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T.: 1999
5. Drujinina V. “Psixologiya “. Uchebnik. “Piter”, 2003.

www.expert.psychology.ru


## 12- mavzu: MULOQOT

**REJA:**

1. **Muloqot to‘g‘risida tushuncha**
2. **Muloqotning kommunikativ sohasi**
3. **Muloqotning perseptiv tomoni**
4. **Pedagogik muloqot masalalari**
5. **Muloqot olib borishning darajalari**
6. **Muloqot turlari**

**1. Muloqot to‘g‘risida tushuncha**

Insonda ko‘pgina ehtiyojlar mavjud bo‘lib, ulardan moddiy ehtiyojlar (ovqatlanish, eyoishg‘ichio‘, va boshqalar) ma’naviy ehtiyojlar ichida eng muhim muloqot ehtiyojidir. Boshqa kishiga qarab, uning bilan munosabatda va muloqotda bo‘lib, u o‘zini, o‘zligini baholay oladi.

Odam ko‘zguga qarab, o‘z aksini ko‘radi, lekin shaxs sifatida o‘zini baholash uchun inson o‘zini boshqa kishiga solishtirib ko‘rishi kerak. SHuningdek, o‘zining qanday ekanligin, o‘z obrazini aniqlashi uchun o‘zi haqidagi boshqa kishining fikrini bilishi kerak.

Ko‘pincha inson boshqa kishi bilan muloqotga kirishshadi-ki, asosiy maqsadi u kishini o‘rganish emas, balki u kishishing o‘zi haqidagi fikrini bilishdir.

Demak, odam o‘zining aksini ko‘rishi uchun iloji boricha ko‘p odam bilan munosabatda bo‘lishi kerak.

Demak, inson o‘zidagi ba’zi bir sifatlarni tekshirishi uchun va tasdiqlashi uchun, shu sifatlarni boshqa odamlarda (chuqurroq munosabatda, kengroq munosabatda bo‘lishi kerak) ham ahtaradi.

Agar shaxs, ba’zan o‘zidagi sifatlarni boshqa kishilarda topmasa, yoki uni tushunmasa (tushunmasalar) bu kishida o‘ziga ishonchsizlik, o‘zidan qoniqmaslik kelib chiqadi, bu esa o‘z navbatida kishida o‘zidan norozilik, qo‘rquv keltirib chiqarishi mumkin.

SHaxslararo munosabatlarda 2-ta tendensiya an’ana bor:

Birinchisi: Munosabatlarni chuqurroq va kengroq qilishga intilish, bu har bir insonga xos ehtiyojdir.

Ikkinchisi: O‘zaro munosabatlarda, bu munosabatlarni kengaytirish va chuqurlashtirishning oqibatlaridan qo‘rqish hissi. Masalan, men o‘zimni aqilli, hozirjavob va o‘ta bilimli deb hisoblayman va ba’zi bir kishilarda (ayniqsa qaramag‘qarshi jinslarga, yoki rahbarlarga) shu sifatlari bilan ta’surot qoldirmoqchiman. Ammo muloqot davomida o‘sha kishilar meni tushunmasliklaridan, o‘zimning ularda shunday taasurot qoldira olmasligimdan qo‘rqaman. Va shu munosabatlardan o‘zimni saqlayman. Inson uchun eng muhim narsa muloqotdagi sherigining (partnerining) o‘zi bilan hamfikrligidir.

Demak, muloqot kishilar orasida o‘zaro aloqa o‘rnatishni, rivojlantirish, birg‘biriga ma’lumot (axborot) berish va olishga intilish, birgalikda faoliyat ko‘rsatishga ehtiyojdir.

YUqorida aytganimizdek, munosabatlarda ko‘pincha bir xil fikrlovchilar o‘rtasida sheriklik, do‘stlik munosabatlari o‘rnatiladi.

SHuning uchun ham do‘stlik, hamkorlik munosabatlarida mayda gaplar, arzimagan muammolar yuzasidan sheriklik bilan tortishmasdan, rozi bo‘lgan ham yaxshi. Faqat prinsipial masalalarda sherikning fikriga qarshi chiqish, uni rad etish mumkin.

Muloqotning tarkibi (komponenti) Muloqotning tarkibilini 3-ga bo‘lamiz

Muloqotning kommunikativ tomoni

Muloqotning interaktiv tomoni

Muloqotning perseptiv tomoni

**2. Muloqotning kommunikativ sohasi.**

Muloqotning kommunikativ sohasi – bu kishilar (individlar)aro axborotlar almashishidir.

Kishilar o‘zaro munosabatlarda nutq yordamida, mimika va pantomimika, harakatlar vositasida bir-birlariga ta’sir etadilar. Va shu vositalar yordamida o‘zaro munosabatlar kedib chiqadi.

Muloqot tushuchasi keng bo‘lib shaxs yoki shaxslararo har qanday aloqalar, munosabatlar muloqotga kiradi. Munosabat tushunchasi – torroq ma’nosida ishlatilib shaxslararo munosabatning turlarini, xilini va boshqalari kiradi.

Muloqotning kommunikatsiya vositasida kirshilar axborotlar bilan almashadilar. Bu munosabatlar, muloqotlar 2 xil tarzda kechadi: *verbal* va *noverbal.*

Keyingi vaqtlarda ijtimoiy psixologiyada noverbal kommunikatsiyaga ko‘proq e’tibor berilmoqda. Verbal kommunikatsiyaga – so‘zsiz muloqot: mimika, imo-ishora, ko‘z, qiyofa, hatti-harakat bilan muloqot qilish tushuniladi.

**Imo-ishora** – *nutq jarayonida ixtiyorsiz ravishda namoyon bo‘ladigan qo‘l va gavda xarakatlari.* Ifodali xarakatlar – shaxsning muayyan psixik holatini, ayniqsa his-tuyg‘ularini ob’ektiv ravishda ifodalaydigan mimika, pantomimika, qo‘l xarakatlari kabi ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy harakatlar yig‘indisi.

**Mimika** – (yunon. Mimikos – taqlid qiluvchi) - *mimika; kishishing muayyan sharoitlagi ruhiy*

*holatini, ayniqsa hissiyotini ifodalovchi yuz mushaklarining xarakatlari. Mimik xarakatlar, odatda, ixtiyorsiz ro‘y beradi, biroq ularni ongli ravishda hosil qilish ham mumkin.*

**Pantomimika** – (yunon. Pantomimikos – hamma narsaga taqlid qiluvchi) – *inson gavdasining mimika, imo-ishora, intonatsiyalar bilan birga, uning psixik holatini, ayniqsa his-tuyg‘ularini ifodalovchi harakatlari*. Pantomimika kishilarning o‘zaro fikr olishishi va bir-biriga ta’sir qilishi uchun qo‘shimcha vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki insonning kundalik muloqotida so‘zlar 7 % -ni, tovush va intonatsiyalar – 38%-ni, so‘zsiz hamkorlik esa 55%- tashkil etar ekan.

Noverbal kommunikatsiya bilan ko‘p narsani tushunish va tushuntirish mumkin.

Masalan, muayyan tekshirishlar olib borilgpnda bir kishi o‘z mimikasi va gavda harakati bilan, g‘am-qayg‘u, hursandlik, intiqish, shoshilish kabi juda ko‘p ruhiy holatlarni ko‘rsatgan. Ikkinchi kishi esa uning yonida turib, birinchi kishining ruhiy holatini og‘zaki ta’riflab turgan. Natijada solishtirilganda 80-90% ruhiy holatni yaxshi ekanligi aniqlangan. Lekin bu erda shuni nazarda tutish kerakki: har xil madaniyatdagi xalqlarda mimika va pantomimika hhar xil bo‘ladi. YA’ni yuz qiyofasi va ifodasi har xil madaniyatlarda har xil bo‘ladi.

Masalan, YAponiyada, afrika xalqlarida, evropa xalqlarida har xil ruhiy holatlardagi yuz qiyofasi har xil bo‘ladi.

Kommunikatsiya to‘liq kechishi uchun: *kommunikator*-gapiruvchi, xabar beruvchi va *retsipient* xabarni qabul qiluvchi bo‘lishi kerak. “K” bilan “R” o‘rtasida to‘laqonli muloqot kechishi uchun:

Nutq – xabar tushunarli bo‘lishi kerak.

Muloqotga kirishuvchilar orasidagi nutq (bir-birini) ularni qiziqtiradigan bo‘lishi kerak.

Muloqotga kiruvchilarning verbal va novenrbal nutqlari ozmi-ko‘pmi hissiyotli bo‘lishi kerak.

“K”-lar har xil bo‘ladi.

A ) *ochiq* “k” – o‘z fikrini oshirmasdan bayon etadi.

B) *befarq* “k” - bu kishi o‘zini befarqdek tutadi,gaplashayotgan mavzuning o‘ziga aloqasi yo‘qdek tutadi.

V ) YOpiq “k” – o‘zining nutqida o‘z nuqtai-nazarini, asl maqsadini yashiradi.

**3. Muloqotning interaktiv sohasi:**

SHeriklarning (hamkorlarning) o‘zaro munosabatlarda: hamkorlik, konkurensiya (raqobat), kooperatsiya, do‘stlik va boshqa xilda muloqotga kirishiladi.

Raqobat (konkurensiya) tipida (turidagi) muloqotda sheriklar bitta maqsad va vazifa uchun munosabatga kirishayotgan bo‘lsalar ham, o‘zaro raqiblardek munosabatda bo‘ladi. Masalan: sinfdagi a’lochilar o‘rtasida, sexdagi faollar orasida raqobat bo‘lsa yaxshi, lekin raqobat sog‘lom yaxshi niyat bilan bo‘lsa, u sinfda a’lochilarni ko‘paytiradi, ularning yana yangi pog‘onaga ko‘tarilishlariga sababchi bo‘ladi. Lekin raqobatlik (konkurensiya) kuchayib ketsa guruhning hamkorligiga putur etadi.

Musobaqa ham raqobatning bir turi bo‘lib, u ko‘pincha sog‘lom asosda, rasmiy nazorat ostida bo‘lgani uchun ziddiyatga olib kelmaydi.

**4. Muloqotning perseptiv tomoni:**

Bir shaxs ikkinchi shaxsni hissiy idrok etishi.

Atteroketsiya – ob’ektlarning tashqi, ichki yoqimtoyligi bir shaxsning ikkinchi shaxsni yoqtirishi.

Tashqi go‘zallik shaxsda turg‘unlik hosil etadi.

Bolalar orasida o‘tkazilgan tekshirish shuni ko‘rsatadiki, ularning orasidagi chiroyli (tashqi ko‘rinishli) bolalar ko‘proq tanlov oladilar.

Tashqi ko‘rinish o‘zaro aloqa o‘rnatishda katta rol o‘ynaydi.

**5. Pedagogik muloqot masalalari**

Yigitlarda qizlarning rasminim ko‘rsatib, qizlarga esa yigitlarning rasmini ko‘rsatib o‘ziga yoqqanini tanlash taklif etildi. Lekin yigitlarga shu rasmlarning ichida bir qiz sizni ko‘rgan ekan unga yoqibsiz deyishganda, ular rasmlarning ichidagi eng chiroyli qizlarni tanlaganlar. Ba’zi bir yigitlarga esa shu rasmlarning ichida sizni qizlar ko‘rgan ekan, lekin yoqmabsiz deganda (yolg‘ondan) ular uncha chiroyldi bo‘lmagan qizlarni tanlaganlar.

Demak, bu shuni ko‘rsatadi yigitlarga berilgan negativ ustanovka natijasida o‘zlarining sifatlarini, imkoniyatlarini kam baholaganlari uchun ham xunukroq qizlarni tanlaganlar.

Bu erda atributsiya jarayoni ham katta rol uynaydi.

Atributsiya – birovda yo‘q sifatni (balki bordir) unga o‘zimizda bor narsani yopishtirish. YA’ni birovni o‘zimizga o‘xshatish. Rostgo‘y odam hammani o‘ziga o‘xshash rostgo‘y deb o‘ylab aldanib qoladi. Xudbin kishi hammani o‘ziga o‘xshash xudbin deb o‘ylay2di.

Demak, mendagi birov haqidagi ijobiy fikr, mening unga munosabatimni yaxshilaydi, aksincha, u shaxs haqidagi negativ (salbiy) fikrim mening unga munosabatimni ham yaxshioamaydi.

Birovga qilingan yaxshi ish menda ham u kishida ham kuchli ijobiy muneosabatlarni hosil etadi.

Ustanovka – oldindan olingan axborotlar natijasida ob’ektni idrok etishga tayyorgarlik (Uznadze nazariyasi).

Tajriba – sinfda psixologlar tafakkurni tekshirib, o‘quvchilarga “3” baho bilan o‘qiyotgan o‘quvchilar haqida “Ha” albatta hozir ular kuchsiz o‘qiyapti, lekin kelajakda sinfimizdagi 4-ta uchga o‘qiyotgan bolalar a’lochi bo‘ladi deb ustanovka beriladi.

| | |
|---|---|
| Коммуникатор, адресант | - muloqot sub’ekti bo‘lib  a xisoblanadi |
| Реципиент, адресант | - axborot kimga uzatilyapti |
| Ахборот | - qanday ma’lumot uzatilyapti |
| Код | -qaysi vositalar  ax |
| Мақсад | - nimaga uzatilyapti |
| Канал алоқа | - ovoz, xat, sim yoki efir orqali bo‘lgan aloqa |
| Натижа | - nimaga erishilgan (samaradorlik) |

Rostdan ham bir ozdan so‘ng berilgan shu ustanovka natijasida o‘quvchilarning o‘z o‘quvchilariga munosabati ijobiys tomonga o‘zgardi. Natijada o‘quvchilarning ham ma’lum vaqtdan so‘ng o‘qish qobiliyatlari kuchayib “a’lochilar” qatorlariga o‘tdilar.

Tajriba: Agar kishiga bir nechta rasm berib bularning hhammasi jinoyatchilar desak, rostdan ham bu kishilarda jinoyatchiga o‘xshash tomonlarini ko‘plab topadilar.

SHaxslar o‘rtasida o‘zaro anglash idrok etish tushunish mexanizmi quyidagicha amalga oshadi.

Identifikatsiya – boshqa kishini idrok etish, tushunishda – ongli ravishda (ongsiz ravishda) unga o‘zidagi sifatlarni berish (birovni o‘ziga o‘xshatish).

Stereotipizatsiya – kishining hatti-harakatini, xulqining sabablarini va o‘zini ma’lum ijtimoiy stereotiplarga o‘xshatish.

Tolerantlik (bag‘rikenglik)

Empatiya – boshqa shaxsning his-tuyg‘usini, hissiy holatini, hayajonini his etish (ya’ni o‘zini boshqa kishining o‘rniga – qo‘yabilishlik).

Refleksiya – kishining o‘zi muloqotda bo‘layotgan sherigida qanday ta’surot qoldirayotganligini fikrlash yoki intuitsiya yordamida anglash.

O‘zaro muloqot davomida sherigimizning bizning berayotgan ma’lumotimizga, tashqi ko‘rinishimizga, hatti-xarakatimizga qanday reaksiya berayotganligini, qanday baho berayotganligini seza olish qobiliyati har kimda ham bo‘la olmaydi. Kishi o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lsayu, atrofdagilarning o‘zi haqidagi fikri bilan qiziqmasa, ularning javob reaksiyasini, bahosini hisobga olmasa katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘ladi.

Lekin bu erda agar kishi atrofdagilarning fikriga juda hham katta e’tibor bersa g‘ bu tortinuvchanlik, uyatchanlik va boshqa komplekslarni keltirib chiqarib kishining erkin, mustaqil faoliyatini chegaralab qo‘yadi. (Masalan: shuni kiysa odamlar nima der ekan, yozsam, ishlasam va hokazolarni bajarsam odamlar nima derkan degan fikrlar kishini chegaralab qo‘yadi).

Korreksiya – sherikning biz berayotgan axborotni qanday qabul qilayotganiga qarab biz o‘z muloqotimizni korreksiya qilamiz.

Muloqot har xil darajada kechadi. Muloqotning qanday darajada kechishi sheriklarning ichki dunyosiga, madaniyatiga, dunyoqarashiga bog‘liq.

Kommunikatsiyada nutq eng universal vosita xisoblanadi, chunki nutq yordamida axborotlarni uzatish jdarayonida uning mazmun- mohiyati karoq yo‘qoladi.

Nutqning vazifalari uchta: signifikativ (belgilash, umumlashtirish, kommunikatsiya – fikrni uzatish); xis-tuyg‘ularni va munosabatlarni uzatish va irodaviy ta’sir o‘tkazish.

Nutqning kelib chiqishini va amalga oshirilishini quyidagi jadval Bilan ko‘rsatsa bo‘ladi:

Ma’lumki nutq bir necha turda bo‘ladi – tashqi, ichki, og‘zaki, yozma, monologik, dialogik, faol, passiv  ax.k.

**6. Muloqot olib borishning darajalari**

Muloqot olib borishning uchta darajasi mavjud: makro-, mezo- va mikro- darajalari.

Nutqni idrok
etish
va uni
fikr-
 ax
ayla-
nishi




Fikrni
paydo
bo‘li-
 ax
uni
so‘zga
ayla-

nishi

*Makrodaraja* (katta) – konun va qoidalarni saqlagan holda boshqa odamlar bilan muloqot olib borishlik.

*Mezodaraja* (o‘rta, oraliq) – muayyan mavzuda gaplashish (masalan, askiya, xajviya, va boshqa.)

*Makrodaraja* (kichik) – muloqotning sodda turlari, savol-javobli shakllari, mazmunli nigox, qo‘lqisish va x.k.

**6. Muloqot turlari:**

shaxslararo (odam-odam);

shaxs va guruharo (gurux-gurux, masalan xokkey o‘yini);

ommaviy kommunikatsiyalar (radio, televidenie, nashriyot).

**Tayanch ibolar:**

Muloqot, muomala, psixologik ta’sir vositalari, muomala texnikasi, verbal, noverbal, professional, ijtimoiy psixologiya, trening, rolli o‘yin, guruh, guruhiy munozara

**Nazorat uchun savollar:**

1. Muloqot qanday amalga oshiriladi?
2. Muloqotga ehtiyoj qanday sabablarga asosan yuzaga keladi?
3. Muloqot qanday vazifalarni bajaradi?
4. Psixologik ta’sir vositalari qanday?
5. Ta’sirning adresati - kim hisoblanadi?
6. Professional tinglash texnikasiga nimalar kiradi?
7. Ijtimoiy psixologik trening nima?
8. Treningga qo‘yiladigan talablar qanday?
9. Rolli o‘yinlarning mohiyati nimada?
10. Guruhiy munozaralar qanday o‘tkaziladi?

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T.: 1994
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T.: 1999
4. Drujinina V. “Psixologiya “. Uchebnik. “Piter”, 2003.
   www.psy.piter.com


## 13-mavzu: BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI

**REJA:**

1. **Boshqaruv muloqoti.**
2. **Munozaralar jarayoni psixologiyasi.**
3. **Nizoli holatlar.**
4. **Nizolarni hal etish.**

### 1. Boshqaruv muloqoti

Boshqaruv muammosi XX asrning oxiri va XXI asr boshlaridagi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu holat inson omilining barcha ijtimoiy jarayonlardagi oshgan roli bilan izohlanadi. Bundan tashqari, insonlarning o‘zida ham ilk yoshlikdan liderlikka ishtiyoq, xizmat lavozimlarida muvaffaqiyatga intilishga moyillik kabi shaxsiy sifatlar ham namoyon bo‘la boshladi. Bunday ijtimoiy psixologik hodisalar eng avvalo boshqaruv sohasini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish, mehnat maxsuldorligi va insoniy munosabatlarni

yaxshilash kabi masalalarda ushbu omilning ta'sirchan rolini oshirishni kun tartibiga dolzarb qilib qo'ydi.

Mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun ham boshqaruv tizimini takomillashtirish, rahbar kadrlarni tanlash, tayyorlash, malakasini oshirish, ularning bilim saviyalarini yanad yuqori bo'lishi bilan bog'liq shart-sharoitlarni yaratish masalasi taraqqiyotning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Psixologiya boshqaruv faoliyatining sub'ekti bo'lgan insonlarni o'rganda, ikkita kategoriya borligini e'tirof etadi. Bu - "rahbar" va "lider" tushunchalaridir. Birinchi tushuncha ko'proq rasmiy munosabatlar tizimida faoliyat ko'rsatadigan, asosiy vazifasi tashkilotning davlat va jamiyat oldidagi vakolatlarini yurituvchi shaxsga taalluqli bo'lsa, lider jamoa ichidagi norasmiy munosabatlarning mahsuli, jamoadagi ma'naviy-psixologik muhitga bevosita javobgar insonga nisbatan ishlatiladi. o'arbda lider tushunchasi bilan umuman boshqaruv tizimi muammolarini uyg'unlashtirishga intilish bor. To'g'ri, boshqaruv masalalariga aloqador "menejer", "boss", "shef" kabi qator tushunchalar ham bor, lekin ilmiy nuqtai nazardan ushbu fenomen liderlik doirasida amalga oshiriladi.

Agar ushbu hodisalarning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqaruv nazariyoti va amaliyoti sohalarida tadbiqiy ishlarning tashabbuskori F. Teylor hisoblanadi. Keyinchalik bu yo'nalish "ilmiy menedjment" deb atala boshladi. Teylor yangicha funksional ma'muriyatchilik tizimining asoschisi sifatida boshqaruv uslublariga, intizomiy sanksiyalar va rag'batlantirish tizimiga katta ahamiyat berish lozimligini ta'kidladi. U moddiy rag'batlantirishning alohida rolini ta'kidlagan tarzda, odamlardagi mehnatga motivatsiyaning asosi sifatida mehnatga haq to'lashning differensial tizimini tavsiya etdi.

Uning izdoshlaridan biri - D. Jilbert esa odamlar yaxshi va unumli ishlashlari uchun ularning ish joylarini va u erdagi shart-sharoitlarni yaxshilash shartligi g'oyasini ilgari surdi.

Ishlab chiqarishni samarali tashkil etishning muhim omili sifatida insoniy munosabatlarni ilgari surgan E. Meyo, boshqaruvchi eng avvalo odamning o'z professional va ijtimoiy holatidan qoniqishini inobatga olishi zarurligini isbotlagan. U birinchi marta boshqaruvda aniq belgilangan boshliq - buysunuvchi ierarxiyasi bo'lishi mumkin emasligini, bu narsa jamoadagi psixologik muhitga faqat salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. SHuning uchun ham u indivivdual rag'batlantirishni gruppaviy bilan, iqtisodiyni - ijtimoiy-psixologik omillar bilan almashtirish kerakligi g'oyasini ilgari surdi.

Meyo fikrlarini rivojlantirib, R. Laykert yaxshi boshqaruvning quyidagi omillarini belgiladi:

- *boshqaruv uslublari*dan shundayi mavjudki, bunda rahbar xodimlarga ishonadi;
- xodimni faol mehnatga, gruppaviy faoliyatga tortadigan *motivatsiya* shakllari;
- hammaga teng etib boradigan kommunikatsiya turi;
- barcha a'zolar ishtirokida va ularning fikrlarini inobatga oladigan *qarorlar qabul qilish;*
- jamoaning umumiy muhokamasi natijasida belgilangan *maqsadlar;*
- markazlashmagan *nazorat* shakli.

Boshqaruv muammolariga bag'ishlangan nazariyalar orasida De Mak-Gregorning "X" va "Y" nazariyalari alohida diqqat talab qiladi. "X nazariyasi" ma'lumki, boshqaruvga yondashuvning ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tamoyillarini nazarda tutsa, "Y nazariyasi" undan tubdan farq qiladi. "X" yondashuv quyidagilarga tayanadi:

1. Odamning aslida mehnatga toqati yo'q, unga ishdan qochishga moyillik kuchli.

2. Oddiy odamga tavakkal qilishdan va mas'uliyatlardan qochish xos bo'lib, u passiv va boshqarishlariga muhtoj.

3. Oddiy odamga ko'p narsa shart emas, uni tinch qo'yishsa bas, u himoyaga, xavfsizlikka muhtoj..

*"Y - nazariyasi" esa quyidagilarga asoslanadi:*

Odamning jismoniy va intellektual imkoniyatlarini sarflashga intilishi tabiiy bo'lib, uning uchun mehnat faoliyati o'yin yoki o'qish kabi maroqlidir.

Odam mehnat jarayonida o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish qobiliyatiga ega.

Odatda odam o'z bo'yniga mas'uliyatlarni olishga intiladi va o'z iqtidorini namoyon qilishga ehtiyoj sezadi.

Odamni o'z bo'yniga mas'uliyat olishga undagan narsa -bu umumiy faoliyatda ishtirok etishga moyillikdir.

Koʻpchilikda ijodiy ishlash va tashabbuslar koʻrsatishga ishtiyoq mavjud, bu narsa boshqaruvga ham taalluqlidir.

SHulardan kelib chiqqan holda D. Mak-Gregor yangi “X” va “Y” nazariyalarining tamoyillarini ilgari surdi.

**“X” nazariyasi uchun bu -**

- tashkilotni qattiqqoʻllik bilan izchil tarzda boshqarish lozimligi;
- qonuniy rasmiy vakolatlarni markazlashtirish;
- qarorlar qabul qilish jarayoniga xodimlarni minimal tarzda jalb etishning maqsadga muvofiqligi.

**“Y” nazariyasining tamoyillari:**

- tashkilotni umumiy tarzda erkin boshqarish;
- rasmiy vakolatlarning boʻlimlarga boʻlinishi;
- majburlash va nazoratning kamligi, individual faolik va oʻz-oʻzini nazorat qilishga oʻtish;
- boshqaruvning demokratik uslubi;
- qarorlar qabul qilish jarayoniga barchaning jalb etilishi.

Lekin jahon ilmu-fani tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, boshqaruvda, ayniqsa, uning uslublarini tanlashda sintetik tanlovning boʻlishi koʻproq oʻzini oqlamoqda.

Rahbarning professional muhim sifatlari masalasi oxirgi yillarda mutaxasislar va amaliyotchilarni koʻproq qiziqtirmoqda. Bir guruh olimlar amerikalik hamda yaponiyalik rahbarlar faoliyatini oʻrganib, ularga xos boʻlgan eng muhim sifatlarning bloklarini ajratganlar. 1500 ta amerikalik menedjer va 41 ta yirik YAponiya firmalari rahbarlarining sifatlari quyidagicha tabaqalandi:

**A. Konseptual qobiliyat va xulq-atvor standartlari:**

dunyoqarashning kengligi, global yondashuv;
uzoqni koʻra bilish va egiluvchanlik;
tashabbuskorlik va dadillik, tavakkalchilikka moyillik;
muntazam oʻz ustida ishlash va uzluksiz oʻqish.

**B. SHaxsiy sifatlar:**

maqsad va yrnalishlarni aniq belgilash;
oʻzgalar fikrini tinglash qobiliyati;
xolislik, samimiyat va bagʻrikenglik;
adolatli qarorlar chiqarish orqali xodimlarni joy-joyiga qoʻyish, ular imkoniyatlaridan toʻla foydalanish;
shaxsiy yoqimtoylik;
jamoa tashkil etish va unda uygʻun muhitni ushlab tura olish qobiliyati.

Lekin, barcha oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ayon boʻldiki, amerikalik rahbarlar koʻproq xodimlarning shaxsiy-individual tashabbuslar koʻrsatishlariga imkon beruvchi muhitning boʻlishi tarafdorlari boʻlsalar, yaponiyaliklar - xodimlarning hamkorlikdagi faoliyatlari samarasini oshiruvchi sharoitlarni yaratishga e’tibor beradilar.

50-chi yillardan boshlab oʻtkazilgan tadqiqotlarda xar qanday faoliyatda ham muvaffaqiyatni ta’minlovchi sifatlarning yuzlab xillarini aniqlandi. Lekin ularni umumlashtirilganda, 5% sifatlargina barcha tadqiqotlarda muhim, deb e’tirof etildi. Ularning orasida eng koʻp marta takrorlanganlariga:

a) intellekt (odamning murakkab va mavhum muammolarni echa olish qobiliyati, u oʻta yuqori boʻlmasligi, aksincha, oʻrtachadan yuqori boʻlishi kerakligi e’tirof etildi);

b) tashabbuskorlik (yangicha ishlash va harakatlarga ehtiyojni anglash qobiliyati va shunga mos motivlar).

## KUCHLI RAHBARNING KUCHLI SIFATLARI:

---

**Realistik tafakkur** - muammolar, voqea-hodisalarni real makon va vaqt chegaralarida aniq tasavvur qilish va echimlarini belgilay olish;

Bir vaqtning oʻzida bir qancha muammolar mohiyatini anglay bilish tajribani yangi muammolar echimiga qarata bilish;

Jamoani boshqarish, ishni aniq va to‘g‘ri tashkil qilish qobiliyati, har qanday ishga shaxsan kirisha bilish va uning bajarilishini nazorat qilish;
YUqoridagi uchta holatda o‘ta jonsaraklik va qat’iyatni namoyon qilish.

---

**RAHBARLIKKA LOYIQLIK MEZONLARI ASOSIDA LIDERLIKNING VAZIFALARI:**

---

lider - ma’mur;
lider - rejalashtiruvchi;
lider - siyosatchi;
lider - baholovchi ekspert;
lider - jamoning vakolatli vakili;
lider - rag‘batlantirish va jazolash tashabbuskori;
lider - hukm chiqaruvchi va yarashtiruvchi;
lider - namuna “Ota”;
lider - jamoaning ramzi - referent;
lider - individual mas’ullikni cheklovchi;
lider - dunyoqarashlar shakllantiruvchi;
lider - “Balogardon”.

---

**RAHBARGA ZARUR BO‘LGAN TO‘RTTA “T”**

---

ТАЛАНТ

**“Т”**

ТЕМПЕРА-МЕНТ

ТОҚАТ

**ТИНИМСИЗ ИЗЛАНУВЧАНЛИК**

Ayrim psixologik manbalarda kuchli rahbar shaxsiga oid sifatlarni umumlashtirib, unga to‘rtta “T” zarurligi haqida ham yozishadi. Bular -

Temperament
Toqatlilik (terpenie)
Talant
Tinimsiz mehnat (trudolyubie).

Tashabbuskorlikning muhimligi shubxasiz, lekin bu sifatning faqat rahbarda bo‘lganda ish samaradorligi yuqori bo‘ladi, degan fikrga e’tirozlar ham bo‘lgan. Masalan, mashhur Deyl Karnegi kitobida tashabbusni yuqori lavozimdagi shaxsda bo‘lishidan tashqari, uni xodimlarga

bera olish muhimligi xaqida yozilgan. o‘sha kitobda keltirilishicha, o‘sha paytda jahonda yiliga bir million dollar miqdorda daromadga ega bo‘lgan odamlar juda kam bo‘lgan. SHunday shaxslardan Uolter Kraysler va CHarlz SHveblarning yutuqlari asosida esa oddiy xaqiqatlar yotgan. Masalan, mashxur biznesmen Endryu Karnegi o‘z menedjeri SHvebga kuniga 3000 dollar, yiliga 1 mln. dollar to‘lagan. Bu haqda SHvebning o‘zi shunday yozgan: “Men cho‘yan quyishda oddiy ishchidan anchagina no‘noq va ilmsiz bo‘lganman. Lekin men odamlarni boshqarishni bilganman. Mendagi eng noyob sifat - odamlarda tashabbusni uyg‘ota olish qobiliyatidir. CHunki insondagi eng noyob, qimmatli narsani tan olish uni ruhlantiradi. SHaxsning or-nomusi, qadrini tushiradigan narsa - bu mansabdorlarning ularni tanqid qilishidir. Xatolarni betga aytishdan o‘zni tiyish ham rahbarlik saxovatidir”. Endryu Karnegi o‘zining qabr toshiga quyidagi so‘zlarni yozishlarini vasiyat qilgan ekan: “Bu erda umri mobaynida o‘zidan ko‘ra aqlliroq insonlarni o‘ziga bo‘ysundira olgan odam yotibdi”. Demak, bu so‘zlarning mohiyati ham oldingiday - odamdagi iqtidor va aql-zakovatni qo‘llab-quvvatlash orqali ulardagi tashabbusni uyg‘ota olish mahorati unumli mehnatga olib keladi.

Ko‘plab tadqiqotchilar rahbarlarning qaysi ish uslubi ma’quliligini o‘rganish borasida tajriba to‘pladilar. 30-yillardayoq K.Levin, R.Lippman, R.Uaytlar tomonidan tavsiya etilgan boshqaruvning avtokratik, demokratik hamda erkin turlari haqidagi nazariya keyingi tadqiqotlarda jahonning ko‘plab olimlari tomonidan har taraflama tahlil qilindi. Ґar bir boshqaruv uslubining ham ijobiy, ham salbiy jixatlari to‘g‘risidagi fikrlar tasdiqlandi. Bundan tashqari, u yoki bu boshqaruv uslubining samaradorligi xodimlarning malakalari va saviyalariga bog‘liq ekanligi ham e’tirof etildi. Masalan, Rossiyada o‘tkazilgan tadqiqotlarda yuqori malakali mutaxasislarning 68,6% i boshqaruvning demokratik uslubini ma’qullagan bo‘lsalar, past malakalilarning 22,7% - direktiv uslubni, 8,7% esa erkin boshqaruv uslubini ma’qullab javob berganlar.

Bundan tashqari, o‘sha tadqiqotlarda ma’lum bo‘ldiki, rahbarlarning o‘zlari ham muttasil ravishda u yoki bu boshqaruv uslubini amalda ko‘rsatishlari 31-45% holatlarda ro‘y berar, qolganlari esa ish jarayonida turlicha boshqaruv uslublarini aralash qo‘llar ekanlar. SHunisi xarakterliki, yuqori lavozimlarga ko‘tarilgan sari, ana shunday aralash uslublarni qo‘llovchilar soni ortib borarkan. Pastroq lavozimda faqat demokratik boshqaruv tarafdori bo‘lgan odam, vazir yoki shunga o‘xshash yuqori lavozimda endi avtoritarlilikni ham, erkinlikni ham, kollegial qarorlar chiqarish siyosatini ham uyg‘unlashtirib olib ketishi mumkin ekan.

Boshqaruv sohasiga kadrlar tanlashda eng avvalo da’vogarning shaxsiy sifatlariga va faoliyat motivatsiyasiga e’tibor berish lozim. Masalan, moliyaviy boshqaruv sohasiga rahbarlarni tanlash uchun zarur bo‘lgan psixologik sifatlarni aniqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar mazkur ma’ruzalar matnining ilova qismida keltirilgan.

YUqorida qayd etilgan rahbar shaxsining turli qirralarini aniqlovchi psixodiagnostik metodikalar ko‘plab mavjud va ulardan ayrimlarini amaliy mashg‘ulotlarda ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

SHuning uchun ham rahbarlik sifatlari xaqida gap ketganda, shaxsning bir qator bilimdonliklari nazarda tutiladi.

*1. Professional bilimdonlik* - o‘zi boshqarayotgan soha faoliyatini mukammal yo‘lga quyish uchun o‘sha faoliyat borasida to‘la ma’lumotlar, bilim va malakalarga ega bo‘lishlikdir.

*2. Uslubiy bilimdonlik* - bilgan narsalari, shaxsiy malaka va ko‘nikmalari, turli loyixalar xususidagi ma’lumotlar, topshiriqlarni tez, to‘g‘ri va tushunarli tarzda xodimlarga etkaza olish qobiliyati.

*3. Ijtimoiy psixologik bilimdonlik* - odamlar bilan ishlash, ular bilan til topisha olish, jamoani uyushtira olish, uni yaxshi ishlashga safarbar qila olish, o‘zidagi liderlik sifatlarini to‘la namoyon eta bilish qobiliyati. Bu tushuncha ko‘pincha “*kommunikativ bilimdonlik*” tushunchasi bilan sinonim sifatida ham ishlatiladi.

**2. Munozaralar jarayoni psixologiyasi**

Qarorlar qabul qilish rahbar faoliyatining uzviy qismidir. Bu narsa bevosita muloqot jarayonida, aniqrog‘i, munozaralar jarayonida ro‘y beradi. Munozaralar olib borish orqali gruppaviy qarorlar qabul qilish kollegial ishlash uslubining asosidir.

Munozaralar olib borish yoki muzokaralar orqali qarorlar qabul qilish odatda ikki usulda - interaktiv yoki nominal guruhlar sharoitida amalga oshiriladi. Birinchisida guruhning barcha

a'zolari rahbar bilan birgalikda masalaning mohiyatini tahlil va muhokama qilish orqali bir qarorga keladilar. Ikkinchi holatda esa muammo yoki masala topshiriq sifatida xar bir mas'ul shaxsga beriladi va ular  alohida takliflar umumlashtirish uchun rahbarga topshiradilar.

Guruh sharoitida - munozaralar vositasida qarorlar qabul qilish turli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Aniqlashlaricha, gruppaviy qarorlar qabul qilish jarayonida deyarli ikki barobar koʻp fikr va gʻoyalar oʻrtaga tashlanadi. Bundan tashqari, boshliq rahbarligida koʻpchilik fikr almashgan sharoitda konformizm effekti yoki etakchi fikr tomonidan tayziq koʻrsatish holatlari ham boʻlishi mumkin. Bunda guyoki, ilgari surilgan gʻoyalar yoki tashabbuslarning nomiga ilgari surilganligi, yolgʻonligiga oʻxshash oqibat kuzatiladi. Ba'zan tashabbuslar va fikrlarga imkoniyatlar berilgani uchunmi, haddan ziyod oʻziga ishonch, optimizmni keltirib chiqaradi va h-zo.

Agar munozara va muhokamalar jarayonida boshliq fikriga ergashish xollari yaqkol sezilsa, unda guruhning bir necha a'zolarida avtomatik tarzda yo agressiya, yoki guruh faoliyatiga yaqqol befarqlik, yoki ma'naviy jixatdan guruhda yakkalanish roʻy berishi ham mumkin. Ataylab biror fikrni oʻtkazishga ochiq urinish ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, oʻsha norozilar yoki boshqacha qarashga ega boʻlganlar qabul qilingan qarorlarni ataylab bajarmaslikka moyillik, uning bajaralishiga xalaqit berish kabilar roʻy beradi.

SHunday turlicha oqibatlarning oldini olish uchun rahbar eng avvalo boshdan neytral mavqeni egalashi, barcha "ha" va "yoʻq"larni taroziga solib, kerak boʻlsa, ayrim mutaxassislarni ataylab fikrlarni saralash ishiga jalb qilishi mumkin. Har qalay nominal ishlash usuldan koʻra interaktiv ish usuli ma'qulroq.

Munozaralar jarayonida e'tibortalab omillardan yana biri bu guruhning tarkibidir. Agar bu tarkib turli toifali, turli yosh, jins va malaka vakillaridan iborat boʻlsa, gruppaviy ishlash toʻgʻri yoʻlga quyilgan sharoitda ular qilgan qarorlar sifatliroq va asosliroq boʻladi. Agar guruh tarkibi oʻsha malaka, tajriba nuqtai nazaridan deyarli bir xil boʻlsa, bir qarorga kelish oson boʻladi, nizo kelib chiqish xavfi boʻlmaydi, lekin masalaga yondashuv bir taraflama boʻlib  qolish ehtimoli ham yoʻq emas. Bu omillar majlislar, yigʻilish va operativ yigʻinlarda ham inobatga olinishi kerak.

Majlislarda qabul qilingan qarorlarning samarasi ham aynan boshqaruvga oid yaxshi qarorlarga ega boʻlganlik bilan izohlanadi. Bu samara taxminan mana bunday hisoblanadi: majlis yakunida qabul qilingan qarorlar yoki ma'lumotlar sonini majlis boshida oʻrtaga tashlangan ma'lumotlar soniga boʻlganda 1dan ortiq miqdor chiqsa, bu - yaxshi, aks holda - samarasiz boʻladi. Agar majlisda bir kishi oʻzi ham hal qilsa boʻladigan masala oʻrtaga tashlansa va bunga odamlar vaqtini sarflasa, bu majlis  besamara boʻladi. SHuning uchun ham majlislarga olib chiqiladigan masalalar koʻpchilik fikrining toʻqnashuvi oqibatida yangicha yondashuv va echimni nazarda tutishi lozim.

Shundan kelib chiqqan holda majlisga taklif etiladiganlar soni ham belgilanishi kerak. Nomiga odam koʻpaysinga taklif etilganlar oʻsha qabul qilinadigan qarorlar mohiyatini tushunmasligi ham mumkin, ba'zan gaplashib oʻtirib, xalaqit ham beradilar, ataylab bema'ni luqmalar ham tashlashlari mumkin.

Rahbar majlisga kelishdan avval albatta oʻzining taxminiy takliflari va qarorlarga ega boʻlishi va bunda u oʻzining "komandasi" fikrlaridan foydalangan boʻlishi mumkin. Bunday yigʻilishlar ish kuni oxirida tashkil etilgani ma'qul, boʻlmasa, odamlar ertalabdan uning qarorlarini muhokama qilib kunni oʻtkazishlari ehtimoldan xoli boʻlmaydi. Toʻgʻri, ba'zan zudlik bilan operativ qarorlar qabul qilish kerak boʻlib qoladi, shunda boshliq majbur boʻladi odamlarni toʻplashga, shunda u xodimlardan, muovinlar boʻlsa ham kechirim soʻrashi kerak, chunki u ertalabdan har bir xodim oʻz kunini rejalashtirib boʻlganini unutmasligi kerak.

Muhim qarorlar qabul qilishga bagʻishlangan majlisni odatda rahbarning oʻzi boshlaydi, shunda u muammoni qanchalik qisqa, loʻnda va aniq fikrlarda bayon etolsa, vaqtdan yutadi, aks holda faqat muammoga aniqlik kiritishga ancha vaqt ketib qoladi. Majlislarda axloq-odob normalariga qat'iy rioya qilishni nazorat qilish odatda majlis raisiga yuklanadi. Bunda xar bir majlis ishtirokchisi oʻzini faqat tinglash uchun taklif etilgan emas, balki qaror qabul qilishga mas'ul, deb anglashi kerak. Agar majlisda oʻzaro samimiyat ruhi ustivor boʻlsa, xodimlar ham yaxshi, ijodiy fikrlarni oʻrtaga tashlaydilar. Boshliqning asosiy vazifasi oʻrtaga tashlanayotgan fikrlarga nisbatan boshqalar tomonidan zaharxandalik yoki kulish holatlari roʻy bermasligini nazorat qiladi. Lekin psixologik nuqtai nazardan boshliq shuni unutmasligi kerakki, xar qanday auditoriya taxminan uch toifali ishtirokchilardan iborat boʻladi:

"tarafdorlar", ya'ni har qanday fikrga qoʻshilaveradigan, hamfikrlar;

“neytrallar”, aniq fikrga ega bo‘lmagan, biroz betaraf, tez u yoki bu fikrga og‘ib ketaveradiganlar; “muxoliflar”, boshliq qanday taklifni o‘rtaga tashlasa ham e’tirozlar bilan qarshi oladiganlar. Demak, boshliq ana shu omilni ham inobatga olib, muhim qarorlar qabul qilishda bu ichki guruhlar psixologiyasini inobatga oshishi zarur.

Ko‘pincha majlislar yoki bevosita ishlab chiqarish muammolarini muhokama qilish jarayonida fikrlar bir-biriga to‘g‘ri kelmay qoladi. Bu jamoadagi nizolarga asos bo‘lishi mumkin. SHuning uchun nizolar va nizoli vaziyatlar, ularni oqilona hal etish yo‘llari to‘g‘risida ham mulohaza yuritamiz.

**3. Nizoli holatlar**

O‘z vaqtida Banopart Napoleon shunday yozgan ekan: “qilich bilan har narsa qilish mumkin, faqat uning ustiga o‘tirib bo‘lmaydi”. Bu fikrida u ko‘pincha insonlar o‘rtasida bo‘lib turadigan nizolarni, ziddiyatlarni nazarda tutgan ekan. CHunki totalitar yoki diktatorlik boshqaruvi sharoitida ziddiyatlarning bo‘lishi tabiiy bo‘lib, uning yagona echimi - uzil-kesil uni hal qilish choralarini izlash bo‘lgan. Lekin demokratik munosabatlar sharoitidagi rahbar hamda uning qo‘l ostidagilar o‘rtasida yoki xodimlar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar yoki ziddiyatlarning tabiati va mohiyati biroz boshqacha bo‘ladi.

Avvalo shuni e’tirof etish lozimki, insoniy munosabatlarning har qanday tizimida ham fikrlarning rang-barang bo‘lishi va ular o‘rtasida farq bo‘lishi muqarrar xoldir. Lekin ana shunday fikrlardagi farqni salbiy holat deb hisoblab bo‘lmaydi.

Nima sababdan mehnat jamoalarida turli xil nizolar kelib chiqadi? Buning bir necha sabablari bor:

- alohida shaxs va jamoatchilik manfaatlarining mos kelmasligi;
- ayrim alohida jamoa a’zolari xatti-harakatlarining ijtimoiy, gruppaviy normalarga zid kelishi (tartibsizlik, intizomning buzilishi, mahsulotdagi brak, ishning samarasizligi va b.q.);
- jamoa a’zolari qarashlaridagi nomuvofiqliklar;
- ishni tashkil etish va mehnatga munosabatdagi farqlar;
- ishchi-xodimlar o‘rtasidagi vazifalarning to‘g‘ri taqsimlanmaganligi va h-zo.

**MUNOSABATLARDAGI TAFOVUT-KONFRONTATSIYA**

Konstruktiv destruktiv

Taraqqiyot, yangilik

tanglik-stress

**ZIDDIYAT, NIZO**

Rasm

Demak, yuqoridagi holatlar ko‘p hollarda quyidagi turdagi *nizoli vaziyatlarni* keltirib chiqaradi:

- ta’sirning yo‘nalishiga ko‘ra: vertikal va gorizontal;
- nizoni hal qilish usuliga ko‘ra: antogonistik va kelishuvga olib keladigan nizolar - kompromiss;
- namoyon bo‘lish darajasiga ko‘ra: ochiq, yashirish, potensial, asosli;
- ishtirokchilar soniga ko‘ra: shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo;
- kelib chiqish tabiatiga ko‘ra: milliy, etnik, millatlararo, ishlab chiqarish, hissiy-emotsional.

Agar yuqoridagilarni tahlil qiladigan bo‘lsak, “gorizontal nizolar” hayotda eng ko‘p uchraydi. Bunday nomurosozliklar aksariyat hollarda xodimlar o‘rtasida ayrim a’zolarning ishni yaxshilash, yangi ish metodlarini joriy etish, axloq normalarini himoya qilish, adolat uchun kurash, ilg‘or

jamoa a’zolarining shu erdagi ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasidagi fikrlarini ayrimlar tomonidan e’tirozlar bilan qabul qilishi natijasida ro‘y beradi.

“Vertikal nizolar” esa ko‘pincha rahbar bilan xodim o‘rtasida sodir bo‘lib, u bir qarashda liderlikka da’vogarlik, yuqoridan tazyiq, pastdan turib boshqa xodimlar yoki kuchlar atrofida birlashish, saralanishlar oqibatida kelib chiqadi. Bunda nizoning tashabbuskori va bosh aybdori kimligiga bog‘liq tarzda uni xal qilish usuli tanlanadi. Masalan, agar boshliq xodimning ishga mas’uliyatsizligidan noroziligi tufayli paydo bo‘lgan nizo bilan uning professionalizm borasida xadeb “o‘zini ko‘rsatayotganligidan” noroziligi tufayli kelib chiqadigan nizoning ham farqi bor.

Har qanday nizoning asl tub mohiyati shundaki, uning paydo bo‘lishi ayrim *o‘zgarishlarga* olib keladi. Bu o‘zgarish ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarsa, uni konstruktiv, salbiy oqibatlar yoki xodimlar qo‘nimsizligini keltirib chiqarsa, distruktiv xarakterli deb ataymiz.

**4. Nizolarni hal qilish**

Har bir nizo alohida hodisa sifatida tahlil qilinadi, lekin ularning barchasiga xos bo‘lgan ayrim qonuniyatlar borki, ularga avvalo uning bosqichlari yoki fazalari kiradi :

**Nizo oldi bosqich** - konfrontatsiya

**Nizoning o‘zi**: kompromiss yoki janjal

**Nizodan chiqish:** muloqot yoki dissonans.

Demak, birinchi bosqichda konkret masala yuzasidan fikrlar yoki qarashlarda tafovut yoki qarama-qarshilik uchun shart-sharoit paydo bo‘ladi. Tomonlar o‘rtasiga sovuqchilik tushadi, ular o‘zaro kelisholmay qoladilar, agar bunda tashqaridan qaraganda, ko‘zga tashlanadigan nizo bo‘lmasa-da, o‘sha shaxslarning o‘zi bir-birlariga nisbatan munosabatlarida buni his qila boshlaydilar. Agar rahbar aynan shu bosqichda hodisaga aralashib, o‘z vaqtida oqilona qarorlar qabul qilolmasa, nizo ikkinchi bosqichga o‘tadi.

Ikkinchi bosqichda har ikkala tomon o‘z qarashlarini qarshi tomonnikidan afzal bilib, ochiqchasiga bir-birlarini ayblay boshlaydilar. SHu paytda boshliq ularni kelishtirishga urinadi, agar bu “urinish” alohida - alohida tarzda tomonlarni kabinetga chaqirib ro‘y bersa, vaziyat yanada taranglashib, ziddiyat chuqurlashishi, tomonlar o‘z xolicha boshliqni ham o‘zining tarafdori qilib, u ham nizoning ishtirokchisiga aylanib qolishi muqarrar bo‘lib qoladi. SHuning uchun ham psixologiya har qanday nizoni tomonlarni birga chaqirgan holda hal qilish va kompromiss qarorlar chiqarishga tayyor turishni tavsiya etadi. Buning uchun rahbarda nizoning taxminiy obrazi va uni hal qilishga bir nechta alternativ echimlar bo‘lishi kerak. Boshliq biror tomonga ko‘proq yon bosa boshlasa ham, nizoning ishtirokchisiga aylanadi. SHuning uchun u xolis tarzda nizoning kelib chiqish sabablari, kimlarning manfaatiga zid ishlar qilinayotganligi, nizo ishtirokchilarining shaxsiy va professional xususiyatlari, kuchli va kuchsiz tomonlarini taxlil qilib, nizoning “portreti”ni o‘zi uchun tasavvur qila olishi kerak. SHundan keyingina, tomonlarni chaqirib, masalaga yanada oydinliklar kiritib, tomonlarni kelishuvga chaqiradi. “Men nima bo‘lganini, muammo nimada ekanligini bilish uchun Sizlarni chaqirdim” deb gap boshlashi va har bir tomonning fikri muhimligini ta’kidlab, ayni paytda vaziyatni qattiq nazorat qilishi, uning kechishini boshqarishi lozim.

**Tayanch iboralar:**

Rahbarlik sifatlari, rahbarlik nazariyalari, nizo turlari, bosqichlari, hal etish yo‘llari, boshqaruv, muloqot, munozara, psixologiya, ziddiyat, lider, mezon, toqat, talant, temperament, tinimsiz mehnat, tashabbus, guruh, munosabat

**Nazorat uchun savollar:**

1. Boshqaruv muloqotini bilasizmi.
2. Kuchli rahbarning kuchli sifatlarini ayting.
3. Rahbarlikka loyiqlik mezonlari asosida liderlikning vazifalarini ayting
4. kuchli rahbar shaxsiga oid sifatlarni umumlashtirib, unga to‘rtta “T” zarurligi haqida nimalarni bilasiz?
5. *Professional bilimdonlik* deganda nimani tushunasiz?
6. *Uslubiy bilimdonlik* degandachi?

7. *Ijtimoiy psixologik bilimdonlik* (*"kommunikativ bilimdonlik"*) *haqida ma'lumotlarni bilasizmi?*
8. Munozaralar jarayoni psixologiyasi haqida eshitganmisiz?
9. Nizoli xolatlarni tushuntirib bering?
10. Nima sababdan mehnat jamoalarida turli xil nizolar kelib chiqadi?
11. *Nizoli vaziyatlarni* nimalar keltirib chiqaradi?
12. "Vertikal nizolar" haqida bilasizmi.
13. Nizolarni hal qilish yo'llari haqida kim biladi?

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Kozeletskiy YU. Psixologicheskaya teoriya prinyatiya resheniy. M., 1979
2. Kvinn V. Prikladnaya psixologiya. - SPb., 2000
3. Mashkov V.N. Psixologiya upravleniya. SPb, 2000
4. Mixeev V.I. Sotsialno-psixologicheskie aspekti upravleniya. Stil i metod raboti rukovoditelya. M., 1975
5. Upravlenie - eto nauka i iskusstvo. A. Fayol, G. Emerson, F. Teylor, G. Ford. M., 1992
6. Upravlenie personalom. YUNITI, 1998
7. Gamilton. YA.S. "CHto takoe psixologiya". "Piter", 2002.
8. Ananev B.G. "CHelovek kak predmet poznaniya". "Piter", 2001.
9. Drujinina V. "Psixologiya ". Uchebnik. "Piter", 2003.
10. Burlachuk F. Psixodiagnostika. "Piter", 2002.
11. Ayzenk M . Psixologiya dlya nachinayущiх. "Piter", 2000.


## 14– mavzu
## RAHBAR QOBILIYATINING PSIXOLOGIK KOMPONENTLARI

**Reja:**

1**. Rahbarlik sifatlari.**
**2. Boshqaruv qonuniyatlari.**
**3. Boshqaruv tamoyillari.**
**4. Boshqaruv funktsiyalari.**
**5. Menejer faoliyatini tashkil etish.**

### Rahbarlik sifatlari

Yuqorida aytib o'tilganidek rahbarda tug'ma qobiliyat bo'ladi deb ham aytib bo'lmaydi, ikkinchi tomondan, rahbar vaziyatga qarab stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi, deb ham bo'lmaydi. Minglab shaxs sifatlari ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va ma'quldir. A.V. Petrovskiy ana shunday ijobiy sifatlardan bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat, qobiliyatlar borki, ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim.

Avvalo, har qanday rahbarda intellekt — aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlar borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatlari. Chunki, ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar original fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur.

Chunki mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi sub'ektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi, lekin yaxshi rahbar avvalo o'z-o'ziga nisbatan

talabchan bo’lishi kerak. O’z-o’zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal, kerak bo’lgan hislatlardan yana biri tom ma’noda ‘‘ziyoli" bo’lish yoki, boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo’lishdir. Boshliq o’zidagi madaniyatni avvalo muomalada, odamlar bilan bo’ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmog’i lozim. Muomala madaniyati — bu o’rinli, aniq, qiska, samimiy gapirish san’ati va ikkinchi tomondan, suhbatdoshni tinglash qobiliyatidir. Chunki, boshliq bilan xodimlar o’rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlarning asosida yo tinglay olmaslik yoki gapni to’g’ri yo’sinda gapira olmaslik yotadi. O’zganing o’rniga tura olish, uning his-kechinmalariga sherik bo’lish, empatiya hissining borligi, dialoglarda sabr-toqatlilik va boshqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Jamoa faoliyatini va o’z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rahbar uchun muhim bo’lgan talablardan biridir. Chunki rejalashtirish asosida o’z-o’zini boshqara olish va boshqalarni tashqi faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda boshqara olishni ta’minlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi. Rejalashtirish — bu o’ziga xos kelajakni ko’ra olish kobiliyati, kelajak obrazi bo’lib, bu narsa shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo’lib, u shaxsning o’z diqqatini qanchalik omilona tarzda boshqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olishi, vaqtdan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o’zini tiyish, qo’l ostidagilarga, imkoni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o’z vaqtida nazorat qilib, so’rab olish imkoniyati bilan bog’liq. O’z ishini puxta rejalashtirish qobiliyatiga ega bo’lgan rahbar realistik tafakkurga ega bo’lmog’i, ya’ni har qanday sharoitlarda ham o’sha muammo yoki ishga taalluqli barcha alternativ variantlardan eng to’g’risi va maqsadga muvofiqini tanlay oladigan, ishni to’g’ri tashkil eta bilgan, ya’ni eng kam kuch va vaqt sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish taktikasini to’g’ri yo’lga yo’naltira oladigan odam bo’lishi kerak Bundan tashqari, yaxshi rahbar uchun oldida turgan ishning har bir alohida detallarigacha tasavvur qilib, uni amalga oshirishning barcha bosqichlari va vositalarini oldindan ko’ra bilish qobiliyati ham zarur. Shunday taqdirdagina u ishga dadil kirishishi, o’zgalarni o’z ortidan ergashtirishi va ishlab chiqarishda yuksak ko’rsatkichlarga erishishi mumkin.

Yuqorida aytib o’tilgan rahbarlik sifatlari ichida eng muhimi, tabiiyki, psixologik mahoratni talab etgani — odamlar bilan ishlash mahoratidir. Jamoa a’zolari bilan samarali ishlash uchun esa boshliq ularning psixologiyasini, har bir a’zo psixologiyasini va guruh psixologiyasini yaxshi bilishi zarur, chunki ‘‘o’zgalar psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo’lidir", — deb yozishgan edi ingliz olimlari. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada ham yaxshi vositasi — ijtimoiy psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar bilan ishlovchilar jamoani boshqarishning turli usullariga muvaffaqiyatli tarzda tayyorlanmoqdalar.

## LIDERLIK VA SUPERLIDERLIK

Amerikalik tadqiqotchi **Linda Djuell** o’zining «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» (2001 yil) kitobida ijtimoiy psixologik xodisalardan muhimi bo’lmish ***liderlik*** masalasiga o’zining o’ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya’ni mardlik va jasorat ko’rsatish uchun ochiq maydonlar yo’q bo’lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo’lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo xodimlar rolini oshirib, liderlarnikini aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog’i, kamaytirish hisobiga ro’y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo’g’inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya’ni amerikaliklar rahbarni lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko’rsatish yo’llarini belgilab berishdir.

Bu kitobda ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyatli bo’lgan tushunchadan biri bu – **«superlider»** tushunchasidir. Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Amerikalik tadqiqotchilar Mants va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «superliderdir». Bu shunday shaxski, u o’z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o’zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bundagi asosiy g’oya shundan iboratki, agar odam eng **avvalo o’zi uchun lider**

**bo'la** olsa, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga etkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-saot etib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi (pr. ):

I – o'zi uchun lider bo'lish, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish , hayoliy repititsiyalar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'rnak bo'luvchi sifatlar borligini anglash;

II – yuqorida qayd etilgan sifatlarning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishontira olish;

III – xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV – mustaqil qobilyat egalari bo'lgan xodimlarni rag'batlantirish, kerak bo'lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;

V – o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o'zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik – avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta'riflanadi.

**Boshqarish qonuniyatlari**

Boshqarishda ham o'z qonuniyatlari bo'lib, ular boshqarish sohasidagi tez-tez qaytarilib turuvchi hodisalar, boshqarish jarayonidagi voqealarning ichki tabiatini va mantiqiy bog'liqligini tushunishga yordam beradi.

Avtomobilning yuki oshgan sari, benzin sarflanishning oshishi, korxonada mahsulot chiqaravchi xodimlar sonining oshishi, ma'muriy boshqaravchi xodimlar sonining oshishiga olib kelishi, murakkab tex-nologiya uchun ko'p yoki murakkab stanoklarning jalb qilinishi boshqa-rishdagi qonuniyatlarga misol bo'la oladi.

Adabiyotda e'lon qilingan ba'zi bir qonuniyatlarga biroz to'xtalib o'tamiz.

Xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida boshqarish tizimlari ko'p bo'g'inli, ko'p pog'onali bo'lishi mumkin bo'lib, ishlab chiqarishning asosiy maqsadi xalqning farovonligi va madaniyatini rivojlantirish bo'lib, ilmiy-texnika yutuqlariga asoslangan holda rivojlanishi kerak. Xalq xo'jaligining hamma bo'g'inlarida va shajaraviy boshqarishning hamma sathlarida boshqarish tamoyillarining birligi boshqarish, xo'jalik yuritish oldiga qo'yilgan maqsadlarning va ularni amalga oshiradigan usullarning birligidadir. Boshqarish va xo'jalik yuritish bo'g'inlariga tarmoqlar, korxonalar, tumanlar, shaharlar, viloyatlar va butun mamlakat misol bo'la oladi.

**Xalq xo'jaligi, boshqarish tizimlarining bo'Iaklari orasida muta-nosiblikka maqbul o'zaro munosabat (nisbat) ga erishish va uni saqlash.** Xalq xo'jaligi murakkab dinamik tizim bo'lib, bir qancha tizimcha va elementlardan iboratdir. Bu tizimcha va elementlarga yoki bo'laklarga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa, savdo va maishiy xizmat, fan, madaniyat, tibbiyot, bank xizmati va hokazolar kiradi. Bo'-laklar orasidagi bog'lanish uzviydir. Masalan, sanoat qishloq xo'jaligiga, kurilishga, transportga va boshqalarga mehnat qurollarini yetkazib bersa, qishloq xo'jaligi esa sanoat va boshqa bo'laklarga xom ashyo va materiallar yetkazib beradi. Shularni inobatga olgan holda, xalq xo'ja-ligining rivojlanishida bo'laklar orasidagi bog'lanishlar o'zaro mutanosib bo'lishi kerak.

Hayotda bu esa har bir bo'lakning rivojlanishi boshqa bo'laklarning talabini to'liq qondiradigan darajada bo'lishi kerak. Boshqa so'zlar bilan aytganda, asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlarning quwatlari, mexa-nizatsiyalash va avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, ishlab chiqa-rishni uyushtirish orasida mutanosiblik va maqbul o'zaro munosabat bo'lishi kerak. Boshqarishda esa vaqti bilan (davriy holda) boshqariluvchi tizimchalarning holatini tahlil qilish, ulardagi nomutanosiblikni o'z vaqtida yo'qotishga imkon beradi.

Mutanosiblikvamaqbulo'zaronisbatfaqattizimchaelementlariorasidaemas, boshqaruvchivaboshqariluvchitizimlarningorasidahamta'minlanishikerak.

Buqonuniyatningbajarilishixalqxo’jaligivaboshqaravbo’limlariningmaromvasamaraliishlashinita’minlaydi.

Ishlabchiqarishfondlariharakatininguzluksizligiga, maromligiga, aylanishdavrtezliginioshirishga (maromigaetkazishga) erishishkorxonaningishlabchiqarishfondlariuningishlabchiqarishqobiliyatibilananiqlanibpulholatidaifodalanadi.

Ishlab chiqarish fondlarining aylanish davri (vaqti) va elementlari yuqoridagi tarx (4-rasm) bilan ifodalanishi mumkin.

Xususiy aylanish vaqtlari $t_1$, $t_2$, tz, $t_4$, $t_n$*har* qanday korxonada mavjud bo’lgan jarayonlar uzluksiz, maromli bo’lib, vaqtlarning o’zlari esa minimum bo’lishi maqsadga muvofiqdir. Shundagina umumiy aylanish vaqti (davri) T minimum bo’lishi mumkin. Aylanish vaqti T-ning kamayishi aylanuvchanlikni va daromadni oshiradi. Bunga esa ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, ulgurji savdoni rivojlantirish, ishlab chiqarish fondlarini tez-tez va samarali yuqori bo’lganlariga almashtirish, sotiladigan mollarning **sifatini** oshirish tufayli oldindan pul to’lash usullarini, korxonada esa avtomatlashtirilgan ishchi o’rinlarini yaratish, kompyuterli tizimlar joriy qilish kabi tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

## Boshqarish tamoyillari

**Boshqarish tamoyillari** deganda ma’lum bir ijtimoiy -iqtisodiy sharoitlarda, boshqaruv amaliyotida ishlatiladigan asosiy qoidalar, yo’l-yo’riq ko’rsatuvchi tartib intizomlar, ahloqiy me’yorlarni tushunamiz.Boshqarish tamoyillari bir nechta bo’lib, ba’zi birlarini keltirishni o’zimizga o’rinli deb bildik.

**Ishni reja asosida olib borish tamoyili.**Bu tamoyil korxonadan tortib davlat darajasigacha hamma ishlar reja asosida olib borilishini nazarda tutadi.

Har qanday korxona, tarmoq va vaholanki, eng rivojlangan davlatning ham imkoniyatlari cheklangan bo’ladi. Bu holat rejalash jara-yonida inobatga olinishi shart. Rejalangan mablag’larning rejalanmagan ishlarga yo’naltirilishi ajratilgan mablag’larning samaradorligini pasa-yishiga, chala ishlar, qurilishlarning ko’payishiga, ajratilgan kuch va imkoniyatlarni to’zishiga olib keladi. Ishni reja asosida olib borish tamoyiliga qat’iy rioya qilish amaliyotda katta ahamiyatga ega.

**Xo’jalikni samarali va maqbul olib borish tamoyili.** Bu tamoyil kerakli ashyoviy boyliklarni yuqori sifatda ishlab chiqarish, ko’rsatilgan yuqori sifatli har qanday xizmatlar uchun qilingan sarf-xarajatlar mi-nimum bo’lishi to’g’risida fikr yurgizadi.Ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan har bir ishchi (xodim) daromadining maksimal bo’lishi tarafdoridir.

Bu esa ishlab chiqarish jarayonida bo’layotgan sarf-xarajatlarni, chunonchi ishlab chiqarishda mavjud bo’lgan chiqindilarni, yonilg’i, xom ashyo, issiqlik, elektroenergiya, suv va hokazolarni iqtisod qilishga da’vat qiladi.

Ishlab chiqarishda bo’lgan sarf-xarajatlarni kamaytirish ishchi (xodim) laming oladigan ish xaqini, olinadigan mukofotlarni, ijtimoiy rivojlanish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, fan va texnika yutuqlarmi qo’llash uchun kerak bo’lgan mablagiarni oshirishga olib keladi, ya’ni korxonaning samaradorligini oshiradi.

Xo’jalikni maqbul olib borish deganda, ishlab chiqarishda va bosh-qarishda zamonaviy fan va texnika yutuqlarini qo’llash ko’zda tutiladi. Masalan, ishlab chiqarishda, boshqarishda yangi texnologiyalar, iqti-sodiy-matematik modellashni, hisoblash texnika vositalarini, avtomat-lashtirilgan ishchi joylarini tatbiq qilish ko’zda tutiladi.

Zamonaviy boshliq o’zining ish jarayonida xo’jalikni samarali va maqbul olib borish tamoyiliga amal qilishi kerak.

**Yechilayotgan masalalar zanjirida asosiy bo’ginni aniqlay olish tamoyili.**Zamonaviy boshliq ishlash jarayonida ko’p va har xil masalalarga (muammolarga) duch keladi. Agar hamma masalalarni boshliqning o’zi hal qilmoqchi bo’lsa, uning kuchi ham, vaqti ham, imkoniyati ham yetishmaydi. Shuning uchun boshliq korxona oldida turgan masalalar ichidan eng asosiylari, ya’ni birinchi navbatda yechilishi zarur bo’lganlarini ko’ra bilish va ajratish qobiliyatiga ega bo’lishi shart, ya’ni yechiladigan masalalar zanjirida asosiy bo’g’inni aniqlay bilishi kerak.

Buning uchun boshliq adabiyot va axborot vositalarida e’lon qilingan, korxona yo’nalishiga oid bo’lgan materiallarni tahlil qilishi va o’zida to’g’ri xulosa chiqarishi, fan va

texnika yutuqlarini o’rganib, ularni o’z korxonasida qo’llash yoilarini qidirishi, korxonaning sohasi bo’yicha faoliyat ko’rsatayotgan ilg’or (raqobatdosh) korxonalarning ishlash usullarini o’rganishi va iloji boricha korxonasida o’rgangan usul va vositalarni qo’llash va nihoyatda o’z korxonasining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib, boshqa raqobatdosh korxonalarning faoliyati bilan solishtirib chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak.

Bu tadbirlar korxonaning texnik - iqtisodiy ko’rsatkichlarini ilg’or (raqobatdosh) korxonalar darajasigacha ko’tarish imkoniyatini beradi.

Shuning uchun ham bu tamoyilga amal qilish boshqarish ama-liyotida birinchi navbatda yechiladigan masalalarni aniqlash orqali iqtisodiyotni (korxonani) samarali boshqarish imkoniyatini beradi.

**Qabul qilinadigan qarorlarning obyektivligi va ilmiyligi tamoyili.** Ish faoliyatida rahbar odamda ko’p masalalar bo’yicha har xil qarorlar qabul qilishga to’g’ri keladi. Boshqarish sohasida qabul qilingan qarorlardan kelgan foydadan kimlar manfaatdor bo’lishiga qarab, ular obyektiv va subyektiv bo’lishlari mumkin. Qabul qilingan qarorlar jamoa, ishlab chiqarish va davlatni ko’zda tutsa obyektiv, subyektiv, ya’ni qaror qabul qiluvchi shaxsning manfaatlarini ko’zda tutsa subyektiv qarorlar bo’ladi. Ko’pincha qabul qilingan qarorlarda subyektivlik ancha foizni tashkil qiladi.Bunday holatlar ko’pincha rahbar yoki qaror qabul qiluvchi shaxs jamoaning bir nechta xodimlari bilan qarama - qarshi (konflikt) holatda boisa sodir bo’ladi.

Ikkala tomon ham o’ch olish niyatida masalani salbiy hal qilishga harakat qiladi. Bunday sharoit esa ishlab chiqarishga, jamoaga va pirovardida davlatga katta ziyon keltirishi mumkin. Yoki yana bir holat: korxonadagi ikki yoki undan ko’proq shaxslar (tanish-bilishlar, qarindoshlar) o’zaro kelishib, qonuniy echimi bo’lmagan masalani ijobiy hal qilishlari mumkin. Shuning uchun rahbarlar yoki rahbarlar bilan unga bo’ysinuvchi xodimlar orasidagi xususiy munosabatlar qanday bo’lishidan qat’i nazar, muammolar ishlab chiqarish, jamoa va davlat manfaatlarini ko’zda tutgan holda echilishi, ya’ni obyektiv echilishi lozim. Xususiy munosabatlar yoki xafagarchiliklar ishlab chiqarish manfaatlariga hech qanday salbiy ta’sir o’tkazmasligi kerak.

Qabul qilinadigan qarorlarning ilmiyligiga kelganimizda, bu masala rahbarning bilimdonligiga chambarchas bog’liqdir. Agar rahbarlarning bilimdonligi qancha yuqori bo’lsa u o’zining bilimlarini fan, texnika, ilg’or amaliyotning yutuqlari bilan boyitsa va ular rahbarning qabul qilayotgan qarorlarida o’z aksini topsa, bunday qarorlar to’g’ri va haqiqiy bo’ladi. Ilm asosida qabul qilingan qarorlar ijobiy natijaga, ilm-fan, texnika va ilg’or amaliyot yutuqlariga tayanmagan qarorlar esa ko’pincha salbiy natijaga olib keladi. Ilmiy boshqarish subyektivizmning kushandasidir. Ilmiy boshqarish jamiyatning obyektiv rivojlanish qonunlari, boshqarishning qonuniyatlari va bashoratlashni tahlil qilish natijalari asosida amalga oshiriladi. Ayniqsa, hozirgi paytda ishlab chiqarish va boshqarishda faoliyat ko’rsatayotgan hamma bo’g’inlarning rahbarlari texnika, texnologiya, iqtisodiyot, ishlab chiqarishni zamon talablari aso-sida uyushtirish, boshqarish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalari va usullarini hamma vaqtdagidan farqli o’laroq, yaxshi bilishlari shart. Bu qonuniyatlarning amaliyotdagi o’rni rahbar zamonaviy ilmlar majmuasiga tayanib jamoa va ishlab chiqarishni boshqarishidadir.

Xodimlarni tanlash, jamiyat va boshqarishning hamma bo’g’inlarida siyosiy jihatdan etuk, har tomonlama ish biladigan, qobiliyatli rahbarlar boshliq bo’lishini nazarda tutadi. Hozirgi kungacha «hamma narsani ka-drlar hal qiladi» degan ibora o’z kuchini yo’qotgani yo’q.

Kadrlarning ish samarasini oshirish, ularga shaxsiy yondashish aso-sida bo’lib, kadrlardan butun kuch va energiyasini berib ishlashni taqozo etadi.

Xodimlarning ish faoliyatini ularning haqiqiy (mavjud) natijalar bilan baholash asosiy mezon bo’lmog’i zarur va shunday hamdir. Kadrlarni to’g’ri joylashtirish, ularning tajriba, ilm va xususiy sifatlaridan to’liq foydalana bilish rahbarning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Kadrlarga bo’lgan mehribonlik va talabchanlik, ish foydasi, qo’yilgan masalalarni aniq va tezkorlik bilan hal qilish doirasida bo’lishi va ularga bo’ysunishi kerak. Kishilarga bo’lgan talabchanlik, tanbeh berish qo’pollikka, odobsizlikka, mayda-chuyda tiqilinchlarga aylanmasdan mehribonlik va odoblik bilan ularning kamchiliklarini va kuchlik to-monlarini ko’rsatishdan iboratdir. Rahbarlarga rezerv (zaxira) tayyorlash kelajak uchun zamin tayyorlashdir.Shuning uchun ham ularning ishbilarmonlik, siyosiy, ma’naviy sifatlariga e’tibor bergan holda, ularni konkret

ishlab chiqarish, jamoaviy topshiriqlarda tekshirish, kerakli lavozimlarda stajirovkalar uyushtirish zarurdir.

Shular bilan bir qatorda rezerv kadrlarda nazariy bilimlarini oshirish, ishbilarmonlik xususiyatlarini, siyosiy va ma’naviy etukligini, yergashtira olish, qiladigan takliflarini shakllantirish kadrlar tayyor-lashdagi asosiy maqsadlardan biri bo’lishi kerak. Jamiyatimizning tezkorlik bilan rivoj-lanishida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo’yish, ularni tarbiyalash katta ahamiyatga egadir.

**Mehnatni moddiy va ma’naviy rag’batlantirish tamoyili.** Ish unumdorligini oshirishda, sarf-xarajatlarni kamaytirishda, chiqarayotgan mahsulot va xizmat sifatini oshirishda mehnatni moddiy va ma’naviy rag’batlantirish muhim rol o’ynaydi. Tamoyilning asosiy masalasi moddiy va ma’naviy rag’batlantirish orqali xodimlarni jamoaning umumiy ko’rsatkichlarini yuqori pog’onalarga olib chiqarishdir. Moddiy rag’batlantirish deganda, ish haqiga qo’shimchalar, mukofotlar va boshqamoddiy yordamlarni tushunsak, ma’naviy rag’batlantirish deganda, jamoa oldida tashakkurnomalar e’lon qilish, nomlarini faxriy kitoblarga kiritish, faxriy yorliqlar berish, hurmat taxtasidan joy ajratish, davlatimizning medal, ordenlariga, faxriy unvonlariga taqdim yetishni tushunamiz. Boshqarish amaliyotida rag’batlantirish munosib bo’lmagan odamlarni rag’batlantirish hollarini butunlay yo’qotish madsadga muvofiq bo’ladi, chunki bunday hollarda jamoa ichida noroziliklar, guruhvozliklar, tarafma - tarafliklar keltirib chiqarish ish samaradorligiga katta ziyon yetkazadi.

**Boshqaruv qarorlarining bajarilishini nazorat qilish tamoyili.**Bu tamoyil boshqarish tizimida bajaruvchilik intizomini yuqori darajada amalga oshiruvchi omildir. Boshqarish tizimida amalga oshiriladigan nazorat ish jarayonida aniqlik, ishchanlik, tezkorlik muhitini yaratib byu-rokratizmga qarshi mavjud bo’lgan kamchiliklarni nazorat qilish va tekshirish, eng awalo, ish unumdorligini oshirish uchun yo’naltirilgan bo’lishi kerak. Qapop bajarilishini tekshirganda, masalalarning tub mohiyatini tushuntirish va aniqlash ishlarini esa baqiriq - chaqiriqsiz, osoyishtalik bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Nazoratni uyushtirish shakllari har xil bo’lib, kalendarga, ish daftarchasiga, nazorat kartochkasi (varaqchalari) ga yozma holda belgilashdan tortib EHM gacha bo’lishi mumkin. EHM-nazorat qilinuvchi hujjatlarning soni bir yilda 19 ming donadan oshgandagina o’zini oqlashi mumkin. Har bir rahbar qarorlarning va tekshiriladigan hujjatlarning soniga qarab, o’ziga qulay bo’lgan tekshirish shaklini tanlab oladi. Boshqarishga kiber-netikadan kirib kelgan ba’zi bir tamoyillarni eslatibgina o’tamiz:

**Tizimchanlik tamoyili.**Bu tamoyil boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimchalarni ko’rsatgichlari bir-biri bilan bog’liq bo’lgan murakkab tizim holatida qarashni taqozo qiladi.
Shajaraviylik tamoyili boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimchalarga ko’p pog’onali shajara tarzida yondashishimizni tavsiya qiladi.

Mos kelishlik tamoyili boshqaruvchi tizimchaning murakkabligi boshqariluvchi tizimchanikidan past bo’lmasligini ko’zda tutadi yoki oddiy ibora bilan aytganda, murakkab ishlab chiqarishga sodda boshqarish tizimini loyihalab bo’lmasligidan dalolat beradi.

Qayta aloqa tamoyili boshqarish ta’siri natijasida obyektda bo’la-yotgan o’zgarishlar haqidagi axborot boshqaruv tizimiga vaqtida yetkazilishini ta’minlaydi.

Qayta aloqa ijobiy va salbiy boiib qaysi birini tanlashni boshqarav tizimini loyihalagan kishilar oldiga qo’yilgan maqsadlar hal qiladi. Xulosa qilib aytganda — boshqarishning hamma tamoyillari muhim bo’lib, turmush ularni amaliyotda qo’llashni taqozo etadi.

O’z ishini boshqarish tamoyillari asosida olib borishlik rahbar uchun ahloq me’yori ekanligi amaliyot taqozosidir.

## Boshqarish usullarining mazmuni

Boshqarishning iqtisodiy usullari—mavjud Goriy) ijtimoiy tizimning obyektiv iqtisodiy manfaatini ko’zlagan holda xo’jalik yuritish usullaridir. Bu usullar tarkibiga rejalashtirish, narx-navoni shakllantirish va boshqa iqtisodiy ko’rsatgichlar kiradi. Amaliyotda xo’jalik yuritish jarayonida sharoitlar o’zgaradi.Sharoitlarning o’zgarishiga qarab, qo’yilgan maq-sadni inobatga olgan holda, xo’jalikni olib borish mexanizmini, jamiyatdagi mavjud qonunlarni buzmagan holda, o’zgartirish kerak.

Iqtisodiy munosabatlar quyidagi manfaatlarni qondirishi kerak:

1. Jamoatchilik manfaati, (qurilishlar, transport va hokazolar).

2. Tashkilot manfaati (ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejasi va hokazolar).
3. Shaxsiy manfaat, (malaka oshirish, ish haqi va boshqa daromad-lar).

Jamiyatdagi ishlatiladigan richaglar uchchala manfaatlar bo'yicha ijobiy natijalarga olib kelishi kerak.Lekin, bu narsa doimo kuza-tilavermaydi, ya'ni ba'zida umumiy ko'rsatgichlar bajariladiyu, shaxsiy ko'rsatkichlar to'la inobatga olinmaydi.To'la xo'jalik hisobida ishlay-digan korxonalarda bu uchchala ko'rsatkich, daromadga bo'lingan holda inobatga olinishi kerak.Shaxsiy manfaat juda nozik narsa. Shuning uchun ham har bir ijrochiga rejaviy ko'rsatkichlar, molning narxi, daromad, ashyo sarfi va boshqa qiziqtirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar etkazilishi kerak. Shunday bo'lganda, har bir xodimning faolligi, mas'uliyatligi keskin oshadi.Bu esa ishlab chiqarish hajmining, mol sifatining, daromadning, ish unumdorligining oshishiga olib keladi.Har bir xodim ishning pirovard natijasini oshirishga da'vat qiluvchi kishiga aylanadi.

**Boshqarishning tashkiliy - ma'muriy usullari**

Boshqarishning bu usuli ikki qismdan iborat bo'lib, tashkiliy ta'sir va farmonli (ma'muriy) ta'sirlarni shakllantiradi. Tashkilotchilik faoliyati eng nozik masalalardan bo'lib, ishlab chiqarishdagi hamma kamchiliklar (yo'qotishlar) u bilan bog'liqdir.Tashkilotchilik bu ishlab chiqarishdagi tozalik, intizom va natijada yaxshi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlardir. Yaxshi tashkilotchilik bu—bir maromda ishlaydigan kishilarning guruh-laridir.Tashkilotchilik ishlab chiqarishning hamma sohalarida o'mak bo'lishi kerak.Tashkilotchilik ma'murchilik faoliyatiga ham bog'liqdir.Masalan, buyruq.Buyruqning ham o'z andozasi bor. Buyraqda asosiy narsalar (ashyo, kimga tegishligi, bajarish muhlati, mablag'lar) o'z aksini topishi kerak.Buyraqda uni tayyorlagan kishining, yuristning (buyraqda nomlari qayd etilgan kishilarning) vizalari (imzolari) bo'lishi kerak.Buyraq shoshma-shosharsizliksiz, atroflicha, savodli tayyorlanishi kerak.Buyraqda rahbar hammadan keyin qo'l qo'yadi.

Buyraq — bu rahbarning yozma holdagi istagidir.Buyruqqa faqatgina birinchi rahbar qo'l qo'yadi.Buyruqdan tashqari korxonalarda farmon ham mavjud bo'lib, ko'pincha u korxona doirasida kuchga ega bo'ladi.

Tashkiliy tartiblashtirishning shakllaridan ko'p tarqalgani bu yo'riqnomalar (ko'rsatmalar)dir. Tashkiliy me'yorlashning asosi me'-yoriylik bo'lib, uning o'z o'lchov birliklari (vaqt, og'irlik, uzunlik, dona va hokazolar) dir.

Me'yoriylik dogma bo'lmay moslashuvchan bo'lmog'i kerak. Nizom - tashkiliy hujjatlarning bir turi bo'lib, tuzilmaviy bo'linmaning vositasi, huquq va majburiyatlarini aniqlaydi. Mansab (lavozim) yo'riqnomalari mansabdorning huquq va majburiyatlarini aniqlaydigan tashkiliy huj-jatdir. Uslubiy ko'rsatmalar ham tashkiliy hujjatlar qatoriga kirib ish (hisob) tartibini, ish (hisob) uchun kerakli elementlarni aniqlaydi va omilkor (kompitent) tashkilotlar, mutaxassislar tomonidan tasdiqlanadi.

**Ijtimoiy - ruhiy boshqarish usullari** ko'proq ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan korxona va jamoalarga taalluqli bo'lib rahiy moslik, rahiy sharoitning ish unumdorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, boshqarishning bu gurahida ishtirok etuvchi kishilarga ishlayotgan sharoiti (dizayni, xatto ish kiyimining qaysi matodan tikilganligi va rangi) ish unumdorligiga katta ta'sir ko'rsatar ekan. Bunday xodimlarning ish o'rinlari ilmiy tarzda tashkil qilinishi kerak bo'ladi.

## Boshqaruv funksiyalari (vazifalari)

**Boshqarish funksiyasi haqida tushuncha.Warning obyektiv rivoj-lanish omillari.**
Boshqaravchi (rahbar) ikki holat oralig'ida ish olib borishi mumkin (5- rasm).

Boshqaruvchiningmalakasiga, bilimdonligiga, omilkorligiga, undaboshqarishsan'atiningmavjudligigaqarab, boshqarishsifati 5-rasmdako'rsatilganikkiholatorasidabo'ladi.Reaktivboshqaravdareaksiya (aksta'sir) tezkorlikbilanamalgaoshiriladi.Ishgakelgandarejaham, maqsadhamaniq (oldindanbelgilangan) bo'lmayto'g'rilash (tuzatish) bilanshug'ullanamiz.O'to'chiruvchilargao'xshabhammaishlarbaqiriq-chaqiriq, telefonqilishlarbilanbajariladi.Buning asosiy sababi xom ashyo, uskuna, qurilmalarning vaqtida yetkazib berilmaganidadir. Reaktiv boshqaruv sof holda kam uchraydi.

Ikkinchi holat-maqsadli (rejaviy) boshqaruv bo'lib, kam harajatlar bilan oldindan belgilangan maqsadga tezkorlik bilan yetishni ko'zda tutadi. Bunday boshqaruv ham sof holda kam uchraydigan holat. Maqsadli boshqaruvning asosiy elementlari boshqaravning umumiy va konkret funksiyalaridir.

Har bir rahbarning boshqaravchi tariqasida ish faoliyati ikki holatda bo'lishi mumkin (6-rasm). Bu ikki holat boshqaruvchilik va ijrochilik holatlari bo'lib, boshliq boshqaruvchilik faoliyati bilan ko'proq shug'ullanishi kerak.

Rahbarboshqaruvchitariqasida (qo'ldaqog'ozvaruchkabilan) boshqarishniuyushtirishkerak. Lekinko'pincharahbarijrochilikfaoliyatibilanmashg'ulbo'ladi.Nimaga? deganqonuniysavoltug'iladi. Bungajavobquyidagicha: ko'pinchakorxonalardaishlaydiganmutaxassislarniomilkorlikdarajasipastbo'ladi. Bundayholatlaruchrabturadi.Korxonadagisalbiyholatvanatijalarga, birinchinavbatda, rahbarjavobberadi, shuninguchunhamrahbaro'zqo'linikorxonapulsidaushlabturishikerak. Hammakorxonalardaobro' ixtisoslikorqasidankeladi.Mutaxassisningomilkorlikdarajasiqanchapastbo'lsa, rahbargashunchaog'irbo'ladivarahbarijrochilikfaoliyatibilanko'proqshug'ullanadi. Masalan: korxonayangimahsulotchiqaraboshladi. Buyurtmachichi-qarilayotganyangimahsulotyuzasidanrahbaryonigakelib, maslahatgakelganiniaytadi.Buyerdaikkivaziyatbo'lishimumkin: 1) rahbarningo'zimaslahatberadi; 2) maslahatgakorxonamutaxassisinichaqiradi.

Birinchivaziyatdarahbarijrochilik, ikkinchivaziyatdaesaboshqa-ruvchilikfaoliyatinibajaradi.Boshqaravfunksiyasideganda, boshqaruvsohasidagivazifalartushuniladi.

Boshqaruvfunksiyalarideganda, boshqaruvchilikxizmatiniixtisos-lashtirishjarayonidaajralibchiqqanboshqaruvchilikfaoliyatiningo'zigaxosturinitushinamiz.

Hozirgikunda, ishlabchiqarishjarayonlariningmurakkablashishinatijasidaboshqaruvningyangifunksiyalaripaydobo'layapti.

Tasniflash asosida boshqarav funksiyalarini asosiy va konkretlarga ajratish mumkin. Asosiy boshqarav funksiyalari belgilangan obyektlardagi bo'ladigan hamma boshqarav jarayonlarini tavsiflaydilar, konkret boshqarav funksiyalari esa faqatgina shu obyektga xos bo'lgan jarayonlarni tavsiflaydilar. Boshqaruvning asosiy funksiyalari:

1. Rejalashtirish.
2. Rejani bajarishni uyushtirish.
3. Muvofiqlashtirish.
4. Rag'batlantirish.
5. Nazorat.

Shu funksiyalarni amalga oshirish orqali biz boshqaruvni amalga oshiramiz.

1. *Rejalashtirish funksiyasining tarkibiga quyidagilar kiradi:*

a) bashoratlash;
b) dasturlash;
s) bajariladigan ishlar grafigi (jadvali)ni ishlab chiqish;
d) budjetni tuzish (ishlab chiqish).

Hozirgi kunda eng oqsoqlangan qismlardan bin bashoratlashdir. Bashoratlash qanchalik obyektiv, aniq va ommaviy bo'lsa, ishlab chiqarishning kelgusi shunchalik bir maromda bo'ladi.

*2. Rejani bajarishni uyushtirish funksiyasi deganda,* ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan hamma ishlarni tushunamiz. Bu ishlar ichiga kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan ta'minot ishlari va hokazo tashkiliy ishlar kiradi.

*3. Muvofiqlashtirish funksiyasi deganda,* tashqi va ichki muvofiqlashtirishni tushunamiz, chunki ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi kuchlar tashqi va ichki boiadilar. Bu ta'sirlardan tashqari, ishlab chiqarishning maromligini ta'minlash uchun ham muvofiqlashtirish, albatta, kerakdir.

4. *Rag'batlantirish funksiyasi deganda,* ishlab chiqarishning asosiy richagini tushunamiz. Rag'batlantirishning turlari haqida, boshqarishning qonuniyatlarini o'rganilayotganda to'xtalgan edik.

5. Nazorat-bu murakkab funksiyalardan bo'lib, ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydi. Lekin bu funksiya zarur, oz vaqtida va minimal sarf-xarajatlar bilan amalgam oshirishi kerak

Amerikalik ishlab chiqarish tashkilotchilaridan Iyuis Allen nazoratning ikki tamoyilini ilgari surgan: 1) sabablarning minimumligi tamoyili; 2) nazoratni qo'yilish tamoyili.

Bu tamoyillarning mazmuni nimadan iborat?Sabablarni tahlil qilish natijasida nazorat qilinadigan obyektlarnigina hisobga olishimiz kerak.Bularning soni esa, doimo minimum bo'ladi. Chunonchi: buzilgan dastgoxlarning, brak mahsulot chiqarayotgan kishilarning, mehnat intizomini buzayotgan hodimlarning soni minimumni tashkil etadi. Agar nazoratni hamma dastgohlarga, hamma xodimlarga qo'llaydigan bo'lsak, bu holda nazoratga ketadigan sarf-xarajatlar minimum bo'lmaydi.Shu-ning uchun ham bu tamoyilning amaliyotdagi o'rni kattadir.

Ko'pchilik holatlarda tartib buzarlik haqidagi axborotni birov orqali olamiz, Bunday uslub noto'g'ridir, chunki tartib buzarlik to'g'risidagi axborot nazoratchiga buzilgan holda etib keladi.Shuning uchun, axborotni faqatgina tartib buzarning o'zidangina olishimiz kerak.

Asosiy funksiyalarning rejalashtirish qismi dastlabki boshqaruvni, rejani bajarishni uyushtirish bilan birga muvoflqlashtirish va rag'batlantirish funksiyalari operativ boshqaruvni va nihoyat nazorat funksiyasi pirovard boshqaruvni tashkil qilishadi. Boshqaruvning funksiyalari bilan alohida elementlar (xodimlar) shug'ullangani uchun umumrahbarlik (bosh direktor) funksiyasini kiritishimiz kerak bo'ladi.

Rejalashtirish, asosan, boshqarish shajarasining yuqori sathiga mansub bo'lib, lekin korxonada ham bu funksiya mavjuddir.Rejani bajarishni uyushtirish korxonalarning vazifalaridir.

Muvoflqlashtirish funksiyasi ko'proq boshqarishning yuqori bos-qichlariga taalluqlidir.
Rag'batlantirish funksiyasi ko'proq boshqarishning quyi bosqichlarida amalga oshiriladi.

Nazorat boshqaruvning hamma bosqichlarida mayjud bo'lishi kerak. Yuqoridan esa, ko'proq moliyaviy faoliyat tekshiriladi va nazorat qilinadi.

Boshqaruvning konkret funksiyalari—konkret obyektlarning xusu-siyatlarini aks ettiradi. Ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati bilan shug'ul-lanadigan korxonalar uchun ularni uch bosqichga bo'linadigan sakkizta funksiyalar bilan ifodalash mumkin:

**I. Tayyorlash bosqichi.**
- ishlab chiqarishni ilmiy-texnikaviy tayyorlash;
- ishlab chiqarishni moliyaviy tayyorlash;
- ishlab chiqarishni ijtimoiy tayyorlash;

**II. Ishlab chiqarish bosqichi** -asosiy ishlab chiqarish;
- xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish;
- yordam beruvchi ishlab chiqarish.

**III. Pirovard (so'nggi) bosqich**
- mahsulot sotish;
- moliyaviy faoliyat.

## Bozorning menejerlarga bo'lgan talabi

Bozor iqtisodiyotiga kirib borishning strategik kursi yangi yondoshuvchilarni talab qiladi. Bu talablar asosan iqtisodiyotda, boshqaruvda va ijtimoiy muammolar yechimida namoyon bo'ladi. Insoniyat bo'lmagan yoki qatnashmaydigan yuqori texnologiya va mexanizmlar keraklicha ta'sirchan bo'la olmaydi. Menejment tizimida xo'jalik mexanizmining islohati asosiy omil bo'ladi, bundan tashqari faoliyatchanlik va ta'sirchanlik islohatlari boshqaruv kadrlari, ya'ni menejerlar tomonidan aniqlanadi.

Bozor iqtisodiga o'tgan, ishlab chiqarishda strukturali siljish, ilmiy-texnik yutuqlarni amalda qo'llash, xo'jalikning ijtimoiy ahamiyatining o'sishi, jamiyatning demokratizatsiyalashtiriluvchi, bularning hammasi menejer ishlarini qiyinlashtiradi va bir qator islohatlar talab qiladi.

Xo'jalik mexanizmining har qanday islohati ongimizdagi eskicha fikrlashning inkor etilishidan boshlanadi: yangi vazifalarning aniq tushunilishini talab qiladi. Maqsad va vazifalar

belgilanganidan so'ng, bularning amaliyotda qo'llanilishi ko'p tomonlama boshqaruv apparatiga bog'liq.

Kadrlar tanlanishi shunaqa jarayonki, mansabning talablariga javob beradigan kishilarni qidirish. Ayni paytda bu tanlov orqali ularni ratsional joylashtirish muammosi ham hal qilinadi. Kadrlar joylashtiriluvi, eng yuksak ishlab chiqaruvni ta'minlash maqsadida, ularni (kadrlarni) maqsadga muvofiq shaklda boshqaruv apparatida joylashtiriluviga bog'liq.

Kadrlar tanlovi, bozor sharoitida ishlay oladigan kishilar va ularda jamoa yuzaga keltirish bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyoti munosabati menejerlardan, tadbirkorlik va tez qaror qabul qilishni talab qiladi. Muhim bo'lgani nafaqatgina islohat tamoyillarini umumiy tushunish, balki ularni kadrlarni har kungi hayotida ishlata olish, ishning tarzini va uslubini o'zgartira olish. Bularni inobatga olgan holda mas'uliyatli faoliyat ko'rsatish, yangi huquqlardan foydalanish va sezilarli darajada intizomni mustahkamlash kerak.

Menejerlar yaxshi taktikkina bo'lib qolmay, strateg ham bo'lishlari kerak. Ular bozor ehtiyojlarini inobatga olishlari, bozorning shakllanishida ta'sir etish, talabdagi o'zgarishga egiluvchan shaklda javob berish, u maqsadni aniq tasavvur qila olish, ertangi kun muammolarini yechish uchun bugundan taraddud ko'ra olish, texnik yutuq va iqtisodiy ijtimoiy rivojdan orqada qolmaslik uchun samarali xo'jalik yuritishi kerak. Bozor sharoitlarida yaxshi natijalarga erishish uchun boshqaruv apparatining zarur doimiyligini saqlash.

**Attestatsiya — menejerlarning shaxsiy va ishbilarmonlik faoliyatini baholash usuli sifatida**

Boshqaruv mansabiga tavsiya qilinayotgan kishining ishbilarmonlik va kishilik xususiyatlarini baholash, avvalambor shartnoma tuzilishi kerak. Bugungi kunda kadrlar faoliyatchanligini baholashda attestatsiya usuli keng tarqalgan. Ushbu attestatsiyani o'tkazish uchun rahbar buyrug'i bilan rais, sekretar (kotib) va boshqalardan tarkib topgan attestatsiya komissiyasi tuziladi. Ushbu komissiya tarkibini yuqori malakali mutaxassislardan, imtihon bo'layotganlarning bevosita rahbarlaridan, yuqori malakali ishchilardan va jamoa tashkilotlari vakillari tashkil etadi. Attestatsiya bo'layotgan har bir kishiga o'zining rahbari xarakteristika tuzadi, bu tavsifnomada o'sha kishining ijtimoiy ish faoliyati o'z aksini topadi.

Attestatsiya bo'layotgan ishchi avvaldan, (bir hafta oldindan) tavsifnoma bilan tanishishi shart. Komissiya ushbu materiallarni ko'rib chiqadi, attestatsiya bo'layotgan kishini tinglaydi va quyidagicha qaror beradi:

o'zining mansabi talablariga javob beradi;

o'zining mansabi talablariga javob beradi ish sharoiti yaxshilaganida va komissiyaning tavsiyalarini bajo keltirganida, 1 yildan so'ng qayta attestatsiya qilinadi;

o'z mansabi talabiga javob bermaydi.

Komissiya ba'zi ishchilarning martabasini yuksaltirishga va ba'zi xizmatlari uchun taqdirlashga va boshqa ishga o'tkazishga tavsiya qilishi mumkin.

Menejerlarning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini yana ham obyekitiv baholash uchun attestatsiyadan tashqari boshqaruv amaliyotida uch guruhga bo'linadigan turli xil usullar qo'llaniladi:

**1- guruh.** Xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholaydigan, obyektiv xarakterga ega bo'lgan ta'rif beruvchi yoki sifat usullarini o'z ichiga oladi. Ularga „kadrlar hisob varag'i“ va „Avtobiografiyadagi“ boshqaruvchi talabiga da'vogarlik qiluvchi nomzodning biografik ma'lumotlarini o'rganish, rahbarlardan o'sha odam haqida ma'lumot yig'ish kiradi.

**2- guruh.** Xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini yetarli darajadagi obyektivlikdan miqdoriy bahosining aniqlashini ta'minlaydi. Eng ko'p tarqalgan usul ball bo'yicha baholash usulidir. Bu usul bo'yicha xodimning har bir bajargan vazifasi va erishgan yutuqlariga qarab ballar qo'yilib boriladi va uning o'rtacha balli chiqarilib aniqlanadi.

**3- guruh.** Yuqoridagi 2 ta guruhni, ya'ni ta'rif beruvchi va miqdoriy usullarni o'z ichiga oladi. Ulardan eng ko'p tarqalgani test usuli bo'lib, oldindan tayyorlab qo'yilgan masalalar natijalariga qarab baho beriladi. Ishbilarmonlik o'yinlari usuli — qo'yilgan ishlab chiqarish masalasi yoki nizoli vaziyatga berilgan to'g'ri javobga qarab baho qo'yiladi. Rahbarlar va mutaxassislarning ishbilarmonlik hamda shaxsiy xususiyatlarini ball bo'yicha baholash uchun xodim xususiyatlarini ball bo'yicha baholash yoki attestatsiya o'tkazish bilan aniqlash mumkin. Buning uchun xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholash uchun eng kamida 2 ta qo'l ostidagi

ishchisi, 2 ta rahbari va 2 ta hamkasbini baholashlarini hisobga olishadi. Oxirgi natijaviy bahoni komissiya beradi. Kadrlarni baholash kriteriyasi bitta bo'lishi kerak, ya'ni konkret ishlar.

Attestatsiya menejerlarning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholash usuli bo'lishi bilan birga ularni qayta tayyorlashga yo'naltiriladi. Menejerni tayyorlash va qayta tayyorlash — bu ta'limning ilmiy asoslangan tizimi bo'lib, ma'lum sohada faoliyat ko'rsatish uchun bilim, tajriba va yo'l- yo'riq o'rgatadi.

Menejerlarni qayta tayyorlash va tayyorlashdan asosiy maqsad ularning nazariy bilimlarini oshirish, fan va texnika sohasida erishilgan yutuqlarini to'la-to'kis qamrab olish, boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etishdan iborat.

Bozor iqtisodiyoti kadrlar tayyorlash tizimiga yangi talablar qo'yadi, bu tizimda universitet va institutlar alohida o'rin egallashi lozim, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida yangi tipdagi, iqtisodiyotni yaxshi biluvchi, boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik usullari va texnika vositalarini qo'llay oluvchi menejerlar tayyorlanishi lozim.

Boshqaruvni islohat qilish sharoitida o'quv jarayoni mazmuni va uni tashkil etishga qonunda ta'kidlab o'tilganidek: korxona kadrlar kasbiy mahorati va madaniy darajasi uzluksiz o'sib borishi haqida doimo g'amxo'rlik qiladi, xodimlar malakasi va ishlab chiqarish manfaatlarini hisobga olgan holda ular lavozimini o'zgartirib boradi. Bu maqsadda korxona kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi va bevosita ishlab chiqarishda o'quv yurtlarida xodimlar malakasini oshirishga imkon yaratadi, o'quv-uslubiy bazani kengaytiradi, biznes maktablari, kurslar, markazlar tashkil etadi. Korxona o'quv jarayonini ish bilan qo'shib olib borish uchun zarur sharoit yaratadi va qonunda ko'zda tutilgan imtiyozlar beradi. Ishchilar o'z xohishlariga ko'ra o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlariga, shuningdek stipendiya to'lash sharti bilan aspiranturaga yuborishlari mumkin. Korxona yoshlarni mehnatga tayyorlash, kasbga qiziqishlarini shakllantirishda o'quv yurtlariga yordam ko'rsatadi.

Mutaxassis egallagan bilimlar tez eskirgani sababli, uni doimo takomillashtirib borish lozim. Agar rahbar o'z bilimini takomillashtirib bormasa, eski bilimlariga tayanib qolishi, ishlab chiqarish bundan zarar ko'rishi mumkinligini tajribada ko'rish mumkin. Olingan maxsus bilimga doimo to'ldirilib borilishi lozim bo'lgan asos sifatida qarash kerak. Bozor munosabatlari sharoitida texnik ma'lumotga ega bo'lgan ishlab chiqarish rahbarlari ayniqsa iqtisodiyot, marketing, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish masalalarini chuqur o'rganishlari kerak.

O'z dunyoqarashini kengaytirish bo'yicha mustaqil ishlash ham katta ahamiyatga egadir.

**Menejer mehnatini tashkil etish mexanizmi**

Menejer mehnatini tashkil etishda boshqaruv apparatidagi har bir ijrochining ishi cheklangan va nisbatan bir turda bo'lishiga erishish talab qilinadi. Bu mehnat unumdorligi ortishi, ish sifati yaxshilanishi va har bir ijrochi tajribasi ortib borishiga imkon yaratadi. Ixtisoslashuv majburiyatlar doirasini shunday belgilash lozimki, bunda har bir ishlovchi masalasi imkoni boricha to'liq ishga solingan bo'lsin.

Mehnatni kooperatsiya qilish boshqaruv tashkilotlari bilan boshqaruv apparati turli bo'linmalari xodimlari o'rtasida aloqa o'rnatilishini nazarda tutadi. Boshqaruv jarayonida, ham shu korxonada, ham undan tashqaridagi alohida xodimlar, xizmat va bo'linmalar faoliyati birlashtiriladi.

Menejerlar mehnati taqsimlash va kooperatsiya qilish yo'llari tarkibiy bo'linmalar haqida qoidalar hamda boshqaruv apparati xodimlari lavozim qo'llanmasi tomonidan belgilangan bo'ladi. Korxonalar to'g'risidagi qonun asosida korxona va uning bo'linmalarida har bir rahbar, mutaxassis va texnikaviy ijrochi uchun lavozim qo'llanmalari ishlanadi. Lavozim qo'llanmalari, huquq va majburiyatlari yakka boshchilik tamoyili asosida mansabdor shaxslarning bo'ysunishi, topshirilgan vazifa uchun javobgarligi belgilanadi.

Lavozim qo'llanmalari va qoidalar davriy ravishda qayta qurilib, ishlab chiqarish, mehnat hamda boshqaruv jarayonlari takomillashib borganligini hisobga olgan holda tuzatilib, to'ldirilib berilishi kerak.

Boshqaruv apparati mehnatini maqbullashtirishga yagona yondashuvni ta'minlash maqsadida ta'rif-malaka ma'lumotnomasi ham qo'llanilib, ularda xodimlar bajarishi lozim bo'lgan ishlar

hajmining murakkabligi, rahbarlik lavozimi turli boshqaruvchilik vazifalarini bajaruvchilar uchun talab etiladigan daraja hamda ish staji ko’rsatiladi.

Boshqaruv ishi texnologiyasida ish vaqtining katta qismi (70%) hujjatlar bilan ishlashga sarflanadi. Shu sababli hujjatlar almashinuvini doimo takomillashtirib borish lozim.

Menejer mehnatiga, shuningdek, korxona va tashkilotda axborot oqimlari yo’nalishi va hujjatlar aylanish texnologiyasi maqbulligi ham katta ta’sir ko’rsatadi. Bu yerda hujjatlar o’tadigan bosqichlar sonini ularni birlashtirish natijasida qisqartirish katta samara berib, natijada asoslanmagan muvofiqlashtiruv bartaraf etiladi. Agar muvofiqlashtirish muhim bo’lsa, hujjatlar o’tish bosqichlari o’rnini almashtirish ham yaxshi natija beradi.

Hujjatlar almashinuviga ketadigan vaqtni qisqartirish maqsadida ular o’tish texnologiyasi, axborot uzatilishining maqbul yo’llari belgilanadi. Rahbar faqat boshqalarga topshirish mumkin bo’lmagan hujjatlarga imzo chekadi. Xatlar tayyorlash bilan bog’liq ish vaqtini tejashda maxsus namunali matnlar standart blanklardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Korxona va tashkilotlar o’rtasida yozishmalarda kelgan hujjatning javobi bilan qaytarish keng qo’llaniladi.

Hujjatlarni bir xillashtirish va standartlash — menejer mehnatini tashkil etishning muhim yo’nalishidir. Standart blanklarni qo’llash xatolar kamayishiga va natijada boshqaruv xarajatlari qisqarishiga olib keladi.

Axborot hajmi muntazam ortib borayotgan sharoitda menejer mehnatini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ayniqsa muhimdir. Mutaxassislar fikriga ko’ra boshqaruv apparatida tashkiliy va hisoblash mashinasi, aloqa vositalari yordamida 70% ishni mexanizatsiyalash mumkin ekan. Menejer mehnatini takomillashtirishni hisobga olib, ish stollari, uskuna, javon, kartotekalar qulay va qo’l yetadigan qilib joylashtirilishi kerak.

Ish joylari joylashtirilishi va ularni texnika vositalari hamda yordamchi uskunalar bilan jihozlashda uzluksiz ishlashni ta’minlash talablarini hisobga olinishi kerak. Tajribadan ma’lumki, ish joyini texnologiya, ergonomika, psixofiziologiya, estetika talablariga muvofiq joylashtirish mehnat unumdorligini oshirish (50% va undan ko’pga) imkonini beradi.

Boshqaruv apparati mehnati uchun sanitar-gigiyena me’yorlari, harorat, namlik, yorug’lik me’yorlari, shovqin darajasi, shuningdek mehnat va dam olish tartiblarini hisobga olgan holda sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Mehnat unumdorligiga — psixologik omil, xodimlar va rahbar, shuningdek xodimlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar ham katta ta’sir ko’rsatadi. Ularning kayfiyati, mehnat faolligi, oxir natijada mehnat natijalari bu omilga bog’liq bo’ladi.

Boshqaruv samaradorligi, asosan, rahbar o’z vazifasini qanchalik muvaffaqiyatli bajarish bilan bog’liq bo’ladi. Hozirgi davr menejeri mehnat va boshqaruvni tashkil etishning yangi ilmiy va texnikaviy yechimlari, usullarini qo’llashi, ishlab chiqarish imkoniyatlarini iqtisodiy ravishda kengaytirishi lozim. Menejer ham tashkilotchi, tarbiyachi, ham izlanuvchi, ma’muriyatchi sifatlariga ega bo’lishi kerak.

Menejerlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar murakkabligi va javobgarlik ortishi bajariladigan ishlarning turli-tumanligi ulardan vaqtning unumli taqsimlanishini talab qiladi. O’z faoliyatini reja-lashtirishni bilmaydigan, faqat joriy masalalar bilan shug’ullanuvchi menejerlar faqat boshqaruv jarayonida vujudga keluvchi u yoki bu vaziyat natijalarini tahlil qilishgagina ulgurib, kelajakda qilinishi lozim bo’lgan ishlarni hal etish uchun vaqt yetishmaydi.

Menejer faoliyati maqsadini belgilashda avvalo undan yuqoriroq boshqaruv tizimi oldida turgan vazifalardan kelib chiqishi lozim, chunki aks holda butun tizim faoliyatiga to’g’ri kelmaydigan (yoki qarama-qarshi) ish ko’rishi mumkin.

Rahbar ishi sur’atining tezligi uning mehnat faoliyati to’laqonli dam olish bilan, shuningdek ish kuni davomida mehnat turlari almashinishini talab etadi, chunki faqat shunday qilinganda mehnat yuqori samarali bo’lishi, ish qobiliyati to’liq tiklanishi mumkin.

Menejer mehnatida maqbul ish sur’atini o’rnatish, u amalga oshiruvchi harakatlarning doimiy tartibini o’rnatish juda muhimdir.

Menejer ish vaqtining katta qismi hujjatlar bilan ishlashga sarflanadi. Olinuvchi axborot (xat, farmoyish, hujjat va hokazolar) hajmi juda katta. Bunday holda axborotni „filtrdan“ o’tkazish juda muhimdir. Rahbarga faqat u hal qilishi mumkin bo’lgan axborot berilishi lozim. Bu bosqichda rahbarga axborotni ijrochilar o’rtasida taqsimlovchi kotib yoki yordamchi (referent) katta yordam

ko’rsatadi. U malakali xodim bo’lishi, boshqaruvning barcha bo’linmalari va tashkilotlari faoliyati xususiyatini bilishi lozim.

Rahbar va unga bo’ysunuvchi boshqaruv apparati o’rtasida majburiyatlarni maqbul taqsimlash rahbar ish vaqtini samarali sarflashda imkon beradi. Ijrochilarga mavjud qonunchilik doirasida iloji boricha ko’proq hujjatga imzo chekishi uchun imkon berishi kerak. Bu rahbar vaqtini tejash, ijrochilar tashabbuskorligi va javobgarligini oshirish imkonini beradi.

Menejerlar faoliyatida turli-tuman yig’ilish va majlislar muhim o’rin egallab, ularga ish vaqtining 70%i sarf bo’ladi. Shu sababli, majlislarni to’g’ri tashkil etish uchun quyidagilarga alohida e’tibor berish lozim.

Majlisda ko’riladigan masala faqat jamoa tomonidan hal etiladigan muammodan iborat bo’lishi kerak. Bu muammo bitta majlis davomida hal etilishi lozim.

Majlis qatnashchilari muhokama etilayotgan muammo bo’yicha yetarli tajriba va bilimga ega bo’lishlari kerak.

Majlisda ko’riladigan masalalar mavzusi qatnashchilarga ular tayyorgarlik ko’rish uchun vaqtga ega bo’lishlari uchun avvaldan e’lon qilinishi lozim.

Yig’ilish o’tkaziladigan sana, vaqt va joy avvaldan ko’rsatilishi lozim, chunki uning qatnashchilari o’z ish vaqtlarini rejalashtirishlari kerak.

Yig’ilish rahbari avvaldan yig’ilish maqsadi va o’tkazilish shaklini belgilash lozim.

Yig’ilish o’tkazilish tartibi, erkin, ishchan muhokama uchun sharoit yaratish ham muhimdir.

Rahbarning ko’plab majburiyatlari ichida tashrif qiluvchilarni qabul qilish va suhbat o’tkazishni alohida ajratib ko’rsatish lozim. Qo’l ortida ishlovchilar tashabbusi bilan qabul qilish uchun alohida vaqt ajratish muhimdir, chunki „ochiq eshiklar siyosati“ tashqaridan demokratik xususiyatga ega bo’lsada, ish vaqtini noto’g’ri sarflashga olib keladi. Suhbat davomida rahbar savollar berish yo’li bilan xodimlardan ular niyatini aniq bilib olishi, o’z iltimos yoki takliflarini asoslab berishiga intilishi kerak. Agar suhbat rahbar tashabbusi bilan amalga oshadigan bo’lsa, xodim suhbat vaqti va maqsadi haqida ma’lumotga ega bo’lishi kerak. Bu xodimga masala mazmuni bo’yicha tayyorgarlik ko’rish psixologik tanglikka duch kelmaslik uchun imkon yaratadi. Suhbat davomida o’zaro ishonch muhitini yaratish u muvaffaqiyatli bo’lishiga imkoniyat beradi. Bunda rahbar suhbat maqsadi va xodimning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Suhbat oxirida rahbar albatta muhokama etilgan masala bo’yicha erishilgan natija va uni keyincha hal etish yo’llarini qayd qilib qo’yishi kerak.

Rahbar mehnati samaradorligining muhim omillaridan biri — qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilishni tashkil etishdir. Nazorat rahbarning doimiy vazifasi bo’lib, uning ish rejasida hisobga olinishi lozim hamda materiallar bilan tanishuv, shaxsan ma’lumot berish uchun qabul qilish, inspeksiya qilish yo’li bilan amalga oshiriladi. Nazorat qilishning qulay shakli — topshiriqlarni maxsus muddatli kartochkalar va perfokartalar vositasida hisobga olishdir.

Rahbar butun jamoa va boshqaruv apparati osoyishta ishlashi uchun sharoit yaratishi lozim, chunki butun boshqaruv tizimi va natijada butun ishlab chiqarish samaradorligi shu narsaga bog’liqdir.

**Tayanch iboralar:**

Rahbar, lider, boshqarish, tamoyil, qonuniyat, mehnat, qaror, bozor, menejer, usul, talab, nazorat, shaxs, jamoa, majlis, mutaxassis, tajriba

**Nazorat uchun savollar:**

1. Rahbarlik sifatlarini ayting
2. Boshqarish qonuniyatlarini bilasizmi
3. Boshqarish tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
4. Xo’jalikni samarali va maqbul olib borish tamoyilini kim biladi?
5. Yechilayotgan masalalar zanjirida asosiy bo’ginni aniqlay olish tamoyili kim biladi?
6. Qabul qilinadigan qarorlarning obyektivligi va ilmiyligi tamoyilini kim biladi?
7. Mehnatni moddiy va ma’naviy rag’batlantirish tamoyili haqida nimani bilasiz?
8. Boshqaruv qarorlarining bajarilishini nazorat qilish tamoyilini kim biladi?
9. Tizimchanlik tamoyilini ayting
10. Boshqarish usullarining mazmunini ayting
11. Boshqarishning tashkiliy - ma’muriy usullarini kim biladi?

12. Ijtimoiy - ruhiy boshqarish usullarini ayting
13. Boshqaruv funksiyalari (vazifalari)ni kim biladi?
14. Bozorning menejerlarga bo’lgan talabini ayting
15. Attestatsiya — menejerlarning shaxsiy va ishbilarmonlik faoliyatini baholash usuli sifatida
16. Menejer mehnatini tashkil etish mexanizmini kim biladi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. KarimovaV.M. «Psixologiya».O`quv qo`llanma. T.: 2002 y.
2. Maqsudova M. A. Muloqot psixologiyasi T.: 2006
3. Kvinn V. Prikladnaya psixologiya. - SPb., 2000
4. Mashkov V.N. Psixologiya upravleniya. SPb, 2000
5. Mixeev V.I. Sotsialno-psixologicheskie aspekti upravleniya. Stil i metod raboti rukovoditelya. M., 1975
6. Gamilton. YA.S. “CHto takoe psixologiya”. “Piter”, 2002.
7. Ananev B.G. “CHelovek kak predmet poznaniya”. “Piter”, 2001.
8. Drujinina V. “Psixologiya “. Uchebnik. “Piter”, 2003.
9. Burlachuk F. Psixodiagnostika. “Piter”, 2002.

## 15-MAVZU MEHNAT PSIXOLOGIYASI

### REJA:

1. **Mexnat psixologiyasi tarixi.**

**2. Mexnat psixologiyasining fan sifatidagi predmeti.**

**3. Mexnat psixologiyasining boshka fanlar bilan alokadorligi**

**4. Mexnat psixologiyasining asosiy va yordamchi metodlari**

Mexnat psixologiyasini urganishda 1 chi bulib inson ya’ni uning mexnat faoliyati etadi. Insonning mexnat faoliyatini urganishda yana boshka fanlar xam ishtirok etadi. Bular sotsial va biologik fanlardir: mexnat protsessida fiziologiya mexnat gigienasi, ekonomika, mexnat xukuki, mexnat muxofazasi, etika, sotsiologiya,mexnat tarbiyasining nazariyasi, inson mexnat faoliyatining paydo bulishida va rivojlanishida arxeologiya va madaniyat tarixi fanlari asosiy rol uynaydi. Bu tugrida B.G.Ananev shunday fikr bildirgan edi: "Gapimiz xaet va amaliet xakida borar ekan, biz albatta mexnat faoliyatining butun borligicha urganish uchun fakat sotsial,psixologik , fiziologik fanlarning uzigina kifoya emas".

### Mexnat psixologiyasining paydo bulishi va rivojlanishi.

Mexnat psixologiyasi I.M.Sechinov nomi bilan uzviy boglikdir.Tabiat psixologik protsesslari bilan kizikuvchi I.M.Sechenov,ularni urganishda asosan mexnat faoliyatida ularning roliga karatdi va birinchi bulib, ularni urganishda ya’ni tabiatida regulyatsiya xarakterli ekanligini kursatib berdi. I.M.Sechenov yangi tushunchani oldinga surdi, u yaxshi xordik chikarmok mexnat faoliyatining saklanib kolishi va uning usishiga katta omil ekanligini kursatib berdi. Mexnat faoliyatining keyingi etapi uning chet elda paydo bu-

lishi,usishi bilan keyinchalik esa bizning mamlakatimizda psixotexnika degan nom (ostida) olishi bilan boglikdir. Psixodiagnostika 20 asrning 1 chi yillarda paydo buldi. Uning usishida psixologiya va fiziologiyadagi faktlar, ya’ni ilmiy faktlarga , anikrok kilib aytganda ishlab chikarishning xar xil soxalarida, meditsinada, pedagogikada yigilgan faktlarga asoslanadi. Mexnat faoliyatining keyingi etapi chet elda kapitalizmning eng yukori pagonasi ya’ni imperializm boskichiga utishi bilan xarakterlidir. Chunki bu jaraenda rakobatning kuchayishi natijasida kapitalistlar ishchilar mexnat faoliyatining usishi, foyda mikdorining kupayishi uchun bor kuchlarini ya’ni imkoni yatlarini ishga soldilar.

Psixotexnikaning eng axamiyatli joyi shundaki, u kasb urganish va mutaxassis tanlashdir. Bu bulimlarni urganishda ajoyib psixologik Gugo Myunsterbergning ishlarini aytib utish joizdir. U mutaxassis tanlashda ya’ni telefonchi, vagon etaklovchi, dengiz shturmanlari mutaxassisligi uchun maxsus testlar ishlab chikdi. Uning bir ishi xammaning kizikishini uygotadi. U tramvaychilar uchun ya’ni ularni tanlash uchun xarakat tezligini baxolash ikkinchi tomomndan esa extietkorlik ekanligini ta’kidladi. Usha paytda ilmiy laboratoriyalar bilan cheklanib kolmay, balki amaliet bilan boglanish shu davrning ijobiy tomonlaridan biri edi.Bu tugrida xar xil maxsus jurnallarning nashr kilinishi, xar xil psixotexnik kongresslarning tashkil etilishi buning anik va

yakkol misoli edi. Bizning mamlakatimizda psixotexnika laboratoriyalari 20-yillarda rivojlandi.Chunki bu davrga kelib psixotexnika xakidagi bilimlar ancha oshdi. Moskvada, Sankt-Peterburgga , Kozonda, Xarkovda 1-chi laboratoriyalar paydo buldi. 1927 yilli Butun Rossiya psixotexniklar jamoasi tuzildi va "Mexnat psixofizikasi va psixotexnika" jurnali nashr etildi. Bora-bora yillar utgan sari psixotexnika rivojlanib, bu borada bilimlarimiz ancha oshdi.

**Mexnat psixologiyasining predmeti va sistemasi.**

Ukuv maksadi-Mexnat psixologiyasining asosiy predmetlari vazifalarini, uning soxalar sistemasini tushunish va malakali ishchilar tayerlash yuzasidan olib boriladigan pedagogik faoliyatda uz ixtisosi buyicha ularni xal kilishda bevosita ishtirok etish. Mexnat psixologiyasining predmeti. Mexnat psixologiyasi psixologiya fanning bir soxasi bulib, turli mexnat faoliyatlaridan uziga xosligini ijtimoiy tarixiy va konkret ishlab chikarish sharoiti, mexnat kuroli, mexnat ta’limi metodlari xam psixologiyaning mexnatkash shaxs psixologik sifatiga kura urganadi. Mexnat faoliyati - psixologik moxiyati mexnatkash shaxsi xususiyatlari ( uning kasbiy kobiliyati sifatida) xamda uning ishlab chikarish muxiti bilan uzaro xamkorligi mexnat psixologiyasining predmetini tashkil kiladi. Mexnat faoliyatining psixologik moxiyati mexnatkashga uning kasbi takozo kiladigan psixik xususiyatlarga , xolat va protsesslarga kuyiladigan talablardan iborat buladi.Ishlab chikarish faoliyatining, xar xil turlari (kasb va ixtisoslar) uni muvaffakiyatli amalga oshirish uchun ishchi shaxsning turli tuman xususiyatlarini: uning maksadga yunaltirilganligi, tajribani, xarakterni, kobiliyatni, psixik xolatlarni, dikkat e’tiborni, tasavvurni, xotirani fikrlashni, emmotsionalikni va psixomotorikani talab kiladi- bu mazkur faoliyatga kobiliyatni belgilaydi.

Mexnatkashning psixik xususiyatlari psixik protsesslarining xolati va xususiyati turlicha, ularning ishlab chikarish faoliyati esa, muayyan sifatlarni talab kiladi. Ishlab chikarishda mexnatkashlarga kuyadigan talabi va mexnatkashning bu talablarini bajara olish imkoniyatlari urtasida karam-karshilik paydo buladi.Bu uzlashtirilaetgan mexnat turiga laekatli yoki professional ta’lim jaraenida xam psixologik amaliy faoliyat davomida talab kilinadigan shaxsiy sifatlar rivojlanishi mumkin texnologiyasi va texnik vositalarni insonning umumiy psixik xususiyatiga moslashtirish zarurati ana shundan kelib chikadi. Ishlab chikarishda mexnatkashga kuyadigan talabi bilan mexnat kashning talabni kondiradish imkoni urtasidagiziddiyatni yukolgan mexnat psixologiyasining birinchi asosiy problemasidirki, uni xal kilish u stida psixolog mutaxassislargina emas balki, injenerlar, texniklar, novotor ishchilar va xunar texnika ta’limi pedagoglari xam ishlamokdalar. Bu problemani xal kilish talablardan texnika vositalariga va ishlab chikarish texnologiyasiga boglikligi tufayli murakkablashib boradi. Texnika vositalari va ishlab chikarish texnologiyasi uzgarib turadi, ular ayni paytda ishchilar psixikasiga bulgan talabni xam uzgartiradi. Uz navbatida psixika xam ma’lumotlar,tajribalar oshi-shiga, shaxs munosabatlaridan uzgarishiga karab uzgarib turadi. Ishchilar uzaro xamkorlik kiladigan ishlab chikarish muxiti bu

eng avval ular bilan birgalikda bitta ishlab chikarishi zvenosida brigadada xamda umuman ishlab chikarish kollektivida ishlaydigan kishilardir. Kollektiv uzining xar bir a’zosiga muayyan talablar kuyadi. Kollektiv va shaxsning uzaro xamkorligidan mexnat psixologiyasining 2 chi muxim problemasi-ishlab chikarish protsessida shaxslararo kulay munosabat xamda kooxonada kulay sotsial psixologik muxit yaratish problemasi vujudga keladi.

